ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

3-son
(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4 Boshlang'ich ta'lim – kelajakka qo'yilgan qadam

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

B. Ergashev 6 Professional ta'lim tizimida raqobatbardosh bitiruvchilarni shakllantirish strategiyalari

A. Abdullayev 9 Ta'lim klasteri uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining qismi sifatida

Y. Nurumbekova 12 Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatiga qo'yiladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar mazmuni

B. Umarov 15 Kommunikativ kompetensiyalar va ta'lim dasturlari uzluksizligi

O. Suvonov 18 Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. G'afurova 21 Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish

A. Mo'minxo'jayev 24 Chet tillarini o'qitishdagi samarali interfaol metodlari

Sh. Normatova 27 Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish amaliyotida realiyalar madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi sifatida

Sh. Bekmuratova 30 Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimi

Sh. Tahirova 33 Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga hujjatlarning ma'lumot-axborot turlaridagi qoliplashgan so'z birikmalarini o'rgatish

J. Husanov, N. Shamsiddinov, M. Yakubova 36 O'quvchilarning algebra masalalarini yechishda yo'l qo'yayotgan xatoliklarining tahlili

MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

S. Axmetova 41 Oilada ota-onaning obro'si – milliy tarbiyaning asosi

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Yakubjanova 44 O'qituvchi-surdopedagoglarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni

TA'LIMDA MENEJMENT

E. Rasulov 47 Loyihaviy boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy etishning mohiyati va nazariy asoslari

A. Kubayev 51 Ta'lim muassasalari rahbarlarining muloqot madaniyati

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

A. Xoliqov 54 Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarni mustaqil kasb tanlashga tayyorlashning metodik bosqichlari

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

O. Mallayeva 57 Xalq ta'limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish muammolari (malaka oshirish misolida)

S. Jumanazarov	**62**	Malaka oshirish tizimida o‘quv-uslubiy majmualar mazmunini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari
D. Abdullayeva	**65**	O‘qituvchilar malakasini oshirishda elektron vositalaridan foydalanishning pedagogik sharoitlari va xorijiy tajribalar



MAKTABGACHA TA’LIM

M. Fayzullayeva	**70**	Uzluksiz ta’lim tizimida “Maktabga tayyorlov” guruhi uchun nutqni rivojlantirish ta’limiy faoliyati dasturi asosida ishlanma tayyorlash
S. Rahimova	**75**	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning asosiy omillari



TA’LIMDA MUTOLAA MADANIYATI

A. Samadov G. Qodirova	**78**	Mutolaa madaniyatini shakllantirish va targ’ibot qilishning dolzarb masalalari



ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

G. Taylakova	**82**	Multimediyaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarni shakllantirishning ayrim muammolari
N. Kazimova	**86**	Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tadbiq etish



PSIXOLOGIYA

A. Kenjaboyev, N. Safarov	**89**	O‘qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi
O. Nazarova	**93**	Talaba-yoshlarning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi
F. Babajanova	**97**	Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatida intellektni o‘rni
M. Ismailov	**103**	Bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogin tafakkurini rivojlantirishda refleksiv yondashuv mohiyati



QIYOSIY PEDAGOGIKA

J. Tursunov	**107**	Finlyandiya ta’lim tizimini o‘rganish orqali o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish masalalari



KORREKSION PEDAGOGIKA

F. Qodirova	**111**	Ta’lim klasteri vositasida kar va zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash
M. Jalilova	**115**	Bo‘lajak logoped o‘qituvchilarning nutqida nuqsoni bor bolalar ota-onalari bilan hamkorlikni tashkil etish texnologiyasi
G. Salihova	**120**	Imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb etishda ota-onalarning roli



XALQ PEDAGOGIKASI

B. Saidova	**124**	Turkiston ma’rifatparvarlik harakati g‘oyalarida ayollar ta’limi masalasining faollashtirilishi
Z. Xudoyqulova	**129**	Bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-axloqiy sifatlari tahlili



ЗДОРОВЬЕ В ОБРАЗОВАНИЕ И БЕЗОПАСТНОСТЬ

Д. Шарипова	**133**	Использование здоровьесберегающих знаний старшеклассников с помощью QR-кода в черезвычайных ситуациях



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Я. Фахриддинов	**136**	Научно-теоретические основы диагностики подготовки профессионалов



НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

С. Холбоева	**141**	Подготовка студентов к семейной жизни в особой национальной среде

ABDULLA AVLONIY MEROSI – TA'LIM-TARBIYA XAZINASI

RIYOZAT

Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilur. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur. Insonlarni to'g'ri yo'lga solub, egri yo'ldan qaytarguvchi riyozatdur. Shul sababli riyozat qilguvchilar oqil va fozil bo'lur. Yalqovlik, ko'p uxlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtni bekor o'tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko'p oshamak, foydasiz so'zlar so'zlamak, samovarlarda, ko'chalarda aziz umrni bo'sh otkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi.

SHIJOAT

Shijoat deb botir va yurakli bo'lmakni aytilur. Shaji kishi hech narsadan qo'rqmaydurgan botir va yurakli bo'lur. Sa'y va g'ayratning ziddi dangasa va yalqovlik o'ldig'i kabi shijoatning ziddi qo'rqoqlikdur. Qo'rqoq savdogar foyda qilmas. Qo'rqoq kishi o'zining soyasidan hurkar, hech bir ish qilishga yuragi bo'lmas. Shijoat insoniyatning sof oyinasi, iffat, g'ayrat, istiqomat kabi yaxshi xulqlarning nuroniysidur.

QANOAT

Qanoat hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g'inosidur. Qanoat bir xazinadurki, naqdinasi kundan-kun ortar. Bu xazinaga ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar. Buning ila barobar qanoatsizlikdan paydo bo'ladurgan hasad degan jonning eng zo'r dushmanidan qutulurlar.

ILM

Ilm deb o'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur.

SABR

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur. Inson har bir ishni sabr va matonat ila yurutsa, maqsudiga tinch va rohatda borub yetar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylandurmakg'a quvvati yetar.

HILM

Hilm deb bo'lar-bo'lmas ishga achchig'lanmaydurgan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo'lmoqni aytilur. Hilm insonlarning tab'idan xusumat, adovat, g'azab, hiddat

kabi yomon xulqlarni yo‘q qiladurgan har kimcha maqbul bir sifatdur. Hilm ilmi axloq yuzasidan insonga eng kerakli narsadur. Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bo‘lmoq ila hosil bo‘lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo‘lsa ham, o‘zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas. Fikri salomat kishilarning qalbi halim, tab’i karim o‘lur. Dunyoda chin inson bo‘lmak uchun havasning qo‘liga nafsning jilovini bermaydirgan, bo‘lar-bo‘lmas narsalardan achchig‘lanmaydurgan, sovuqqonli, yumshoq tabiatli, muloyim so‘zli, halim va sabrli bo‘lmak lozimdur.

INTIZOM

Intizom deb qiladurgan ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartibi ila yurutmakg‘a bog‘lidur. Shogirdlar maktab va madrasalardagi zamonga muvofiq ravishda qurilmish, nizom va tartiblarni rioya qilmaklari lozimdur.

MIQYOSI NAFS

Nafs o‘lchovi haqiqiy bir o‘lchovdurki, insonning o‘z nafsiga loyiq ko‘rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg‘a qo‘ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o‘lchovidan tashqari harakat qilmas.

VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta’sir qiladurgan hissiyot, ya’ni sezuv – tuymaqdan iborat ma’naviy quvvatni aytilur. Biz har vaqt af’ol va harakotimizni yaxshi va yomonlig‘ini, foyda va zararlig‘ini onjaq vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o‘z kamchiliklarini o‘lchab bilmak ila barobar boshqalarning ham af’ol va harakotini sezur. Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o‘ldig‘indan vijdon sohiblari har bir ishni beg‘araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo‘lur. Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida niyat va amallarida, do‘st va oshnoliqlarida yashirin bir g‘arazlari o‘ldig‘indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig‘a giriftor bo‘lurlar.

HAQQONIYAT

Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdur.

Xulosa qilib aytganda, insonni bezab turadigan, uning kimligini namoyon etadigan eng go‘zal xislatu fazilatlar, bu – shubhasiz, ta’lim-tarbiya, odob-axloqdir. Shu bos ajdodlarimiz, xususan, ma’rifatparvar bobolarimiz ana shu jihatlarga alohida e’tibor qaratishgan.

Abdulla Avloniyning yuqorida keltirilgan ta’rifu tavsiflari, o‘ylaymizki, ta’lim tizimida ishlaydigan barcha xodimlarga manzur bo‘ladi. Bu so‘zlar pedagogika bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan ta’lim fidoyilariga yangi-yangi ilmiy mavzularga asos bo‘ladi.

Bobirjon ERGASHEV,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, texnika fanlari nomzodi, dotsent

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA RAQOBATBARDOSH BITIRUVCHILARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada professional ta'lim tizimi bitiruvchilarini raqobatbardoshligini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari va strategiyalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Professional ta'lim, raqobatbardosh, kasbiy faoliyat, pedagogik strategiya, kasbiy tayyorgarlik, bitiruvchilar.

В статье рассмотрены особенности и стратегии формирования конкурентоспособности выпускников системы профессионального образования.

Ключевые слова. Профессиональная подготовка, конкурентоспособность, профессиональная деятельность, педагогическая стратегия, профессиональная ответственность, выпускники.

The article describes the specific aspects and strategies of shaping the competitiveness of graduates of the professional education system.

Key words. Professional training, competitive, professional activity, pedagogical strategy, professional training, graduates.

Yangilanayotgan O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotni umumiy yaxlitligi sifatida real shakllanishiga asos bo'lgan xalqarolashtirish, transmilliylashtirish va integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jiddiy tarkibiy o'zgarishlar tegishli raqobatbardosh ishchi kuchi mavjudligini talab qiladi.

Hozirgi kunda, abiturientlar uchun professional ta'lim tizimi o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib borayotgan bir paytda, tizim bitiruvchilarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi masalalarini dolzarblashtirish, ularni ish bilan ta'minlash muammolarini kuchaytirish, professional ta'lim muassasasining imkoniyatlarini targ'ib qilish, professional ta'lim tizimi bitiruvchilari – yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bunday holda, tizim amaliyotida bitiruvchining raqobatbardoshligini shakllantirish va rivojlantirish uchun strategik rejalashtirishning ahamiyati haqida gapirish mumkin. Ushbu ish zamonaviy mehnat bozorining har tomonlama diagnostikasini hisobga olgan holda va ta'lim xizmatlari bozorining imkoniyatlarini efirga uzatishga e'tibor qaratgan holda professional ta'lim tizimi va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning o'rnatilgan tizimiga asoslanadi.

Professional ta'lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligi ularning kasbiy faoliyati sohasidagi chuqur bilimlari, rivojlangan kasbiy va shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdagi doimiy o'zgarishlarga yetarli va tezkor javob berish qobiliyati, shaxsiy darajasining yuqori darajasi bilan ifodalanadi. Bitiruvchini tayinlangan ish vazifalarini

bajarishga nisbatan mas'uliyat bilan yondashish hamda o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, bu unga yuqori darajadagi malakani oshirishga zarur kafolatlar beradi va mehnat bozorining ma'lum bir sohasidagi muvaffaqiyatli mavqeini, uning yosh mutaxassis sifatida talabini ta'minlaydi.

O'rganishlar natijasi bo'yicha professional ta'lim tizimi tomonidan olib borilayotgan faoliyat, texnologiyalar, usullar va boshqa islohotlar tizimni bitiruvchilarining raqobatbardoshligi yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Shu sababli, ilgari bo'lmaganidek, talabalarning raqobatbardosh ustunliklarini birlashtirishga hissa qo'shadigan fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish orqali kasb-hunar faoliyatiga o'qitishning yangi modelini yaratish dolzarb vazifadir. Ushbu muammoning yechimini biz professional ta'lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirish bo'yicha pedagogik strategiyani ishlab chiqishda va uning asosida raqobatdosh professional ta'lim tizimi bitiruvchisini shakllantirish uchun strategik rejalashtirishni o'rta maxsus ta'lim amaliyotiga joriy etishda ko'ramiz.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan holatlar professional ta'lim tizimi bitiruvchilarining professional ta'lim amaliyotida raqobatbardoshligini shakllantirish uchun strategik rejalashtirishdan foydalanishdagi barcha qiyinchiliklarni hal qilish uchun professional ta'lim tizimi bitiruvchilari va ish beruvchilarning o'zaro kutishlarini o'rganishni dolzarblashtirmoqda. Ularga, avvalo, quyidagilar kiradi: raqobatdosh shaxsni shakllantirish uchun strategik rejalashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash; professional ta'lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirish bo'yicha pedagogik strategiyani va uni amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish; raqobatdosh professional ta'lim tizimi bitiruvchisiyosh mutaxassisni shakllantirish bo'yicha pedagogik strategiyani amalga oshirishda zarur yordamni ishlab chiqish.

Xorijiy va mahalliy yetakchi olimlarning ta'lim sifati bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor talablariga muvofiq professional ta'lim tizimi mutaxassislarini tayyorlashning raqobatbardoshligini aniqlashda katta chalkashliklar mavjud. Ta'limning raqobatbardoshligini aniqlashning eng keng tarqalgan usuli bu ta'lim muassasasi salohiyati xususiyatlari va o'quv jarayoni natijalari bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalanishdir.

Mehnat bozori talablariga muvofiq ravishda professional ta'lim muassasalari tomonidan mutaxassislarni tayyorlashning hozirgi darajadagi raqobatbardoshligi zamon haqiqati, jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Bundan tashqari o'qitish davomiyligi yoki mazmuniga emas, balki bitiruvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanadi. Davlat darajasida "davlat-ta'lim muassasasi-ish beruvchilar" zanjiridagi munosabatlarni muvofiqlashtirish vazifasi turibdi, bu esa mehnat bozori talablariga muvofiq professional ta'lim muassasasi tomonidan mutaxassislar tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi, obyekti, predmeti va gipotezasi asosida quyidagi vazifalarni o'rganish talab etiladi:

• professional ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlik jarayonida bitiruvchining raqobatbardoshligini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash va tavsiflash kerak;

• mahalliy va xorijiy professional ta'lim tizimi nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish asosida o'rganilayotgan muammo holatini baholash;

• konseptual asoslar, tarkibiy qismlar va amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga olgan professional ta'lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini ishlab chiqish va asoslash;

• professional ta’lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirish bo‘yicha pedagogik strategiyani amalga oshirish mexanizmlari va ta’lim texnologiyalarini aniqlash;

• tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar to‘plamini aniqlash va sinovdan o‘tkazish uchun ilmiy va uslubiy materiallarni ishlab chiqish;

• professional ta’lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirish bo‘yicha pedagogik strategiyani amalga oshirish;

• professional ta’lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirish bo‘yicha pedagogik strategiyani amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, asoslash va amalga oshirish;

• mezonlarni baholash va professional ta’lim tizimi bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirish bo‘yicha pedagogik strategiyani amalga oshirish samaradorligini tekshirish.

Bitiruvchining raqobatbardoshligi muhim tarkibining turli jihatlarini o‘rganib chiqib, biz ushbu nazariy tarkib quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi degan xulosaga keldik: professional ta’lim tizimi bitiruvchisining kasbiy qiziqishi; ishlashga motivatsiya; maqsadga muvofiqlik; shaxsning ijobiy qiymat munosabatlari; shaxsning ijobiy axloqiy munosabatlari; ijtimoiylik; yuqori samaradorlik darajasi; jamoada ishlash qobiliyatlari; tashkiliy ko‘nikmalar; yetakchilik qobiliyatlari; harakatchanlik; yuqori darajada o‘rganish; fundamental kasbiy tayyorgarlik; ijodkorlikning mavjudligi; yangilikka intilish; professional ufqni doimiy ravishda kengaytirishga intilishi; o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini rivojlantirish va o‘zini anglashga intilish; hayot va professional martaba rejalashtirish qobiliyati; stressga chidamlilik va qiyinchiliklarni yengish qobiliyati; muvaffaqiyatga intilish, shuningdek, “raqobatdoshlik” tushunchasining o‘zi ham, uning shakllanish jarayonining murakkabligi va ko‘p omilliligi bilan izchilligi, murakkabligi, fanlararoligi, ko‘p funksionalligi, ko‘p darajali va nisbiyligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan mezonlarga amal qilinsa, professional ta’lim tizimi bitiruvchisi raqobatbardosh bo‘lib mehnat bozorida o‘z o‘rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Oliy majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. –T., 29.12.2020-y.

2. Сигов А.С., Сидорин А.В.Основные требования к качеству инженеров для обеспечения конкурентоспособности организации с инновационной стратегией развития // Материалы Международной научно-технической конференции “Фундаментальные проблемы радиоэлектронного приборостроения”. 23-27 октября 2007 г. –М., 2007. –С. 38-45.

3. Ergashev B.B., Ismailova Z.K. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasi // Monografiya – Namangan nashriyoti.2019.

4. Ergashev B.B., Ismailova Z.K. Ta’lim menejmenti va ta’lim sifati sohalariga oid o‘zbekcha-ruscha-inglizcha izohli lug‘at//–Namangan nashriyoti 2020.

Abduqayum ABDULLAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri

TA’LIM KLASTERI UZLUKSIZ KASBIY TA’LIM TIZIMINING QISMI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada ta’lim klasteri uzluksiz kasbiy ta’lim tizimining qismi sifatida o‘rganilganligi haqida yoritilgan.
Kalit so‘zlar. Klaster, ta’lim, uzluksiz ta’lim, qism, universitet, muassasa, intellektual, baza, zaxira, integratsiya, innovatsiya.

В статье описывается, как образовательный кластер изучается как часть системы непрерывного профессионального образования.
Ключевые слова. Кластер, образование, непрерывное образование, кафедра, университет, учреждение, интеллектуальный, базовый, резерв, интеграция, инновация.

The article describes how the education cluster has been studied as part of a continuing vocational education system.
Key words. Cluster, education, continuing education, department, university, institution, intellectual, base, reserve, integration, innovation.

O‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi – bu universitet bazasidagi ta’lim muassasalari, ilmiy va tijoriy, innovatsion va boshqa tashkilotlarni birlashtirgan korporativ tipidagi tuzilmadir. U intellektual, moddiy va ishlab chiqarish zaxiralarini integratsiyasi uchun birgalikdagi innovatsion infratuzilmani tashkillashtiradi.

Natijada, quyidagi tamoyillarni bajarish asosida ta’lim jarayonining innovatsion mazmuniga erishishga imkoniyat paydo bo‘ladi:

– universallik – mutaxassislarni tayanch tayyorgarligini ta’minlovchi o‘quv darsliklar to‘plamining to‘laligi;

– ilmiy tadqiqotlar va o‘quv kurslari, ta’lim jarayonining mazmunan va tuzilmaviy-faoliyat birligining fanlararo kooperatsiyasi;

– variativlik – bu majburiy tayanch kurslari va keng spektrdagi maxsus o‘quv fanlarini tanlash bo‘yicha qo‘shimcha fanlarning moslashuvchan uyg‘unligi, o‘quv algoritmining turli-tumanligi, o‘quv hajmi, tezligi va shaklini erkin tanlash;

– ko‘p bosqichlilik – umumiy, maxsus va oliy ta’lim, aspirantura, doktorantura, oliy ta’limdan keyingi malaka oshirishning turli shakllariga kirishga tayyorgarlik.

Klaster tarkibiga kiruvchi tuzilmalar tashkilotlarning buyurtmalariga asosan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash; texnologiyalarni bozorga chiqarishda uni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazish muddatini qisqartirish; tajriba bazasini rivojlantirish hisobiga ilmiy natijalarning baholash darajasi ahamiyatini oshirish; proyekt boshqaruvi tamoyili asosida xususiy-davlat hamkorligi munosabatlari tizmida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Quyidagilar o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi subyektlarining pedagogik hamkorligi shartlari hisoblanadi:

– ijtimoiy hamkorlik va o‘quv muassasalari, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarining (bozor munosabatlari paradigmasi asosida) o‘zaro foydali hamkorligi tamoyillarini amalga oshirish;

– ishlab chiqarish amaliyotini ahamiyatli shaxsiy qadriyat, boshlang‘ich mutaxassisni o‘ta muhim kasbiy moslashuvi omiliga aylantirish;

– kasbiy-ta’lim hamkorligini innovatsion shakllarini tatbiq etish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

O‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksining muvaffaqiyatli faoliyatiga universitetning kasbiy ta’lim kafedrasi ko‘mak beradi.

Talabalarning ilmiy-ishlab chiqarish kompleksidagi ishlab chiqarish amaliyotini tashkillashtirish va o‘tkazishni asosiy yondashuvi sifatida bo‘lajak mutaxassislarning nazariy, ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiyasi chiqadi.

Ta’lim klasterini yaratish quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

– yangi texnologiyalar kiritish hisobiga barcha klaster qatnashchilarining raqobatbardoshligi ortadi;

– tegishli xizmatlarning xarajati kamayadi va sifati ortadi;

– innovatsion ta’lim va ilmiy texnologiyalarni kiritishda yangi sifat darajasiga o‘tishni amalga oshirish;

– kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan va tijorat hamda federal, hududiy va munitsipal darajadagi davlat tashkilotlari faoliyatiga innovatsiyalar kirita oladigan mutaxassislarni kompleks tayyorlashning metodikasini ishlab chiqish;

– ilmiy innovatsiyalar sohasida bakalavr va magistrlar tayyorlashning ikki bosqichli tizmini kiritish;

– ish beruvchilar tomonidan talab etiladigan darajadagi axborot-kommunikatsiya kompetentligiga ega bo‘lgan yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash;

– zamonaviy talablarga javob beruvchi kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash xarajatlarini optimallashtirish;

– bilimlarni takror ishlab chiqarish, intellektual mulk muhitini kengaytirish va ularni samarali tarzda xo‘jalik aylanmasiga kiritish;

– qishloq xo‘jalik rahbarlari va mutaxassislari kadr tarkiblarini zaxiralarni shakllantirish dasturi hisobiga yaxshilash;

– turli hokimiyat organlarida klaster qatnashchilari manfaatlarini himoya qilish.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy, milliy va siyosiy madaniyati xususiyatlarini hisobga olish asosida klaster quyidagi vazifalarni bajaradi:

– hududning samarali kadr potensialini shakllantirish ishida barcha tuzilmalar, tashkilotlar va muassasalarning harakatlarini birlashtiradi;

– federal okrug darajasida ta’lim, ilmiy va ishlab chiqarish muhitini kengaytiradi;

– ishsizlik darajasini pasaytirish va hudud aholisi uchun qo‘shimcha ish joylari yaratish imkonini beradi;

– ta’lim, ilm va ishlab chiqarish sohalariga yosh kadrlarni kirib kelishini ta’minlaydi;

– yoshlar ichida milliy va millatlararo munosabatlar madaniyatini boshqaradi va oshiradi;

– intellektual, mehnat, ilmiy, dam olish va boshqa faoliyat turlarini ta’minlaydi;

– ishlab chiqarish va ijtimoiy soha manfaatalari yo‘lida ta’lim, ilm-fan, texnika, madaniyatning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy

tadqiqotlar o‘tkazishda intellektual, moddiy va axborot zaxiralaridan foydalanish samaradorligini oshiradi;

– boshqarish, ta’lim, ilm-fan sohasida innovatsion faoliyat uchun kadrlar tayyorlaydi va hududning intellektual potensialini anchayin ko‘taradi;

– ilmiy texnologiyalar tatbiq etish va ilmiy mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi;

– har bir ta’lim muassasasini tovarlar (xizmatlar), kapital va mehnat bozorlaridagi raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini oshiradi;

– kadrlarni kasbiy tayyorlashda ijtimoiy hamkorlik uchun sharoit yaratadi;

– hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshiradi;

– korxonalarning va hududning innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi;

– barcha bo‘g‘inlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash hisobiga hududning korxona va tashkilotlarini samarali faoliyatini ta’minlaydi, ularning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilaydi;

– ta’lim xizmatini yetkazib beruvchilar va iste’molchilar (OTM va ish beruvchilar) o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va munosabatlarni mustahkamlaydi;

– ijtimoiy va kasbiy jihatdan mobil bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini yaxshilaydi;

– o‘rta umum ta’lim muassasalarida qishloq o‘quvchilaridan amaliy faoliyatda innovatsion texnologiyalarni amalga oshira oladigan ishchi kadrlarni tayyorlashni faollashtiradi.

Shunday qilib, ta’lim klasterining muhim ajralib turuvchi xususiyati bo‘lib, uning innovatsion yo‘nalitirilganligi hisoblanadi.

Ta’lim ishlab chiqarish hamkorligida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning bunday hamkorlik yo‘qligidan tayyorlashning mutlaq farqi shundan iboratki, mutaxassisning bilimlari, saviyasi ko‘nikmalari, murakkab kasbiy faoliyati va fikrlashi tizimini shakllanishida kadr buyurtmachilari ishtirok etadi. Bu o‘quv muassasalari va sanoat korxonalari hamkorligining yangi modellarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, inson faoliyatining o‘ziga xos turi sifatidagi kasbiy ta’limning uzluksizligi, ushbu uzluksizlikni avvalgi umumlashgan tajriba va uni aniq faoliyat mahsulini olish uchun qo‘llashni bilish bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy tomonlari uzluksiz kasbiy ta’lim tizmining integrativ ta’lim tuzilmasi bo‘lgan ta’lim klasterida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анищенко, В.А. Интеграция науки, образования и производства / В.А. Анищенко //Специалист.– 2002. – № 8.

2. Арефев, В.И. Подготовка конкурентоспособных специалистов для современных машиностроительных производств / В.И. Арефев, В.Н. Скрябин // Среднее профессионалное образование. – 2004. –№ 4. – С. 7.

Yorqinoy NURUMBEKOVA,
Guliston davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATIGA QO‘YILADIGAN MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLAR MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada jamiyat qachonki komillikka intilib yashaydigan insonlardangina tarkib topsa, har xil illatlarga o‘rin qolmasligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, tarbiya texnologiyasi, fazilat, insonparvarlik, vatanparvarlik, o‘qituvchi, ustoz, murabbiy, kasbiy tayyorgarlik, ma’naviy-axloqiy, sifat.

В статье утверждается, что когда общество состоит из людей, стремящихся к совершенству, нет места всяким порокам.

Ключевые слова. Воспитания, технология воспитания, добродетель, человечность, патриотизм, педагог, наставник, профессиональная подготовка, мораль, качество.

The article argues that when a society is composed only of people who strive for perfection, there will be no room for various vices. In the process of educational activity, the educator: teacher, coach, mentor influences the mental, moral, spiritual, physical and physiological development of the student.

Key words. Educate, educational technology, virtue, humanity, patriotism, teacher, mentor, coach, professional training, spiritual-ethical, quality.

O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 30-sentabrdagi “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “...Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz” deb bildirgan fikrlarini ushbu hikmatga hamohang bo‘lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, insonparvarlik, sabr-qanoat, shukronalik, ilm-ma’rifatga intilish, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, tadbirkorlik, innovatsion, kreativ fikrlash kabi fazilatlarni tarbiyalash farzandlarimizni ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qilishiga qaratilganligi bilan ahamiyatli.

Ko‘rinib turibdiki, davlatimizda ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosati bosh masalalaridan biri sifatida kun tartibiga qo‘yilgan.

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi g'oyalar o'z isbotini topmoqda. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi.

O'zbekistonda ilg'or xorijiy tajribalar asosida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy burch, ma'naviy fazilatlarni shakllantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida ijtimoiy gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari innovatsion-aksiologik yondashuvlarni integratsiyasida tashkil etish orqali, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy qiyofasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'quv mashg'ulotlarida talabalarda nafaqat umummadaniy kompetensiyalarni, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir turli manbalarini mustaqil izlab topish va ulardan foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat subyektlari bilan samarali muloqotga kirishish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir axborotlarni aniqlash, tahlil etish va qayta ishlash, loyihalashtirish, tashkil etish kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-yanvardagi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qaroriga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar haqida"gi 3-son Qarorida oliy ta'lim tizimining pedagogik yo'nalishi, ya'ni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosiy turlari: pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi, deb belgilab qo'yilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash uchun:

– oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan yo'nalishlarida talabalarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va boshqarish orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limda innovatsion aksiologik yondashuvlar integratsiyasi asosida yuksak ma'naviy-axloqiy va kasbiy qiyofani tarkib toptirish;

– ta'lim-tarbiyada pedagogik texnika va pedagogik texnologiyalardan uyg'un ravishda foydalanish orqali ma'naviy-axloqiy kamolotning samaradorligiga erishish;

– talabalarda ta'lim-tarbiyaning uyg'unligi tamoyiliga muvofiq kasbiy-tarbiyaviy faoliyatni mustaqil va ijodiy izlanish asosida tashkil etish orqali tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlash, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda kasbiy-tarbiyaviy faoliyatning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Ushbu vazifalar ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi, tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan pedagoglar zimmasiga yuklanadi va ularni muvaffaqiyatli hal etilishi o'qituvchi shaxsining kasbiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, sifat pedagogik-falsafiy tushuncha bo'lib, biror predmet yoki obyektga xos bo'lgan muhim belgilar yig'indisini ifodalaydi. Bu belgilar bir muncha barqarorlik xususiyatiga ega bo'lib, sifatga xos tavsifni beradi. Xususiyatlar esa, nisbiy xarakterga ega bo'lib, predmetning o'ziga xos tomonlarini ifodalash bilan birga, boshqa predmetlarga nisbatan o'xshashlik va farqli tomonlarni ham ajratib beradi. Odamni yaxshi amallarni bajarishga va go'zal xulq sohibi bo'lishga da'vat etuvchi ichki axloqiy sifatlar

fazilatlar deb ataladi.

Prinsiplar: ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi; ma’naviy-axloqiy tarbiyada insonparvarlik g‘oyasining ustuvorligi; ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ilmiyligi; ma’naviy-axloqiy tarbiyada ibrat-namuna; ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tizimiyligi va izchilligi, uzluksizligini qamrab oladi.

Metodlar: bevosita va bilvosita kuzatish, faoliyat mahsulotini rag‘batlantirish, ahamiyatiga qarab saralash, muammoli vaziyatlarni tahlil etish, ijodiy ishlarni namoyish etish kabilar kiradi.

Mezonlar: bilimdonlik, mehrli bo‘lish, kamtarinlik, tashkilotchilik, mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishdan iborat.

Tadqiqotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-tarbiyaviy faoliyati va uning ijobiy xislatlari to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot berilganligini ko‘rsatmoqda. Ammo yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, tarbiyachi shaxsiga xos 20 dan ortiq salbiy sifatlar mavjudligi o‘rganib chiqildi. Albatta, bo‘lajak o‘qituvchiga xos salbiy sifat bitta bo‘lsa ham ortiqchalik qiladi. Ammo bo‘lajak o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovnomasi hamda individual tartibda olib borgan suhbatlarimiz mobaynida salbiy sifatlar tuzilmasini qayta-qayta o‘rganib, korreksiya qilishga harakat qildik. Salbiy sifatlarni o‘zida namoyon etgan, ularni bartaraf eta olmagan pedagogni o‘z kasbida ishlashiga ma’naviy haqqi yo‘q degan xulosaga kelindi.

Milliy – tarbiyaviy qadriyatlarni o‘rganish, tahlil va tatbiq etish komil inson g‘oyasini ulug‘lashga qaratilgan. Tabiiyki, mustaqillik yillarida bu g‘oya keng ma’no-mazmun kasb etib, yanada takomillashib bormoqda. Yurtimizda komillikka intilib yashash har bir shaxsning ezgu niyatini belgilaydi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, aqlli shaxs nafaqat ilmli, bilimli, balki egallagan ilm va bilimini ezgulik, yaxshilik, mehr-muruvvat uchun safarbar qila olsagina, u ma’naviy yetuk shaxs hisoblanadi.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma’naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishining to‘rtinchi; Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘limi jamiyatda ma’naviy-axloqiy qarashlarning ustuvor bo‘lishini taqozo etadi.

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda talabaga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zero, ta’lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy mohiyati talaba shaxsiga insoniy munosabatda bo‘lishni, ta’lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir shaxs jamiyat a’zosi sifatida o‘zining kundalik ehtiyojiga aylangan faoliyat turi bilan shug‘ullanadi. Ana shu faoliyat turi uning xatti-harakati, tabiati, til boyligi, axloqiy tamoyillari va shaxsiy qarashlari tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi. Bu jarayonda mansublik va daxldorlik tuyg‘usi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гарбер И.Е. Метод и технология в психологии// Психология в вузе. 2005. №3. С. 80-94.

2. Mahmudova N.D “Avesto”da ta’limiy – axloqiy qarashlar. Ped.fan nom diss. ... avtoref. –T.: 2005 – 24-b.

Bahrom UMAROV,
Surxondaryo viloyati XTXQTMOXM, ‘‘Tillarni o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi mudiri

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALAR VA TA’LIM DASTURLARI UZLUKSIZLIGI

Annotatsiya

Maqolada ta’limning uzluksizligi sharoitida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Muallif o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning mavjud pedagogik yondashuvlari tahlilini va o‘ziga xos jihatlarini taqdim etadi.
Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetensiya, munosabat, lisoniy shaxs, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, sinergetik yondashish, uzluksizlik prinsipi.

В статье рассматривается проблема развития коммуникативной компетентности учащихся в условиях непрерывного образования. Автор представляет анализ и особенности существующих педагогических подходов к развитию коммуникативной компетентности у учащихся.
Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, отношение, языковая личность, компетентностный подход, синергетический подход, успешная социализация.

The article expresses the problem of developing students’ communicative competence in the context of prolonged education. The author presents an analysis and specific aspects of existing pedagogical approaches to the development of communicative competence in students.
Key words. Communicative competence, attitude, linguistic personality, competency approach, synergetic approach, successful socialization.

Dunyo taraqqiyotida internatsionallashuv, globallashuv va axborotlashtirish tendensiyalarining kuchayib borishi kuzatilayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta’lim tizimi ishtirokchilarini samarali muloqotga tayyorlash hamda ularning samarali muloqotga tayyorlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’limning uzluksizligi sharoitida ushbu maqsadga erishish uchun har qanday ta’lim muassasasi bitiruvchisi nafaqat kasbiy kompetensiyalarga, balki poydevorlari maktabda shakllanadigan, so‘ngra oliy ta’limda o‘quvchi va talabaning kasbiy yo‘nalishiga mos ravishda rivojlanib boradigan kommunikativ xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kerak. Oliy ta’lim bitiruvchisi tomonidan kommunikativ kompetensiyani egallashi “uning mehnat bozoridagi raqobatdoshligiga, kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi”.

O‘quvchi va talabalarda tildan shunchaki foydalanuvchi shaxs sifatida emas, bu jarayonda til orqali o‘z shaxsiy sifatlarini namoyon etuvchi, unga milliy-madaniy, etnik belgilarni singdiruvchi, tilni saqlovchi va kelajak avlodlarga uzatuvchi lisoniy shaxs sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida uzluksiz ta’limning me’yoriy asoslari chuqur tahlil qilinib, DTS, o‘quv dasturlari, o‘quv yuklamalari, o‘qituvchiga qo‘yiladigan malaka talablari, umuman, shu kabi meyorlar zamon talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. Bundan tashqari, uzluksiz ta’limning mazmunini takomillashtirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlab topish, tur-

kumlash, saralash, amaliyotga tatbiq etish, darsliklar mazmun-mohiyatiga kompetensiyaviy yondashuv asosidagi maqsadlarni singdirishga, ya’ni bilib berish bilan bir qatorda, o‘quvchilarda amaliy, hayotiy kompetensiyalar (ko‘nikmalar)ni shakllantirishga alohida ahamiyat bermoqda.

“Kontentni eslab qolishga asoslangan o‘quv dasturidan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish bosqichma-bosqich o‘tish” harakatida bo‘lgan ta’lim siyosatimizda asoslanib, til ta’limida kognitiv yondashuvni taqozo etadi. Amaldagi ta’lim tizimida o‘qituvchi bilan darslik darsning asosiy manbai, ta’limning nazoratchi kuchi bo‘lsa, kognitiv metodikaga asoslangan bu paradigma bo‘yicha o‘quvchi mustaqil faoliyatning tashkilotchisi, kommunikativ kompetensiyaga va o‘z fikriga ega shaxs rolini bajaradi. Kognitiv ta’lim o‘quvchida bilishga motivatsiya uyg‘otishni talab qiladi. Ayniqsa, o‘quvchilarda nutqiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish motivatsiyasi sinergetik ta’lim usuli orqali amalga oshirilishi samaralidir. Ta’limga sinergetik yondashish – qiziqtiruvchi yoki bilim olishga ishtiyoq uyg‘otuvchi usul. “Sinergetika shaxsning hali namoyon bo‘lmagan, mudrab yotgan qobiliyatining ishga tushishini rag‘batlantiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi bir-birlari bilan sinergetik aloqada bo‘lib, natijada, bilmaydiganlar biladiganlarga aylanadi.” Nutqiy faoliyatga qiziqish motivatsiyasi o‘quvchining shaxsiy sifatlariga bog‘liq. Ulardan biri – ta’lim oluvchining ijodiy mustaqilligidir, ya’ni o‘quvchi o‘zi ham o‘quv muammosini shakllantiradi.

Kognitiv yondashuvga doir ta’lim usulining mohiyati shundaki, ta’lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida yangi – yangi fikrlarni kashf etish yoki nimadir yaratish bilan shug‘ullanadi. Albatta, bu jarayon o‘quvchida birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib boradi.

Uzluksiz ta’lim muhitida o‘quvchi va talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni amalga oshirish jarayonida ma’lum bir ta’lim muassasasining “ta’lim maydoni” muhim rol o‘ynaydi. “Ta’lim maydoni” tushunchasi ko‘p qirrali. Bu bitta o‘quv muassasasida alohida fanlarning o‘qitilishida kommunikativ yondashuvlarda aks etadi. Ta’lim maydoni bu kelajakda o‘zlarining professional rejalarini amalga oshirish uchun o‘quvchi va talabalar tomonidan individual ta’lim yo‘nalishlarini belgilashda foydalaniladigan ijtimoiy-madaniy va predmetlarga xos ta’lim muhitining shartlari to‘plami sifatida tushuniladi”. Ta’lim makoni har bir o‘quvchi va talaba tomonidan o‘quv yo‘nalishlarini loyihalashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchi va talabaning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar – bu ijtimoiy buyurtma, Davlat standarti, muassasaning ta’lim maydoni, ta’limning uzluksizligi, shuningdek, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga turtki (motiv) berish, integratsion aloqalar, o‘quv-uslubiy ta’minot, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullaridir.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni tashkil etish shakllariga seminarlar, ekskursiyalar, suhbatlar kiradi; sinfdan tashqari ish shakllariga: predmetli to‘garaklar, studiyalar, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar, musobaqalar va boshqalar. Ushbu shakllar doirasida tabaqalashtirilgan yoki farqlanmagan tabiat o‘quvchi va talabalari bilan jamoaviy, guruhli, individual, frontal ishlarni tashkil etish mumkin.

Gumanitar fanlarning mazmuni o‘quvchilarning og‘zaki yoki yozma matn tuzish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytiradi. Tabiatshunoslik fanlari yuqori darajadagi umumlashtirishni, sabab-oqibat aloqalarining mavjudligini nazarda tutadi, bu esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda bilimlarni oshirishga imkon be-

radi.

Ma’lumki, til ta’limidagi interaktiv o‘qitish texnologiyalari va o‘qish darslari maktab o‘quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, qiziqishni uyg‘otadi va o‘tgan nazariy materiallarni mustahkamlashga imkon beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimining ona tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ vakolatlarini shakllantirishga yordam beradigan shakl va usullar orasida, albatta, loyiha metodikasi, rolli o‘yin, aqliy hujum, guruh va juftli ish shakllari juda katta rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, ona tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun og‘zaki muloqot uchun sharoit yaratish juda muhimdir.

Zamonaviy darsliklarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, maktab darsliklari hali ham turli xil hayotiy vaziyatlarda og‘zaki muloqot qobiliyatlarini shakllantirishni yetarli darajada ta’minlay olmaydi. Oliy ta’limda bo‘lajak mutaxassislarda kommunikativ kompetentlilikni shakllantirish mezonlari (kognitiv, xulq-atvor, hissiy-emotsional) kasbiy kommunikativ vaziyatlarda barqaror munosabat, samarali muloqot strategiyalarini tanlashda integrativ yondashuvning qayta aloqaga kirishish darajasini hisobga olish asosida ishlab chiqilgan.

Umumta’lim bosqichida didaktik materiallar kommunikativ faollik, o‘quvchilar faolligi, interaktiv faollik, topshiriq va kompetensiyalar faolligini o‘z ichiga olgan didaktik prinsipga asoslangan bo‘lishi kerak.

O‘quvchi va talabaning ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);

v) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;

g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida joriy etilgan yangi ta’lim standartlari va fan dasturlari o‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish va takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi sababli istiqbolda katta o‘zgarishlarga olib keladi. Ularning amalga oshishi esa, ta’lim tizimining asosiy shaxslari – o‘qituvchi va o‘quvchilarning oldilariga qo‘yilgan vazifalarni qanchalik his etishlari, ularni sidqidildan bajarishga intilishlari hamda har bir fan mutaxassisi o‘z fanining kommunikativ jihatini ochib bera olishi bilan uzviy bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия / И.А. Зимняя – М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2014. – С. 40.

2. Xalq ta’limi vazirligi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF) jamg‘armasi bilan birgalikda “O‘zbekistonda darsliklar tayyorlanishi, chop etilishi va qo‘llanilishi sohasini tartibga soluvchi siyosat tahlili”. –T., 2020.

Omon SUVONOV,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari, umuminsoniy qadriyatlar introrizatsiyasining kognitiv va hissiy ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligi bilan transformatsiyalash asosida takomillashtirish tizimi tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, ustoz-shogird, ma’naviy-axloqiy tarbiya, aksiologiya, qadriyat, talaba-yoshlar, qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvor, qadriyatli ustanovka, qadriyatli yo‘nalganlik.

В статье освещается анализ системы усовершенствования морально-поведенческого качества, трансформации когнитивного и чувственно-социального, а также диалектической единицы индивидуализации лица интроризации с общечеловеческими ценностями.

Ключевые слова. Преподаватель, наставник-ученик, духовно-нравственное воспитание, аксиология, ценность, молодежь-студенты, ценностное сознание, ценностное отношение, ценностное поведение, ценностная установка, ценностное направленность.

The article enlightens the analyze of the system of improving spiritual-moral features, transformation of cognitive and sensual-social, also dialectical unit of individualization of person’s introrization with general human values.

Key words. Teacher, master-student, spiritual-moral education, axiology, value, students, valuable consciousness, valuable relation, valuable behavior, valuable set, valuable direction.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PQ-3907-son Qarorida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ijtimoiy xushyorlik, ma’naviy mas’uliyat qadrlash tuyg‘usining to‘g‘ri shakllanganligi olamga qadriyatli munosabatning to‘g‘ri vujudga keltirishda pedagog: o‘qituvchi-tarbiyachi, ustoz, murabbiyning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Zotan, pedagog: o‘qituvchi-tarbiyachi o‘zining kasbiy pedagogik faoliyati jarayonida minglab murg‘ak qalblarga insoniylik tuyg‘usini olib kiradi, mehr ulashadi, ularning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, qalblarida vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Tadqiqotning obyekti va qo‘llaniladigan metodlar

Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish bosqichma-bosqich, uzluksiz o‘zini-o‘zi takomillashtirishi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda aksiologik yondashuv asosida o‘qitish sezilarli o‘zgarishlarga olib kelishi tadqiqotda pedagogik kuzatish, suhbat, ilmiy metodik tahlil, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyoslash metodlaridan foydalanish jarayonida aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Iqtisodiyot, fan va texnika taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Inson dunyoning butun sir-asrorlarini bilishga qodir bo'lmasada, Haq yo'lida haqiqatni kashf etib yashashga qodir. Shaxsni o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. O'z vijdoni, oilasi va jamoasi oldida hamisha ochiq yuz bilan hisob bera oladi.

Ozodlik va yurtparvarlik yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsata olgan, nafaqat o'z xalqining, balki umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlagan buyuk vatandoshlarimiz, o'zbek farzandlari – Shiroq, To'maris, Mahmud Torobiy, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Dukchi Eshon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosirlarning mustaqillik, erk va erkinlik, ma'rifat yo'lidagi ulkan jasoratlari, milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizning oliy namunasidir.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishda bir-biri bilan uzviy bog'langan ikki jarayon yaxlit holda amalga oshadi. Bu: birinchidan, pedagog maqomiga ega bo'lgan shaxs o'zining faoliyatida nafaqat kasbiy fikrlash jarayonini, balki barcha insoniylik amallariga qaratilgan yaxshilik, mehr, ezgulik ishlarini ilm – bilim asosida tartibga soladi, unga izchillik, tizimiylik, uyg'unlik ato etadi va ma'naviy – axloqiy asos beradi. Ikkinchidan, ustoz sifatida o'zidagi bor fazilatlarni tarbiya amaliyotida qo'llaydi. Tarbiya oluvchiga xos bo'lgan sifatlarni shakllantiradi.

Yoshlik – jo'shqin harakat, intilish, bunyodkorlikka va ertangi kun istiqboliga zamin hozirlaydigan ulkan imkoniyatlar davri. Ana shu imkoniyat qachon va qanday ko'rinishda voqelikka aylanishi pedagog shaxsining kasbiy tarbiyaviy faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Maqsadlarni aniq belgilab, unga erishish yo'lida Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish, har bir malakali mutaxassis oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida aksiologik yondashuv asosida Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy sohada yuqori kasbiy natijalarga erishishi kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ijodiy potensialni rag'batlantirish, kasbiy aksiologik yo'nalganlikka, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy, kasbiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi.

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishda talabaning xulq-atvori mo'ljalga olinadi, insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyoqarash talaba qadriyatli munosabatining konseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ xulq-atvor – me'yor sifatida, qadriyatli munosabat – u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirishga aksiologik yondashuvda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalar qo'yiladi, jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlari amalga oshiriladi, belgilangan tashkiliy shakl, metod va vositalardan foydalaniladi, qulay shart-sharoit yaratiladi, talabalar rag'batlantiriladi, pedagogik jarayon bilan boshqa tashkiliy jarayonlar orasidagi aloqadorlik ta'minlanadi. Boshqaruvchilik, xulosalar chiqarish imkonini beradi. Qayta aloqa jarayonini sifatli kechishini ta'minlash lozim bo'lib, uning rivojlanishi

va mustahkamlanishiga har qaysi pedagog muhim masala sifatida ustuvor ahamiyat berishi zarur. Chunki qayta aloqa ish samaradorligini belgilovchi mezon vazifasini o‘taydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga qiziqishi, ehtiyoji, qat’iy ishonchi va qobiliyati uning kasbiy tarbiyaviy yo‘nalganligini tashkil etadi. Uning kasbiy yo‘nalganlik darajasi kasbiy tarbiyaviy tayyorgarlikka, va u o‘z navbatida, kasbiy tarbiyaviy kompetentlikka erishishga olib keladi, bu talabaning kasbiy tarbiyaviy faoliyatda kompetentligi darajasini belgilaydi.

Tadqiqotimiz jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirida aksiologik yondashuv asosida: tashkiliy uslubiy, tarbiyaviy va ta’limiy ishlarni amalga oshirish belgilandi.

Talabalarni o‘zi tanlagan yo‘nalish bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish bilan birga uning shaxsiy-kasbiy fazilatlarini shakllantirish, talab darajasida malakaga erishishi, kasbiy tarbiyaviy faoliyatni mustaqil boshlash, o‘ziga ishonch, tashabbuskor, ko‘tarinki ruh, ijodkorlik, ibrat-namuna, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, baholash va rivojlantirish kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Bizningcha, oliy ta’lim muassasalarining pedagogika ta’lim sohasiga kiradigan yo‘nalishlarda 5110900 – Pedagogika va psixologiya, 5111600 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi, 5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish, 5112000 –Jismoniy madaniyat, 5111100 – Musiqa ta’limi yo‘nalishlarda umumkasbiy, ixtisoslik fanlarini innovatsion-aksiologik yondashuv asosida kasbiy tarbiyaviy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini tashkil etish lozim.

Tadqiqot ishini oldida turgan vazifalar yuzasidan olib borgan kuzatuvlarimiz shuni ko‘satdiki, o‘quv fanlarni o‘zlashtirishning yuqori marralariga erishish maqsadida innovatsion-aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini amalga oshirish, fanlarni o‘qitishda kasbiy kompetentlikni, kasbiy kreativ qobiliyatini shakllantirishni rivojlantirish orqali, talabalarda kasbiy tarbiyaviy faoliyatga oid bilimlarini egallashda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchi mutaxassislarning tarbiyachilik sohasida yuqori kasbiy natijalarga erishishi kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ijodiy potensialni rag‘batlantirish, kasbiy aksiologik yo‘nalganlikka, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat. –T.: O‘qituvchi, 2010. –160-b.

Mahfuza G'AFUROVA,
Farg'ona davat universiteti, "Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti" kafedrasi o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI O'STIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada matematika darslarini tashkil qilishda amaliyotga ko'proq e'tibor berish, o'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tahlil va taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish orqali o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ijodkorlik qobiliyati, kreativlik, taqqoslash, analiz, sintez, induktiv, deduktiv, tafakkur.

В этой статьей основное уделяется развитию творческих способностей учашихся путем уделения большего внимания практике организации уроков математики и использования таких исследовательских методов, как наблюдение анализ и сравнение, а также аналогия в формировании у учашихся небольших исследовательских навыков.

Ключевые слова. Творческие способности, креативность, сравнение, анализ, синтез, индуктивное, дедуктивное, мышление.

This article focuses on developing pupils creative abilities through the use of scientific research methods such as observation, analysis and comparison, and analogy in the formation of their small research skills and the samples of assignments in the organization of mathematics lessons.

Key words. Ability of creativity, creativity, comparison, analysis, synthesis, inductive, deductive, thinking.

Ijodiy qobiliyatning rivojlanishida arifmetik masalalar alohida o'rin tutadi. Masalalar yechish jarayonida har doim taqqoslash, tahlil va sintez, abstraktlash, aniqlashtirish, umumlashtirish induktiv va deduktiv xarakterdagi xulosa chiqarish va shu kabi mantiqiy tafakkur usullaridan foydalaniladi. Har doim tafakkurning mazkur mantiqiy usullari arifmetik masalani yechish yo'llarini topish vositasi sifatida ishlatiladi, o'quvchilar ularni amalda o'zlari tushunadigan shaklda o'zlashtiradilar, ularni qo'llashni o'rganadilar. Bunda kreativlik muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, kreativlik ichki aqliy bir-biriga bog'liq omillar uyg'unligi asosidagi yangi tafakkurga ega bo'lishning mantiqiy ketma-ketligi mahsuli bo'lib, u insonning ma'naviy va intellektual kamolotga erishishida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday intellektual ijodiy mahsul yordamida inson faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o'zgartirish kirita bilishdek ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin. Bu esa o'ziga xos kreativ yondashuvni talab qiladi. Shu ma'noda kreativ yondashuvni boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ko'rib chiqilayotgan muammo yechimlaridan eng optimalini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat deb atash mumkin. Uning yordamida o'quvchilarni mustaqil ijodiy yondashuv negizida ko'rib chiqilayotgan muammoni yechishning yangi variantini topishga undash jarayonini sama-

rali tashkil etish mumkin bo‘ladi. O‘quvchilardagi bunday qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlantirishni quyidagi topshiriqlar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Bosh kataklarga sonlar, nuqtalar o‘rniga kerakli amallardan qo‘yib sonli tenglikni bajaring.

1. ◯…27=43 8. ◯…4=100
2. 100…◯=75 9. 54…◯=18
3. 27…◯=13 10. 48…12=◯
4. 33…◯=53 11. ◯…7=49
5. ◯…8=20 12. 75…◯=15
6. 25…4=◯ 13. 120…20=◯
7. 110…◯=75 14. 65…5=◯

Javoblar:

1) 16+27=43; 70-27=43; 1161:27=43
2) 100-25=75;
3) 27-14=13;
4) 33+20=53;
5) 28-8=20; 12+8=20; 160:8=20;
6) 25+4=29; 25-4=21; 25●4=100;
7) 110-35=75;
8) 104-4=100; 25●4=100; 400:4=100;
9) 54:3=18;54-36=18;
10) 48-12=36; 48:12=4; 48+12=60; 48●12=576;
11) 7●7=49; 42+7=49;56-7=49;
12) 75:5=15; 75-60=15;
13) 120:20=6; 120-20=100; 120●20=2400;
14) 65+5=70; 65:5=13; 65-5=60; 65●5=325.

2. Nuqtalar o‘rniga sonlardan kerakligini qo‘yib to‘g‘ri sonli tenglik tuzing.

1) 3…+9=…6 5) …4: …2=7
2) …7-1…=27 6) 7… :1…=5
3) 54-…7=…7 7) 5 ●…2=…0
4) 83+…7=10… 8) 4 ●…5=…0

Nuqtalar o‘rniga bir necha xil sonlar qo‘yish orqali berilgan misollar o‘quvchilarning sinchkovligini, fikrlash qobiliyatini kengaytiradi.

Javoblar:

1) 37+9=46;
2) 37-10=27;
3) 54-27=27; 54-17=37; 54-37=17;
4) 83+17=100;
5) 84:12=7;
6) 75:15=5;
7) 5●12=60;
8) 4●15=60; 4●25=100.

Boshlang‘ich sinfda ijodiy qobiliyatlar predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to‘g‘risida keng ma’lumotlarga ega bo‘lishi, tafakkur o‘zgaruvchanligi mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o‘z fikriga ega bo‘lish, ishni oxirigacha yetkazish, ish-

chanlik, o‘z fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar shakllanadi. Bunday topshiriqlar tafakkuri yuksalishining bardavomligini ta’minlashda mustahkam didaktik asos bo‘la oladi. Ana shu sabablarga ko‘ra ham o‘quvchilarning matematik tafakkurni yuksaltirish muammosini hal qilishga kreativ yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi.

3. Qavslar va amal ishoralarini shunday tanlangki, to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin.

1) 320….10…2..30…15..5…=174

2) 7…2…32…4…25…14=2

3) 42…8…25…4=6

4) 31…11…6=7

5) 5…10…25…3=28

Ushbu misollarni yechishda turli amallardan foydalanish imkoniyati bola ongida matematika faniga bo‘lgan ijobiy fikrlashni o‘stiradi va bu bilan birgalikda bu fanga qiziqish uyg‘otadi.

Javoblarni keltirib o‘tamiz:

1) (320+10):2+(30+15):5=174

2) (7*2+32:4):(25-14)=2

3) (42+8):25+4=6

4) (31+11):6=7

5) 5*10-(25-3)=28

4. “Xatolikni toping” o‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatoliklar ustida ishlash.

1) 2+2:2+2*2+2*2=20

2) 10+5*5-14:2-3+5=11

Amallarni to‘g‘ri qo‘llamaslik orqali o‘quvchilar misollarni xato ishlashlari mumkin. O‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatoliklar:

a) 2+2:2+2*2+2*2=20 misolda amallar tartibi ketma-ket bajarilganligi uchun xato.

b) 2+2:2+2*2+2*2=2+1+4+4=11 bu misolda matematik amallar tartibi to‘g‘ri bajarilgani uchun javob to‘g‘ri.

Matematika aniq mantiqiy mulohazalarga asoslangan bilimlardan iborat bo‘lib, u insonning aqlini o‘stiradi, diqqatini rivojlantiradi, sinchkovligini oshiradi. Kelajakda mustaqil hayotga qadam qo‘yganda ko‘zlangan maqsadga yetish uchun o‘zida qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, o‘zida algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va eng muhimi uning matematik tafakkuri kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, bunday topshiriqlardan samarali foydalanishning o‘ziga xos ta’limiy afzalliklari ham bor. Ular o‘quvchini izlanishga undaydi, o‘quvchi o‘rganilayotgan jarayonlarda faol qatnashadi, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayeva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi // Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017. № 6. –49-b.

2. Asimov A., Soliyev I. Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kuzatuvchanlik xislatlarini rivojlantirish. Farg‘ona. Ilmiy axborot jurnali. 2016. № 2. –84-b.

3. Qosimov F., Qosimova M. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 4-son, 2009-yil, 28-b.

Abrorxo‘ja MO‘MINXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati, ingliz tili fani o‘qituvchisi

CHET TILLARINI O‘QITISHDAGI SAMARALI INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya

Maqolada chet tillarini o‘qitishdagi zamonaviy interfaol metodlar yuzasidan o‘tkazgan tajribalarimiz natijasida eng samarali deb topilganlarini qo‘llash yuzasidan to‘liq tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Chet tili, o‘qitish, metod, ma’lumot, tadqiqot, xalq, renessans, qonun, ajdod, islohot, soha.

В статье приведены подробные рекомендации по применению современных интерактивных методов обучения иностранным языкам, которые мы сочли наиболее эффективными в результате наших экспериментов.

Ключевые слова. Иностранный язык, обучение, метод, информация, исследования, люди, возрождение, право, родословная, реформа, поле.

The article provides detailed recommendations on the use of modern interactive methods of teaching foreign languages, which we found the most effective as a result of our experiments.

Key words. Foreign language, teaching, method, information, research, people, renaissance, law, ancestry, reform, field.

Biz xalqi, tarixi va ajdodlari bilan qanchalik faxrlansa arziydigan millat avlodlarimiz. Dunyo ilm-fani taraqqiyoti, xalqlar ma’naviyati va ma’rifati osishiga o‘z hissasini qo‘shgan ajdodlarimiz haqidagi ma’lumotlar hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlarning muhim obyektlaridan hisoblanadi. Jahon xalqlari bilan muloqotda o‘z so‘zi va o‘rniga ega bo‘lish uchun ilmdan boshqa yo‘l yo‘qligi haqidagi Prezidentimizning so‘zlari ta’lim sohasidagi islohotlarni renessans darajasiga olib chiqish zarurati qanchalik aktualligini ko‘rsatib berdi.

Bu so‘zlarning amaldagi ko‘rinishi sifatida ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi, ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibrohim Yusupov, Is’hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etilgani[1], “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, oxirgi to‘rt yilda pedagog xodimlarning oylik ish haqlari o‘rtacha 2.5 barobarga oshirilishi, “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni e’lon qilinishi, ta’lim sifatini oshirishda Finlandiya tajribasi, ta’lim sifatini nazorat qilishda Rossiya Federatsiyasi tajribasi o‘rganilinishi va joriy qilinishi yo‘lidagi amaliy ishlarni keltirish mumkin.

Bu o‘zgarishlarning barchasida ta’lim sifatini oshirish, O‘zbekistonni jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shish kabi maqsadlar ko‘rinadi. Lekin o‘quvchilarimizning xorijiy davlatlardagi tengdoshlari bilan bir qatorda ishonch bilan turushi yo‘lida ko‘plab

[1]https://uza.uz/uz/posts/maktab-ta’limini-rivojlantirish-umumxalq-harakatiga-aylanishi-23-08-2019.

to‘siqlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu muammolardan biri albatta, ularning xorijiy tillarni o‘zlashtirganlik darajasidir. Ta’lim sohasida olib borilayotgan izlanishlar natijalariga ko‘ra, avval, amalda bo‘lgan o‘qitish usullarining kam samaraliligi, yangi davr o‘quvchilari bilan ularni qo‘llash natija bermasligi ilmiy isbotlandi. Endi an’anaviy dars jarayonidan vos kechib markazda o‘quvchi bo‘lgan – interfaol o‘qitish usullari davri keldi.

Metodika fanidan shu aniqki, dars o‘tish metodlari zamirida inson omili bo‘lib, u inson bilan doimiy o‘zgarishda bo‘lishi zarur. Ushbu maqolada so‘nggi va samarali deb topilgan interfaol usul haqida ma’lumot beriladi. Uni tuzishda interfaol metodlarni sinflar yoki mavzular kesimida tahrirlashni lozim topmadik. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, metodlar gumanitar fan mahsuli bo‘lib ularni o‘qituvchi o‘z ijodkorligi doirasida yana o‘zgartishi, o‘quvchilar bilim darajasiga moshlashtirishi mumkin.[2] O‘qituvchi – pedagoglarga ularning faoliyatida muvaffaqiyatlar tilash bilan birga ularga metodika fanining oltin qoidasini eslatib o‘tishni joiz topdik **“Dunyoda hech qachon universal metod bo‘lmaydi”.**

Quyida keltiriladigan interfaol o‘qitish usullaridagi topshiriqlarni qiyinlik darajasini yoki topshiriqlarning o‘zini o‘zgartirib foydalanishdan cho‘chimang, maqsad natija ekanligini unutmang.

“Add the numbers”

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Guruhlarning birinchi a’zolari bir-birlariga qarab, ikki metr masofa saqlab turishadi.Qolgan o‘quvchilar esa ularning orqasida. Guruhlarning birinchi a’zolari o‘qituvchining ishorasi bilan birdaniga bir birlariga barmoqlari orqali yoki (yuqori sinf o‘quvchilari bo‘lsa) avvaldan qog‘ozchaga yozilgan sonlarni ko‘rsatishadi. O‘quvchilar raqib o‘quvchi ko‘rsatgan sonni emas ko‘rsatilingan ikkala sonning yig‘indisini ingliz tilida aytishi kerak bo‘ladi. Sonni to‘g‘ri aytgan o‘quvchi o‘yinni davom ettirish uchun safning ohiriga borib turadi, mag‘lub o‘quvchi safdan chiqadi. O‘yin bir jamoaning a’zolari to‘liq safdan chiqmaguncha davom etadi.

“Call the item”

Bir o‘quvchi sinfga yuzlanib turadi o‘qituvchi esa uning ortida turib, avvaldan tayyorlangan rasmlarni sinfga ko‘rsatadi. O‘quvchilar ingliz tilida ko‘rgan rasmlarini navbat-navbat tariflaydi. Rasmni ko‘rmayotgan o‘quvchi tariflanayotgan buyum yoki holatni qaysi o‘quvchi tarifidan keyin topsa o‘sha o‘quvchi taqdirlanadi. O‘yinda gapirish ko‘nikmasi rivojlangan o‘quvchilar “item caller” rolida bo‘lgani maqsadga muvofiq. Shunda boshqa o‘quvchilar o‘zining gapirish qobilyatlarini o‘stirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

“Blind story teller”

O‘quvchilarning gapirish qobiliyatlarini oshirish maqsadida o‘qituvchi avvaldan yangi o‘tilgan so‘zlar ro‘yxatini tuzadi. O‘quvchilarga birinchi ikkita so‘z ko‘rsatilinadi. O‘quvchilar navbati bilan ko‘rsatilingan so‘zdan foydalanib hikoya tuzib uni davom ettirib borishlari kerak. O‘quvchilarning gap tuza olish imkonyatlari hisoba olinib ularga uchtadan beshtagacha so‘z oldindan ko‘rsatib boriladi. Bu o‘quvchilar uchun shoshib qolmaslik va navbati kelguncha hikoyaga mos keladigan gap tuzib olishlari uchun imkon yaratadi. Agar o‘quvchilar boshlang‘ich sinfda bo‘lsa ulardan hikoyani mantiqiy davom ettirish o‘rniga oddiy gaplar tuzishlarini so‘rash maqsadga muvofiq.

“Blind sentences”

Ba’zi mashqlar o‘quvchilarda fan haqida iliq tasovvur hosil qilish uchun yoki ularni tushkin, horg‘in holatdan olib chiqish uchun qo‘llaniladi. So‘zlar o‘quvchilarga bo‘lib berilib ular ishtirokida gaplar tuzish so‘raladi. Bunda ularning lug‘atdan foydalanmasliklarini

[2]https://kun.uz/news/2019/08/23/maktablar-uchun-mablag‘ni-ayamaymiz-prezident-ta’lim-masalalariga-bag‘ishlangan-videoselektor-o‘tkazdi.

nazorat qilish muhim. Gaplar tuzib bo‘lgandan keyin ular o‘qiladi. Albatta, so‘zning tarjimasini bilmay turib tuzilgan gaplar ko‘pincha kulgili bo‘ladi. Gap o‘qilganda o‘qituvchi so‘zning tarjimasini doskaga yozadi va gapning tarjimasini aytadi. O‘quvchilarning kulgili xatosi o‘sha so‘zda qilingan xatoga assotsatsiya qilib yod olishida yordam beradi.

“Run to the board”

O‘quvchilarda jismoniy harakatga moyillik sezilganda, o‘tilgan yangi so‘zlarni takrorlash ehtiyoji tug‘ilganda shu interaktiv metoddan foydalanish taklif etiladi.

Sinfni va doskani ikki qismga bo‘ling. Bunda har bir guruhda kuchlarning teng bo‘lishini inobatga olish muhim. Guruhlar bir qatordan saflanishadi, o‘qituvchining ishorasi bilan o‘quvchilar navbati bilan doskaga yugurib borib mavzuga tegishi yangi so‘zlardan yozishadi.Har bir o‘quvchiga faqat bitta so‘z yozishiga ruxsat beriladi.

“A guide”

Tomonlar, yo‘nalishlar haqidagi mavzularni o‘quvchilar qanchalik o‘zlashtirganini “A guide” interfaol metodi orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Metodni amalga oshirish uchun o‘qituvchi bir o‘quvchini tanlaydi, uni doskaga chiqarib ko‘zini bog‘laydi. O‘qituvchi doskaga biron shahar yoki joy xaritasini chizadi. Boshqa o‘quvchi xaritani ko‘rib turadi. Uning vazifasi ko‘zi bog‘langan o‘quvchini A nuqtadan B nuqtaga ingliz tilida yo‘nalishni aytib turgan holda olib borish. Ko‘zi bog‘langan o‘quvchi yo‘lni bo‘r bilan chizib boradi. Mashq so‘nggida o‘quvchining ko‘zi yechiladi. O‘quvchilar xato, kamchiliklar qayerda yo‘l qo‘yilganini xaritadagi chiziqlar orqali ko‘rib turishadi. Metodda yo‘nalishni aytib turgan o‘quvchiga ko‘p narsa bog‘liq bo‘ladi. Uni yo‘nalishda ketayotgan o‘quvchining hech qanday halokatga uchramay manziliga yetib borishi uchun metod bor bilimini ishga solishiga majbur qiladi.

“Hangman”

Bu o‘yinli mashq there is/are mavzusini mustahkamlash, o‘quvchilarning so‘z yodlash qobiliyatini sinovdan o‘tkazish maqsadida tavsiya etiladi.Yangi o‘tilgan so‘zlardan birontasi tanlanadi.Shu so‘zdagi harflari soniga teng kataklar chiziladi. O‘quvchilar “Is there B/D/J…” strukturasini ishlatib harflarni navbat bilan so‘rab borishadi. Agar ular so‘z tarkibida bor bo‘lgan harfni so‘rashsa, “Yes, there is yoki are” javobi berilib harf katakka yoziladi. So‘zni butunligicha ayta olgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday metodi har qanday darajadagi o‘quvchilarga moslash mumkin, guruhlar kesimida yoki ikki o‘quvchi o‘rtasida o‘tkaziladigan o‘yinli metodlarda o‘quvchilarning bilim darajalari teng bo‘lishiga maksimal e’tibor berish, o‘yinli metodlarning so‘ngida g‘olib o‘quvchilarni yuqori taqdirlash ularning bunday mashg‘ulotlarga o‘z-o‘zini doim tayyorlab borishlari uchun motivatsiya bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripova Aziza, Khurshida Khodjayeva, Yuldasheva Nozima. Methods, aspects and components of teaching the uzbek (russian) language as a foreign language on the experience of foreign students. Journal of Critical Reviews. 2020-yil. 393-397-betlar.

2. Isakovich E.A. , Kolobkova N.N.. Continuity in foreign-language education: problems and prospects: Volgograd, Volgograd scientific publishing house, 2016-yil. 123-133-betlar.

3. Grigorashm O.V. , Trubilin A.I., “Interactive methods of teaching in a modern university,” Polymathematical network electronic scientific journal KubGAU. 2014-yil. 1286-1302-betlar.

Shoira NORMATOVA,
Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, filologiya fanlari nomzodi,
‘‘O‘zbek va rus tillari’’ kafedrasi dotsenti

XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH AMALIYOTIDA REALIYALAR MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada realiya tushunchasi va uning termin hamda varvarizmlardan farqli jihatlari yoritiladi. Shuningdek, ularning xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishdagi o‘rni va roli ko‘rib chiqiladi va realiyalarni chet tiliga tarjima qilish borasida foydali maslahat va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Realiyalar, muqobili yo‘q so‘zlar, varvarizm, termin, milliy-madaniy axborot, ta’lim, tarjima.

В данной статье рассматривается понятие “реалии” и проблема интерпретации их в иностранных текстах, их отличие от терминов и варваризмов. В ней также указано их место и роль в преподавании узбекского языка иностранцам и даются полезные советы и предложения по вопросам перевода их на иностранный язык.

Ключевые слова. Реалии, слова у которых нет альтернативы, варваризмы, термины, национально-культурная информация, обучение, перевод.

This thesis exposes the features end tasks of realia in translated texsts and its distinguishers from term and barbarisms. Also it superficializes realia’s part in teaching Uzbek as foregin language and gives useful advices and offers on the occasion ther translation into foregin language.

Key words. Realia, untranslatables, barbarism, term, national-cultural information, teach, eranslated.

Har qanday chet tilini o‘rganish jarayonida, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalq dunyoqarashi, an’analari, o‘tmishi bilan bog‘liq tushuncha va hodisalarni aks ettiruvchi, milliy-madaniy axborot tashuvchi lug‘aviy birliklar, jumladan, realiyalarga duch kelinadi. Realiyalar xorijiy til ta’limida muhim o‘rin tutsa-da, chet elliklar uchun yaratilgan o‘zbek tili darsliklarda ularni o‘qitish bilan bog‘liq maxsus taklif yoki ko‘rsatmalar berilmagan. Shunga qaramasdan, ushbu kitoblarda realiyalarning talay namunalarini topish mumkin. Avvalo, realiya tushunchasi haqidagi ta’riflarga murojaat qilsak. Odatda, realiyalarga tarjimashunoslik mavzusi sifatida qaraladi. O‘zbek tarjimashunosligidagi ishlarda ham mazkur tushuncha, asosan, shu nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Shuni qayd etish lozimki, ulardagi ta’riflarning aksariyati rus tilshunosligidagi mavjud qarashlarga asoslangan. Masalan, rus olimi T.F.Yefremovaning “Izohli lug‘ati”da ushbu termin: “Realiyalar moddiy madaniyat, elatga xos xususiyatlar, urf-odatlar, udumlar, shuningdek, tarixiy faktlar yoki jarayonlarning ashyo yoki hodisalari bo‘lib, odatda ularning boshqa tillarda lug‘aviy muqobillari bo‘lmaydi”, – deya izohlanadi.

Yana bir rus manbasi “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da “Reliya (lot.– ashyoviy) – muayyan xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog‘liq betakror, o‘zga xalqda uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha: shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so‘z” – deb ta’rif beriladi.

Bu tushunchaning falsafa hamda adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan talqini bo‘lib, unda til xususiyatiga ham urg‘u berilgan. Atamaning lingvistik ta’rifi mazkur

xususiyatni yanada aniqlashtiradi. L.S. Barxudarov ta’rifiga ko‘ra: “Realiyalar boshqa tilda so‘zlashuvchi kishilarning amaliy tajribasida mavjud bo‘lmagan narsa, tushuncha yoki vaziyatlarni anglatuvchi so‘zlardir”.

O‘zbek tarjimashunosligida mazkur termin “milliy xos so‘zlar” deb ham yuritiladi: “Milliy o‘ziga xoslik deganda, adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san’ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi” (Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari.101-bet).

Tadqiqotchilarning fikricha, realiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari tildagi ba’zi boshqa hodisalarda ham kuzatilgani uchun ba’zan chalkash tasavvurlar yuzaga kelishi mumkin. Realiya tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda, ularning atamalarga, varvarizmlarga, undovlarga va h.k. o‘xshab ketishi qayd etiladi. Atamalar ham realiyalar kabi ko‘pincha, boshqa tilga o‘girilmaydi, tilning lug‘at tarkibida ajralib turadi, ko‘p tillarda asl manbasidagi kabi qo‘llaniladi, shuningdek, varvarizmlar ham tarjima qilinmasdan qo‘llaniladi, masalan, “sotka” yoki “ok”. Biroq ayni payda realiya bilan atama hamda varvarizmlar o‘rtasida qator jiddiy farqli belgilar ham mavjud: avvalo, atamalar ilm-fan hamda kasb-hunar sohasiga tegishli, realiyalar esa moddiy madaniyat hodisasidir; atamalarning muhim alomati ularning neytralligi, ya’ni uslubiy bo‘yoqdan xoli ekanligidir, realiyalar esa, atamalardan farqli o‘laroq yorqin milliy bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Varvarizmlarga kelsak, ularda ham shu muhim alomat – xalq tili uchun xos milliy bo‘yoq bo‘lmaydi, negaki varvarizmlarning o‘zi boshqa tildan kirib o‘zlashmagan, adabiy tildan o‘rin olmagan so‘zlardir. Shuningdek, ularni muqobili yo‘q deyish ham uncha to‘g‘ri emas, zero varvarizmlar muqobili bo‘lgan holda, faqat og‘zaki nutqda qo‘llanuvchi xorijiy so‘zlardir. Yuqoridagi “sotka” o‘rnida “uyali telefon” yoki “ok” o‘rinda “yaxshi” so‘zlaridan foydalanish mumkin. Realiyalar adabiy tilda ham, yozma va og‘zaki nutqda, shuningdek, badiiy matnda ham ishlatiladi.

Xorijiy tillarni o‘qitish amaliyotida realiyalar muhim o‘rin tutadi. Realiyalar tilda muqobili yo‘q so‘zlar ekan, bari bir ularni o‘zga tilda izohlash, shartli ravishda tarjima qilish lozim bo‘ladi. O‘zbek tarjimashunosligidagi ishlarda ko‘proq xorijiy tildagi realiyalarning o‘zbek tiliga o‘girish masalasiga e’tibor qaratilgan, lekin o‘zbekcha realiyalarning chet tillariga tarjimasi borasida esa aniq tavsiyalar yo‘q, (mazkur sohada hozirgi kunda jonlanish kuzatilmoda, xususan, mumtoz adabiyotdagi realiylar tarjimasi ustida izlanishlar olib borilmoqda).

Chet elliklar uchun o‘zbek tili mashg‘ulotlarida keng tarqalgan realiyalarni tushuntirishda uncha katta qiyinchilik tug‘ilmaydi. Masalan, o‘zbekcha “palov” yoki “osh” O‘zbekiston haqida oz bo‘lsa-da ma’lumotga ega xorijlik uchun tanish va hatto, ilk marotaba unga duch kelan til o‘rganuvchi tez yodida saqlab qoladi. Bosh manbasi ko‘pchilikka tanish bo‘lgan “begona” realiyalarni o‘zlashtirish qiyinchilik tug‘dirmaydi (dollar, rubl). Biroq, ba’zan shunday realiyalar uchraydiki, ular izoh, qiyos, o‘rganuvchi tomonidan anglab yetilishni talab qiladi. Realiyalarni o‘zbek tiliga o‘girganda, tarjimashunoslikda keng qo‘llaniluvchi transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, aynan tarjima qilish, tildagi realiyani boshqa tildagi shunga yaqin so‘z bilan tarjima qilish, giponimik tarjima usullardan foydalanish mumkin. Odatda, tarjimada bu matnda realiya so‘zni qalin harf yoki kursiv bilan aratib ko‘rsatish, realiyani qo‘llab, ajratilgan bo‘lak sifatida izohlash, realiya yonida uning neytral ma’nodoshini keltirish (pishiriq – baked), betning paski

qismida havola sifatida berish, badiiy asarda kitob oxirida sharhlar keltirish va h.k. shaklida amalga oshiriladi.

Bevosita dars jarayonida, bizningcha, o‘qituvchi til o‘qitish bosqichlaridan kelib chiqib realiyalarni oldindan tayyorlashi lozim. Shu o‘rinda, til o‘rganuvchining maqsadlarini ham hisobga olish zarur. Ta’lim oluvchining o‘zining kelgusi faoliyatini vatanimiz bilan bog‘lash, ya’ni O‘zbekistonda tadbirkorlik yuritish, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, ma’rifiy, ta’lim sohalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ilmiy tadqiqot olib borish va h.k.maqsadlariga muvofiq ravishda 50-60 ta realiyalarni darsliklarga ilova tarzida kiritish foydadan holi bo‘lmaydi. Til o‘rgatishning yuqori bosqichlarida oz-ozdan ularning soni ortib boradi. Shu bois, o‘z tajribalarimizdan kelib chiqib, til ta’limining ilk darajasida quyidagi realiylarni o‘rgatishni tavsiya qilamiz. Ular ko‘proq o‘zbek xalqining ijtimoiy-maishiy turmushi bilan bog‘liq milliy xos so‘zlardir:

Milliy taomlar nomlari: palov/osh - pilaf(f), pilau; somsa – mince pie of the puff pastry; sumalak – food of wheat; sho‘rva – soup; lag‘mon – Lamian is a type of Chinese noodle; manti – (oriental) dumplings; patir – uzbek flatbread, flat cake; qazi – “qazi” is sausage made of from horse meat with unique taste; dimlama – is an turkic stew made with various combinations of meat, potatoes, onions, vegetables.

Kiyim-kechak, milliy liboslar: Atlas/xonatlas – Uzbek Khan-Atlas – national silk fabric, painted in all colors of the rainbow; adras-ikat /Persian mixed cotton silken material; chopon/to‘n – Uzbek quilted dressing gown,do‘ppi-skullcap, qiyiq-belt, hijob – a head covering worn in public by some Muslim women.

Udum, an’analar: ro‘za – fast(ing), Lent, hayit – khaid, ramazon – Ramadan, Navro‘z – Navruz (also called Noruz, Nowruz, Nowrooz, and Nawruz), the spring “New Year” holiday, Fotiha – Fatiha [ˈfɑːtɪə, ˈfat] noun the short first sura of the Koran, used by Muslims as an essential element of ritual prayer; to‘y – wedding; beshikto‘y – the ceremony, organized on the occasion of putting baby to beshik for the first time; nahorgi osh – morning pilaf(f), pilau; gap – banquet, dinner party; feast, o‘gil to‘y/sunnat to‘yi/xatna – circumcision.

Geografik nomlar, joy otlari: qishloq – kishlak /village; viloyat – region; tuman – district; mahalla – urban division in Uzbek communities, ward; hovli – yard, courtyard; ariq – irrigation ditch; Samarqand – Samarkand; Buxoro – Bukhoro; Xorazm – Khorezm; minora – minaret; madrasa – madrasa/medrese, madrasah – a collage for iclamic instuction; machit – mosque; mavze – domain.

Ro‘zg‘or anjomlari: kosa – large bowl; piyola – tea bowl; ko‘rpacha – kurpacha (uzbek national mattress); poyandoz – carpet spread entrance royalty; lagan – a pottery dish; kapgir – skimmer; chovli – a wattled skimmer.

Milliy yoki tarixiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan barqaror birikmalar: (frazeologizmlar, idiomalar, maqollar): og‘iz ochmoq – have a meal after a fast day dasturxon yozmoq – to place treats in front of guests, osh bermoq – treat with pilaf loved ones and acquaintances in honor of the celebration, qiz chiqarmoq – to marry a daughter.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бархударов Л. С. Язык и перевод. – М., Международные отношения, 1975.

2. Верещагин Е.М. Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980.

Shohida BEKMURATOVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid ma’lumotlar ilgari surilgan bo‘lib, talabalar o‘zlashtirish darajasining rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Buning uchun maktab tasviriy san’at o‘qituvchisi eng avval kasbiy ijodkorlikni va motivatsion qobiliyatlarini takomillashtirish, uni maktab tasviriy san’atini o‘qitishdagi roli, o‘rni mazmun-mohiyatini, so‘ngra maktab tasviriy san’atini o‘qitish didaktikasi, uning prinsiplarini va o‘qitish metodlarini yaxshi bilib olishi, yana ulardan qachon, qaysi o‘rinda, qanday mazmunda foydalanishni o‘zlashtirib olish zarur.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak o‘qituvchi, metodika, o‘quv-tarbiya ishlari, bilim, ma’lumot, malaka.

В статье рассматриваются условия развития профессиональных творческих и мотивационных способностей будущих учителей изобразительного искусства, а также этапы развития уровня успеваемости учащихся. Для этого школьный учитель изобразительного искусства должен прежде всего усовершенствовать свои профессиональные творческие и мотивационные способности, хорошо знать свою роль в преподавании школьного изобразительного искусства, содержание роли, а затем дидактику преподавания школьного изобразительного искусства, его принципы и методы преподавания, то есть знать, когда, где и в каком содержании их необходимо использовать.

Ключевые слова. Будущий учитель, методика, учебно-воспитательная работа, знания, информация, навыки.

The article examines the conditions for the development of professional, creative and motivational abilities of future teachers of fine arts, as well as the stages of development of the level of student achievement. For this, the school teacher of fine arts must first of all improve his professional creative and motivational abilities, know well his role in teaching school fine arts, the content of the role, and then didactics of teaching school fine arts, its principles and teaching methods, that is, know when, where and in what content they should be used.

Key words. Future teacher, methodology, teaching and educational work, knowledge, information, skills.

Mamlakatimizning ta’lim – tarbiya sohasida o‘zgarish va shiddatli rivojlanishi maktab o‘quv fanlarining har birini yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish, ularni didaktik va metodika sohalarini takomillashtirishni talab qiladi. Shunga ko‘ra, maktab o‘quv fanlarini, jumladan, tasviriy san’at o‘quv predmetini ham yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitishni davr talab qilmoqda.

Bu jarayon o‘zining didaktik va metodik jihatlarida ham, albatta, ijobiy o‘zgarishlar yasaydigan shart – sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi. Chunki, har qanday ta’lim berishni tashkil etish va berilgan bilim – malaka (ta’lim)larini oldindan belgilangan me’yorda bo‘lishini ta’minlash, asosan, ta’lim berish vositalari, didaktik va ko‘rgazma qurollar, o‘qituvchi nutqi va uni o‘qitish didaktikasi va metodika – uslublaridan qay tarzda mukammal, to‘g‘ri, asosli, foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Chunki, dars – fanni o‘qitish didaktikasi va uning prinsiplariga javob bera olmaydigan bo‘lsa, u hech qachon samarali bo‘lmaydi.

Tasviriy san’atni o‘qtishining pedagogik texnologiyasi – o‘quvchilarga tasviriy san’at bo‘yicha bilim – malakalar berish, ular asosida shaxsni rivojlantirish qonun – qoidalarini o‘zida mujassam etgan holda oldindan rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan, pedagogik faoliyatdir, – desak uni didaktik jarayoni va metodik yo‘nalishi qay tarzda talqin etiladi?

Pedagogik texnologiya – murakkab jarayon sifatida qator o‘qitish bosqichlaridan va o‘z navbatda bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos amallardan iborat bo‘ladi.

Agar biz tasviriy san’atning dars mashg‘uloti, ya’ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart – sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat’i nazar) foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi tasviriy san’at darslarining pedagogik texnologiyasi bo‘ladi.

Maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasida asosiy narsa – bu kafolatlangan natija bo‘yicha imkoniyat, shart – sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo‘lib, ularni tashkil etish – tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi va uning prinsiplarining asosiy vazifasiga kiradi. Chunki, maktab tasviriy san’atini o‘qitish didaktikasi har bir dars – mashg‘uloti uchun eng avvalo, berilayotgan bilim – malakalarni ilmiy asosda bo‘lishi ta’minlanadi. Ilmiylik prinsipi – o‘quvchilarga rasmi chiziladigan natura, obyekt, mavzu, voqea – hodisalarni yoki tahlil qilanadigan san’at asari bo‘yicha beriladigan har bir ma’lumotni ilmiy va fan ma’lumotlari asosida bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek, maktab tasviriy san’ati bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan bilim – malakalar didaktikani tarbiyaviylik prinsipiga amal qilingan holda olib boriladi.

Chunki maktab tasviriy san’ati o‘quv predmeti o‘quvchilarni badiiy – axloqiy, estetik, mehnatga, o‘z xalqiga, Vataniga, ota – bobolar ijodiga katta hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.

Yana maktab tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko‘ra har bir dars – o‘quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarini shu darsni o‘zida amaliyotida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lib, darsni asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma’lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanni mazkur imkoniyati va shart – sharoitiga ko‘ra uning dars texnologiyasida ijodiy o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

Yana tasviriy san’atni o‘qitishda g‘oyat ahamiyatga molik bo‘lgan didaktik prinsip – o‘quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o‘qitishga shart – sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Bu prinsip o‘quvchilarning barchani rasm ishlashga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Maktab tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi.

O‘quvchilarga beriladigan tasviriy san’at bo‘yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunarli, ilmiy asosda bo‘lishini ta’minlashda didaktikani ko‘rgazmali o‘qitish – ta’lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik prinsip sanaladi.

Maktab tasviriy san’atining Davlat dasturi bo‘yicha o‘quv materiallarining hammasi ko‘rgazmali o‘qitishni talab qiladi. Chunki, – “Maktabda ko‘rgazmasiz o‘qitib bo‘lmaydigan yagona o‘quv fani bu tasviriy san’atdir” – deb doimo ta’kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun maktab tasviriy san’atini o‘qitish – texnologiyasida ko‘rgazmalilik – oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik prinsipning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi.

Maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon V.P.Bespalko ko‘rsatib o‘tganidek, – yangi dars materialiga kirish – ya’ni – o‘quvchilarni yangi dars

materialini qabul qilishga tayyorlash – motivatsiya jarayoni bilan boshlandi. Bu o‘quvchilarni yangi dars materialiga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta’minlash imkoniyatini beradi.

Maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasida asosiy o‘rinni uni o‘qitish didaktikasi va metodikasi oladi. Chunki, metodika va didaktika maktab tasviriy san’atidan o‘quvchilarga bilim – malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik jarayoni sanaladi. Metodika – maktab tasviriy san’atidan o‘quvchilarga bilim – malakalar berishning eng oson, eng samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatuvchi vosita bo‘lib, darsdagi oldidan belgilangan natijalarni kafolatlay oladigan jarayon hisoblanadi. Bu o‘rinda shuni aytish joizki, maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasida qo‘llaniladigan hozirgi zamon o‘qitish metodlaridan bo‘lmish:

– og‘zaki bayon etish metodi;

– ko‘rgazmali o‘qitish metodi;

– amaliy ishlar metodi bo‘lib, bu metodlarning har biri qator uslublarga ham bo‘linadi;

Maktab tasviriy san’atini o‘qitishda eng ko‘p ishlatiladigan metod “Og‘zaki bayon etish” metodi bo‘lsa-da, “Ko‘rgazmali o‘qitish” va “Amaliy ishlar” metodidan ham har bir dars jarayonida foydalaniladi.

Chunki, maktab tasviriy san’ati o‘quv fanining o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ko‘rgazmasiz o‘qitish mumkin bo‘lmagan o‘quv fani hisoblanadi. Yana bu o‘quv predmetini pedagogik texnologiyasiga ko‘ra, 45 minutli darsni yarmidan ko‘pi amaliy ishlar bilan ta’minlanadi.

– Maktab tasviriy san’at darslarida: “Og‘zaki bayon etish” metodini suhbat, hikoya, savol-javob, ma’ruza kabi uslublaridan;

– “Ko‘rgazmali o‘qitish” metodini namoyish, illyustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskada o‘qituvchi rasmi va ekskursiya, kabi uslublardan;

– “Amaliy ishlar” metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy – amaliy san’at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san’at asarlari tahlili, san’at asarlari yuzasida insho, referat yozish, kabi uslublardan foydalaniladi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasi o‘zini oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o‘qitish didaktikasi va metodikasidan a’lo darajada foydalana olishi o‘qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov B.N. Tasviriy san’at ta’limida didaktika. N. 2008-y. (35-b).

2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya. –T., 2003-y. (70-74-betlar).

3. Karabayevna Z., Xamroyevich R., Musurmanova A. Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education // International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – T. 9. – №. 1. – Pp. 6903-6906.

4. Ismailova Zukhra, Choriyev Ruzimurot and Musurmanova Aynisa, Aripjanova. “Methods of training of teachers of university on advanced training courses”. Journal of Critical Reviews 7.5 (2020): Pp. 413-416.

5. To‘rabekov F. S. Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi: Ped. fan. nom.... diss . – T.: TDPU. – 2011. – 177-b.

Shohida TAHIROVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumani, 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARIGA HUJJATLARNING MA’LUMOT-AXBOROT TURLARIDAGI QOLIPLASHGAN SO‘Z BIRIKMALARINI O‘RGATISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchining rasmiy ish hujjatlaridagi qoliplashgan so‘z birikmalari uning xususiyatlari, rasmiy matnda qo‘llaniladigan stereotip birikmaning ishlatilish o‘rinlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Davlat tilida ish yuritish, uslub, matn, morfologik birliklar, morfemik shakllar, sintaktik qurilma, matn ustida ishlash.

В статье проанализировано использование устойчивых словасочетании деловом документации, его особенности деловых топиках и стереотипных единицах.

Ключевые слова. Работа на деловом языке, деловой стиль, деловой топик, морфологические единицы, морфологические формы, синтактические структуры, работа над топиками.

In this article it has ben amalyred exspressions in the situation of official documents, thein features the usaje of stereotypes.

Key words. Working on state language official style, official topic, morphological units, morphemic forms, syntaxtic forms, working on the topics.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq maktab ta’limini rivojlantirishga, farzandlarimizning har tomonlama bilimli, salohiyatli bo‘lib kamol topishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan qonunlar, Farmon va qarorlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Adabiy tilning nutq uslublari haqidagi dastlabki bilimlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridanoq ona tili darsliklarida o‘quvchilarga berib boriladi. O‘quvchilar yoshligidan nutq uslublarining ahamiyati, jamiyatdagi o‘rni haqida tushunchalarga ega bo‘lishadi. Uslublar til birliklaridan qanday foydalanishni ko‘rsatib beruvchi nutq turidir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining rasmiy ish uslubini ilk bor tadqiqot ishlarini olib borgan tilshunos D.A.Boboxonova ikki guruh leksikasini farqlaydi.

1. Rasmiy ish uslubida qo‘llaniladigan so‘zlar.
2. Bu uslubda qo‘llanilmaydigan so‘zlar.

Rasmiy ish uslubini morfologik jihatdan tahlil qilib ayrim leksik birliklarning qo‘llanilish yoki qo‘llanmasligiga ko‘ra bo‘linishi to‘g‘ri deb hisoblaymiz. O‘quvchilarga bu uslubda qo‘llaniladigan so‘zlar yuzasidan ma’lumot berib, misollar orqali tushuntirilganidan keyin

qo‘llanilmaydigan so‘zlarni ham sanab o‘tish rasmiy matnni to‘g‘ri tuzish uchun zarur omil vazifasini bajaradi.

Hujjat matnlarida leksik birliklarni to‘g‘ri ishlata olgan o‘quvchi qoliplashgan birikmalarni ham mazkur matnlarda to‘g‘ri qo‘llab rasmiy matn tuza oladi.

O‘zbek tilshunosligida ham rasmiy matnlarda qoliplashgan birikmalarni qo‘llash borasida talaygina ilmiy izlanishlar olib borilgan. Rasmiy uslubning hujjat matnlarida turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalarining ishlatilish o‘rinlari o‘rganilgan. “Turkiy hujjatchilik tarixida stereotip birliklarning ishlatilishi keng rusum bo‘lgan. Rasmiy matnlarda qo‘llaniluvchi formulyarlarga qarab muayyan turlarga ajratish va uning janrini aniqlash imkoni yuzaga keladi”.[1]

Rasmiy matnlarda ishlatiladigan qoliplashgan so‘z birikmalarini hujjatchiligimiz tarixida stereotip birliklar, formulyarlar deb nomlangan. Rasmiy matnlar qoliplashgan so‘z birikmalari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining “Ona tili” darsliklarida berilgan. Chunonchi, 10-sinf “Ona tili” darsligida qoliplashgan so‘z birikmalari haqida quyidagi ma’lumot berilgan. “Hujjatlar matnini tuzishda turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan foydalanish lozim bo‘ladi. Chunki qoliplashgan yagona doimiy shaklga ega bo‘lgan so‘z tuzilmalari, iboralar muhandislik psixologiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, boshqa so‘z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinar ekan. Buning ustiga qoliplashgan so‘z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi”.[2]

Qoliplashgan so‘z birikmasini o‘quvchi tushuna olishi uchun u birinchi navbatda, so‘z birikmasini o‘zi mustaqil tuza oladigan bo‘lishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 8-sinf “Ona tili”[3] darsligida so‘z birikmasi va ularning o‘zaro bog‘lanish usullari haqida qoidalar bor. So‘z birikmasidagi so‘zlar ikkitadan ortiq mustaqil so‘z bo‘lishini bu so‘zlar ma’no va grammatik jihatdan bog‘lanishini yana bir marta eslatish lozim. Matndagi har qanday ikki so‘z, so‘z birikmasi bo‘la olmaydi. O‘quvchiga matndagi so‘zlarni morfologik birliklar bo‘yicha to‘g‘ri izohlashni o‘rgatib, so‘z birikmasi va uning so‘z birikmasi zanjirini to‘g‘ri topishni misollar bilan tushuntirib berish maqsadga muvofiq. Shunday ma’lumotdan keyingina qoliplashgan so‘z birikmalari haqida ma’lumot berilsa, o‘quvchi mavzuni yaxshi tushuna oladi. O‘quvchida hujjat turlarining mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qoliplashgan so‘z birikmalari, qoliplashgan sintaktik tuzilmalar shakllana boshlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-sinf “Ona tili”[4] darsligida arizaning yozilish namunasi va ma’lumotnomaning yozilish namunasi berilgan. “Ish yuritish jarayonida eng ko‘p ishlatiladigan ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ma’lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimai xol, tushuntirish xati, e’lon, hisobot kabi ish qog‘ozlari ma’lumot – axborot hujjatlari sifatida umumlashtiriladi”.[5]

Ariza birinchi shaxs tomonidan yozilishi haqida ma’lumotlar berilib, keyin bu hujjat matnida ishlatiladigan qoliplashgan so‘z birikmalari izohlanishi kerak. Noan’anaviy

[1]Omonov Q. Turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomili (ilk va o‘rta asrlar): Filol. fan...diss. –T., 2016. –101-b.

[2]Mahmudov N. va boshq. Ona tili: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. –107-b.

[3]Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. –T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014. –144-b.

[4]Mahmudov N va boshq. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: Ma’naviyat, 2017. –160-b.

[5]Mahmudov N. va boshq. Ona tili: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. –107-b.

texnologiyaga oid bo‘lgan klaster metodidan foydalanish arizani yozishga o‘rgatishda yaxshi natija beradi. Bu metodni qo‘llashning ijobiy tomoni shundaki, o‘quvchilar hujjat matnidagi qoliplashgan birikmani ishlatishni o‘rganishadi.

Arizaning matn qismidagi “...ga qabul qilishingizni so‘rayman” “...ga ruxsat berishingizni so‘rayman” kabi qoliplashgan sintaktik tuzilmalar o‘quvchining hujjat matnini tuzishini yengillashtiradi. O‘quvchilar qoliplashgan so‘z birikmalari ishtirokida turli rasmiy hujjatlardan namunalar yozishadi.

“Tayinki, har bir hujjat turining mohiyati va maqsadi bilan bog‘liq ravishda o‘ziga xos qoliplashgan sintaktik tuzilmalar shakllana boradi”.[6]

“O‘zbek tilining izohli lug‘atida” analogiya so‘zi shunday izohlanadi: “Analogiya (yun.) – muvofiqlik aynanlik o‘xshashlik”.[7] Izohdagi o‘xshashlik tushunchasi berilgan namunaga qarab matn yaratish jarayoniga ko‘proq mos keladi. 9-sinf “Ona til” darsligida bayonnomadan namunaga yozish bu hujjatni tushunish va o‘zi mustaqil yoza olishi uchun asos bo‘ladi. “Namuna asosida sinf o‘quvchilari yig‘ilishining bayonnomasini yozing”.[8]

Mosini toping metodi – ushbu metodda asosan, o‘quvchi bilan o‘quvchilar, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘tkaziladi. Sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Bir o‘quvchi har bir guruhdagi o‘quvchilarga ariza va tushuntirish xatining namunasini tarqatib chiqadi. Guruhdagi o‘quvchilar berilgan hujjatlarni leksik va morfologik jihatdan tahlil qilishlari kerak. Arizada uchraydigan qoliplashgan so‘z birikmalarni o‘quvchilar topib daftarlariga yozishadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tahlillarini tekshirib chiqib, hujjatlarni mustaqil yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilarning mustaqil yozgan ishlari bir guruhdan ikkinchi guruhlarga beriladi. O‘quvchilar hujjatni yozish jarayonidagi xatolarini o‘zaro tekshiradi va o‘qituvchi eng yaxshi yozilgan tushuntirish xati va ariza yozgan o‘quvchini rag‘batlantiradi. Mos metodni qo‘llash orqali o‘quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning og‘zaki va yozma nutqi o‘sadi.

Xulosa qilib aytganda, nutq uslublari, xususan, rasmiy uslub jamiyatda millat savodxonligini belgilovchi omil sanaladi. Ona tili fanini o‘qitishda hozirgi zamon talablari asosida yondashish, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy o‘qituvchi oldida turgan asosiy talablardan biridir. Chunki an’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni tayyor ma’lumotlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, ta’lim jarayonidagi yangi innovatsion texnologiyalar o‘rgatayotgan bilimlarni o‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda izlanib topishlariga, erkin holda xulosa chiqarishga o‘rgatmoqda. Yuqori sinf o‘quvchilarining yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishini ta’minlash hayoti davomida duch kelgan har bir ish yuritish hujjatlarini o‘zlari mustaqil yozishi uchun ularga keraklicha bilim berish va yozishga o‘rgatish asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish amaliy qo‘llanma., 2-nashri O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., 2000. –16-b.

2. Mahmudov N va boshq. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: Ma’naviyat, 2017. –160-b.

[6]Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish amaliy qo‘llanma., 2-nashri O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., 2000. –16-b.

[7]Madvaliyev A. tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –81-b.

[8]Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Ona tili. Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2014.

Jumanazar HUSANOV,
fizika matematika fanlari doktori, professor
Nasriddin SHAMSIDDINOV,
fizika matematika fanlari nomzodi
Muxojara YAKUBOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi, akademik litseyi direktori

O‘QUVCHILARNING ALGEBRA MASALALARINI YECHISHDA YO‘L QO‘YAYOTGAN XATOLIKLARINING TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning algebra masalalarini yechishda yo‘l qo‘yayotgan xatoliklarining tahlili haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Algebra, xatolik, tahlil, o‘quvchilar, islohot, talab, geografiya fani, uzluksiz ta’lim, ilmiy maktab, kimyo biologiya.

В статье анализируются ошибки, которые допускают студенты при решении задач алгебры.

Ключевые слова. Алгебра, ошибка, анализ, студенты, реформа, спрос, география, непрерывное образование, научная школа, химическая биология.

The article analyzes the mistakes that students make in solving algebra problems.

Key words. Algebra, error, analysis, students, reform, demand, geography, continuing education, scientific school, chemical biology.

Mustaqillik yillarida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar maqsadi barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazkur maqsadning to‘laqonli amalga oshirilishi uchun uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, uning mazmunan ijtimoiy talablarga muvofiqlashtirishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Yurtimizda ilgaridan shakllangan ilmiy maktablar salohiyatini hisobga olgan holda, milliy manfaatlarimiz va taraqqiyotimiz yo‘nalishlaridan kelib chiqib, matematika, fizika, informatika, ingliz tili, kimyo, biologiya, geografiya fanlari va amaliy sohalarini jadal rivojlantirish belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari “Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi” deb, yoshlarni matematika faniga qiziqishni kuchaytirish, iqtidorli bolalarni tanlab olish, ixtisoslashtirilgan maktablar va keyinchalik oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish kerakligini ta’kidladi.

Umumta’lim maktablarini 9-sinfini bitirib, ixtisoslashgan maktablar va akademik litseylarga tanlov asosida qabul qilingan o‘quvchilarning matematika fanidan olgan bilimlari yetarli darajada emasligi, hozirgi kunda hech kimga sir emas. Ko‘p yillik tajribalar ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning bilimi va ko‘nikmalarida uchrayotgan kamchiliklarni yo‘qotish uchun maktab matematika kursidagi asosiy mavzu va atamalarini matematik modellashtirish orqali maromiga yetkazish mumkin.

Algebra fanida tenglamalarning ekvivalentligi (bir tenglamaning ikkinchisiga teng kuchli bo‘lishi), tenglamalarni yechishga bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechishda ko‘pchilik

o‘quvchilar quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yishadi. Masalan, $ab=0$ bo‘lishi uchun, ko‘paytuvchilardan hech bo‘lmaganda biri a yoki b nolga teng bo‘lishi kerak ekanligini bilgan holda $(x–5)(x+8)=0$ tenglamani yechish uchun aksariyat maktab bitiruvchilari bu tenglamaga teng kuchli bo‘lgan $x^2+3x–40=0$ kvadrat tenglamaga keltirib, diskriminant yordamida kvadrat tenglamani yechishga harakat qilishadi. Lekin quyidagi $(x–2)(x–4)(x+1)=0$ tenglamadan uchinchi darajali tenglama $x^3–5x^2+2x+8=0$ hosil bo‘lagani uchun bu tenglamani yechimini topishga qiynalishadi. Aslida, $(x–5)(x+8)=0$ Ψv $x–5=0$ $x+8=0$ Ψv $x=5$, $x=–8$.

Ko‘pgina o‘quvchilarning bilimidagi g‘oyat muhim bu kamchilikning sababi, o‘quv adabiyotlarda tenglamalarni yechish, tekshirish va yechishda qo‘llaniladigan umumiy va xususiy usullarning yetarli darajada yoritilmaganligidandir.

Tenglamalarning xarakteri va murakkabligiga qarab, o‘quvchilar o‘zlari turli usullar bilan masalalarni uzil-kesil hal qildim deb o‘ylaydilar. Lekin topilgan javob berilgan tenglamani qanoatlantiradimi degan savolni o‘quvchi hamisha ham tahlil qilib ko‘rmaydi. Albatta bu savolga hamma vaqt noma’lumning aniqlangan qiymatini tenglamaga qo‘yib tekshirib ko‘rish kerak. Lekin bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ba’zi hollarda noma’lumning topilgan qiymati tenglamaning ildizi bo‘lish yoki bo‘lmasligini tekshirish bir muncha qiyin bo‘lishi, hattoki, tenglamani yechishdan ham murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan:

Ushbu $\sqrt{1–x^2}=(a–\sqrt{3})^2$ irratsional tenglamani yeching (bu yerda $2/3\le a\le 3/4$).

Tenglamani yechimi $x=a^2/4(1+\sqrt{4\sqrt{1/2+1/2a^4}–3})^2$ dan iborat bo‘lib, uning faqat bitta haqiqiy ildizi mavjud ekanligini ko‘rsatish kifoya. Biroq, bu ildizni noma’lumning o‘rniga qo‘yib tekshirish juda og‘ir.

Ko‘pchilik o‘quvchilar mantiqiy fikrlashni bilmaydi, ko‘pincha nazariy bilimlarni yaxshi bilmaslik oqibati yoki to‘liq anglamasligi natijasida teoremaning ma’nosini to‘g‘ri idrok qila olmaydi.

Mavzularning formal tushunish va shunchaki yodlashning ustunligida bu namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi ishonch bilan nol sonining logarifmi mavjud emas deb aytib, logarifmik funksiya grafigini koordinatalar boshidan o‘tkazadi. Manfiy sonning logarifmlari mavjud emasligini qat’iy bilgan holda, $y=\log_a(–x)$ funksiyasining aniqlanish sohasi $x > 0$ deb yozadi.

Matematikadan o‘tkazilgan imtihonlarning tahlili natijasi o‘quvchilar algebraning ayrim bo‘limlarini mukammal o‘zlashtira olmaganlini ko‘rsatadi. Masalan:

1. Ayniyatlarni isbotlashda, ayniqsa, ildizlarni o‘z ichiga olgan ifodalarning soddalashtirish; arifmetik ildiz.

Irratsional ifodalarni ayniy almashtirishda, ildiz ostidagi ifoda nomanfiy va musbat qiymat bo‘lsa, $\sqrt[n]{a}$ ildiz arifmetik ildiz ekanligiga e’tibor qaratish kerak.

1- Misol. Ushbu $\sqrt{x+3–4\sqrt{x–1}}$ ifodani soddalashtiring.

O‘quvchilar ildiz osti ifodani quyidagicha o‘zgartirib,

$x+3–4\sqrt{x–1}=(x–1)–2\cdot 2\sqrt{x–1}+4=(\sqrt{x–1}–2)^2$.

Bundan $\sqrt{x+3–4\sqrt{x–1}}=\sqrt{x–1}–2$ natijani olishadi.

Aslida, ildiz belgisi ostidan manfiy son chiqmasligini inobatga olsak, bu ifodani $\sqrt{x+3–4\sqrt{x–1}}=|\sqrt{x–1}–2|$ yozishimiz kerak. Ifodaning aniqlanish sohasi $x \ge 1$ ekaligini topamiz.

Agar $\sqrt{x–1}–2 \ge 0$, $\sqrt{x–1} \ge 2$, $x \ge 5$, bo‘lsa,

$\sqrt{x+3–4\sqrt{x–1}}=|\sqrt{x–1}–2|=\sqrt{x–1}–2$.

Agar $\sqrt{x–1}–2 < 0$, $\sqrt{x–1} < 2$, $x < 5$, bo‘lsa,

$\sqrt{x+3}-4\sqrt{x-1}=|\sqrt{x-1}-2|=2-\sqrt{x-1}$.

Demak, agar x o‘zgaruvchi $1 \le x < 5$ tengsizlikni qanoatlantirsa, $2-\sqrt{x-1}$, agar $x \le 5$ bo‘lsa $\sqrt{x-1}-2$.

2. Teng kuchli tenglamalar.

Agar tenglamalarning yechimlari bir-biriga mos keladigan bo‘lsa, bu tenglamalar teng kuchli deb ataladi. Berilgan tenglamada shakl almashtirish natijasida unga teng teng kuchli tenglama hosil qilishda tenglama ildizi yo‘qotilishi yoki chet ildizning paydo bo‘lishidagi xatoliklar.

2-misol. Juda ko‘pchilik o‘quvchilar $x(x+2)=3(x+2)$ ko‘rinishdagi tenglamalarda tenglikning har ikki tomonini $x+2$ ga qisqartirib, $x=3$ degan natijaga erishishdi. Biroq, $x+2=0$ ni esa unutib qoldirishadi. Natijada, tenglamaning $x=-2$ yechimining yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi.

3-misol. Ushbu $\sqrt{x+5}+\sqrt{2x+8}=7$ irratsional tenglamani yeching.

Bu tenglamada x o‘zgaruvchi, aniqlanish sohasiga ko‘ra, $x \ge -4$ qiymatlarni qabul qiladi. Tenglamani ikkala tomonini kvadratga ko‘tarsak:

$x+5+2\sqrt{(x+5)(2x+8)}+2x+8=49$

yoki

$\sqrt[2]{(x+5)(2x+8)}=3(12-x)$

hosil bo‘ladi (bu tenglamadan $x \le 12$).

Hosil bo‘lgan tenglamani har ikki tomonini kvadratga ko‘tarib, soddalashtirsak $x^2-288x+1136=0$ hosil bo‘ladi, bundan tenglamaning ildizi: $x_1=4$, $x_2=284$.

Lekin, $\sqrt[2]{(x+5)(2x+8)}=3(12-x)$ tenglamani yechishda chap tomonidagi ifoda aniqlanish sohasiga ko‘ra, musbat ekanligi inobatga olindi, biroq, o‘ng tomondagi ifoda musbat bo‘lishi lozimligi esdan chiqarilib $x_2=284$ chet ildiz olishadi va javobga kiritishadi.

Bunda tenglamaning yagona yechimi $x_1=4$ ekanligini ko‘ramiz.

4-misol. Ushbu $\sqrt{(3x-1)(4x+3)}+1=3x$ irratsional tenglamani yeching.

Bu tenglamaga teng kuchli $\sqrt{(3x-1)(4x+3)}=3x-1$ tenglamaga kelamiz va bu tenglamaning ikkala qismini kvadratga ko‘tarsak:

$$(3x-1)(4x+3)=(3x-1)^2$$

Tenglamaga kelamiz. Tenglamaning har ikki tomonini $3x-1$ ga qisqartirib, $4x+3=3x-1$ tenglikka ega bo‘lamiz, bu tenglamaning yechimi $x=-4$. Lekin bu yechim berilgan tenglamani qanoatlantirmaydi, chunki tenglamaning haqiqiy yechimi $3x-1$ ifodaga qisqartirilishi natijasida yo‘qotildi: $x=1/3$. Bunda eng avvalo, tenglamani yechishdan oldin tenglikning o‘ng tomonida turgan ifodaning manfiy bo‘la olmaslik shartini tekshirish ($x \ge 1/3$) va $3x-1=0$ bo‘lganda tenglamani 0 ga bo‘lish natijasida xatolikka yo‘l qo‘yilgan.

5-misol. Ushbu $x-\sqrt{x+2}=4$ irratsional tenglamani yeching.

Bu tenglamaga teng kuchli $\sqrt{x+2}=4-x$ tenglamaga kelamiz va bu tenglamaning har ikkala tomonini kvadratga ko‘tarsak:

$$x+2=16-8x+x^2$$

hosil bo‘ladi. Bundan $x^2-9x+14=0$ kvadrat tenglamani yechimlari $x=2$ va $x=7$ ekani ma’lum. Lekin tenglamaning chap tomonida ildiz turganini hisobga olib, o‘ng tomondagi ifoda noldan katta bo‘lishni tekshirish kerak bo‘ladi. Natijada, $x=7$ tenglamani yechimi bo‘lmasligi aniqlanadi.

6-misol. Ushbu $\sqrt{x^2-9x+14}=0$ irratsional tenglamani yeching.

Bu tenglamada tenglikning chap tomonidagi ifodani ko‘paytuvchilarga ajratib,

$$(x-3)(x+3)\sqrt{x-2}=0$$

tenglikka ega bo‘lamiz. Har bir ko‘paytuvchining qiymatini nolga tenglab, $x_1=3$, $x_2=-3$ va

$x_3=2$ yechimlarni topamiz. Lekin tenglamadagi ildiz ostidagi ifoda manfiy bo‘lmasligini inobatga olsak, $x_2=-3$ tenglamaning yechimi bo‘lmaydi.

Kasrlarni o‘z ichiga olgan tenglamalarni yechishda kasrni maxraji noma’lum bo‘lgan o‘zgaruvchidan qutqariladi.

Berilgan tenglamaning maxrajini nolga aylantirgan tenglama yechimlari berilgan tenglama uchun chet ildiz hisoblanadi. Shuning uchun, chet ildizlarni chiqarish uchun topilgan yechimlarni tekshirish kerak.

7-misol. Ushbu $ctgx + sinx/1+cosx =2$ trigonometrik tenglamani yeching.

$$ctgx + sinx/1+cosx =2 \ \Psi v \ cosx/sinx + sinx/1+cosx = \Psi v$$

$$cosx+cos^2x+sin^2x=2sinx+2sinxcosx \ \Psi v$$

$$cosx+1=2sinx(1+cosx)$$

Bundan 1) $1+cosx =2$, $cosx = -1$, $x_1= \pm \pi + 2k\pi, \ k \epsilon Z$;

2) $2sinx=1$, $sinx=1/2$, $x_2=(-1)n \ \pi/6 + n\pi, \ n \epsilon Z$.

$x_1=\pm\pi + 2k\pi, \ k \epsilon Z$ topilgan ildiz tenglama uchun chet ildiz bo‘lgani uchun bu yechimni qabul qilmaymiz. Chunki $x_1=\pm\pi + 2k\pi, \ k \epsilon Z$ qiymatda maxrajdagi $sinx$ nolga teng bo‘ladi.

Tenglamaning har ikkala tomonini noma’lum bo‘lgan ifodaga bo‘lish orqali yechimlardan birini yo‘qotish o‘quvchilar orasida juda keng tarqalgan; bo‘luvchi nolga teng bo‘lgan holda yechim yo‘qolishi mumkin.

8-misol. Ushbu logarifmik $lgx(1-lgx)=lg^2x$ tenglama yeching.

Tenglamani har ikki tomonini lgx ga bo‘linib, $1-lgx=lgx$ yoki $2lgx=1$, $lgx= 1/2$, $x=\sqrt{10}$ ni oling.

Bunday holda, $x=1$ yechim yo‘qoladi. lgx qiymati $x=1$ da nolga aylanadi, ya’ni, tenglamaning har ikki tomoni nolga teng bo‘ladi va $x=1$ berilgan tenglamaning ikkinchi yechimidir.

Yechimlarning yo‘qolishi va chet ildizlarni hosil bo‘lishi o‘quvchilar orasida juda keng tarqalgan xatosi hisoblanadi.

3. Tengsizliklar va tengsizliklar sistemasi.

Tengsizlik sistemalarini yechishda ko‘pincha sistemaning tengsizligi uchun umumiy bo‘lgan yechimlarni tanlashda qiyinchilik tug‘diradi.

9-misol. Funksiyasini aniqlanish sohasini toping $y=\sqrt{x^2-7x+12/x^2-2x+3}$.

Ildiz ostidagi ifoda nomanfiy bo‘lishini tekshiramiz: $x^2-7x+12/x^2-2x+3\geq 0$. Bundan $\{x^2-7x+12\geq/x^2-2x+3>0$ yoki $\{x^2-7x+12\leq/x^2-2x+3<0$ ekani kelib chiqadi.

Birinchi sistemaning birinchi tengsizligi yechimiga $x \leq 3$, $x \geq 4$ ega, ikkinchisi har qanday x da qondiriladi, shuning uchun birinchi sistemaning yechimidagi x qiymatlari birinchi va ikkinchi tengsizliklar uchun o‘rinli, ya’ni $x \leq 3$, $x \geq 4$.

Ikkinchi sistemaning birinchi tengsizligi $3\leq x\leq 4$ yechimiga ega, ikkinchi tengsizlik yechimga ega emas, shuning uchun ikkinchi tengsizlik sistemasi yechimlarga ega emas.

Shunday qilib, y ning aniqlanish sohasi $x \leq 3$, $x \geq 4$ tengsizligi bilan belgilanadi.

Tengsizliklar sistemasi yechishda faqat bunday o‘zgarishlar qo‘llanilishi mumkin, natijada, standart ko‘rinishdagi tengsizlikka kelamiz. Shuni esda tutish kerakki, agar tenglama uchun chet ildizlar tekshiruv bilan aniqlanishi mumkin bo‘lsa, unda bu usul tengsizlikka nisbatan qo‘llanilmaydi.

4. Logarifmlar.

Akademik litsey o‘quvchilari logarifmik va ko‘rsatkichli funksiyalarning xossalarini yaxshi bilishmaydi, sababi funksiyaning xossalarini uning grafigiga ko‘ra ko‘rib chiqish qiyin kechadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik o‘quvchilar yig‘indining logarifmini, logarifmlar yig‘indisiga teng deb tasavvur qilishadi, ayirmaning logarifmini logarifmlar ayirmasi bilan, logarifm darajasi bilan logarifm ostidagi ifodaning darajasini almashtiradi va h.k. Masalan, ba’zi bir o‘quvchilar $lg(3x–11)+lg(x–27)$ tenglamaning o‘rniga $lg(3x)–lg11+lgx–lg27=3$ tenglmani; boshqa holda, $lg\sqrt{10+x – lg10=lg3–lg\sqrt{x–1}}$ logarifmik tenglama o‘rniga $\sqrt{10+x – 10=3–\sqrt{x–1}}$ tenglamaga almashtirgan yoki quyidagi ifoda ham noto‘g‘ri yozilgan: $1/2\ lg\ (x–1)= 1/2\ lgx – 1/2\ lg1= 1/2\ lgx – 1/2$.

5. Trigonometrik tenglama va tengsizliklar.

Trigonometrik masalalarni yechishda o‘quvchilar ko‘pincha ildizlarini yo‘qotadilar va yuqorida aytib o‘tilganidek, xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ko‘pchilik o‘quvchilar, odatda trigonometriya formulalarini yaxshi o‘zlashtirishmay imtihonlarda katta xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Misol uchun, quyidagicha almashtirishlar qilishadi:

$cos7x/cos5x = cos2x$; $sin^4(x+ \pi/4)=sin^4x+sin^4\ \pi/4$;

$sin^2x–sin2x=sinx(sinx–sinx)$, $sin3x–sin2x=sinx$.

Ayirmaning sinusi va kosinusini hisoblashda, ayirmaning sinusini sinuslar ayirmasiga almashtirishadi. Misol uchun, $sin(90–5x)=sin90–sin5x$.

Ko‘pchilik trigonometrik funksiyaning ushbu qiymatiga mos keladigan burchaklarning umumiy ifodalarini bilmaydi va trigonometrik tenglamalarni yechishda cheksiz ko‘p sonli yechimlar o‘rniga faqat bitta yechim yozishadi.

Natijani tekshirish kerakmi? Misol uchun, tenglama yechimida uning tengligini buzadigan o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, unda tekshirish kerak. Masalaning shartiga mos kelmaydigan yechimlarni bartaraf etish uchun masalani yechishda tahlil qilish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlanadi, ixtisoslashgan maktab va akademik litseylarda rivojlantiriladi va ustozlar nazorati ostida davom etadi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish: bilim, ko‘nikma va malaka hamda amaliy faoliyat usullarini shaxsiy tajribaga aylantirish imkoniyatini beradi; o‘quvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, mustaqilligi, ijodiy faolligini oshirishini kafolatlaydi; yaxlit majmuaviy kompetensiyalarni egallashni shart qilib qo‘yadi. Shuni unutmaslik kerakki, matematik kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduhamidov A.U., Nasimov X.A., U. M. Nosirov, J. H. Husanov “Algebra va matematik analiz asoslari”. I, II qism. Akademik litseylar uchun darslik. –T., 2008-y.

2. Брызгалова С.И., Ильина М.В., Ротенкова Т.Н. Педагогические условия формирования ключевых компетенций учащихся основной школы: Монография. – Калининград: БФУ им. И. Канта, 2011.

Sevara AXMETOVA,
Guliston davlat universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

OILADA OTA-ONANING OBRO'SI – MILLIY TARBIYANING ASOSI

Annotatsiya

Maqolada oilada tarbiya asoslari, oilada ota-onaning o'rni, ahamiyati va to'g'ri tarbiya oiladagi sog'lom muhitga, ota-ona obro'si hamda o'zaro munosabatlarning muvozanatiga bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni haqida Sharq va G'arb olimlarining qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Oila, tarbiya, ota-ona obro'si, shaxsiy ibrati, farzand tarbiyasi, mas'uliyat, burch.

В статье рассматриваются основы воспитания в семье, роль и значение родителей в семье, а также зависимость правильного воспитания от здоровой атмосферы в семье, авторитета родителей и баланса их отношений. Также были проанализированы взгляды восточных и западных ученых на роль родителей в воспитании детей.

Ключевые слова. Семья, воспитание, родительский авторитет, личный пример, воспитание детей, Исламское видение, ответственность, долг.

The article focuses on the basics of Family Education, the role and importance of parents in the family, and the right education depends on the healthy environment in the family, the reputation of parents and the balance of relations. Also analyzed are the views of eastern and Western scholars on the role of parents in the upbringing of children.

Key words. Family, upbringing, parental reputation, personal identity, raising children, Islamic outlook, responsibility, duty.

Oilalarda sog'lom psixologik muhitni ta'minlanganligi, bu oilani baxtli ekanligini ko'rsatuvchi mezon sanaladi. Afsuski, ko'plab ijtimoiy masalalar tevaragida o'ralashib qolgan oilalarda nosog'lom muhit yuzaga kelib, muammoli holatlar kuzatilmoqda. Bunda, avvalo, ota-onalarni o'z vazifalarini to'laqonli anglab yetmaganliklari tufayli, ayniqsa, ularda pedagogik va psixologik bilim va ko'nikmalarini sayoz ekanligi oqibatida ajrim holatlari kuzatilmoqda.

Bugungi kunda davlat siyosatining mazmun-mohiyatida oilalarni har tomonlama o'rganish, oiladagi muhit va shaxslararo munosabatlarni sog'lomlashtirish, sharoit va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda yangi ish o'rinlarini yaratish, ya'ni "Har bir oila tadbirkor" shiori ostida keng ko'lamli yaratuvchanlik an'analarini ilgari surish, azaliy qadriyatlarni oilada asrab-avaylashga e'tibor qaratish kabi masalalar, oiladagi qator muammolarni, jumladan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlarni ham hal etishga amaliy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq mutafakkirlari ta'limotlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan birlashtirgan yagona pedagogik asos farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni masalasidir. Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Avloniy kabi buyuk allomalarimizning oilada ota-ona obro'si, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatiga tegishli ilg'or fikrlari avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelmoqda.

Inson kamoloti, baxti, dinga bo‘lgan munosabati bevosita oilada ota-onaning mas’uliyati, o‘rni va ota-onalik burchi bilan bog‘liq ekanligi Farobiyning qarashlarida o‘zi fodasini topgan.

Beruniyning “Mineralogiya” asarida er-xotinning bir-birini hurmat qilishi, oila farovonligi hamda farzand tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, bola tarbiyasida ota-ona bir xil talab va maqsad qo‘ymog‘i lozimligi uqtirilgan.

Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlari ijtimoiy asosga qurilgan bo‘lib, bolaga qattiq tan jazosini berib tarbiyalagandan ko‘ra, ota-onaning shaxsiy ibrati samarali bo‘lishligi va bu jarayon ota-ona obro‘sining oshuviga olib kelishi muqarrarligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Asosiy qism. Qadimiy madaniy merosimiz hisoblangan “Avesto”da ham naslning pokligi oilada er-xotinning bir-biriga e’tibori, hurmati va obro‘siga bog‘liqligi alohida ta’kidlangan.

Oilada barkamol shaxsni tarbiyalashning falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarini faylasuf, huquqshunos, sotsiolog olimlar N.Ashurova, E.Asamiddinov, A.Begmatov, M.Bekmurodov, M.Yo‘ldoshev, I.Karimov, D.Kenjayeva, G.Matkarimova, U.Muhammadiyev, K.Najmiddinova, S.Otamurodov, D.Rahimboyeva, Z.Ro‘ziyev, Z.Soliyeva, Sh.To‘rayev, A.Erkayeva, I.Ergashev, M.O‘razaliyev, I.Quvondiqov va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan. Oilada bola tarbiyasining pedagogik-psixologik jihatlari M.Abdullayeva, M.A.Abdullayeva, F.Abdurahimova, G.Aripova, G.Alimova, Sh.Atadjanova, M.Inomova, S.Yo‘ldosheva, O.Musurmanova, A.Munavvarov, M.Mahmudova, A.Muxsiyeva, T.Narbayeva, Sh.Shodmonova, Z.T.Saliyeva, F.Xidirova, S.Chiniyeva, M.Quronov va boshqa pedagog olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Z.Abduraxmanova, D.Anvarova, M.Davletshin, N.Dalimova, G.Niyozmetova, A.Qodirova, E.G‘oziyev, G‘.Shoumarov va boshqa psixolog olimlar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o‘rganilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.P.Azarov, E.L.Belousova, L.I.Bojovich, M.I.Buyanov, I.V.Grebennikov, T.V.Gevorkyan, S.V.Dzyubenko, E.P.Ilin, I.Y.Kulchitskaya, M.G.Lichutina, V.T.Lisovskiy, I.V.Patsora, I.F.Xarlamov, I.N.Chernova, S.Shteynlarning pedagogik tadqiqotlarida jamiyatning bolalar huquqlarini himoyalashdagi roli, oila va bolalarni ijtimoiy himoyalashga yo‘naltirilgan faoliyat mazmuni tadqiq qilingan. Oila tarbiyasi muammolari bilan ilmiy izlanishlar olib borgan 7 xorijiy mamlakatlar olimlari: E.Le Sham, Benjamin Spok, Ada Della Torre, Mariya Zemska, Klinton, Xillari Rodem tomonidan ota-ona va bola o‘rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar va uning sabablari aniqlangan.

Xalq og‘zaki ijodiga oid deyarli barcha asarlarda oilada ota-ona obro‘si masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, rivoyatlarning birida kechasi ota uyqudan uyg‘onib suv so‘raydi. O‘g‘li suv keltirguncha otasi yana uxlab qoladi. O‘g‘li “otam suv so‘rab qolsa noqulay bo‘lmasin”, – deb tong otguncha otasi qoshida uxlamay o‘tiradi.

Ikkinchi rivoyat. Farzand onasini yelkasida ko‘tarib Haj safariga olib boradi. Safar tugagach u: “Ona xizmatimdan rozimisiz?” – deb so‘raydi. Shunda ona o‘g‘liga “Bu ishing bilan bor-yo‘g‘i oq sut berib, bir kecha qaraganimning hissasini chiqarding xolos” degan ekan.

Bu kabi rivoyatlarning barchasida farzandning ota-ona oldidagi vazifasini his etib yashashi ko‘rsatiladi. Demak, milliy tarbiyamizda insoniylik g‘oyalari ruhida tarbiyalangan farzand ota-onasining nasihatlariga amal qiladi, ota-ona hurmatini joyiga qo‘yadi, har doim ularning xizmatida bo‘ladi.

Qur’oni Karimda “Parvardigoringiz, yolg‘iz uning o‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etadi. Agar ularning birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab “uf” dema va ularning so‘zlarini qaytarma! Ularga yaxshi so‘z ayt. Ular uchun mehribonlik bilan xorlik qanotini past tut – xokisor bo‘l va: “Parvardigorim meni ular go‘daklik chog‘imdan tarbiyalab o‘stirganidek, sen ham ularga rahm-shavfqat qilgin, deb haqlariga duo qil” (Niso surasi, 22-24-oyatlar) deya ta’kidlanadi.

Aksariyat ota-onalar bolamga tarbiya berayapman deb navbatchi so‘zlar bilan cheklanishadi. Ya’ni: “Sho‘xlik qilma”, “to‘g‘ri yur”, “gap qaytarma”, “darsingni qil”, “maktabdan kech qolma” va hokazo. Bunday so‘zlarning pedagogik ta’siri bo‘lmaydi.

Tajriba. Ayniqsa, oilada bolani nazoratsiz qoldirish mumkin emas. Nazoratsizlik mas’uliyatsizlikni keltirib chiqaradi. Mas’uliyatsizlik – befarqlik, beg‘amlik va o‘z bilarmonchilikka olib keladi. Nazoratsizlik oqibatida o‘smir yoshidagi bola mudhish jinoyatga qo‘l urdi. Yaqinda Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari sudida bu masala zimdan o‘rganilib, jinoyatchi o‘smirga olti yil qamoq jazosi tayinlandi. Qo‘l telefoni va internetdan to‘g‘ri va maqsadli foydalanmaslik ham bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Olib borayotgan tadqiqotlarimiz o‘laroq oilalarni yosh jihatdan uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1. Yosh oila (23-25-30 yosh)
2. O‘rtacha yosh oila (31-40 yosh)
3. Katta yoshli oila (41-50 yosh)

O‘rtacha yosh oilaning bolalari asosan, balog‘at yoshida bo‘lishadi. Bu yoshda ota-onalar bola tarbiyasiga e’tiborsizroq bo‘lishadi. “Bolam katta bo‘lib qoldi, o‘zining aqli bor, ha deb ishlariga aralashaverish noqulay yoki tergayverish yaxshi emas”, – deb o‘ylashadi. Aynan mana shu joyda ota-ona qattiq yanglishadi. Balog‘at yoshidagi bolani umuman nazoratsiz qoldirib bo‘lmaydi. Uning kun tartibi, sutkalik rejimi oilada aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Aks holda bekorchilik, telefon o‘ynash, internetga kirish va boshqa o‘ziga “ko‘ngilochar” qiliqlarni o‘ylab topish bolani jinoyatga yetaklashi mumkin. Chunki, qarovsiz bola maktabga bormaydi, yaxshi o‘qimaydi, oilada qiladigan ishining tayini bo‘lmagach, alohida ongi shuuriga mos guruhlarga qo‘shilib qolganini o‘zi bilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda talaygina otalarning mavqei oilada pasayib borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Axir, erkak oila yukini tortmasa, ishsizlik bahona uyida o‘tirsa, ichkilikka yoki ulfatchilikka ruju qo‘ysa ona nima qilsin? Aksariyat hollarda onalar o‘zlarini tijoratga urib, bozorga chiqib ketishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Eng yomoni-tashqi migratsiyaning ta’sirida xorijda yurgan ayollarning ahvoli haqida nima deyish mumkin? Bunday oilalarda ibrat, ota-ona obro‘si qayerda qoladi. Qarovsiz qolgan begunoh bolaning holi nima bo‘ladi?

Oila ishi mamlakatimizda birinchi darajali davlat siyosatiga aylanib borayotgan bir sharoitda, mutlaqo yangidan tashkil topgan “Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazlari”ning faoliyatini yetakchi ilmiy kadrlar bilan ta’minlash, markaz faoliyatiga oid ilmiy-amaliy izlanishlar olib borib, notinch va nizoli oilalarda sog‘lom pedagogik muhit yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat. – T.: O‘qituvchi, 2010. – 160-b.
2. Abdukarimov H. Oila pedagogikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2020-yil.

Dilobar YAKUBJANOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

O'QITUVCHI-SURDOPEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIKLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni bo'yicha o'z takliflarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy kompetentlik, surdopedagog, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, bilim, malaka, sifat, daraja.

В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности сурдопедагогов. Автор изложил свою тактику о роли педагогических технологий в развитии профессиональной компетентности сурдопедагогов.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, сурдопедагог, инновация, педагогические технология, знания, квалификация, качество, степень.

The article deals with the development of professional competence of sign language teachers. The author outlined his tactics on the role of pedagogical technologies in the development of professional competence of sign language teachers.

Key words. Professional competence, sign language teacher, innovation, pedagogical technologies, knowledge, qualification, quality, degree.

Innovatsion texnologiyalarning bugungi kunda ta'limga tobora keng joriy qilinishi bejiz emas, albatta. Ular g'oyat qimmatli xususiyatlarga ega: ular muloqot doirasini kengaytirish, moslashuvchan interaktiv muhitni yaratish, bilim sifatini, kommunikatsiya darajasini oshirish va h.k. imkonini beradi. Bundan tashqari, o'qituvchi-surdopedagoglarga oid butun ta'limiy dasturlarda jismoniy va psixik rivojlanishida har xil turdagi kamchiliklar bo'lgan bolalar bilan ishlashda izlanuvchanlik, ijodkorlik, tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga qaratilgan.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi o'tgan asrning 60-yillarida hayotga kirib keldi. 1966-yildan e'tiboran Angliyada ikki yilda bir marta konferensiya o'tkazila boshladi va uning natijalari "Aspects of Educational Technology" nomli kitobda nashr qilib borildi. Amerika pedagogika jurnallarida ham xuddi shu termin qo'llana boshladi. Texnologiya (yunoncha techne – san'at, mahorat, malakalar va logiya – fan) – xom-ashyo, materiallar, axborotni olish, ishlash va qayta ishlash usullari va yo'llarining majmui. "Texnologiya", "axborot texnologiyasi", "pedagogik texnologiya" tushunchalari ilmiy-pedagogik atamalar lug'atida mustahkam o'rnashib oldi va hammadan ko'p qo'llanadigan atamalardan biriga aylandi.

Har qanday mamlakatning ta'lim tizimlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining asosiy masalalarini amalga oshirishga yordam berish uchun yo'naltirilgan bo'ladi, chunki, faqat maktab va oliy ta'lim kishilarni jamiyat iqtisodiy, madaniy, siyo-

siy hayotining turli jabhalarida aktiv faoliyat ko‘rsatishga tayyorlaydi. Shuning uchun maktab jamiyat hayotida ta’limning muhim bo‘g‘ini sifatida hamma vaqt asosiy o‘rin egallab keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda faoliyat yuritib kelayotgan o‘qituvchilarni ham tegishli islohotlar amalga oshirilishi talab qiladi.

Mashhur amerikalik pedagog I.Gudled[1] hozirgi texnologiyalar zamoni jamiyatida maktabning o‘rni haqida so‘z yuritar ekan, jumladan, shunday deydi: “Muntazam, muttasil qo‘llab-quvvatlanib turadigan ta’lim jarayonini maktab va faqat maktab ta’minlashi mumkin, bu jarayonning mohiyati esa bilimlar, malakalar, munosabatlar, qadriyatlar, hissiyotlarni avloddan-avlodga uzatishdan iborat”. I.Gudled hozirgi zamonda maktab oldida turgan talablarga javob beradigan o‘n ikkita ustuvor maqsadni asoslab berdi. Ulardan eng muhimlari – 1) o‘quvchilarning asosiy ko‘nikmalar va fundamental jarayonlarni egallab olishlari (o‘qish, yozish, nutq, matematik tushunchalar va amallar), 2) o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi (o‘quvchilarning tafakkurni, muammolarni hal qila olish malakalarini, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish), 3) kasb tanlash va ta’limni davom ettirishga tayyorlash. Qolgan maqsadlar quyidagilardan iborat: fuqarolik tarbiyasi; ijobiy “Men” – konsepsiyani va shaxslararo munosabatlar ko‘nikmalarini rivojlantirish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish; emotsional va jismoniy rivojlantirish; axloqiy tarbiya.[2]

Ta’lim tizimlari rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini belgilash muammosi hayajonga solmagan mamlakat jahon hamjamiyatida kam topilsa kerak. Amerikalik pedagog Filip S.Shlexti o‘zining “XXI asr maktabi. Ta’lim islohotining ustuvorliklari” kitobida, ko‘plab tadbirkorlar, ish beruvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga tayanib, “Siz maktabdan nima xohlaysiz” savoliga asosan bir xil javob olinganini ta’kidlaydi: “Bizga o‘zlari mustaqil o‘qib o‘rganadigan odamlar kerak”[3]. Bu tabiiy hol: agar o‘quvchi qanday o‘qib o‘rganish kerakligini bilsa, u maqsadga erisha oladi, agar u kitob ustida ishlay olsa, o‘qituvchidan bilimlarni ola bilsa, u yoki bu muammoni hal qilish uchun kerakli axborotni mustaqil qidirib topib, undan foydalana bilsa, bu holda unga o‘z kasbiy saviyasini oshirish, boshqa kasbni egallash, qo‘shimcha bilimlarga ega bo‘lish osonroq kechadi. Hayotda aynan shular kerak emasmi? Lekin, o‘quvchilarni bularga o‘rgatish ularni o‘qish, yozish, sanash, har xil fanlar bo‘yicha turli-tuman bilimlar majmuini o‘zlashtirishga o‘rgatishdan qiyinroq, albatta.

F.S.Shlextining ishonch bilan ta’kidlashicha, agar maktab o‘quvchilari maktab dasturining asosiy kursini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan, o‘z bilimlarini tanish vaziyatlarda qo‘llay oladigan, diplomga ega bo‘lgan bo‘lsalar-u, biroq axborot ustida mustaqil ishlay olmasalar va bilimlarni mustaqil egallay olmasalar, XXI asrda AQShning axborot jamiyatida muvaffaqiyat qozonishlari oson bo‘lmaydi. Bu fikr axborot texnologiyalari jadal rivojlanib kelayotgan har bir mamlakat uchun to‘g‘ri.

Shunday ekan, uchinchi ming yillikda yashab mehnat qiladigan hozirgi zamon o‘quv muassasasi (maktab, kollej, litsey, oliy ta’lim muassasasi)ning bitiruvchisi shaxsga xos muayyan sifatlarga ega bo‘lishi lozim, xususan:

– o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga tez moslashishi, kerakli bilimlarni mustaqil egallashi, ularni o‘zining amaliy faoliyatida turli muammolarni hal qilishda mohirona

[1] Goodlad. What school are for? – Bloomington < 1994.

[2] Qarang: Гершунский Б.С. Россия и США на пороге нового тысячелетия. – М.: Флинта, 1999.

[3] Qarang: Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб. пособия для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров/ Под ред. Е.С.Полат. – М.: Издательский центр Академия, 2001, – С.7.

qo‘llay olishi, pirovard natijada butun hayoti davomida undan o‘z o‘rnini topa olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;

– tanqidiy fikrlay olishi, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni ko‘ra bilishi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ularni bartaraf etishning maqbul yo‘llarini topa bilishi, egallagan bilimlaridan qachon va qayerda foydalanish mumkinligini aniq tasavvur qilishi; yangidan-yangi g‘oyalarni ilgari sura olishi, ijodiy fikrlashi;

– axborotdan oqilona foydalana olishi (biron masalaning tadqiqi va yechimi uchun kerakli ma’lumotlarni to‘play olishi, ularni tahlil qilishi, umumlashtirishi, asosli xulosalarga kela olishi va h.k.);

– turli ijtimoiy guruhlarda muloqot qila olishi, kirishimli bo‘lishi, jamoada ishlay olishi, bahsli vaziyatlarni bartaraf eta olishi yoki bunday vaziyatlardan munosib chiqib keta olishi;

– o‘zining axloqiy qiyofasi, intellekti, madaniy darajasini rivojlantirish ustida ish olib bora olishi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan shu narsa ayonki, turli mamlakatlar pedagog-olimlarining ta’lim tizimini rivojlantirishga nisbatan qarashlari umuman olganda, bir-biriga o‘xshash va bir-birini to‘ldiradi. Postindustrial jamiyatga mustaqil fikrlaydigan, o‘zini-o‘zi namoyon qila oladigan va albatta, bunda o‘ziga-o‘zi obyektiv baho bera oladigan kishilar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гершунский Б.С. Россия и США на пороге нового тысячелетия. – М.: Флинта, 1999.

2. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб. пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров/ Под ред. Е.С.Полат. – М.: Издательский центрь Академия, 2001, С.7.

3.To‘rabekov F. “Axborot texnologiyalari texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish vositasi sifatida”. Архив научных исследований, т. 1, вып. 44, февраль 2021 г.

4. Мусурманова О. М. Повышение педагогической компетенции субъектов образовательного процесса в сфере педагогического менеджмента //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 3. – С. 92-95.

5. Шарипова, Д. Д., Мусурманова, А., Шахмурова, Г. А., & Каримова, С. И. (2013). Реализация здоровьесберегающих технологий в вузе–важная составная часть модернизации образования. Педагогика и современность, (2), С. 125-128.

Eldorbek RASULOV,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining islohotlarni joriy etilishini ta'minlash, nazoratini amalga oshirish va tahlil qilish departamenti direktori

LOYIHAVIY BOSHQARUVGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim muassasalariga loyihaviy boshqaruv tizimini joriy etishning nazariy va uslubiy asoslari ochib berilgan. Jumladan, dunyodagi bir qator ilg'or mamlakatlarning olimlari va amaliyotchilari tomonidan loyihaviy boshqaruv va unga raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari bo'yicha yondashuvlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Inson kamoloti, tizimli yondashuv, tarkibiy-funksional tahlil, dasturiy-loyiha yondashuvi, innovatsion faoliyat, modernizatsiya qilish, jarayon va protseduralar, strategik menejment.

В статье рассматривается теоретико-методологические основы внедрения систем проектной управления в образовательных учреждениях. В частности, проанализированы подходы к управлению проектами и теоретико-методологические основы внедрения в него цифровых технологий ученых и практиков из ряда передовых стран мира.

Ключевые слова. Человеческая развития, системный подход, структурно-функциональный анализ, программно-проектный подход, инновационная деятельность, модернизация, процессы и процедуры, стратегический менеджмент.

The article provides theoretical and methodological foundations for the implementation of project management systems in educational institutions. In particular, approaches to project management and theoretical and methodological foundations for the introduction of digital technologies into it by scientists and practitioners from a number of advanced countries of the world are analyzed.

Key words. Human development, systems approach, structural and functional analysis, program and project approach, innovation, modernization, processes and procedures, strategic management.

Mamlakatimizning haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilishda, inson kamoloti masalasining eng muhim omilaridan biri bo'lgan xalq ta'limi sohasidagi boshqaruv tizimining takomillashtirish jarayonlari bilan birgalikda amalga oshib bormoqda. Biroq, axborotlashish jarayonlarini jadallashishi oqibatida xalq ta'limi sohasi zimmasiga yuklangan funksiyalarni bajarishi uchun boshqaruv usullarini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish loyihalari uchun mablag'larni jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadallik bilan o'zlashtirish masalalari yuzaga keladi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan texnik va texnologik rivojlanish, ma'muriy boshqaruvning zamonaviy usul va uslublarini kirib kelishi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni boshqarish usullari doirasini kengaytirish zaruriyati va dolzarbligini kuchaytiradi. So'nggi yillarda nafaqat davlat organlari, balki korxona va tashkilotlar, firma va kompaniyalar faoliyatiga ham loyihaviy yondashuvni joriy etish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu munosabat

bilan ilmiy tadqiqot ishimizning maqsadi – loyihalarni boshqarish nazariyasini tushunish va unga raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish ekanligi buning dolzarbligini ifodalaydi.

Xalq ta’limi tizimida loyihaviy boshqaruv tizimini joriy etishning ilmiy-tadqiqot usullari mantiqiy, tizimli yondashuvlar, tarkibiy-funksional tahlil, umumlashtirish usuli, statistik, guruhlash, namunalar, taqqoslash va umumlashtirish, shuningdek, grafik va jadval ma’lumotlarini vizuallashtirish usullari qo‘llash masalalari tadqiq markazida bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, ijtimoiy soha va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ijtimoiy muammolarni hal qilish zarurati va cheklangan resurslar bilan bog‘liq. Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliyotini o‘rganish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda turli xil yondashuvlar mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. T.V.Uskova[1] ularning asosiylari sifatida tizimli, funksional, dasturiy-maqsadli, loyihaviy, marketing, qiymatga yo‘naltirilgan usullarni o‘z tadqiqotlarida qayd etgan.

Ta’lim muassasalarini samarali boshqarishning eng ommabop dasturiy maqsadli usuli loyihaviy boshqaruv usuli bo‘lib, nafaqat ijtimoiy soha obyektlari, balki xo‘jalik yurituvchi korxona va tashkilotlarni ham rivojlantirishning asosiy strategik ustuvorliklarini bajarishga qaratilgan aniq maqsadlarga erishish dasturlarini, ular tarkibidagi loyihalar jamlanmasini shakllantirish, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish va amalga oshirishni, resurslarni talab qiluvchi, o‘tkir muammolarni hal qilishni, chora-tadbirlarni ishlab chiqishni, shuningdek, muvofiqlashtirishni ta’minlaydi.

Biroq, zamonaviy bozor sharoitida moliyaviy va boshqa manbalarning konsentratsiyasi masalasida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyat ijtimoiy jarayonlarni, jumladan, ta’lim va tarbiya muassasalarini boshqarish va kompaniyalar faoliyatiga loyihaviy yondashuv tizimini joriy etish dolzarbligi va zarurligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, loyihalarni boshqarishning ilmiy-uslubiy ta’minotining yetarli darajada rivojlanmaganligi, uni davlat organlari hamda davlat ulushi aksariyat qismini tashkil etuvchi kompaniyalarda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi va ushbu muammoni hal qilishda ilmiy hamjamiyatni keng ishtirokini talab qiladi. Mazkur masalalar qator olimlarning[2] ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan.

Jumladan, dasturiy-loyiha yondashuvi asosida ijtimoiy soha obyektlari rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishga salmoqli hissa qo‘shganlar. Xususan, D.A.Gaynanov[3] o‘zaro hamkorlikning har bir darajasi, jumladan, strategik, dasturiy va loyihaviy iqtisodiy agentlarning manfaatlarini kelishib olish algoritmini ishlab chiqqan. Loyihaviy boshqaruv metodologiyasining turli jihatlari D.Y.Revin[4], A.Kovalyov va I. Kurdyumovning[5] asarlarida keltirilgan. N.B. Groshevni

1 Ускова, Т. В. Управление устойчивым развитием региона [Текст] / Т. В. Ускова. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2009. – С.355.

2 Игнатова, А. М. Применение проектного метода в государственном управлении современной России / А. М. Игнатова // Маркетинг MBA. Маркетинговое управление предприятием. – 2016. – № 1. – С. 176–189. Рудаков, А. А. Сравнительный анализ традиционной методологии проектного управления и гибкого управления инновационными проектами / А. А. Рудаков // Экономика предпринимательства. – 2012. – № 6 (29). – С. 292–294.

3 Гайнанов, Д. А. Методологические аспекты реализации программно-проектного подхода в стратегическом управлении развитием территории // Управление экономикой: методы, модели, технологии. Материалы XV Международной научной конференции. – В 2 томах. – 2015. – С. 38–42.

4 Ревин, Д. Ю. Использование проектного подхода к управлению в России / Д. Ю. Ревин, П. С. Зеленский // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. – 2010. – Т. 2. – № 6. – С. 120.

5 Ковалев, А. Управление проектом по созданию интернет-сайта [Текст] / А. Ковалев, И. Курдюмов. – М.:

tadqiqotlarining predmeti esa loyihaviy boshqaruvni kompaniyalarning innovatsion faoliyatini iqtisodiy tizimga integratsiyalash shartlari va mexanizmlarini baholash masalalariga bag‘ishlangan.

Odessa dengiz Akademiyasi Milliy universiteti olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot[6] rejalashtirish va loyihalarni boshqarish sohasidagi vosita sifatida loyiha resurslari xaritasini tuzish va saqlash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bundan tashqari, muallif mumkin bo‘lgan xatarlarni va tegishli faoliyatni oldindan aniqlashga imkon beradigan resurslar va moliyaviy investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlarga qarab loyiha operatsiyalarining tasnifini taqdim etgan.

V.N.Leksin va B.N.Porfirev[7], S.V.Posledov[8], Y.Savchenko[9], D.A.Sinyavskiy[10], N.A. Goncharova[11], A.A. Geyzer[12] davlat boshqaruvi va davlat ulushi katta bo‘lgan kompaniyalarga nisbatan loyihaviy boshqaruv tizimini joriy etish rejalarini ishlab chiqish bilan bir qatorda ta’lim va fan sohasida ushbu yondashuvdan foydalanish muammolarini tadqiq etganliklarini ko‘rish mumkin. A.I.Tatarkin va sohaning boshqa ekspertlari ham “...kompaniya-muassasalarning muayyan vazifalarini hal qilish uchun faqat va faqat dasturiy-loyihaviy yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak”[13] deb ta’kidlaydilar.

1-jadval.

Loyihaviy boshqaruv bo‘yicha yirik zamonaviy uyushmalar va xalqaro standartlarni

№	Yirik uyushmalar	Loyihaviy boshqaruv bo‘yicha yirik uyushmalarning nomlari va tavsifi
1)	PMI	Loyihalarni boshqarish bo‘yicha Amerika instituti (Project Management Institute)
2)	AFIRO	Fransuz informatika va oqilona tadqiqotlar uyushmasi (Association Fran aised Informatiqueet de Recherche Op rationnelle)
3)	IPMA	Xalqaro loyihalarni boshqarish assotsiatsiyasi (International Project Management Association)

Альпина Паблишер, 2001. – С. 337.

[6] Чимшир, В. И. Методика построения ресурсных карт в проектном управлении / В. И. Чимшир // Восточно-Европейский журнал передовых технологий. – 2012. – № 8 (58). – С. 49-53.

[7] Лексин, В. Н. Проблемы и перспективы использования проектного подхода в управлении развитием российской Арктики / В. Н. Лексин, Б. Н. Порфирьев // Модернизация. Инновации. Развитие. – 2015. – № 4 (24). – С. 10-18.

[8] Последов, С. В. Индикативный подход в проектном управлении развития территории [Текст] / С. В. Последов, Т. О. Толстых, Д. В. Толстых // Дельта науки. – 2016. – № 1. – С. 40-45.

[9] Савченко, Е. Белгородская область: проектное управление для муниципальных инициатив [Текст] / Е. Савченко // Самоуправление. – 2012. – № 2. – С. 6-7.

[10] Синявский, Д. А. Исследование практики управления проектами в органах государственной власти и местного самоуправления (на примере Владимирской области) [Текст] / Д. А. Синявский, Н. В. Моргунов, Т. Д. Омаров // Экономика и управление. – 2012. – № 8 (93). – С. 96-100.

[11] Гончарова, Н. А. Проектный подход к управлению образовательными программами в высшем учебном заведении [Текст] / Н. А. Гончарова // Вестник гуманитарного университета. – 2015. – № 4 (11). – С. 37-42.

[12] Гейзер, А. А. Проектное управление инвестициями в сфере образовательных услуг [Текст] / А. А. Гейзер // Вестник Томского государственного университета. Экономика. – 2008. – № 2. – С. 57-61.

[13] Татаркин, А. И. Пространственное развитие региональных и территориальных экономических систем с использованием программно-проектных подходов [Текст] / А. И. Татаркин // Проблеми економіки. – 2012. – № 3. – С. 71-80.

4)	ISO	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti – (International Organization for Standardization) standartlarni ishlab chiqish bo‘yicha eng yirik mustaqil nodavlat xalqaro tashkilot
5)	APM	Birlashgan Qirollikning (Buyuk Britaniya) loyihalarni boshqarish assotsiatsiyasi (Association for Project Management)
6)	AIPM	Avstraliyadagi loyihalarni boshqarish instituti (Australian Institute of Project Management)
7)	GPM	Germaniya loyiha Menejerlari Ittifoqi
8)	PMAJ	Yaponiyaning loyihalarni boshqarish bo‘yicha Yaponiya assotsiatsiyasi (Project Management Association of Japan)
9)	GAPPS	Xalqaro loyihalarni boshqarish standartlarini ishlab chiqish xalqaro assotsiatsiyasi (Global Alliance for Project Performance Standards)

Bir qator tadqiqotchilarning ta’rifiga ko‘ra,[14] loyiha maqsadli, rejalashtirilgan va oldindan taraddu ko‘rilgan, moddiy obyektlar, texnologik jarayonlar, ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlar, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa turdagi resurslar, shuningdek, ularni amalga oshirish to‘g‘risidagi boshqaruv qarorlarini yaratish yoki modernizatsiya qilishdir. Boshqa bir tadqiqot muallifi[15] esa loyihani muayyan vaziyatlarni, mavjud cheklangan resurslarni hisobga olgan holda, oldindan ishlab chiqilgan noyob va murakkab harakatlar jarayon va protseduralar to‘plami sifatida tavsiflaydi.

Mamlakatimizning keng qamrovli va jadal islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrida davlat boshqaruvi organlar, xususan, xalq ta’limi tizimi, ta’lim muassasalari faoliyatidagi mavjud tizimli xatoliklarni aniqlash, ularni maqsadli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda loyihaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish vazifasi mazkur uslub va yondashuvlar haqidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni barcha tarmoq va sohalar mutaxassislarida keng targ‘ib qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зиядуллаев Н., Фридлянов М. Современные стандарты проектного управления //Стандарты и качество. Проектный менеджмент. – 2017г. – № 8 (962)

2. Ильин В.А., Местное самоуправление: взаимодействие власти и бизнеса: учеб. пособие / Т.В.Ускова, Д.Е.Амелин, Д.П.Жаравин. – Вологда: ВНКЦ ЦЭМИ РАН, 2006. – С. 92.

3. Синявский, Д. А. Исследование практики управления проектами в органах государственной власти и местного самоуправления (на примере Владимирской области) / Д. А. Синявский, Н. В. Моргунов, Т. Д. Омаров // Экономика и управление. – 2012. – № 8 (93). – С. 96-100.

[14] Ильин В.А., Местное самоуправление: взаимодействие власти и бизнеса: учеб. пособие / Т.В.Ускова, Д.Е.Амелин, Д.П.Жаравин. – Вологда: ВНКЦ ЦЭМИ РАН, 2006. – С. 92.

[15] Юрьева Т.В. Проектно-целевой подход и его роль в современной экономике [Текст] / Т. В. Юрьева // Современные технологии управления. – 2015. – № 6 (54). – С. 71-76.

Akmal KUBAYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MULOQOT MADANIYATI

Annotatsiya

Maqolada texnikum, kasb-hunar maktabi hamda kasb-hunar kolleji rahbarining jamoani boshqarish va tarbiyalashda muloqot madaniyatining o'rni va roli to'g'risida fikr yuritilgan.
Kalit so'zlar. Texnikum, kasb-hunar maktabi, kasb-hunar kolleji, o'quv muassasasi rahbari, jamoani tarbiyalash, muloqot madaniyati.

В статье речь идет о роли и значении коммуникативной культуры руководителя техникума, профессиональной школе и пофессионального коллежа в воспитании и руководстве коллективом образовательного учереждение.
Ключевые слова. Техникум, профессиональная школа, профессиональный колледж, руководитель учебного заведения, воспитание коллектива, коммуникативная культура.

This article discusses the role and place of communicative culture in the management and education of the team of the head of an technical school, vocational school and vocational colleges.
Key words. Technical school, vocational school, vocational college, head of an educational institution, upbringing of the team, communicative culture.

Ta'lim muassasalari rahbarlarining yuqori pedagogik malaka va kasbiy tayyorgarlik, ijodiy tafakkur, mustahkam xotira, mantiqiy fikrlash layoqati, barqaror diqqat va hissiy ta'sirga egaligi jamoani boshqarishda o'zaro kelishmovchilik, turli ziddiyat va ortiqcha tortishuvlar kelib chiqishining oldini oladi.

Pedagogik va o'quvchilar jamoalari bilan muloqotlarda ta'lim muassasalarining rahbarlari quyidagilarga amal qilishlari kerak:

– axloq-odob me'yorlaridan chetlanmaslik, odob saqlashi;

– suhbatdoshga, uning qobiliyati va qiziqishlariga nisbatan hurmat bildirish (xushmuomalali bo'lish, o'zini tutish);

– suhbat jarayonida odob doirasida muayyan reglament (vaqt birligi)ni belgilay olish;

– muloqot jarayonida suhbatdoshga insonparvar va do'stona munosabatda bo'lish;

– suhbatdosh kayfiyatining o'zgarishiga tezkor javob qaytarish;

– turli qo'zg'atuvchi, hayajonlantiruvchi, ishontiruvchi, ko'ndiruvchi, majburlovchi va undovchi ta'sir ko'rsatishlardan o'z o'rnida foydalanishi;

– arzimas, tasodifiy, ahamiyatsiz holatlarga e'tibor bermasligi, arzimagan holatlardan xafa bo'lmasligi, kayfiyatining yomon bo'lishiga yo'l qo'ymasligi;

– sabrli bo'lishi, biroq, haddan tashqari mehribonlik ko'rsatmasligi, xushomadgo'y bo'lmasligi lozim;

– jiddiy, biroq o'ta rasmiyatchi va bachkana bo'lmasligi muhim;

– turli toifa va yoshdagi, shuningdek, mavqei, dunyoqarashi, hayotiy yondashuvlari, tafakkuri xilma-xil bo'lgan shaxslar bilan muloqotga tez kirishish, muloqot jarayonida o'zini erkin va tabiiy tutish.

Kommunikativ faoliyatni tashkil etishda akademik litsey va KHKning rahbarlari muayyan psixologik-fizik xususiyatlarni ham namoyon eta olishlari maqsadga muvofiqdir. Bular:

– yoqimli, hotirjam ovozga ega bo‘lish;
– nutq madaniyatini o‘zlashtira olish;
– yoqimli mimikaga egalik;
– vazmin, biroq, ifodali pantomimikani namoyish eta olish;
– harakatlarning bir-biriga uyg‘unligi va bir maromda tashkil etilishi;
– yuz muskullarining harakatchanligi va aktyorlarga xos ravishda yuz ifodasi (ko‘z qarashlari, qoshlarning holati, og‘iz va bosh harakatlari)dan samarali foydalana olish.

Ijtimoiy munosabatlar darajasi muloqotlarda ishtirok etuvchilarining ehtiyojlariga bog‘liq bo‘ladi. “Rahbar (direktor) – o‘qituvchi” munosabatlari tizimida ishlab chiqarishni, ya’ni ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish orqali komil insonni tarbiyalashdan iborat ijtimoiy ehtiyojni qondirish ta’lim muassasasining umumiy maqsadi sanaladi. Ta’lim muassasasining rahbari va ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotlarning muvaffaqiyati ularning manfaatlari o‘zaro uyg‘un kelishiga bog‘liq.

Ijtimoiy muloqot – bu kommunikativ faoliyatning (ijtimoiy subyektlarning o‘zaro aloqasi), muloqotlarni o‘rnatish va tajriba almashish orqali bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari hisoblanadi. Shu bilan birga muloqotlar shaxslarning o‘z fikrlari, sezgilari, hissiyotlari, taassurotlari, kechinmalarini “o‘rtoqlashish”, shuningdek, o‘ziga, ya’ni xotirasi, orzulari va vijdoniga murojaat etishdir. Shaxslararo muloqotlarni o‘rnatish chog‘ida bir-birini tushunish, “umumiy til topish”ga erishiladi.

Ta’lim muassasasi rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan kommunikativ muloqotlar tashkil etilishiga ko‘ra esa to‘rt turga, ya’ni:

1) maqsadga muvofiq;
2) istiqbol rejaga ko‘ra;
3) vaziyatli;
4) tasodifiy kabilarga bo‘linadi.

Ta’lim muassasalari rahbarlari tomonidan kommunikativ faoliyatning samarali tashkil etilishida ularning kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Xo‘sh, kommunikativ qobiliyatning o‘zi nima? Uni shaxsda qanday shakllantirish mumkin? Rahbarlar, shu jumladan, ta’lim muassasalari rahbarlarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati mavjudmi?

“Kommunikativ qobiliyat” tushunchasining mazmunini to‘la anglash uchun dastlab “qobiliyat” va “kommunikativlik” tushunchalari negizida qandlay holatlar aks etishidan xabardor bo‘lish talab etiladi.

Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “Psixologiya, qisqacha izohli lug‘at” da mazkur tushuncha “kommunikatsion qobiliyat” sifatida talqin etilib, unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Kommunikatsion qobiliyatlar – kishining boshqa odamlar bilan bo‘ladigan muloqotini yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovishuvchanlikni ta’minlaydigan qobiliyat”. Keltirilgan ta’rifda “kommunikativ qobiliyat”ning ma’nosi mohiyatan to‘g‘ri yoritilgan holda, fikr stilistik nuqtayi nazardan noto‘g‘ri talqin etilgan. Zero, ilmiy uslubda “odam” (yoki “odamlar”) tushunchasi qo‘llanilmaydi. Ayni o‘rinda “boshqa odamlar” iborasining qo‘llanilishi ham tilshunoslik qoidalari, xususan, ilmiy uslub nuqtayi nazaridan to‘g‘ri emas. Qolaversa, “psixologik qovishuv” tushunchasi o‘rnida “psixologik birlik” atamasining ishlatilishi so‘z yuritilayotgan holatning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan bo‘lardi.

Kommunikativ qobiliyat – bu shaxsning atrofdagilar bilan muloqoti, hamkorlikka erishishi, birgalikdagi faoliyati, eng muhimi, kishilik jamiyatidagi ishtirokini aniqlashtiruvchi yoki ta'minlovchi ijtimoiy-ruhiy layoqat tizimi sanaladi.

M.G.Davletshin, Z.Ismoilova hamda A.Shoyusupovalar pedagoglik faoliyatiga nisbatan bergan holda "kommunikativ qobiliyat" tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar: bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyat; o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblari, ta'lim muassasalari rahbarlari bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatish mahorati.

Shaxsning kommunikativlik qobiliyatiga egaligi masalasi juda ko'plab psixolog, pedagog va sotsiologlar tomonidan o'rganilgan. Ularning "kommunikativlik qobiliyati" tushunchasini ta'riflashdagi yondashuvlari garcha bir-biriga juda yaqin bo'lsa-da, biroq muayyan jihatlariga ko'ra, bir-birlaridan farqlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mavjud manbalarni o'rganish bu boradagi yondashuvlarni quyidagicha guruhlash mumkinligini ko'rsatadi:

1. Ingliz psixologi L.Tayer kommunikativlik qobiliyatini ikki turga ajratadi. Ya'ni: a) strategik qobiliyat – shaxsning kommunikativ (o'zaro muloqot) vaziyatlarni tushuna olish, unga nisbatan to'g'ri mo'ljal olish hamda muvofiq ravishda xulq-atvor yo'nalishini belgilash imkoniyatini aks ettiruvchi layoqat ko'nikmalariga egalik; b) taktik qobiliyat – shaxsning bevosita shaxslararo kommunikativ muloqotlar jarayonidagi ishtirokini ta'minlovchi layoqat ko'nikmalariga egalik.

2. A.A.Leontev tomonidan ham shaxs kommunikativ qobiliyati ikki asosiy guruhga ajratiladi. Ulardan birinchisi, shaxslararo muloqot jarayonida shaxsiy xususiyatlardan samarali foydalana olishga egalik sanalsa, ikkinchisi muloqot va o'zaro aloqaga kirishish texnikasiga egalik sanaladi.

Bizning nazarimizda, kommunikativ qobiliyat A.A.Leontev tomonidan aniq va haqqoniy guruhlangan. Zero, har qanday muloqot jarayonida uning ishtirokchilari bo'lgan shaxslarning shaxsiy xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa, ularning shaxslararo muloqotni tashkil eta olish, olib borish va kutilgan natijani qo'lga kiritishlarida muloqot texnikasini qay darajada o'zlashtira olganliklari hal qiluvchi omil sifatida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tarixi, 45-b.

2. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. – T.: TDPU, 1998. – 46-b.

3. Мусурманова О. Духовность, ценности и воспитание молодежи //Т.: Ўкитувчи. – 2000.

4. Шарипова, Д. Д., Мусурманова, А., Шахмурова, Г. А., & Каримова, С. И. (2013). Реализация здоровьесберегающих технологий в вузе – важная составная часть модернизации образования. Педагогика и современность, (2), С. 125-128.

5. Musurmanova O. Oila ma'naviyati-milliy g'urur. –T.,"O'qituvchi". – 2000.

Azamat XOLIQOV,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BITIRUVCHI YOSHLARNI MUSTAQIL KASB TANLASHGA TAYYORLASHNING METODIK BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarda mustaqil kasb tanlashning metodologik bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda kasb-hunar egallashi uchun qulay o'qitish texnologiyasi yordamida tajriba sinov ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirilib pedagog kadrlarga kerakli tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlar, ijtimoiy moslashuv, kasb-hunar, internat-maktab, texnologiya, sezgi, idrok, tasavvur, metod, monitoring, pedagog.

Статья посвящена методическим этапам самостоятельного выбора профессии слабовидящим выпускником, пошаговой экспериментальной работе с использованием удобной технологии обучения выпускников с нарушением зрения в реализации социальной адаптации в жизни, а также необходимым рекомендациям для учителей.

Ключевые слова. Выпускники с нарушениями зрения, социальная адаптация, род занятий, интернат, технология, интуиция, восприятие, воображение, метод, мониторинг, педагог.

The article is devoted to the methodological stages of the independent choice of a profession for visually impaired graduates, step-by-step experimental work using a convenient technology for teaching graduates with visual impairments in the implementation of social adaptation in life, as well as the necessary recommendations for teachers.

Key words. Graduates with visual impairments, social adaptation, occupation, boarding school, technology, intuition, perception, imagination, method, monitoring, pedagogue.

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni hayotda o'z o'rnini topishi biz uchun muhim vazifa sanaladi. Buning uchun nogironligi bo'lgan yoshlarni biror bir kasbga o'rgatish masalasi oldimizda dolzarb muammo bo'lib bormoqda. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarga kasb-hunar o'rgatishdan, avval, ularning qiziqishlarini kasb o'rganishga bo'lgan layoqatini to'liq o'rganishimiz lozim. Internat-maktablarda texnologiya fanlari, o'quvchilarni kasb-hunar o'rgatishga qaratilgan amaliy fan hisoblanadi. Texnologiya fani orqali o'quvchilar ko'pgina kasb-hunarlarni o'qituvchi yordamida o'rganadi. Ular o'rganadigan kasb-hunarlarni barchasi ham mos kelavermaydi. Chunki, ta'lim oluvchilarning jismoniy hamda aqliy qobiliyatiga e'tibor qaratish muhim deb o'ylaymiz. Buning uchun pedagoglar quyidagi omillarga e'tibor berishlari kerak.

birinchidan – texnologiya fanidagi mavzularni ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirish;

ikkinchidan – o'quvchilar amaliyotda qo'llay olishi mumkin bo'lgan topshiriqlarni yuklash;

uchinchidan – texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarni guruhli o‘qitishga e’tibor berish;

to‘rtinchidan – har bir mashg‘ulotni amaliyotga bog‘lagan holda o‘quvchilarning sezgi idroki tasavvuriga moslashtirish;

beshinchidan – o‘quv mashg‘ulotlarini amalga oshirishda texnika xavfsizligiga qat’iy rioya etish;

oltinchidan – texnologiya fanini o‘qitishda ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga mos tiflotexnik vositalaridan kengroq foydalanish.

Texnologiya fanini o‘qitishda har bir mashg‘ulot bevosita amaliyot bilan chambarchas amalga oshiriladi. Misol uchun: Qashqadaryo viloyat 18-sonli ko‘rish bo‘yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasasining 10-11 bitiruvchi sinflari texnologiya fanidan quyidagi bilim, ko‘nikma hamda malakalarni o‘zlashtirganligini aniqladik.

1. Mehnat qurollari bilan ishlash qoidasini o‘rgatilganligi.
2. Duradgorlikka oid asbob anjomlarni bilish, farqlash ko‘nikmalarini shakllanganligi.
3. Duradgorlik buyumlarining sodda shakllarini qo‘l mehnati bilan yasash, malakalarining oshirilganligi.
4. Qizlar uchun to‘qish va pazandachilik kasb mahoratining o‘rgatilganligi.

Bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda 11-12-sinflar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy maishiy yo‘nalish fani ham ularga hayotiy turmush malakalarini o‘rganishiga yordam beradi. Biroq, ta’lim olayotgan bitiruvchi yoshlarning barcha – barchasi ham yuqoridagi topshiriqlarni bajara olmaydilar. Buning sababi, ayrim o‘quvchilardagi qo‘shimcha nuqsonlarining mavjudligi, o‘z-o‘ziga xizmat qilolmasligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Bizningcha – ushbu hunarlarni takomillashtirish, haqiqiy mehnat unumdorligiga erishish zarur. Buning uchun pedagoglardan tinimsiz mehnat o‘quvchilarni kasb o‘rganishga qiziqish uyg‘otish kerak bo‘ladi.

Biz so‘z yuritayotgan ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga moslashuvini amalga oshirishda ularga kasb-hunar egallashi uchun qulay o‘quv-amaliy muhit yaratishga oid tajriba-sinov ishlarini belgilangan dastur asosida tizimli amalga oshirdik.

Birinchi bosqich – tajriba uchun tanlangan ta’lim oluvchilarni kasb-hunar egallash borasidagi mavjud bilimlarini (kuzatish, eksperement, anketa, suhbat) metodlari yordamida aniqladik va bitiruvchi yoshlarga quyidagi savollarni taqdim etdik.

1. Siz qaysi kasb yoki hunarga qiziqasiz?
2. Bu kasbga oid qanday oddiy qiziqishlaringiz bor?
3. Siz xohlagan kasb-hunar bo‘yicha qayerda ishlash mumkin?
4. Siz egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha qanday to‘siqlar bor?
5. Siz egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha o‘zingizni shu kasb-hunar bo‘yicha qobiliyatli hisoblaysizmi?
6. Kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunaringiz bo‘yicha sizda qanday bilim va ko‘nikmalar bormi?
7. Siz egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha maktabingizda biror bir o‘quv mashg‘uloti yoki to‘garagi o‘tkazilyaptimi?
8. Siz o‘rganmoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha maktabingizda qanday to‘garaklar faoliyat yuritishini xohlaysiz?

9. Siz egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha ertaga ish topishga o‘zingizga ishonasizmi?

Ikkinchi bosqichda – ko‘rishida muammosi bo‘lgan yoshlarni qulay kasb-hunar sohalariga o‘qitish hamda maktab internatlarda o‘quvchilar uchun qiziqarli seminar-treninglar, davra suhbatlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari hamkorlikda sohaga oid uchrashuvlarni muntazam ravishda tashkil etish orqali tinglovchilarni kasbiy bilimdonligini oshishiga erishish.

Uchinchi bosqichda – ta’lim oluvchilar egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunarlari bo‘yicha mustaqil “Kasbim mening faxrim mening” mavzusida esse yozish orqali ularning qiziqishlarini aniqladik. Yozilgan har bir esse to‘liq tahlil qilinib, o‘quvchilarning kasb-hunar qiziqishlari o‘rganilib, tizimli jadval tuziladi. Bu jadvalda ta’lim olmoqchi bo‘lgan tinglovchilar hamda kasb o‘rganmoqchi bo‘lgan tinglovchilarga bo‘linadi.

To‘rtinchi bosqich – ushbu bosqichda ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarni birlashtirib, ular o‘rtasida test, savol-javob hamda seminar uyushtiriladi.

Beshinchi bosqichda – olingan natijalar umumlashtirilgan holda ta’lim oluvchilarning egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha layoqati aniqlanadi. Bu bosqichda internat-maktab pedagoglari, psixologlari ishtirok etishi ta’minlandi.

Oltinchi bosqichda – har bir o‘quvchi kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasb-hunar bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garaklarni yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarning mustaqil kasb sirlarini egallashiga amaliy yordam berish.

Bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini to‘g‘ri tashkil etsak, o‘ylaymanki, oldimizda turgan dolzarb muammoni yechishga intilgan bo‘lamiz. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtmoiy moslashuvini maktab ta’limi davrida ta’minlash muammosi nafaqat pedagogik, balki metodik, psioxologik va albatta, ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi.[1]

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni turli kasbga yo‘naltirish sohalarini rivojlantirish internat-maktab oldidagi muhim vazifalardan biridir. Internat-maktabda yaratilgan poydevor ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarni mehnatga va hayotga tayyorlaydi. Jamiyatda o‘z o‘rnini topib, komil inson bo‘lib shakllanishiga zamin hozirlaydi.[2]

Xulosa qilib aytganda, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama bilimdon bo‘lishi, kasb-hunar o‘rganishi, bugungi davrning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Umumta’lim maktablarini bitirayotgan yoshlarni mustaqil hayotga yo‘naltirishda ular uchun kerakli bo‘lgan hayotiy bilimlarni, zarur kasb-hunarlarni doimiy ravishda o‘rgatishimizni hech qachon, hech vaqt unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsaidova Sh., Sultonova D. “Maxsus pedagogika”. –T.: Fan va texnologiya, – 2014, 361-b.

2. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari. ped.fanl.dokt. diss. –T., 2020-yil.

3. Шарипова Д. Д., Мусурманова О., Таирова М. Здоровье будущего поколения – в ваших руках //–T.: Fan va texnologiya. – 2011.

[1] F.U.Qodirova. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari. ped.fanl. dokt. diss. 2020-yil. –T..

[2] P.M.Po‘latova, L.Nurmuhamedova, D.Yakubjonova, Z.Mamarajabova, Sh.Mirsaidova, D.Sultonova “Maxsus pedagogika”. –T. Fan va texnologiya – 2014. 361-b.

Ozoda MALLAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Xorijiy tillar’’ fakulteti katta o‘qituvchisi

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH MUAMMOLARI (malaka oshirish misolida)

Annotatsiya

Maqolada xalq ta’limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish muammolari, malaka oshirish tizimini uzluksiz – “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish, xalq ta’limi tizimidagi mavjud malaka oshirish muassasalarini tahlili, Xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan kattalar ta’limi va malaka oshirishning o‘ziga xosligi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kattalar ta’limi, SWOT, androgogika, malaka oshirish, xorijiy tajriba, tamoyil.

В статье рассматриваются такие вопросы, как проблемы непрерывного профессионального развития в системе народного образования, непрерывное совершенствование системы профессионального развития на основе принципа “непрерывного образования”, анализ существующих проблем профессионального развития в системе народного образования, зарубежная и специфика образования взрослых и профессионального развития ученых нашей страны.

Ключевые слова. Образование взрослых, SWOT, андрогогика, повышение квалификации, зарубежный опыт, принципы.

The article covers such issues as the problems of continuous professional development in the system of public education, continuous improvement of the system of professional development on the basis of the principle of “lifelong learning”, analysis of the existing problems of professional development in the system of Public Education, Foreign and specificity of adult education and professional development by scientists of our country.

Key words. Adult education, SWOT, androgogy, professional development, foreign experience, principles.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunida malaka oshirish ta’limiga alohida 13-modda (Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish) misolida e’tibor qaratildi. Jumladan, mazkur qonunda uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) masalasi bilan endilikda rasmiy ta’lim davlat ta’lim muassasalari qatorida davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o‘tgan nodavlat ta’lim tashkilotlari ham shug‘ullanishi belgilandi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) sohasidagi o‘zgarishlardan yana biri bu malaka oshirish sohasida davriylik (pedagog kadrlar uchun besh yil, rahbar kadrlar uchun uch yil kabi muddatlar)dan voz kechilgani hamda endilikda davomiylik tamoyiliga ya’ni “pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini uzluksiz – “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borishga o‘tayotganimizdir.[1]

Ushbu g‘oyani amalaga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mutasaddi tashkilotlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2021-y., 07/21/4963/0064-son.

– xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirsin;

– xalq ta’limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish va dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritsin;

– xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy qilsin;

– xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta’minlovchi “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini ishga tushirsin.[2]

Albatta, mazkur vazifalar bugungi davr talablarini inobatga olgan holda qo‘yilayotgani barchamizga ma’lum. Lekin, hozirda ushbu vazifalarni amalga oshirishga uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) bilan shug‘ullanadigan muassasalar va ularning pedagogik jamoasi qay darajada tayyor, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy.

Shunga ko‘ra, bugungi kunda xalq ta’limi tizimidagi mavjud malaka oshirish muassasalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, yuqorida qo‘yilgan savollarga javob topishimiz mumkin. Bunda bizga SWOT-tahlil metodi qo‘l keladi. Ma’lumki, SWOT – bu quyidagi inglizcha so‘zlarning bosh harflaridan olingan qisqartma so‘zdan iborat: Strengths – kuchlar; Weaknesses – kuchsizliklar; Opportunities – imkoniyatlar; Threats – tahdidlar.

Shunday qilib, SWOT-tahlilda xalq ta’limi tizimida malaka oshirish jarayonini tashkil etadigan muassasalarning kuchli va kuchsiz tomonlarini, shuningdek, ularning yaqin (tashqi) muhitidan yuzaga chiqadigan imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlagan holda xulosa chiqaramiz[3] (1-rasm).

Kuchli tomonlar:	Kuchsiz tomonlar:
2021-yillar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida 14 ta pedagog xodimlar malakasini oshirish hududiy markaz va 1 ta ilmiy tadqiqot institutining mavjudligi	Malaka oshirish muassasalari rahbar va xodimlarning ta’lim (o‘quv) xizmatlari marketingi sohasidagi bilimi kuchsizligi
O‘quv binolari, tinglovchilar turar joylari va boshqa moddiy-texnika bazasining mavjudligi	Malaka oshirish muassasalarining bozor talablariga tez moslashuvchan tuzilma emasligi
Sohani tushunadigan, yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jamoasining mavjudligi	Malaka oshirish muassasalarining pedagoglarida individual va ijodiy tashabbuslarini kamligi, mualliflik kurslarini yo‘lga qo‘yilmagani
Davlat talablariga muvofiq o‘quv dasturlarini ishlab chiqilayotgani	Malaka oshirish muassasalaridagi namunaviy dastur va ishchi dasturlarga asosiy buyurtmachi davlat ekanligi
Malaka oshirish yo‘nalishlariga mos o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning mavjudligi	Tinglovchilarni ta’limiy ehtiyojlari inobatga olinmasligi
Katta yoshlilar ta’limiga mos interfaol usullaridan foydalanilayotgani	Malaka oshirish muassasalarida mustaqil yoki yarim mustaqil xo‘jalik hisobida faoliyat yuritishni tashkil qilish tajribasini mavjud emasligi

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 07/20/4884/1484-son.

[3] SWOT-tahlil 2019-2021-yillarda olib borilgan tadqiqot materiallari (kuzatish, me’yoriy-hujjatlarni tahlil etish, intervyu, anketa-so‘rovnomalari va respondentlar fikrlari) asosida o‘tkazilgan.

	Malaka oshirish jarayonida an’anaviy ta’limni ustuvor bo‘lib qolgani, masofaviy ta’limning kuchsizligi, 24/7 shaklidagi real vaqt rejimida ishlaydigan malaka oshirish shakllarining yo‘qligi
	Malaka oshirish muassasalarida piar (jamoatchilik bilan aloqa)ni kuchsizligi
Imkoniyatlar:	**Tahdidlar:**
Uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) ta’limining mamlakat uchun dolzarbligi	Pedagog va nopedagog xodimlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida bilim olishga ishonchsizligi
Xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish imkoniyati	Xorijiy tajribalarni ilmiy tahlillarsiz, ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirilishi
Pedagog va nopedagog xodimlar o‘rtasida uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) va qayta tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojining mavjudligi	Qayta tayyorlashdan o‘tish bo‘yicha pedagog va nopedagog xodimlarning to‘lov qobiliyati pastligi
Xalq ta’limi tizimida 14 ta pedagog xodimlar malakasini oshirish hududiy markaz va 1 ta ilmiy tadqiqot institutining mavjudligi va ushbu sohada raqobatchilarni yuzaga kelmaganligi	Xalq ta’limi tizimidagi 14 ta hududiy markaz va 1 ta ilmiy tadqiqot institutining markazlashganligi
Malaka oshirish muassasalarida qayta tayyorlash kurslari hamda boshqa byudjetdan tashqari mablag‘ topish imkoniyatlarining mavjudligi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-son, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son hamda 2017-yil 28-dekabrdagi 1026-son Qarorlari)	Malaka oshirish muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘ topish bo‘yicha davlat nazorati va ishtirokining ko‘pligi
Uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) va qayta tayyorlashdan pedagog va nopedagog xodimlarni manfaatdorligi	
Donor/homiylar ishtiroki	

1-rasm. Respublikadagi xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish muassasalarining SWOT-tahlili

Ko‘rinib turganidek, uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) bo‘yicha malaka oshirish muassasalarining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, ularning yuzaga chiqadigan imkoniyatlari va tahdidlari ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash kerakki, mazkur sohadagi muassasalarning kuchli tomonlari va imkoniyatlari yuqorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo‘yilgan vazifalarni bajarishda qo‘l keladi. Biroq, ushbu muassasalarning kuchsiz tomonlari hamda ularning faoliyatiga bo‘lgan tahdidlar hozirda uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) sohasidagi o‘zgarishlarga to‘sqinlik qilishi tabiiy. Shunga ko‘ra, mazkur omillar (kuchsiz tomonlari hamda samarali faoliyatga bo‘lgan tahdidlar)ni bartaraf etish yo‘llarini topish hamda malaka oshirish sohasida salmoqli natijalarga erishish uchun bizningcha quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim. Ular:

1. Kattalar ta’limi bilan bog‘liq uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish)ning o‘ziga xosligini anglash.

2. Uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish) sohasida androgog kadrlar siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kabilar.

Birinchi masala, uzluksiz kasbiy rivojlanish (malaka oshirish)ning o‘ziga xosligini anglash asosiy masala hisoblanadi. Binobarin, malaka oshirishning o‘ziga xosligi, uning boshqa ta’lim bosqichlaridan farqli jihatlarini anglamay turib, keyingi ishlarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Jahon tajribasida kattalar ta’limining o‘ziga xosligi bo‘yicha ko‘plab yondashuvlar ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuvlar ichida Malkolm Shepard Noulz tomonidan ishlab chiqilgan kattalar ta’limining olti tamoyili o‘ziga xos yondashuv hisoblanadi. Unga ko‘ra:

1. Kattalar nima uchun o‘rganayotganini bilishi lozim.
2. Kattalar o‘zini mas’uliyatli, o‘zini-o‘zi yo‘lga soluvchi shaxs deb biladi.
3. Kattalar malaka oshirish ta’limiga ma’lum darajada tajriba bilan keladi.
4. Kattalar qachon o‘zi tayyor bo‘lganda, foydali va qulay vaqtda o‘rganishni xohlaydi.
5. Kattalar ta’lim olishni hayotiy maqsad va tajribalariga tayanib, muammolardan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.
6. Kattalarni odatda shaxsiy omillar qiziqtiradi.[4]

Ma’lumki, katta yoshdagilar ta’limi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis andragog deb ataladi. Andragog – katta yoshdagilar bilan turli shakllarda o‘zaro munosabatda bo‘ladigan, ular tomonidan yangi bilimlar o‘zlashtirilishiga yordam beradigan va katta yoshli insonning ta’lim jihatdan faoliyatini ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishish uchun dolzarb qiladigan ijtimoiy vositachi sifatida faoliyat yurituvchi mutaxassis.[5]

Ta’kidlash kerakki, andragog kadrlarni tanlanishi bevosita ularning shaxsiy sifatlaridan emas, balki bilvosita kattalar ta’limi ishtirokchilarining xususiyatlaridan kelib chiqishi zarur.

Albatta andragog kadrlarni tanlashda bevosita ularning o‘ziga qo‘yiladigan talablar ham mavjud. Ular:

– muayyan ixtisosliklar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur taalluqli malaka va tajribaga egaligi;

– andragog ta’lim prinsiplarini bilishi;

– axborotlar dunyosida o‘z yo‘nalishini topa bilishi;

– boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi kommunikativ madaniyat malakalariga ega bo‘lishi;

– ta’lim jarayonini samarali qiluvchi axborot o‘quv texnologiyalarini bilishi kabilardir.[6] Malaka oshirish sohasida androgog kadrlarni tanlash mexanizmlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, albatta, yuqori darajadagi kompetensiya talab etiladigan faoliyatga quyi darajali kompetensiya egasi kelib qoladi. Noto‘g‘ri tanlov, odatda, xodimlarning qo‘nimsizligi oshib ketishiga yoki xodimlarning vakolatlari yetarli darajada bo‘lmasligiga olib keladi. Agar rahbar tanlagan xodim o‘ylagandek inson bo‘lib chiqmasa, yangi odamlarni tanlash uchun yana pul sarflashga to‘g‘ri keladi. Bu esa har qanday tashkilotning sarf-xarajatlari sezilarli oshishiga olib kelishi mumkin.[7]

---

[4] Swanson, R.A. & Holton III, E.F. 2001.Berrett-Koehler Publishers, Inc: San Francisco.

[5] Учебно-методическое пособие “Особенности обучения взрослых”, –Т.: ИРК и ПКССПО 2011, – С.178. Абдуллаев

[6] Abdullayev A.X., Rahimov H.C., Xadayev M.O.. “Katta yoshdagi aholini o‘qitish markaziga: qadam-baqadam”, –T., 2013-yil, 55-b.

[7] A.X. Abdullayev, N.S. Rahimov, M.O. Xadayev. “Katta yoshdagi aholini o‘qitish markaziga: qadam-baqadam”, –T., 2013-yil 57-58-betlar.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak: Birinchidan, xalq ta’limi tizimidagi malaka oshirish muassasalarida uzluksiz kasbiy rivojlanish – “hayot davomida o‘qish” tamoyiliga o‘tishda mazkur muassasalarining kuchli tomonlari qatorida kuchsiz tomonlari:

– malaka oshirish muassasalari rahbar va xodimlarning ta’lim (o‘quv) xizmatlari marketingi sohasidagi bilimi kuchsizligi;

– malaka oshirish muassasalarining bozor talablariga tez moslashuvchan tuzilma emasligi;

– malaka oshirish muassasalarining pedagoglarida individual va ijodiy tashabbuslarini kamligi, mualliflik kurslarini yo‘lga qo‘yilmagani;

– malaka oshirish jarayonida an’anaviy ta’limni ustuvor bo‘lib qolgani, masofaviy ta’limning kuchsizligi, 24/7 shaklidagi real vaqt rejimida ishlaydigan malaka oshirish shakllarining yo‘qligi;

– malaka oshirish muassasalaridagi namunaviy dastur va ishchi dasturlarga asosiy buyurtmachi Davlat ekanligi;

– tinglovchilarni ta’limiy ehtiyojlari inobatga olinmasligi;

– malaka oshirish muassasalarida mustaqil yoki yarim mustaqil xo‘jalik hisobida faoliyat yuritishni tashkil qilish tajribasini mavjud emasligi;

– malaka oshirish muassasalarida piar (jamoatchilik bilan aloqa)ni kuchsizligi kabi jihatlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi malaka oshirish muassasalarining (kuchsiz tomonlari hamda samarali faoliyatga bo‘lgan tahdidlar)ni bartaraf etish bizningcha, avvalo, quyidagi masalalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ular:

– Malaka oshirish ta’limining o‘ziga xosligini anglash;

– Malaka oshirish sohasida androgog kadrlar siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.

Ushbu yo‘nalishda yuqorida keltirilgan takliflarga e’tibor qaratish hamda androgog kadrlar tanlashni aniq usullari mavjud bo‘lmaganligi uchun ham ularni tanlashda majmuaviy-kompleks (masalan, test o‘tkazish, suhbatlashish va “uchinchi” shaxslardan – nomzodni yetarli darajada yaxshi biladigan shaxslardan ma’lumotlar olish, natijalarini solishtirish kabi) usuldan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2021-y., 07/21/4963/0064-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 07/20/4884/1484-son.

3. Swanson, R.A. & Holton III, E.F. 2001.Berrett-Koehler Publishers, Inc: San Francisco.

4. Tulenova G.J.. Katta yoshdagilarga ta’lim berish tamoyillari. A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI “Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini isloh qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2020-yil 29-may) 158-160-betlar.

5. Abdullayev A.X., Rahimov N.S., Xadayev M.O.. “Katta yoshdagi aholini o‘qitish markaziga: qadam-baqadam”, T., 2013-yil 56-b.

Sirojiddin JUMANAZAROV,
Toshkent shahar XTXQTMOHM, texnika fanlari nomzodi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA O‘QUV-USLUBIY MAJMUALAR MAZMUNINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida axborot texnologiyalari yo‘nalishida yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualarning mazmunini shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, innovatsion faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv moduli.

В статье рассматривается формирование содержания образовательно-методических комплексов, создаваемых в области информационных технологий, в системе повышения квалификации.

Ключевые слова. Инновация, инновационная деятельность, информационные и коммуникационные технологии, учебный модуль.

This article considers the issue of shaping the content of educational and methodological complexes created in the field of information technology in the system of professional development.

Key words. Innovation, innovative activity, information and communication technologies, training module.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 6-oktabridagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4851 sonli qarorida xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish tizimida ham bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar alohida qayd etilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarining oldida turgan asosiy vazifalardan biri axborot texnologiyalari asosida ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojiga asoslangan ta’lim innovatsiyalarini yaratish hamda joriy etishdir.

Hozirda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda ta’lim tizimidagi yangilanishlar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish hududiy markazlaridagi malaka oshirish kurslarining o‘quv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni talab etadi. Bu esa o‘z-o‘zidan malaka oshirish tizimida foydalanilayotgan o‘quv-uslubiy majmualarni yangilash hamda zamon talablariga mos ravishda shakllantirish zaruratini paydo qiladi.

Buning uchun hududiy markazlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda tinglovchilarning pedagogik innovatsion faoliyatini shakllantirishga yo‘naltiruvchi o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish talab etiladi.

O‘quv-uslubiy majmualar – o‘quv jarayonida foydalaniladigan didaktik vositalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Mazkur vazifalarni ijrosi sifatida zamon talablariga mos ravishda yaratilayotgan o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Hozirgi davr jahon tajribasida axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi fanlarni inson hayotidagi ustuvorlashib borishini hisobga olib, ularning xususiyatlariga differensial yondoshgan holda malaka oshirish tizimi tinglovchilari uchun ehtiyojlari o‘rganilgan holda o‘quv-uslubiy majmualarni takomillashgan variantini yaratish zarur. Ya’ni oddiydan murakkabga o‘tish tamoyiliga ko‘ra, malaka oshirish tizimida uzluksizlikni ta’minlash maqsadida, ta’lim yo‘nalishlarining har biriga mos dasturlar va ularga muvofiq o‘quv-uslubiy majmualar yaratilishi zarur.

2. Axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi o‘quv-modullaridan malaka oshirishning barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun universal tarzda qo‘llash mumkin bo‘lgan yagona o‘quv-uslubiy majmua yaratish amaliy jihatdan qiyin vazifa. Shuning uchun bu fandan Davlat talablarining umumiy talablarga javob beradigan, bir-birini to‘ldiradigan o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish lozim. Zero, hozirgacha mazkur yo‘nalishdagi o‘quv-modullaridan yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualarning malaka oshirish tizimida deyarli bir xil mazmunda o‘qitilar edi. Bu esa o‘qitilayotgan materiallarni oddiydan murakkabga differensial yondashish tamoyillariga asoslanmaganligining natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, yaratilayotgan o‘quv-uslubiy majmualar malaka oshirish tizimining yo‘nalishlar kesimida yaratilishi lozim.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining dinamik rivojlanishi va ko‘lami doimiy kengayishini e’tiborga olgan holda, tinglovchilarni faqat o‘quv-uslubiy majmualar orqali o‘qitib, malakasini oshirish g‘oyat noto‘g‘ri fikr. Shu nuqtayi nazardan dasturlar va o‘quv-uslubiy majmualar davriy yangilab turilishi, muayyan dolzarb g‘oyaviy-mafkuraviy muammolar ustida ishlayotgan pedagog-olimlarning ilmiy ishlarini o‘quv dasturiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu fanni o‘qitishda ko‘rgazmali vositalar, multimediadan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ilg‘or yutuqlaridan foydalanishni kengaytirish lozim.

4. Axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi o‘quv-modullarini o‘qitish jarayonida tinglovchilarda erkin, ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarni yanada rivojlantirish, o‘z sohasining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalarni anglashi hamda amaliyotga tatbiq etish, jahon tajribalarini umumlashtirish uchun xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishga doir hamda axborot texnologiyalariga oid materiallarni tarjima qilishni kuchaytirish zarur.

5. Umuman axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi fanlar mazmunining dinamik tarzda o‘zgarib turishi o‘quv dasturlarining doimiy yangilanishini, shunga asosan, tezkorlik bilan malaka oshirish tizimida o‘quv-uslubiy majmualarni yangilanishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun tinglovchilarning ehtiyojlariga asoslangan holda o‘quv-uslubiy majmualari doimiy ravishda shakllantirib borish lozim.

Xo‘sh, bugungi kunda malaka oshirish tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fani yo‘nalishidagi o‘quv modullarini o‘qitishning mazmuni qanday, bu soha bo‘yicha pedagogik muammolar nimalardan iborat? Tadqiqot ishi davomida ayni shunday masalalar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi.

Hozirda xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida ta’lim sifatini ko‘tarish borasida bir qancha ijobiy ishlar qilinmoqda. Jumladan, ta’lim sifatini ko‘tarishda hamda tinglovchilarning innovatsion pedagogik faoliyatini shakllantirishda muhim hisoblangan o‘quv-uslubiy majmualar tinglovchilarning ehtiyojlari asosida zamon talablariga mos holda yaratilmoqda. Misol tariqasida, “O‘quv

jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash”, “Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” kabi o‘quv-uslubiy majmualarni keltirish mumkin.

Ma’lumki, o‘quv-uslubiy majmua-muayyan fan yoki o‘quv kursini to‘liq va sifatli o‘rganish uchun zarur bo‘lgan o‘quv uslubiy hujjatlar va o‘qitish vositalari majmudir.

Xalq ta’limi tizimi pedagog xodimlarini malakasini oshirish tizimi uchun yaratilayotgan o‘quv-uslubiy majmualar didaktik, metodik hamda texnik talablarga javob berishi bilan birga quyidagi umumiy talablarga ham javob berishi kerak:

• o‘qitilayotgan o‘quv modulning o‘quv dasturiga mosligi;

• tinglovchi shaxsiga yo‘naltirilganligi;

• tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga yo‘naltirishga undashi;

• axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida tayyorlanganligi;

• tinglovchilarning mustaqil ta’lim olishlari uchun mo‘ljallanganligi.

• tinglovchilarni kiberkompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilganliigi.

Har bir yaratilayotgan o‘quv-uslubiy majmualar muayyan fanning mazmunini to‘liq o‘zida aks ettirishi hamda tinglovchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Buning uchun tinglovchilarning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalariga mos holda o‘rganishning muayyan mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilinishi lozim.

O‘quv-uslubiy majmualarning mazmuni quyidagi talablar asosida belgilanishi tavsiya etiladi:

• zamonaviy maktabning zamonaviy o‘qituvchisiga bo‘lgan talablarga qaratilishi;

• umuminsoniy qadriyatlarni, yurtimizga xos sharqona voqelikni, milliylikni o‘zida mujassamlashtirishi;

• mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, tarbiyaviy g‘oyalarini singdirish, vatanparvarlik hislarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi;

• ilmiy va amaliy ahamiyatga molik nazariy ma’lumotlar, qonun – qoidalar va tushunchalarning bo‘lishi;

• fanlararo bog‘lanishda parallel va muayyan mantiqiy, izchil ketma-ketlikka asoslangan uyg‘unlikning bo‘lishi;

• tinglovchilarning malaka oshirish yo‘nalishlarining xususiyatlarini hisobga olinishi;

• qo‘llaniladigan atamalar, tushunchalarning ta’riflari, qonun-qoidalarning ifodalari, hodisalarning izohlari fan bo‘yicha amalda qabul qilingan va ommalashgan atamalarga mos bo‘lishi;

• respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hamda fan sohasidagi salohiyati va yutuqlarni yoritishi.

Shuningdek, yuqoridagilarga asoslangan holda xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish tizimida o‘quv-uslubiy majmualarni yaratishda didaktik, metodik hamda texnik talablarni ham e’tiborga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”PQ-4851-son qarori.

2. Pedagogika: ensiklopediya. III jild / tuzuvchilar: jamoa. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 382-b.

Dilnoza ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

O‘QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISHDA ELEKTRON VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHAROITLAR VA XORIJIY TAJRIBALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida elektron ta’lim vositalaridan foydalanish, bu borada respublikamizda olib borilayotgan islohotlar hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirish borasidagi jahon tajribasi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, geografiya fani misolida malaka oshirish tizimida elektron ta’lim vositalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Malaka oshirish, elektron ta’lim vositalari, ta’lim islohotlari, ilmiy-pedagogik shart-sharoitlar, kompetensiya.

В статье рассматривается использование средств электронного обучения в системе переподготовки и повышения квалификации государственных педагогов, проводимые в стране реформы и мировой опыт совершенствования системы повышения квалификации. Также подчеркивается роль и значение средств электронного обучения в системе повышения квалификации на примере географии.

Ключевые слова. Профессиональное развитие, инструменты электронного обучения, образовательные реформы, научные и педагогические условия, компетентность.

This article discusses the use of e-learning tools in the system of retraining and advanced training of public educators, the ongoing reforms in the country and the world experience in improving the system of professional development. The role and importance of e-learning tools in the system of professional development on the example of geography is also highlighted.

Key words. Professional development, e-learning tools, educational reforms, scientific and pedagogical conditions, competence.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “…malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qitish mazmuni va metodlarini yangilash, baholash tizimini qayta ko‘rib chiqish”[1] xalq ta’limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish darajasi va sifat-samaradorligini yanada takomillashtirish, uning o‘quv-metodik va axborot ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini o‘z mutaxassisligi bo‘yicha zamonaviy bilim, ko‘nikmalarga, elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanish madaniyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.

masalasi malaka oshirish tizimidagi dolzarb va ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jumladan, ta’lim tizimida geografiya fani o‘qituvchilarini zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish orqali ularning kasbiy mahorati va o‘quv-uslubiy faoliyatini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini muntazam yuksaltirish imkoni yaratilmoqda.

Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda differensiallashgan yondashuv tamoyillarini amaliyotga joriy etish uchun o‘quv dasturining tuzilmasini ishlab chiqishda:

– o‘quv dasturlarida jamiyatni axborotlashtirish jarayonining holati;

– malaka oshirish jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy asoslari;

– o‘quv dasturlarida aniq bir fan bo‘yicha axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo‘yicha pedagog kadr faoliyatining asosiy tashkil etuvchilari;

– mustaqil ta’lim faoliyatining metodik ta’minoti o‘z aksini topishi lozim.

O‘zining pedagogik faoliyatida multimedia vositalaridan foydalanuvchi o‘qituvchilarni tayyor multimedia mahsulotlarining ta’lim maqsadlariga muvofiqligi, ularning sifati, mazmuni, tuzilishi kabi jihatlari har doim ham pedagogik jihatdan qoniqtirmasligi mumkin. Bu ko‘p hollarda o‘rgatuvchi dasturlarning sifati yuqori emasligi bilan o‘lchanmaydi, balki zamonaviy o‘quv jarayonining individuallashtirilganiga, ko‘p sonli o‘zgarishlarga mos differensiallashgan yondashuvni talab etishiga ham bog‘liqdir. Shuning uchun yuqori kasbiy tayyorgarlikga ega o‘qituvchi o‘zining darslari uchun o‘zi mustaqil multimedia mahsulotlarini tayyorlay olish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Bunda ta’lim maqsadlariga erishishda pedagogik dasturiy vositalar:

– ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalash;

– tinglovchining o‘quv faoliyatini o‘zi nazorat qilish va to‘g‘ri yo‘naltirish;

– kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o‘quv vaqtini tejash;

– o‘quv materiallarini vizuallashtirish;

– o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish, ularni imitatsiyalashtirish;

– tinglovchilarning o‘z-o‘zlarini nazorat etish;

– turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;

– fikrlashning aniq bir shaklini rivojlantirish;

– kasbiy bilimlarni egallash motivlarini kuchaytirish;

– bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirishlariga oid chet el tajribasi maxsus adabiyotlar, dissertatsion tadqiqotlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Chexiya, Malayziya, Gretsiya) tahlil qilinganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, dastlabki yillarda xalq ta’limi xodimlari quyidagi malakalarga yetarli darajada ega bo‘lmaydilar:

1. Predmet materialini tegishli o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda bayon qilish;

2. Predmet materialini mustaqil ishlab chiqish;

3. O‘tmishning madaniy merosini hamda fan, texnika va madaniyatning hozirgi yutuqlarini o‘quvchilarni tarbiyalash vositasi sifatida ishlatish;

4. O‘qitilayotgan material yuzasidan mashqlar, topshiriqlar, testlar tuzish;

5. O‘qitish jarayonida ijodiy muhitni yaratish;

6. O‘quvchilarda kasbiy ijodiy fikrlashni shakllantirish va ularning ijodiy qobiliyatini o‘stirish;

7. O‘quv va ilmiy jarayonlarda axborot texnologiyalarini qo‘llash.

Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSH, Shotlandiya va boshqa mamlakatlarda malaka oshirishning mavjud shakllarini takomillashtirish, davr va ta’limning murakkab talablariga javob beradigan metodikalarini ishlab chiqish muntazam ravishda olib borilyapti.

AQSHda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarini tayyorlashning asosiy shakli o‘rtacha besh yilga mo‘ljallangan, ta’lim tizimi murakkab tuzilishga ega emas, universitetlar kollejlar bilan tutashib ketadi, kollejlar, umumiy qoida bo‘yicha universitet tarkibiga kiradi va doktoranturaga kirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Germaniyada ham umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirishga katta ahamiyat beriladi, hozirgi kunda u yerda oliy ta’limga va oliy ta’limdan keyingi ta’limga, shu jumladan, uning mazmuni darajasiga yondashuv qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Buyuk Britaniyada umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchisining umumiy va kasbiy-pedagogik madaniyat sohibi sifatidagi roli katta. Shu sababli oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining malakasini oshirishga juda katta e’tibor beriladi. Buyuk Britaniyada o‘qituvchilar kasbiy-pedagogik tayyorgarligining asosiy yo‘nalishlari quyidagicha amalga oshiriladi:

— intensiv kurslarda;

— tajribali o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida;

— stajirovka davrida;

— fanlararo integrallashgan kurslarda.

Fransiyada o‘qituvchilar o‘z nazariy – uslubiy malakalarini oshirishga ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan o‘tish uchun aniq muddat belgilab qo‘yilmagan. O‘qituvchilar o‘z ixtiyorlari bilan test markazlarida imtihon topshiradilar. Shu imtihonlar davrida o‘qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o‘z vaqti va mablag‘lari hisobiga malaka oshiriladi.

Fransiyadagi Izer departamenti o‘qituvchilar tayyorlash va malakasini oshirish institutida malaka oshirishning masofaviy shakllarini joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, malaka oshirish tizimini boshqarishni takomillashtirish, tyutorlar tayyorlash, turli innovatsion shakllarini keng rivojlantirish, malaka oshirishni moliyaviy jihatdan ta’minlash, tizimning o‘z-o‘zini moddiy jihatdan qoplashi, to‘lov-kontrakt munosabatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Institut auditoriyalari kompyuter texnikasi yordamida elektron darsliklardan foydalanib dars o‘tishga mo‘ljallab jihozlangan. E’tiborli jihati, institutdagi auditoriya partalari trapetsiya shaklida bo‘lib, ular auditoriyada turli ta’lim metodlari talablari asosida joylashtirish uchun qulayliklarga ega. O‘quv xonalariga videoproyektorlar, elektron doskalar kabi ta’lim vositalari o‘rnatilgan.

Shotlandiyada o‘qituvchilar malaka oshirishga bo‘lgan o‘z ehtiyojlari bilan baholanadi. Shundan so‘ng ular bu ehtiyojlarni tajribali xodimlar bilan muhokama qiladi. O‘rta maktabda katta o‘qituvchining vazifasiga kadrlar tayyorlash masalalari bilan ishlash kiradi. Muhokama milliy ta’limni boshqarishda, maktabda va individual rivojlanishda eng muhim ehtiyojlar doirasida o‘tadi. Xodim ehtiyoji, xoh, o‘qituvchilik, xoh, undan tashqari, ishda bo‘lsin, maktabni rivojlantirish rejasining eng muhim va ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Bu ehtiyojlarning bir qanchasi mahalliy darajada, boshqasi ta’limni boshqarish darajasida, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti yoki ekspertlar yordamida qondirilishi mumkin.

Gretsiyada o‘qituvchilar joylarda har 5-6 yilda uch oylik o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarini o‘tashlari kerak. Bundan maqsad – o‘qituvchilarni turli tartibdagi

ta’lim sohasining eng so‘nggi yangilik va yutuqlari, o‘quv dasturlari, o‘qitish usullari bilan tanishtirib borishdir.

Malaka oshirish shakllarining rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan qiyosiy tahlili asosida quyidagi mulohazalarni bayon qilish mumkin:

1. Rossiya, AQSH, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini malakasini oshirish uzluksiz ta’limning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi kasbiy bilimlarni nazariy umumlashtirishdan, fanni o‘qitishda ishlatiladigan yangi texnologiyalarni egallashdan, ya’ni o‘qituvchining kasbiy bilimdonligini takomillashtirishdan iborat.

2. Mazkur mamlakatlarda fan o‘qituvchilarining malakasini oshirishning turli samarali shakllari va usullari bo‘lishiga karamasdan, barcha ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy bilimdonligini takomillashtirishning borgan sari murakkablashib borayotgan davr talabiga mos keladigan yangi texnologiyalarini va usullarini izlash va ishlab chiqish muntazam davom etmoqda.

3. Barcha mamlakatlarda ta’limning eng muhim vazifalaridan biri o‘zini tahlil qilish va o‘z faoliyatini o‘zi baholash malakalarini takomillashtirishdan iborat. O‘z faoliyatini o‘zi baholash o‘ta muhim, chunki diplomdan keyingi ta’lim o‘qituvchini mustaqil bilim olishi asosini ta’minlashi kerak, bularsiz o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yurita olmaydi.

4. Mazkur mamlakatlarda ta’lim muassasalarining fan o‘qituvchilarini malakasini oshirish dasturida ishlatiladigan ta’limning ijtimoiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining (rol ish o‘yinlari, keys ishi va hokazo) asosiy maqsadi – fan o‘qituvchilari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, qobiliyatini va malakasini rivojlantirish, muammolarni aniqlash, ham individual ish jarayonida, ham guruhning boshqa ishtirokchilari bilan birgalikda qarorlar qabul qilish va mavjud fikrlardan eng optimal variantini tanlashdan iboratdir.

5. Zamonaviy fan o‘qituvchisi ma’lumot tizimlari – video, multimedia, internet orqali uzatilayotgan yuqori texnologik dasturiy mahsulotlarni o‘zlashtirishi va ishlatishi zarur, bu yangi axborot texnologiyalarini ijodiy diapazonda bilishni, elektron ta’lim vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda ham xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy faoliyatlarida elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan. Sababi, o‘qituvchilar zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi natijasida o‘qitish mazmuni boyiydi, o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot shakli o‘zgaradi. Chunki unda faqatgina mashg‘ulotlar matni emas balki, tarmoqdan zarur axborotlarni qidirish, ma’lumotlar almashish, ma’lumotlar bazasiga murojaat etish, internet tizimidagi davriy axborot manbalaridan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, elektron ta’lim vositalaridan foydalanish faqat individual o‘qish bilan bog‘liq bo‘lmay, pedagog va boshqa tinglovchilar bilan ham muloqot qilish imkoniyatini rivojlantiradi.

Quyida biz malaka oshirish tizimida elektron ta’lim vositalaridan foydalanishning holatini geografiya kursi tinglovchilari misolida ko‘rib chiqamiz. Geografiya fani yo‘nalishi tinglovchilariga o‘qitiladigan modullar bo‘yicha ta’lim berishda nazariya bilan amaliyot birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu modullardan o‘quv uslubiy

majmualarni yaratishda ularga oid axborotli uslubiy majmua va elektron ta'lim resurslarini joriy etishni e'tiborga olish lozim, chunki hozirgi davr axborot asri hisoblanadi.

Geografiya fanidan malaka oshirayotgan tinglovchilarning texnik savodxonligini oshirishda "Geografiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" modulining salmoqli hissasi bor. Ushbu modul tinglovchilarning mutaxassislik bo'yicha axborot texnologiyalaridan foydalanishi bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilimlarning asosiy qismini egallaydi. Modulning maqsadi: umumiy o'rta ta'lim maktablari geografiya fani o'qituvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Ushbu modul bo'yicha tabiiy fanlar o'qituvchilariga qo'yilayotgan malaka talablari doirasidagi bilishi zarur bo'lgan bandidan to'rtta muhim vazifani alohida ta'kidlash lozim. Ular ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyat asoslarini, fanni o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni, fan nazariyasi va uni o'qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlarni, fanni o'qitishda qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini bilish kabi bilimlardir.

Ega bo'lishi shart bo'lgan kompetensiyalardan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish, fan nazariyasi va uni o'qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlardan xabardor bo'lish kabi kompetensiyalar, aynan o'qituvchining malaka oshirish kurslarida zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslari bilan ishlashga chorlaydigan omillar sifatida xizmat qiladi.

Modulning vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– tinglovchilarda geografiyani o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

– geografiya darslarida zamonaviy ta'lim vositalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

– geografiya fani nazariyasi va uni o'qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlar bilan tanishtirish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, elektron ta'lim vositalarini malaka oshirish tizimiga joriy etish – zamonaviy jamiyatda o'z-o'ziga ta'limning ayrim masalalarini hal qilish, har bir insonga, uning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, butun hayoti davomida ta'limga erkin va ochiq kirishni ta'minlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.

2. Mamatov. D.N. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi. –T., 2017.

3. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi, Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, (4.1 modul) –T., 2018. –143-b.

4. Najmiddinova G.N., Qurbonova O'.U., Qiyosiy pedagogika., –B. 2014. –125-b.

5. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A. Ta'lim sifatini boshqarish. – T., 2006, –553-b.

Malika FAYZULLAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, ‘‘Maktabgacha ta'lim metodikasi’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA “MAKTABGA TAYYORLOV” GURUHI UCHUN NUTQNI RIVOJLANTIRISH TA'LIMIY FAOLIYATI DASTURI ASOSIDA ISHLANMA TAYYORLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida maktabga tayyorlov guruhi uchun nutqni rivojlantirish ta'limiy faoliyatlari uchun ishlanmalar tayyorlash, ta'limiy faoliyat ishlanmasining tuzilmasi, ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsad qismiga O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi bola kompetensiyalaridan, Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta'limiy faoliyati dasturi vazifasidan foydalanish, ta'limiy faoliyatning qismlarini yoritilishi aks etgan.

Kalit so‘zlar. Maqsad qo‘yish, kerakli jihozlar, ta'limiy faoliyatning qismlari, savollar, mustahkamlash.

В статье описаны Государственные требования к развитию детей младшего и дошкольного возраста в системе непрерывного образования, развитию речи для дошкольной группы, структура развития учебной деятельности, целевая часть развития учебной деятельности. использование детских компетенций в области ‘‘навыки речи, общения, чтения и письма’’, роль программы учебной деятельности для развития речи для дошкольной группы, охват частей учебной деятельности.

Ключевые слова. Постановка целей, необходимое оборудование, части учебной деятельности, вопросы, подкрепление.

This article describes the state requirements for the development of primary and preschool children of the Republic of Uzbekistan in the system of continuing education, the development of speech for the preschool group, the structure of the development of educational activities, the target part of the development of educational activities. The use of children's competencies in the field of ‘‘speech, communication, reading and writing skills’’, the role of the program of educational activities for the development of speech for the preschool group, the coverage of parts of educational activities.

Key words. Goal setting, necessary equipment, parts of educational activities, questions, reinforcement.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaroriga ko‘ra tayyorlangan “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutqni rivojlantirish ta'limiy faoliyati dasturi” asosida ta'limiy ishlanmalar yozish.

Maqsadi: “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq o‘stirish ta'limiy faoliyati dasturi” asosida ta'limiy ishlanmalar yozish bo‘yicha ko‘rsatmalarni yoritib berish.

Asosiy mazmun: “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati dasturi” asosida ta’limiy faoliyat ishlanmasini yozishda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining 4-ilovasi “Yillik mavzuliy reja namunasi” asosida yoritib beriladi.

Ta’limiy ishlanmalardan maqsad – O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi bola kompetensiyalari, Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati dasturi asosida olinadi. Ishlanmalarning mazmuni qisqa, tavsiyaviy, jo‘shqinlik xarakterga ega bo‘lishi nazarda tutilib, 5 qismli tuzilmaga ega:

1. Mavzu.
2. Maqsad.
3. Kerakli jihoz.
4. Ta’limiy faoliyatning borishi.
5. “Qo‘shimcha qism”.
6. “E’tiborga molik jihatlar”.

1. Ta’limiy ishlanmaning mavzu qismi yoritilganda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi oylik, haftalik mavzulariga tayaniladi. Misol uchun sentabr oyida maktabga tayyorlov guruhida 1-hafta “Mening qadrdon O‘zbekistonim” deb nomlangan. Haftaning nomiga bog‘lanib nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati mavzusini “O‘zbekiston mening Vatanim”, 2-hafta “Mening shahrim, mening mahallam” deb nomlangan. Ta’limiy faoliyati mavzusini haftaning nomiga asoslanib “Mening ona shahrim” deb olinishi mumkin.

2. Ta’limiy ishlanmaning maqsad qismining mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalarining integratsiyasi, (rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishi) nazarda tutilib “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi kutilayotgan natijalari, “Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq rivojlantirish ta’limiy faoliyati dasturi”ning “Nutq va til”, “O‘qish malakalari”, “Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” bo‘limlari mazmunidagi vazifalarga integratsiyalashgan yondashuv tarzda olinishini inobatga olinadi. Masalan, nutq rivojlantirish ishlanmasining maqsad qismiga “Nutq va til” kichik sohasi vazifalari: bog‘langan nutq, grammatika, lug‘at, tovush madaniyati, “Hissiyotlar va ularni boshqarish” kichik sohasining “Badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapirish” vazifasi o‘zaro uzviy bog‘liq holda olinishi mumkin.

Ta’limiy faoliyat ishlanmalarining maqsadlari bolalarni mustaqil hikoya tuzish, rasmga qarab tarbiyachi bergan mazmun asosida hikoyalar tuzish va qayta hikoya qilish, tovushni to‘g‘ri talaffuz etish va savodxonlikka tayyorlashga qaratiladi.

3. Ta’limiy ishlanmaning “Kerakli jihozlar” qismida ta’limiy faoliyatni o‘tkazish uchun kerakli jihozlar yoziladi. Pedagog ta’limiy faoliyatni o‘tkazish uchun kerakli jihozlarni bir kun avval tayyorlab qo‘yishi lozim.

4. Ta’limiy ishlanmaning “Ta’limiy faoliyatning borishi” qismini yoritishda ta’limiy faoliyatning jo‘shqinlik xarakteriga ega bo‘lishiga e’tibor berib rejalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Faoliyatni boshlashdan avval, bolalarda bilim olish istagini, qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltirish uchun davra suhbati, biror muzyorar mashqi, kutilmagan quvnoq daqiqa tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ta’limiy faoliyatning kirish qismida bolalar diqqati jalb qilinadi,

Ta’limiy faoliyatning asosiy qismida ko‘rgazmali, tarqatma materiallardan foydalangan holda yangi bilim beriladi. Berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarqatma

materiallar bilan amaliy mashqlar, oddiy topshiriqlar yoki ta’limiy o‘yinlarni o‘tkazish ta’limiy faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Ta’limiy faoliyatning qismlari orasida quvnoq daqiqalarning o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

5. Ta’limiy faoliyatning yakuniy qismida ishlanmada berilgan bilimni mustahkamlash uchun ta’limiy o‘yin, mustahkamlovchi savollar kiritilishi lozim. O‘zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo‘lgan badiiy asarlarni o‘qib berish, she’r aytib berish, topishmoq aytish kabi usullardan ham foydalanish mumkin.

Ta’limiy faoliyat ishlanmasida ko‘rsatilgan “Qo‘shimcha qism”, “E’tiborga molik jihatlar” bandlariga pedagogga ta’limiy faoliyat jarayonida nimalarga e’tibor berishi haqida tavsiyalar beriladi.

Qisqa tezis shaklida yoritiladigan ta’limiy faoliyatning namunaviy ishlanmasi:

Mavzu: O‘zbekiston – mening Vatanim

3-hafta. Mavzu: “Men va mening oilam”

Mavzu: “Mening oilam” mavzusida suhbat

Mavzu: “Mening oilam” mavzusida surat asosida suhbat

Maqsad:

“Nutq va til”: bolalarga o‘zbek oilalarda oila a’zolari munosabatlari ibratli ekani haqida savollar berish bilan muloqotga kirishishlariga imkoniyat berish. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, bolalarning hikoya qilib berish nutqini rivojlantirishda davom etish. Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma’noli jumlalar tuzish, o‘rtoqlarining berayotgan javoblarini e’tibor bilan tinglashga o‘rgatish.

“Mening oilam” mavzusida lug‘atni faollashtirish. Nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot:

O‘z oila a’zolariga samimiy munosabat bildirishni tarbiyalash. Kerakli jihozlar:

“Mening oilam” mavzusida rasmlar to‘plami.

Ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik: tarbiyachi ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatdan oldin ota-onalardan “Mening oilam” mavzusida rasmlarni yig‘adi. Rasmlarning orqasiga lipuchkalar yopishtiriladi, xuddi shunday lipuchkalar katta vatman qog‘ozga ham yopishtiriladi.

Ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi ta’limiy faoliyatning kirish qismida (5 daqiqa) bolalarga hamma bolalarni o‘z oilalari, o‘z uylari borligi, oila deganda, avvalo, ota-onalari ko‘z o‘ngilariga kelishi, undan keyin opa-ukalari, opa-singillari kelishi, o‘zbek oilalarda oila a’zolari munosabatlari ibratli ekani haqida so‘zlab suhbatni boshlaydi va bolalarni muloqotga kirishishlariga imkoniyat beriladi.

Asosiy qism. 20 daqiqa

1. “Mening oilam” mavzusi bo‘yicha suratni ko‘rib chiqish.

2. Surat bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.

3. Har bir bolaning oilaviy tushgan rasmlari bo‘yicha hikoyalarini tinglash.

4. Quvnoq daqiqa.

5. “Mening oilam” mavzusida she’rlar aytish.

6. Yakuniy qism. 5 daqiqa. Bolalar tuzgan hikoyalar, aytilgan she’rlarni muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha qism: ‘‘Bizning oila’’ mavzusida videorolik ko‘rsatish. (5 daqiqa)

Alohida e’tibor qaratiladi: Bolalar so‘zlayotganlarida so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalari shakllanganligiga e’tibor berish.

To‘liq yoritiladigan namunaviy ta’limiy faoliyat ishlanmasi

Mavzu: Aa harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

Nutq va til:

tarbiyalanuvchilar –

– tengdoshlari bilan erkin muloqot yuritadilar;

– suhbatdoshining nutqini tinglaydilar va aytmoqchi bo‘layotgan fikrini anglab, tengdoshlari bilan erkin muloqot yuritadilar;

– o‘zini qiziqtirgan mavzular bo‘yicha tortinmay savollar beradilar.

O‘qish malakalari:

tarbiyalanuvchilar –

– unli harflar guruhiga kiruvchi Aa harf-tovushi bilan tanishadilar;

– so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladilar;

– bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadilar;

– so‘z, tovush, bo‘g‘in haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi:

– mayda qo‘l motorikasini rivojlantiradilar.

Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot:

– do‘stona bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashga odatlanadilar.

Kerakli jihozlar:

“Laylakvoy” media mahsuloti, “A”harfli kartochkalar, “Savodxonlikka o‘rgatish” to‘plami, kitob maketi, sanoq cho‘plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam, ruchka yoki flomasterlar.

Mashg‘ulot metodi: “Tabassum hadyasi” muzyorar mashqi, analiz-sintez, suhbat, amaliy ish, tushuntirish.

Ta’limiy faoliyatning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. 3-5 daqiqa

“Tabassum hadyasi” muzyorar mashqi

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarga qo‘llarini ushlab doira bo‘lib turishlari va bir-birlariga tabassum qilishlarini so‘raydi. Mashq bolalarning yonidagi o‘rtoqlariga qarab tabassum hadya etishlari bilan davom ettiriladi. Mashqdan so‘ng bolalar o‘z joylarini egallaydilar.

3. Asosiy qism. (20 daqiqa)

“Laylakvoy” media mahsulotidan ekranda “A” tovushi bor ayiq tasviri ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini-so‘zni aytadilar. Tarbiyachi “A” tovushini cho‘zib (a-a-a-ayiq) aytadi va qaysi tovush cho‘zib aytilayotganligini tarbiyalanuvchilardan so‘raydi. Tarbiyalanuvchilar “A” tovushini aytgach, tarbiyachi uning xususiyatlari haqida ma’lumot beradi.

Tarbiyachiga eslatma:

“A” tovushi unli tovush bo‘lib, talaffuz qilinganda cho‘zib aytiladi. Talaffuz vaqtida o‘pkadan chiqayotgan havo hech qanday to‘siqqa uchramaydi.

Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda “Savodxonlikka o‘rgatish” to‘plamidan “A” tovushining so‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishiga misollar ko‘rsatiladi. Shun-

dan so‘ng, “A” harfi “Laylakvoy” media mahsulotidan ko‘rsatiladi va quyidagi amaliy ish bajariladi.

Amaliy ish

Tarbiyachi bolalarga katta bosma “A” harfini doskada quyidagicha chizib ko‘rsatib beradi. Ikkita tayoqchaning yuqorigi uchlari birlashtirilib, ularning o‘rtasiga belbog‘cha qilib uchinchi tayoqcha chiziladi. Tarbiyachi ko‘rsatib bergan namunaga qarab bolalar sanoq cho‘plaridan katta “A” harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga “A” harfi haqida quyidagi quvnoq she’rni aytib berishi mumkin.

Alifboning boshi – “A”
Uni hamma biladi,
Mashhurlikda kerilib
Oyoqni keng qo‘yadi.
Mana ikkita ustuncha:
O‘rtasida belbog‘cha
Bu harfni bilding-a?
Ro‘parangda turar “A”

“A” harfi kitobga joylab qo‘yiladi. (Kitob maketiga “A”kesma harfi yopishtiriladi).

Quvnoq daqiqa

Bolalar she’r so‘zlariga mos harakatlarni bajaradilar.

Ayiq polvon o‘rmonda
Yemish izlab yuradi.
Uxlaganda tushida
Har kun asal ko‘radi.

Tarbiyachi harflarning uch xususiyati va tovushlarning ikki xususiyati haqida ma’lumot beradi.

Tarbiyachiga eslatma:

Harflar o‘qiladi, yoziladi va ularni ko‘rish mumkin.

Harflar bosh va kichik shaklda bo‘ladi.

Tovushlar eshitiladi va talaffuz qilinadi.

Xulosa. Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutq o‘stirish ta’limiy faoliyati dasturi asosida ta’limiy faoliyat ishlanmasini tezis shaklida qisqa yoki to‘liq yoritish mumkin. Ta’limiy faoliyat ishlanmasini katta stajga ega bo‘lgan pedagoglar tezis, yosh mutaxassislar esa to‘liq shaklda ishlanma yozishlari mumkinligi maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashiga muhokamasiga qo‘yiladi va pedagogik kengash qarori bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. – T., 2020.

2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T., 2018.

Surayyo RAHIMOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning asosiy omillari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, ta'lim tashkilotlari, asosiy omil, jarayon, motivatsiya.

В статье рассматриваются основные факторы развития творческой компетентности воспитателей дошкольного образования.

Ключевые слова. Дошкольное образование, образовательные учреждения, ключевые факторы, процесс, мотивация.

The article discusses the main factors in the development of creative competence of preschool educators.

Key words. Preschool education, educational institutions, key factors, process, motivation.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarini kasbiy kompetentligini shakllantirish, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash maqsadida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta'lim tarbiyachisi kasbiy kompetentligini va kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda ularning kasbiy-pedagogik ijodkorligini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash lozim.

Hozirgi davrda yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardagi kasbiy-pedagogik kreativligini shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud bo'lib, aynan mana shular maktabgacha ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan ta'sirchan choralarni ko'rishni taqozo qiladi.

Kreativlik – bu insonning borliqni bilish va o'zgartirishga yo'naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo'lib, uning natijasida, yangi, original, ilgari mavjud bo'lmagan, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kreativligi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, kreativlikning mohiyatini mukammal tahlil qilib olish zarur. Kreativlik mohiyatini o'rganish, aytish joiz bo'lsa, o'ta murakkab masala sanaladi, chunki uning zimmasiga insonni va tabiatni o'rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo'yiladi. Kreativlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, obyektiv va subyektiv, individual va jamoa o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o'z ichiga qamrab oladi.

Bularning natijasida, mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati va ko‘nikmalari shakllanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobiy yechish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Kasbiy kompetensiya va pedagogik ijodkorlik o‘z tuzilishi jihatdan kognitiv, tezkor-faoliyatlilik, kundalik, individual shaxsiy va sababiy unsurlar yig‘indisidir.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi bilimlardan iborat: funksional, ya’ni turli fan sohalarini tashkil etish tamoyillari haqidagi bilimlar, harakat haqidagi amaliy bilimlar, ya’ni metodik va texnologik hamda shaxsning o‘z bilimlaridan iborat. Bularning natijasida mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati shakllanadi va pedagogik kreativligi rivojlanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobiy yechish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish, o‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsional-qat’iylik bilan boshqara bilish, kasbiy kompetensiyani yuzaga chiqishi natijalari shular jumlasidandir.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda insonning ijodkorlik faoliyati, ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasi katta ta’sir ko‘rsatadi va tarbiyachilik faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ(ijodiy) kompetentligini amalga oshirish uchun, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Tarbiyachilarning ijodkorlik faoliyati pedagogik shart-sharoitlar yaratishni tasniflash negizida shaxs faoliyatining tarkibiy komponentlari: bilish, ijodiy, kommunikativ, badiiy faoliyatlar yotishi mumkin. Shunga ko‘ra, besh xil psixologik holatni ajratish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos uslubini va kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish jarayonini loyihalashtirishning mohiyatini, tamoyillarini va jarayonlarini bilish.

2. Kasbiy pedagogik faoliyatga hissiy va qadriyatli munosabat, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish zarurligiga ishonch hosil qilish.

3. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kreativ darajada amalga oshirish qobiliyati.

4. Jamoaviy faoliyat jarayonida boshqa odamlar bilan o‘zaro kommunikativ kompetentlikka yo‘naltirilgan aloqalarni yo‘lga qo‘yish.

5. Kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni loyihasini mantiqiy va uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyat.

Bo‘lajak kasbiy ta’lim o‘qituvchilari kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishning birinchi sharti – boshqa oliy ta’lim muassasalari singari pedagogik yo‘nalishdagi ta’lim tizimida ham ilg‘or, innovatsion va yetakchi bo‘lgan bilim olish texnologiyalarini yaratish jarayoni bilan bog‘liq.

Bo‘lajak maktabgacha tarbiya tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishning ikkinchi sharti – pedagogik qadriyatlar tizimini shakllantirish bilan bog‘liq loyihalash faoliyatidir.

Pedagogik faoliyatning qadriyatlari “tarbiyachiga moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan insonparvarlik maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga rahbarlik qiladigan xususiyatlar” deb tushuniladi.

Uchinchi sharti – kasbiy-pedagogik ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish doimiy ravishda amalga oshiriladi: birinchi navbatda, reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchan va kreativ darajalarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi muhim hisoblanadi.

To‘rtinchi shart, tarbiyachining kommunikativ qobiliyatlari bilan bog‘liq. O‘quv jarayonida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish usullarini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarni mustaqil muloqotchanlik faoliyatga jalb qilish mumkin.

Tarbiyachining kasbiy-pedagogik ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning beshinchi sharti – bo‘lajak o‘qituvchining malakasiga, intuitsiyasiga va shaxsiy imtiyozlariga asoslangan estetik xususiyatga egaligi. Shunday qilib, bo‘lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi shartlar bajariladi:

1. Tarbiyachilarda ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishning mohiyatini, mazmunini, pedagogik faoliyatning individual uslublarini bilish, xususan, ularning harakatlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga erishish.

2. Reproduktiv, izlanuvchi yoki ijodiy darajada oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan imkoniyatlardan foydalanish.

3. Jamoaviy faoliyat jarayonida ijtimoiy malakani rivojlantirish (kasbiy faoliyatni modellashtirish modellari).

4. Ta’lim jarayoni loyihasini mantiqiy jihatdan chiroyli tarzda yaratishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyat.

5. Pedagogik ta’lim mazmuniga oid ta’lim jarayonini kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligining tabiati, tamoyillari va tartibi haqida ma’lumot.

6. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan talabalarni o‘qitish texnologiyasi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar faoliyati samaradorligini oshirish bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi. Har bir omil o‘ziga xos samaradorlikka erishish garovidir. Tarbiyachi faoliyati samaradorligini oshirish, takomillashtirish orqali biz yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol, komil inson bo‘lib yetishishlariga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рабочая концепция одаренности //Д.Б. Богоявленская, В.Д. Шадриков, Ю.Б. Бабаева, А.В. Брушлинский, В.Н. Дружинин, и др., 2е изд-е, расширенное и переработанное, – М.: ИЧП Магистр, 2003. – С. 68.

2. Развитие и диагностика способностей //Под ред. В.Н. Дружинина, В.Д. Шадрикова –М., 2003.

3. Развитие креативной компетентности педагога в системе повышения квалификации // Ананьевские чтения – 2012. Психология образования в современном мире: Материалы научной конференции, 16-18 октября 2012 г. / Отв. ред. Н.В. Бордовская. – СПб.: Изд-во С.–Петерб. ун-та, 2012. – С. 460-461.

4. Развитие творческой активности школьника / Под ред. А.М. Матюшкина. М., 1991.

5. Мусурманова О. М. Повышение педагогической компетенции субъектов образовательного процесса в сфере педагогического менеджмента //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 3. – С. 92-95.

Aktam SAMADOV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti
Glchehra QODIROVA,
Samarqand davlat universiteti 3-bosqich talabasi

MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA TARG'IBOT QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni kitobxonlik orqali jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga olib keluvchi tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar. Kitob, kitobxonlik, kutubxona, madaniyat, estetik tarbiya, ''ommaviy madaniyat'', innovatsiya, metodologiya, ''aqlli'' texnologiya, dunyoqarash, g'oya, ideal, adabiyot, san'at, immunitet, ta'lim, globallashuv.

В статье предлагаются рекомендации, которые помогут молодым людям стать активными членами общества через чтение.

Ключевые слова. Книга, чтение, библиотека, культура, эстетическое воспитание, ''массовая культура'', инновация, методология, ''умная'' технология, мировоззрение, идея, идеал, литература, искусство, иммунитет, образование, глобализация.

The article offers recommendations that will help young people become active members of society through reading.

Key words. Book, reading, library, culture, aesthetic education, ''mass culture'', innovation, methodology, ''smart'' technology, worldview, idea, ideal, literature, art, immuneitet, education, globes.

Globallashuv ta'sirida qator mamlakatlar yoshlarning ta'lim-tarbiyasi xususida qayg'urib, ''ommaviy madaniyat''ga qarshi kurashishning samarali va ta'sirchan yo'llarini izlamoqda. Yoshlar yangi dunyo kishilaridir. Ular uchun kitob, kitobxonlik, mutolaa madaniyati, ta'lim-tarbiya haqidagi XX asrdagi g'oyalar anchagina eskirib, o'z ta'sirini yo'qota boshladi va bu holat qandaydir yangi, innovatsion metodologiyalarni yaratishni taqozo etmoqda. Albatta, yoshlarning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi ularning ma'naviy dunyosini virtuallashiga, o'zlari esa "aqlli" texnologiya iste'molchisi sifatida falsafiy dunyoqarashlarini ''ommaviy madaniyat'' ta'sirida shaklan va mazmunan boshqacha shakllanishga olib keldi.

Yoshlarni kitobga, kitobxonlik madaniyatiga qaytarish orqali savodli, yuqori saviyali etib tarbiyalash, estetik tarbiya mezonlarini shu kitobxonlik madaniyatidan izlash bu – masalaga bir tomonlama qarashdir. Kitob yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, bilim, so'z boyligini orttiradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Ammo, yoshlarni oila, ta'lim muassasalarida olgan bilimlari-yu, hayotiy g'oyalar va ideallarini jonlantiruvchi omillardan biri – adabiyot va san'at (teatr, kino va h.k.)ni rivojlantirish va keng targ'ib etish ham yoshlarni estetik tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki jabha estetik tarbiyada dialektik aloqadorlikda bo'lib, yoshlarni badiiy saviyasini oshirishga mo'ljallangan. Bu to'g'rida Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: ".....Hozirgi

paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida” qarori, “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bilan mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, ta’lim muassasalarida axborot-resurs markazlari tashkil etish to‘g‘risida bir qator vazifalar qo‘ymoqda:

– birinchidan, ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta’lim olishi va mustaqil ravishda ta’lim olishiga ko‘maklashish;

– ikkinchidan, milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko‘lamda targ‘ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo‘lishni ta’minlash, ma’naviy boy va uyg‘un kamol topgan shaxsning ijodiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

– uchinchidan, yangi axborot texnologiyalari (ma’lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmatini ko‘rsatish;

– to‘rtinchidan, madaniy, ta’lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

– beshinchidan, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlar bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash;

– oltinchidan, aholiga xizmat ko‘rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Niholni to‘g‘ri yoki qiyshiq o‘sishi uning dastlabki holatiga, unga ko‘rsatilgan parvarishga bog‘liq bo‘lgani kabi kishilarni kitobga, kitob o‘qishga va bu orqali bilimga intilishga poydevor yoshligida qo‘yilishi lozim bo‘ladi. O‘qishga havas, intilish eng avvalo, oilada shakllanadi. Yosh bolaga ota-onasining, yoki kattaroq, aka-opasining kitob o‘qishi, kitob mutolaa qilishi, yoki kitob qahramonlarini hayoti va ish faoliyatlarini tahlili orqali nimalarga amal qilish yaxshi, yoki nimalarga amal qilmaslik yaxshi ekanligini anglashga yordam beradi. Kitob o‘qish – bolaga estetik tarbiya berishi eng samarali usul – vositasidir. Albatta, estetik tarbiya berishda san’at asarlari ko‘rgazmalariga borish, yurtimizning betakror arxitektura yodgorliklari va qadam joylariga sayohat – ekskursiyalar o‘tkazish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim holat adabiyot va san’at sohasida, shuningdek, jamiyat hayotida ulkan yutuqlarga erishgan shoir-yozuvchilar, kino san’ati ustalari bilan uchrashuvlar ham yosh qalblarni estetik tarbiyasiga chuqur iz qoldirishi tabiiy.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan farmon, farmoyishlar, turli hukumat qarorlari o‘z navbatida, kitobga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirib, mutaxassisligidan qat’i nazar badiiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Kitobxonlik madaniyatini oshirish mazmunida strategiya yoki konsepsiya ishlab chiqilib, maqsadli, muddatli dasturlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Kitobxonlik madaniyatining negizi mutolaa madaniyatidir. Mutolaa uchun kitobni (materialni) to‘g‘ri tanlay bilish, eng zarurini ajrata olish, undan o‘z vaqtida to‘g‘ri foydalana olish, amaliyotda unumli foydalana olish ko‘nikmasidir. Mutolaa madaniyati haqidagi tasavvur kitobxonlar uchun kutubxonalarda kitob bilan ishlashga zarur bo‘lgan

bilimlar, malaka, mahorat, qobiliyat tizimi sifatida kengayib, boyib bordi. Bunga yana elektron resurslarni o‘qish madaniyati, undan foydalana olish san’ati, savodxonligi kabi tasavvur ham singishib bormoqda. Axborot olish tezligi, kam vaqt sarf qilib ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish istagi, dunyo axborot olamiga chuqurroq kirib borishga qiziqish va intilish oshib bormoqda. Endilikda axborot-kutubxona muassasalarida qog‘oz va elektron shakldagi manbani o‘qish madaniyatini shakllantirishda har bir kitobxonning, umuman o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va o‘qish maqsadiga mos bilim olish manbasini u xoh qog‘oz, xoh elektron shaklda bo‘lsin tanlay olish va o‘qish qobiliyatini tarbiyalashga e’tiborni qaratish lozim. Bu ancha murakkab jarayon, chunki ko‘pgina kitobxonlar o‘qish maqsadini aniqlashga qiynaladi, shuning uchun pala – partish, samarasiz, duch kelgan adabiyotni o‘qiydi, va binobarin, o‘zida kitob o‘qishga ishtiyoqni so‘ndirib qo‘yadi. Bu jarayonda kutubxonachininig pedagogik va psixologik mahorati juda zarur.

Mutolaa madaniyatni shakllanish tarixiga nazar tashlasak, unda o‘tmishda Alisher Navoiyni zamonida ham turli kechalar, kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilib, mushoiralar tashkil etilgani, hattoki bu tadbirlarga shohlar ishtirok etib she’rlar o‘qigani asarlarda muhrlangan. Dunyoning Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya mamlakatlarida kitobxonlik kechalarini o‘tkazilishi XVIII asrning 2 yarmidan XIX asrning birinchi o‘n yilligida katta rezonans olgan bo‘lsa, bizni ajdodlarimiz IX-X asrlardanoq kitob o‘qish, ilm-fanni o‘rganish va targ‘ib qilishda dunyoni lol qoldirgan va binobarin, jahon sivilizatsiyasini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkir olimlarni tarbiyalagan. Demak, kitobxonlik madaniyatini shakllanganligini hisobga olib, yosh avlodni kitobxonlikka, badiiy-estetik, ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga jalb qilish mexanizmini yangidan ko‘rib chiqish zarur. Hozirgi kunda dunyoda mashhur Ilon Mask, Bil Geyts, Jek Ma singari milliarderlari har kuni 100, 250 sahifa kitob mutolaa qilishini aytib, o‘rnak bo‘lmoqdalar. Ularga, jurnalistlar siz innovatsiya, yangi texnologiyalar yangiligini, g‘oyasini qayerdan olasiz? deganlarida, ular o‘zini shu haftada o‘qib turgan kitoblaridan olganini aytib o‘tishgan ekan. Demak, kitob o‘qish kishiga g‘oya, fantaziyani shakllantirib, yangilik, innovatsiyaga turtki bo‘lar ekan.

Hozirgi kunda kitob do‘konlari nashrdan chiqqan yangi kitoblarni yetarli darajada reklama qilib kitobxonga yetkazib bera olmayotgan bo‘lsa, Internet buni mamnuniyat va tezkorlik bilan bu vazifani uddalamoqda. Buning uchun biz ham bor iste’dodimizni qo‘llashimiz kerak. Shundagina biz yaratgan mahsulotni o‘qish bilan birga muhokama qilishlari, boshqalarga tavsiya qilishlari ham mumkin. Bu borada bizga kutubxonachilik sohasidagi eng oxirgi yangiliklardan – Buktreylerlardir. ‘‘Buktreyler’’ – bu kitobning eng yorqin va tanish sahifalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi qisqa videorolik. Uning yordamida butun dunyoga o‘zingizning sevimli kitobingiz haqida eng dadil ijodiy fikrlaringizni tatbiq etishingiz mumkin. Bu san’at, adabiyot va internetni bir-biriga bog‘lovchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega vosita hisoblanadi. Buktreyler yaratishdan asosiy maqsad, yosh avlodni kitob o‘qishga jalb qilish, zamonaviy axborot makonini yaratishdir. Badiiy, tarixiy asarlarni 3D formatda tayyorlash va namoyish qilish zamonaviy kitobxonlikni shakllantirish vositasidir.

Haqiqatan ham, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ilmiy, tarixiy asarlarni o‘qish, o‘rganish, tahlil etishga bo‘lgan harakat hozirgi kunda ancha ommalashgan. Professor-o‘qituvchilar talaba yoshlarga kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda, ilmiy-ommabop, ilmiy, badiiy, tarixiy asarlarni o‘qish, mutolaa qilishga mehr uyg‘otish va kitobxonlik saviyasini o‘stirish borasida amaliy ishlarning boshida turishlari lozim bo‘ladi. Oliy ta’limda talabalarni 1-kursidayoq kitobga bo‘lgan munosabati, mehr-muhabatini

innovatsion metodlar yordamida yanada rivojlantirish kerak. Ularga kitob orqali o‘z maqsadiga erishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, mutaxassisligidan qat’i nazar kitob o‘qishi – bu estetik madaniyat belgisi ekanini uqtirish va ularga o‘rnak, ibrat bo‘lish pedagoglardan talab qilinadi. Talaba taqlidchi va tanqidchi bo‘ladi. Shu psixologiyani hisobga olib ularni kitobxon qilmoqchi bo‘lgan katta avlod, avvalo, o‘zidan boshlashi kerak. Biz shu borada yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ba’zi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

– birinchidan, talaba yoshlar qanday kitoblarni o‘qishga qiziqishi va tafakkuri, badiiy saviyasi qay darajada ekanligini aniqlash;

– ikkinchidan, yoshlarning tafakkurini charxlaydigan, o‘z faoliyati jamiyatnig bir bo‘lagi ekanini anglatuvchi tadbirlarni tashkil qilish (bu borada yoshlar ittifoqi tashkiloti faol bo‘lishi kerak), yozuvchi, shoirlar bilan erkin muloqotda bo‘lish;

– uchinchidan, mutaxassislikdan kelib chiqib, xususan, milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi uchun badiiy adabiyot, tarixiy romanlarni darslik sifatida kiritish va adabiyot falsafasi yoki badiiy adabiyotda milliy g‘oyani rivojlanishi singari fanlarni olib kirish zarur;

– to‘rtinchidan, talaba yoshlarni ichidan o‘z fikrini ravon, erkin ifodalay olish ko‘nikmasi shakllangan, kitobxonlik madaniyatiga erishgan, o‘zi o‘qigan kitoblarni sharhlay biladigan yoshlarni rag‘batlantirish, konkurslar tashkil qilish, g‘oliblarga imtiyozlar berish, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlar talabalari uchun o‘ziga xos tabaqalashtirilgan tadbirlar tashkil qilish kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi;

– beshinchidan, talaba yoshlarda yozma va og‘zaki nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, nutqini, diksiyani shakllantirish, monolog aytishni o‘rgatish, matnni ifodali o‘qiy olish malakasini shakllantirish, talabalarni o‘z estetik ehtiyojlarini qondirish obyekti, omili bo‘lgan teatrlarga jalb qilish kabi ishlar universitet ma’naviyat bo‘yicha ishlar mutasaddilari va yoshlar ittifoqini asosiy faoliyati bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-381-sonli qarori.

2. Перцовская Р. Ф. Развитие культуры чтения основа формирования инновационного мышления // Науч.лаб. “Социально-информационные технологии” при каф. информационно-аналитич. деятельности факультета менеджмента и социольно-информац. технологии Мос.гос. ун-та культуры и искусства [Электронный ресурс]. – URL:http:misit.ucoz.ru/load/15-1-0-41(дата обращения 18,11,2013)

3. Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. konferensiya materiallari Central Asia – 2017. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi nashriyoti. –T., – 2017. 91-108-betlar.

Guli TAYLAKOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

MULTIMEDIAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YARATILADIGAN WEB-RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarni shakllantirish muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Multimediaviy texnologiyalar, web-resurslar, modul, interfeys, dizayn.

В статье рассматриваются проблемы создания веб-ресурсов на основе мультимедийных технологий.

Ключевые слова. Мультимедийные технология, веб-ресурсы, модули, интерфейсы, дизайн.

The article deals with the problems of creating web resources based on multimedia technologies.

Key words. Multimedia technologies, web resources, modules, interfaces, design.

Respublikamizda zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. Ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish, internet, elektron aloqa, elektron kutubxonalar, axborot ta'lim resurslari, multimediaviy texnologiyalar, multimediaviy web resurslar kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimediaviy web resurslar – multimedia vositalari asosida tayyorlangan ma'ruza matnini, amaliy mashg'ulotlarni, nazorat savollarini, foydalanuvchiga qo'llanma, elektron ma'lumotnoma, animatsiya, video va shuningdek, qo'shimcha o'quv materiallarni o'zida mujassamlashtirgan resursdir.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs yaratish uchun bu soha bo'yicha yozilgan o'quv adabiyotini o'zi yetarli emas. Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs aniq bir fanni tushunish, mazmun mohiyatini bilish va esda saqlab qolishni iloji boricha osonlashtirishi, o'z o'rnida misol va masalalar yordamida uning murakkab joylarini yoritishi, o'quvchilarni so'z, tovush va tasvir qabul qilishi bilan bog'liq imkoniyatlarini faollashtira olishi lozim. Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs yordamida saboq oluvchi amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniga ega bo'lishi hamda olgan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashga ega bo'lishi kerak.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resursni modullarga joylashtirish uchun quyidagilarga rioya etilishi maqsadga muvofiq:

• o‘quv materialini mavzu mohiyatiga mos ravishda alohida modullarga ajratish, bunda ularning ketma-ketligi fanni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatini yaratishi zarur;

• modullarga joylashtirilgan elektron materiallar asosiy tushunchalarning mohiyatini ochib berishi lozim;

• har bir modul boshqa modullar bilan giperbog‘lanish orqali ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim. Bu o‘z navbatida, o‘quvchiga bir moduldan boshqasiga (va yana orqaga yoki oldinga) osonlik bilan o‘tishini ta’minlab bera olishi lozim;

• barcha modul foydalanuvchi tomonidan boshqarilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Jumladan, o‘quvchi o‘zini-o‘zi tekshirish, mustaqil ishlash, masalalarning murakkabligini oshirish yoki kamaytirish kabi imkoniyatlarga, o‘qituvchi esa tekshirish, topshiriqlarning murakkablik darajasini o‘zgartirish, savol berish va javobni tekshirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim;

• o‘rganilayotgan mavzuning har bir qismi yoki moduli mantiqiy jihatdan to‘liq bo‘lishi lozim, ya’ni u nazariy qismdan, uni o‘zlashtirish bilan bog‘liq nazorat savollaridan, hayotiy misollardan, mustaqil ishlash uchun topshiriqlardan, modul bo‘yicha savollar va ularga bo‘lgan aniq javoblardan, nazorat ishidan, yordam olish va tushuntirish tizimlaridan iborat bo‘lishi kerak;

• Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs undan foydalanuvchining talablariga javob berishi kerak, ya’ni u mavzuni qay darajada o‘rganishi nuqtayi nazaridan multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resursning turli imkoniyatlaridan foydalana olishi lozim;

• o‘quvchi darsda ko‘zda tutilmagan bo‘lsada, kompyuterning boshqa masalan, hisoblash, matn terish kabi turli imkoniyatlaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lishi lozim;

• ma’lum bir sohaga mansub bo‘lgan multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar o‘zaro birlashtirish, qismlarga bo‘lish, yangi mavzu yoki ma’lumotlar qo‘shish, ma’lumotlar olish yoki yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish kabi sifatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Bu esa ularni zamon bog‘liq ravishda tezlik bilan o‘zgartira olish imkonini yaratadi.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs yaratuvchi mualliflar e’tiborini qaratadigan jihatlar quyidagilardan iborat:

• Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs yaratishda mazkur fanning o‘quv dasturini asos qilib olish;

• o‘qituvchilarning amaliy tajribalari va fan mazmunini inobatga olgan holda, multimediyaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarga kiritiladigan materiallarni tajribali o‘qituvchilar bilan muhokama qilish;

• bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘mak beruvchi tushunchalardan o‘z o‘rnida foydalanish;

• Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarga fan mavzusiga aloqador yangi bilimlarni tushunishda yordam beradigan qiziqarli sxemalar, diagrammalar, turli chizmalar va jadvallarni kiritish;

• Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarga erishilgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan amaliy mashqlar va nazorat savollarni kiritish;

• Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resursning tili, mazmuni o‘quvchilarning tahsil olish sharoitlari va qobiliyatlari, yoshiga mos kelishini inobatga olish;

• Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resursdan samarali foydalanish uchun uslubiy-qo‘llanmalar yaratish va h.k.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs o‘quvchilarni faollikka va tanqidiy fikrlashga undashi, ma’lumot berish bilan cheklanmasligi, aniq maqsad va vazifalarga yo‘naltirishi, fanning o‘quv dasturiga mos bo‘lishi kabi bir qator tamoyillarga ega bo‘lishi lozim.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs samarador bo‘lishi uchun u quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

1. Mavzu matnini tushunarli va mantiqiy usulda tuzish, o‘rganish jarayonini osonlashtirish uchun illyustratsiya va chizmalardan foydalanish.

2. O‘quvchilarga tushunarli, ravon va qiziqarli multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs yaratish uchun ularning yoshi, fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda misollar tuzish va fikrlar qo‘llash.

3. Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurs strukturasini, modullar va ularga tegishli bilimlarni qisqa hamda xulosa qismi bilan o‘zaro teran bog‘lash.

4. Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resursni predmet dasturiga to‘la mos keladigan va uni to‘laligicha qoplaydigan shaklda yaratish;

5. Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarga kiritiladigan materialni o‘ziga xos va betakrorligini, o‘quv predmetiga va o‘quvchining bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish.

6. Mazmunning aniqligi, interfeys va dizaynning qulayligi, ranglarning mosligi, matnning bexatoligini ta’minlash.

7. Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar o‘quvchilarni berilgan material ustida ishlashga va amalda qo‘llashga undovchi topshiriqlar kiritish.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarning ilmiylik va taqdimot sifati o‘quv rejaga moslik, mavzu bayoni, til darajasi, manba tuzilishi, taqdimot va dizayn, illyustratsiya va muammolarga ta’sirchanligi kabi mezonlarga javob berishi lozim.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar foydalanish bo‘yicha 2 ta, ya’ni ommaviy va yakka foydalanish turlariga ajratish mumkin:

• Ommaviy foydalanish uchun mo‘ljallangan multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar kompyuterning katta tizimli resurslarini talab qilmaydi, chunki ular odatda, serverlarda o‘rnatiladi va ularga kompyuter tarmog‘i orqali bog‘lanish imkoni beriladi;

• Yakka foydalanishga mo‘ljallangan multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar o‘quv materialini mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslarning yana bir turi bir bo‘lim o‘quv materialini o‘zlashtirmay turib, navbatdagi bo‘limga o‘tishga yo‘l qo‘ymaydi.

Multimedia texnologiyalaridan oddiy foydalanuvchilar quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

• O‘qitish dasturlarida – bunda o‘qitish jarayonida turli rasmli animasiyalar, elektron darslik, elektron kitob va elektron o‘quv qo‘llanmalar bo‘lishi mumkin.

• Entsiklopediyalar – bu biror–bir atamani yoki ilovani tushuntirishda turli multimedia ilovalarini qo‘llash.

• Ma’lumotnomalar – berilayotgan ma’lumotni turli shaklda keltirish va tushinishni osonlashtirish.

• Grafik paketlar – turli grafik ilovalar ustida ishlash imkoniyatini beruvchi dasturlar.

• Musiqa tahrirlovchilar – musiqa fayllari ustida turli amallar bajarish.

Biznes sohasida, masalan, firmalar uy-joy sotuvida multimedia texnologiyalaridan keng foydalanadilar. Bu yo‘nalishda sotiladigan uylarning kataloglari yaratiladi, haridor ekranda uyni xar hil tomonlaridan ko‘rishi, undagi hamma xonalari bo‘ylab interfaol sayr qilishi, reja va chizmalari bilan tanishishi mumkin.

Multimedia texnologiyalaridan turli kasb ustalari quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

• Kompyuter grafikasi vositalari – bunda turli dasturlar va texnik ta’minotlar orqali ishlash.

• Animasiyalar – Adobe Flash va 3D Max dasturlari yordamida turli animasiyalar yaratish.

• Videofilmlarni ishlab chiqish – hozirda multimedia texnologiyalari televideniya va kinostudiyalarda filmlarni yaratish jarayonida keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Kino industriyasida va video sanatda multimedia tizimi muallifning zaruriy ish dastgoxiga aylanmoqda. Film muallifi bunday kompyuter tizimida oldindan tayyorlangan, chizilgan, suratga olingan, video kamerada olingan tabiat manzaralarini jamlab, kerakli ko‘rinishdagi asarni yaratadi. Rejissor tasvirga olingan xar bir kadrni juda tez kuzata oladi, kompyuter montaji aniqlik darajasi yuqori va muloqat ish tartibida jarayonni olib borish mumkin. U turli xil videoeffektlarni yarata olishi va tasvirlarni o‘zgartirish hamda qo‘shish, oldindan tayyorlangan tovush lavxalarini kadrga joylashtirish va tasvirni tovush bilan monandlashtirish ishlarini sifatli bajara oladi. Kompyuter yordamida ishlov berilgan yoki xosil qilingan tasvirlarni tadbiq etish yangi tasviriy texnikani xosil bo‘lishiga olib keladi.

Shunday qilib, multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar mavjudki, unda o‘quv axborotlari va materiallar yangilanib turiladi. Shu xislatlari bilan ular uzluksiz yangilanish va davriy yangilanish turlariga bo‘linadi. Uzluksiz yangilanishli multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar asosan elektron o‘quv bazalarida ya’ni, portallar, veb-sahifalar kabi yoki elektron kutubxonalarda joylashtiriladi. Davriy yangilanishdagi multimediaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan web-resurslar asosan, turli xildagi axborotning elektron tashuvchilari disketlar, CD disklar va boshqalarda joylashgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Макарова Н. В. Информатика: Учебник для вузов. Издательство: Питер, 2013, С. 576.

2. Михеева Е.В. Информационные технологии в профессиональной деятельности. – М.: Академия, 2013. –С. 384.

3. Могилев А.В., Пак Н.И., Хеннер Е.К. Информатика. – М.: Академия, 2012. – С. 848.

4. Федотова Е.Л. Информационные технологии в науке и образовании: Учебное пособие / Е.Л. Федотова, А.А. Федотов. – М.: ИД ФОРУМ, НИЦ ИНФРА-М, 2013. – С. 336.

5. Филимонова Е. В. Информатика и информационные технологии в профессиональной деятельности. Учебник. М.: Юстиция, 2019. – С. 216.

6. Turabekov F. “Axborot texnologiyalari texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish vositasi sifatida”. Архив научных исследований, т. 1, вып. 44, февраль 2021 г..

Nafisaxon KAZIMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

ZAMONAVIY TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNI TA’LIMGA TATBIQ ETISH

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish haqida fikr-mulohazalar yoritilgan. Keyingi vaqtlarda o‘qitishning zamonaviy texnika va texnologiyalari, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o‘qitish texnologiyalarini afzalligi, qulayligi hamda o‘qitish sifatining yuksakligi nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Kompyuterlashtirish, axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV), videodisklar, optik disklar, elektron hisoblash mashinasi, elektron pochta, telekonferensiya.

В статье рассматривается применение современных методик и технологий в образовании. В последнее время появились современные методы и технологии обучения, предусматривающие преимущество, удобство и высокое качество обучения перед технологиями обучения, реализуемыми на базе компьютеров.

Ключевые слова. Компьютеризация, информационные технологии (ИТ) и технические средства (ТВ), видеодиски, оптические диски, электронная вычислительная машина, электронная почта, телеконференция.

The article discusses the application of modern techniques and technologies in education. At a later time, modern techniques and technologies of teaching, advantage, convenience of teaching technologies implemented on the basis of bunda computers, as well as the high quality of teaching are envisaged.

Key words. Computerization, information technology (AT) and technical means (TV), videodisklar, optical drives, electronic computing machine, email, teleconference.

Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o‘ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo‘ldan bormoqda, ammo, mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma’lum sabablar mavjud, ya’ni:

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, takomillashtirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi(AT) va texnik vositalar(TV)dan foydalanish kerakligi;

4. O‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, usullari va vositalarini yaxshi egallagan bo‘lishi, o‘quvchining qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olishi;

5. O‘qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini

to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;

7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, o‘quvchilarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmui yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir hisoblanadi.

Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda.

Keyingi vaqtlarda ‘‘o‘qitishning kompyuter texnologiyalari’’ tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o‘qitish texnologiyalari tushuniladi. Biroq, axborot texnologiyalari tushunchasi o‘qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo‘ladi. Magnit yozuvdan farqli o‘laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dasturiy-matematik ta’minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo‘nalishi bo‘lmoqda.

Shuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari ham mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. EHM lokal tarmoqlari uncha katta bo‘lmagan fazoda amalga oshiriladi va axborot xizmati turli tarmoqlarining integratori bo‘ladi. Ular tashkilotlardagi barcha axborot texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. EHM global tarmoqlari esa, axborotni katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi.

Yo‘ldoshli aloqa tizimlari. Ko‘plab yer ustidagi stansiyalarni va yer sun’iy yo‘ldoshidagi retrenslyatorlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma’lumotlar to‘plash hamda televideniye dasturini uzatish uchun ishlatilmoqda.

Sun’iy intellekt tizimlari. Sun’iy intellekt elementli AKTning boshqalaridan farqi shundaki, oddiy AKTlari faqat statistik ma’lumotlarni, sun’iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo‘nalishi-sun’iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba’zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Elektron pochta. ‘‘Elektron pochta’’ – bu korrespondensiyalar almashishi uchun pochtaga o‘xshash axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya’ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta yoki

qog‘ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo‘lib, u xabarlarni to‘plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Elektron pochta asosida aholiga elektron gazeta va jurnallar kabi axborot xizmatini ko‘rsatish amalga oshirilgan. So‘nggi yillarda jahon bozorida elektron nashrlar borgan sari ko‘p o‘rin egallamoqda. Bu jarayon kompakt optik disklar keng tarqalishi bilan tezlashdi.

Telekonferensiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarning amalga oshirilishiga misol bo‘la oladi. Telekonferensiyalarni o‘tkazish uchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmli materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro ma’lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тўрабеков Ф. С. Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида ахборот технологияларини қўллаш методикаси: Пед. фан. ном.… дисс . – Т.: ТДПУ. – 2011. – 177б.

2. Ismailova, Z.K, Musurmanova, A, Shomurotova, N.N, Kholiqova, N.A "Methods of training of teachers of technical university on advanced training courses."Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.2 (2021): 2959-2970.

3. Мусурманова А. Дидактические основы сотрудничества в подготовке будущих компетентных педагогических кадров //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 7. – С. 77-78.

4. Internet tarmog‘idagi ma’lumotlar W.W.W. PEDAGOG.UZ.

Abdusalim KENJABOYEV,
Termiz davlat universiteti, "Pedagogika" kafedrasi dotsenti
Norboy SAFAROV,
Surxondaryo viloyati XTXQTMOXM o'qituvchisi

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola o'qituvchilarda pedagogik muloqotni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va muloqot metodlari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik muloqot, prognozlashtirish, modellashtirish, pedagogik jarayon.

В статье рассматриваются особенности педагогического общения учителей и способы общения.

Ключевые слова. Педагогическое общения, прогнозрование, моделирование, педогогический процесс.

The article examines the features of teachers' pedagogical communication and methods of communication.

Key words. Pedagogigal communication, forecasting, modeling, pedagogigal process.

Bugungi kunda mamlakatimizda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Respublikamiz mustaqil davlat sifatida o'z taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanladi va jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallamoqda. Bunday sharoitda ta'limiy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida, ularni komil inson qilib tarbiyalashda nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining qator ma'ruzlarida yoshlar tarbiyasiga e'tibor berib, ularga o'zbek xalqining milliy ma'naviy qadriyatlarini singdirish kerakligini ta'kidlamoqdalar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda, ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan bog'liq. Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz kerak, o'rta va oliy o'quv yurtlarini moddiy texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlar sifatini tubdan yaxshilash kerak"[1] deb ta'kidlagan edi. Bu dolzarb vazifalar uzluksiz ta'lim tizimida yuksak ma'naviyatli va yuqori kompetentli pedagog-xodimlar orqali amalga oshiriladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan muallimga, ma'rifat egalariga yildan yilga katta e'tibor berilmoqda. Yuqori malakali o'qituvchilarga yetarli zamonaviy sharoitlar yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bugungi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bugungi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligi o'qituvchilarning tarbiyalanuvchi yoshlar bilan olib boradigan muloqot madaniyatiga bog'liqdir. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero, aynan pedagogik muloqot ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

[1] Shavkat Mirziyoyev. 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.

Ijtimoiy, psixologik, tarbiyaviy va ma’naviy vazifalarning murakkabligi o‘qituvchilarning kommunikativ faoliyatini yuksak talablar asosida tashkil etishi lozimligini ko‘rsatadi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishish uchun ko‘p yillik nazariy va ommaviy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning ayrim yo‘nalishlari haqida fikr yuritamiz. “Muloqot axborot jarayonidir. Pedagog bevosita shaxslarga muomalada o‘z tarbiyalanuvchilari, umuman, jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida xilma-xil axborotga ega bo‘ladi. Pedagog ham o‘z navbatida, muomala jarayonida o‘z tarbiyalanuvchilariga maqsadga qaratilgan axborotni ma’lum qiladi.[2]

O‘qituvchi muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, talaba shaxsi haqidagi axborot muhimligini ta’kidlab o‘tish kerak. Pedagog o‘quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda qismlarni ham ajratib olishga qodir bo‘ladi. Pedagogning o‘quvchi talabalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o‘quvchilarning hamma harakatlaridagi chuqur ma’no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi. Buning uchun namuna sifatida o‘zi tez-tez qayd etilgan dalillardan va o‘quvchi talabalarning xulq-atvor uslublaridan foydalanadi. Endi bevosita o‘qituvchi muloqotni dars jarayoni bilan bog‘lab, muloqotni modellashtirish ya’ni, dars oldidan tezda bajarilishi mumkin, ba’zan esa doimiy xarakter kasb etadi. ‘‘U o‘qituvchiga o‘zining dars jarayonidagi kommunikativ munosabati va emotsional xulq, his-tuyg‘ularini oldindan ko‘ra bilish imkonini yaratadi”.[3]

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o‘qituvchi kreativligining noyob namunasi hisoblanadi. Pedagogik muloqot tuzilishi jihatdan o‘qituvchi ijodkorligining mahsuli ekanligini ko‘plab pedagog olimlar o‘z asarlarida tavsiflab bergan. Olimlar muloqot uchun o‘qituvchiga yo‘nalish beradi. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kanalikning fikricha, o‘qituvchining pedagogik muloqot tuzilishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:[4]

1. Prognostik bosqich – (modellashtirish) o‘qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo‘ladigan muloqotni modellashtirish.

2. Kommunikativ aloqa – o‘quvchi talaba bilan dastlabki o‘zaro tanishuv jarayonida bevosita murojaatini tashkil etish.

3. Pedagogik jarayon – o‘qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati, kompetentligi bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo‘lishi.

4. Natijalar tahlili – amalga oshirilgan muloqotning yutuq va kamchiliklarini tahlil etish, baholash va kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Olimning fikricha, yuqoridagi bosqichlarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalariga javob berish, har bir o‘quvchi talabaning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ya’ni muloqot o‘qituvchi shaxsiga emas, o‘quvchi talaba shaxsiga ham mos kelishini ta’kidlash zarur.

Kommunikativ aloqa bosqichida sinf, ya’ni auditoriya jamoasini o‘zaro muloqotga jalb etadigan suhbat texnikasini bilish, o‘quvchi-talabalarni qiziqtiruvchi bugungi davr bilan bog‘liq suhbatlarni tashkil etish, ularning erkin fikrlashlari uchun imkoniyatlar yaratish lozim.

Pedagogik jarayon bosqichida o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy ishlarni ma’lum bir yo‘nalishga solish, o‘quvchi-talabalarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashdir.

[2] Xudoyqulov X. va Kenjaboyev A.. “Pedagogik muloqot asoslari”. –T., Navro‘z. 2012-yil. 76-b.
[3] Azizxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va mahorat” TDPU 2003-yil.
[4] Брегнев В.С. “Культура педагогического обшения” –М. 1990.

Natijalar tahlili bosqichida o‘qituvchi o‘z faoliyatiga refleksiv yondashadi, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qiladi, yutuq-kamchiliklarini inobatga olib kelgusi ta’lim-tarbiyaga oid muloqotga tayyorgarlik ko‘radi va o‘zini tashabbuskor bo‘lishini ta’minlaydi.

Kasbiy pedagogik muloqotning o‘ziga xosligi shundaki, o‘qituvchining tashabbuskorligi, kreativligi bu o‘rinda, muloqotni boshqarish vositasi sifatida yaxlit o‘quv jarayonni ham nazorat qiladi. Shuni ta’kidlashimiz joizki, ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan dars jarayonida o‘qituvchi hamda ta’lim oluvchilarning o‘zaro ijodiy faoliyatida bilim olishga qaratilgan izlanishini boshqarish faqat pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muloqot natijasida amalga oshiriladi.

Masalan, dars jarayonida mavzuni talaba-yoshlar ongiga singdirish, materiallarni tushuntirish, muammoli vaziyat hosil qilishda, yoshlar jamoasi bilan muloqotni to‘g‘ri tashkil etish juda zarurdir. Buning natijasida, o‘quvchilar birgalikda ahil jamoa bo‘lib, bilimlarni egallashda o‘zaro erkin fikr yuritadilar va izlanadilar. “Aqliy hujum” interfaol usuli o‘quvchilarni fikrlashga undaydi, ularda motivni uyg‘otadi. Bu ham pedagogik-muloqotning interfaol usullaridan biridir.

Hozirda ta’lim maskanlarida muloqotni tashkil etishda o‘qituvchi tashabbuskorli quyidagi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi:

– sinf jamoasi bilan suhbat jarayonini oqilona, puxta yo‘lga qo‘yish;

– tashkiliy tadbirlarda o‘quvchilar uchun muloqotga keng yo‘l ochish;

– ayrim o‘quvchilarga nisbatan bir qolipdagi salbiy munosabatdan voz kechish;

– o‘qituvchi tashqi ko‘rinishi, imiji(orastalik, tartiblilik, faollik, xushmuomalalik, muloqot odobi va hokazo);


– o‘zaro hamkorlikda nutqiy va noverbal vositalar orqali muloqotga kirishish;

– o‘quvchilar bilan muloqotda pedagogik faoliyatning yorqin va e’tiborni tortadigan maqsadlarni ko‘ra bilish va ularga erishish usullarini ko‘rsatish.[5]

Ta’lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishda muloqot madaniyatini o‘qituvchining yoshlar bilan hamkorligi bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltirilgan bilim olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o‘quvchi-talabalar o‘zaro muomalaning ustoz-shogird an’analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashishi asosida muhim vazifalarni hal qilishi bilan muomala obyektining diqqatini o‘ziga jalb qilishi, muloqot obyekti, ya’ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilishi deganda nimani anglash kerak?

Buning ma’nosi o‘qituvchi o‘zining xushmuomalaligi, madaniyati, go‘zal xulqi, muloqotda o‘quvchi-talabalar qalbiga yo‘l topa olishi bilan o‘z kompetentligining namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizini asos qilib olishdir.

Yuqoridagi pedagogik-psixologik fikrlarga tayanib, muloqot odobining tarkibiy qismlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:



[5] Xo‘janazarova S., Oripova M. “O‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asoslari”, Zamonaviy ta’lim jurnali. 2015-yil, –№ 4.

1. Kommunikativ (bir tomonlama axborot uzatish). Muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashinuvini qamrab oladi, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin.

2. Interaktiv (ikki tomonlama ta’sir) muloqotga kiruvchilarni o‘zaro ta’siri ularning nutq faoliyatida nafaqat so‘z orqali fikr almashuvi, balki, xatti-harakati va xulq-atvori bilan ta’sir o‘tkazish tushuniladi.

3. Perseptiv (o‘zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi) bunda muloqotga kiruvchilar o‘zaro bir-birlarini idrok qilish jarayonidir.

Muomalaning har uchala tomoni birlikda yaxshi olib borilsa, u hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari tariqasida namoyon bo‘ladi.[6] Pedagogik muloqot haqida, uni to‘g‘ri qo‘llay olish haqida yosh mutaxassislarga yuqorida tavsiyalar berildi. Ushbu mavzuni yoritishda pedagogik muloqot uslublari haqida o‘z pedagogik tajribamga tayanib, rahbarlikda quyidagi muloqot turlarini tavsiya qilaman:

Psixologiyada rahbarlarning o‘z jamoa a’zolari bilan munosabat texnikasi tahlil etilib, turli tipdagi ijtimoiy-psixologik normalari ishlab chiqilgan, rahbarlarning muloqotni boshqarish uslublari:avtoritar, demokratik,liberal uslub tarzida belgilangan.

Avtoritar uslub – o‘qituvchi guruhning faoliyat yo‘nalishini o‘zi belgilaydi. Bunday uslubda o‘qituvchi o‘quvchi talabalar tashabbusiga yo‘l qo‘ymaydi, hamkorlikning asosiy shakli buyruq, ko‘rsatma, ogohlantirishdir.

Demokratik uslub – o‘qituvchi faoliyati maqsadini har bir o‘quvchi ongiga yetkazadi, o‘quvchi-talabalar fikri ham inobatga olinadi. Muloqotning asosiy shakli iltimos, maslahat, axborot tarzida bo‘ladi.

Liberal uslub o‘qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko‘rsatmaydi, talaba – yoshlar erkin harakat qiladilar.

Eng yaxshi uslub bu demokratik uslubdir. Bugungi jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, ta’lim-tarbiyadagi muammolarni tahlil qilishni bosh maqsadi deb bilib, Oliy Majlis a’zolari respublikamizdagi ta’lim tizimidagi muammolarni bilish maqsadida joylarda demokratik tamoyillar asosida targ‘ibot-tashviqot, muloqotlar tashkil etmoqdalar. Maqsad, O‘zbekistonda ta’lim-tizimida jahon andazalariga javob beradigan, muloqot madaniyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bunday yo‘naltirilgan islohotlar mazmunida, jamiyatning ta’lim sohasidagi muammolarning yechimi, mohiyati ifodalangan. Shuning uchun o‘qituvchi mehnatining mohiyatida uning ma’naviy saviyasini ko‘rsatadigan yuksak ma’naviyat, asriy an’analar va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan zamonning ilg‘or yutuqlaridan oziqlanadigan milliy dunyoqarash, e’tiqod kabi mezonlar bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2. Azizxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va mahorat” TDPU 2003-yil.

3. Бреднев В.С.“Культура педагогического общения” –М. 1990.

4. Xo‘janazarova S., Oripova M. “O‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asoslari” Zamonaviy ta’lim jurnali. 2015-yil –№ 4.

[6] Xudoyqulov X., Kenjaboyev A.. ’’Pedagogik mahorat asoslari’’ –T., Navro‘z. 2012-yil, 87-88-betlar.

Ozoda NAZAROVA,
Guliston davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

TALABA-YOSHLARNING KASBIY FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqola talaba-yoshlarning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligini takomillashtirish tizimini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan ilmiy manbalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Talaba-yoshlar, kasbiy faoliyat, kasb, talabalarning kasbiy shakllanishi, “o‘ziga yo‘nalganlik”, “insonlarga yo‘nalganlik”, “faoliyatga yo‘nalganlik”, shaxsning yashovchanligi, kasbning yashovchanligi.

Статья направлена на изучение системы повышения психологической готовности студентов к профессиональной деятельности. Также анализируется ряд научных источников по общим методологическим и теоретическим вопросам, связанным с выбором карьеры, профориентацией, пониманием и определением профессиональной идентичности.

Ключевые слова. Студенты, профессиональная деятельность, профессия, профессиональное становление студентов, самоориентированность”, “ориентированность на людей”, “ориентированность на деятельность”, личная жизнеспособность, профессиональная состоятельность.

The article is aimed at studying the system of increasing the psychological readiness of students for professional activity. It also analyzes a number of scientific sources on general methodological and theoretical issues related to career choice, career guidance, understanding and definition of professional identity. In research work, people are divided into three areas independent focus on people-centered activities.

Key words. Students, professional activity, profession, professional development of students, “self-orientation”, “people-oriented”, “activity-oriented”, personal vitality, professional consistency.

Oliy o‘quv yurti talabalarining kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, bevosita uning ilmiy, ma’naviy, moddiy salohiyatini, ichki va tashqi siyosatini belgilaydi. Shuningdek, bu muammo har tomonlama izchil o‘rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan va undan kelib chiqib tegishli chora-tadbirlar, istiqbolli rejalar tuzilishi kerak bo‘lgan muammolardandir.

Chunki kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy tashxis yoshlarning mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalalari doimo hukumatning diqqat markazida bo‘lsa-da, ammo, shaxsning o‘z kelajagini o‘zi o‘ylab ko‘rishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Biz tadqiqotimizda talabalardagi kasbiy faoliyatga mutanosiblikning psixologik xususiyatlarini yoritishga hamda uning ilmiy-metodik jihatlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratishni lozim topdik. Shunga ko‘ra, tadqiqot metodikalari tanlandi va ularni o‘tkazishda bir qator holatlarni inobatga oldik, jumladan:

1) metodikalarning muammoni o‘rganish imkoniyatiga egaligi;

2) metodikalarning milliy va mahalliy muhitga moslashtirilganligi;

3) metodikalarning foydalanishga qulayligi va natijalarni qayta ishlash uchun qulayligi;

4) metodikalarning obyektiv xarakterga egaligi va boshqalar.

Tadqiqot metodikalarini tanlashda ularning milliy muhitimiz uchun mos kelishiga va mahalliy olimlarimiz tajribasidan o‘tgan metodikalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratdik va unga amal qildik.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi.

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o‘zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o‘zining keskin pallasiga kirganligini e’tirof etishimiz kerak. Chunki ko‘pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi va h.k.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy psixologiya muammolari o‘zbek olimlari tomonidan ham jiddiy o‘rganilgan. Respublikamizda bu borada pedagog va psixologlar qator tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish kasb psixologiyasi va uning etnopsixologik tomonlari, E.G‘.G‘oziyev, texnikaga oid kasbga o‘rgatilayotgan yoshlarda kasbiy qiziqishlarning rivojlanishi; o‘quvchilarda kasbiy xususiyatlarningshakllanishi; o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish shart-sharoitlariga doir (P.T. Magzumov, o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish (E.T.Choriyev, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish (N. Shodiyev) va boshqalar.

Kasb-hunarning falsafiy va psixologik mohiyatini o‘rganish bo‘yicha K.B. Qodirov ilmiy izlanishlar olib borgan. U o‘z tadqiqotlarida kasbiy faoliyat diagnostikasi masalalarini tahlil etish bilan cheklanmasdan, avlod va ajdodlarimizning kasb-hunarga doir asarlarining psixologik mohiyatini qisqacha sharhlashga erishgan. U kasbiy konsultatsiyaning bir bosqichi, ya’ni kasbiy diagnostika borasida tajribalar olib borib, o‘z izlanishlarida kasbiy faoliyat jarayonini umumiy psixologik, differensial psixologik va psixodiagnostik jihatdan yoritdi.

O‘zbek psixologiyasidagi izlanishlarda biz o‘rganayotgan muammoga yaqinroq muammoni D.N.Arziqulovning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. T.M.Buyakas, N.D.Levitov, O.N.Rodinalar o‘z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e’tibor qaratib, uni shaxsning ma’lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonida yo‘naltiruvchi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog‘lab tushuntiradilar.

Biz o‘z izlanishimizda bugungi kunda talabalar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo‘luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta’sir ko‘rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e’tibor qaratdik. Shunday bo‘lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan.

O‘spirinlarning kasbiy o‘zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma’lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta’lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta’siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Mazkur o‘zaro ta’sir jarayonlaridagi dialektik bog‘liqlikning o‘ziyoq ushbu ma-

salaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o‘zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma’lumot bosqichida shaxs o‘zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta’lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma’lumotlar oladi.

b) diagnostik bosqichda shaxsning o‘z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o‘rganiladi;

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o‘quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og‘ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi;

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o‘zi tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi.

Kasbni egallayotgan bo‘lg‘usi mutaxassis kasbiy faoliyat uchun qanday zaruriy jihatlar kerak ekanligini to‘liq tasavvur qilmasligi tabiiy. Bu esa bo‘lg‘usi mutaxassislarda kasbiy tasavvurlar shakllanishi xususiyatlarini o‘rganish zaruriyatini vujudga keltiradi.

K.Farrenning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, talabalar mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko‘rsatkichlaridan boxabar bo‘lishlari muhimdir. Uning fikricha, yashovchanlik ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: shaxsning yashovchanligi va kasbning yashovchanligi. Olim shaxs yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritadi:

1. Shaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash.
2. Bajarayotgan ishga qo‘yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik.
3. Hayoti davomida ta’lim olish va o‘rganishga tayyorlik.
4. Madaniyligi, o‘zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish.
5. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
6. Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi.
7. Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo‘lish.
8. Ishda ham kasblar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmasiga egaligi.

Talabalarning kasbiy shakllanishi bilan ular shaxsining yo‘nalganligi o‘rtasida ma’lum bog‘lanishlar mavjud bo‘lib, bu aloqani o‘rganish orqali talabalarga o‘zlariga mos kasb tanlashlari uchun kerakli kasbiy maslahat berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Tajriba qismi

Shu o‘rinda, biz qisqacha, shaxsning yo‘nalganligi masalasini yoritishga harakat qilamiz. Shaxsning yo‘nalganligi deganda, uning shunday psixik xususiyati tushuniladiki, bu xususiyat shaxsning ehtiyojlarini, motivlarini, dunyoqarashini, ustanovkalarini, hayotdagi va faoliyatidagi maqsadlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Biz quyida yo‘nalganlikni o‘zida aks ettirgan har bir komponentga alohida-alohida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Shunday qilib, ulardan birinchisi shaxsning ehtiyojlari hisoblanadi. Shaxsning ehtiyojlari – bu uning tomonidan his qilinadigan nimagadir bo‘lgan zarurati. Shaxsning motivlari – bu ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan shunday ichki kuchlarki, bu kuchlar uni ma’lum faoliyatga undaydi.

Shaxsning dunyoqarashi – bu tabiatga, jamiyatga va insoniy munosabatlarga nisbatan shakllangan ilmiy qarashlar, ishonchlar tizimi bo‘lib, ular shaxsning ichki holati hisoblanadi va uning ongida ma’lum hayotiy qiziqishlar va maqsadlar, munosabatlar, pozitsiyalar ko‘rinishida aks etadi. Ustanovkalar muhim funksional ahamiyatga ega bo‘lib, ular shaxsning ma’lum faoliyatni samarali bajarish imkoniyatini beradigan tayyorgarlik holati ko‘rinishida bo‘ladi. Ularning asosiy funksiyalari ikki xil: 1) faoliyatning amalga

oshirilishidagi turg‘un holatni ta’minlaydi; 2) standart vaziyatlarda faoliyatning kechishini ixtiyoriy nazorat qilishdan va qaror qabul qilish zaruriyatidan shaxsni ozod qiladi.

Maqsadlar – bu shaxs uchun nisbatan ahamiyatli bo‘lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va obyektlar hisoblanib, ularga yetishish shaxs hayotining va faoliyatining mohiyatini tashkil etadi. Maqsadlar shaxsning ehtiyojlarini amalga oshiradi va faoliyat so‘nggi natijasining obrazi sifatida ishtirok etadi.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, shaxsning yo‘nalganligi murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan jarayon hisoblanib, uni tadqiq qilishda olinadigan natijalarni shu murakkablik nuqtayi nazardan turib tahlil qilish zarur bo‘ladi. Biz o‘z tadqiqotimizda ‘‘Shaxsning yo‘nalganligi’’ savolnomasi, (V.Smekal va M.Kuchera tomonidan ishlab chiqilgan)dan foydalandik.

Shaxsning yo‘nalganlik masalasiga N.D.Levitov o‘ziga xos yondashib, u inson xarakterini shaxsning yo‘nalganligini, ya’ni qiziqishlari, motivlari, intilishlari va irodaviy xususiyatlari mujassamlashgan psixik tuzilma sifatida talqin qiladi. Bu esa uning xarakterida bir qator xususiyatlar shakllanishi va ular shaxsning o‘zi, atrof-muhit, jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan munosabatiga yo‘nalishini ifoda etadi. Biz ham ushbu nazariy ma’lumotlarga asoslangan holda shaxs yo‘nalganligini tahlil etishga harakat qilamiz.

Demak, shaxs faoliyatini harakatlantiruvchi kuchlar – ehtiyojlar, motivlar va qiziqishdan iborat. Ularning kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, shaxsiy va kasbiy shakllanishdagi ahamiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabaning kasbiy shakllanishi uning shaxsiy o‘sishi bilan uyg‘unlikda borishi tabiiy. Shuning uchun muammoni o‘rganish jarayonida masalaning tahlil etishda har ikki jihatni ham o‘zaro aloqadorlikda yoritib boramiz.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik. Shuni ta’kidlashimiz mumkinki, talabalarning kasbiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida “o‘ziga yo‘nalganlik” bo‘yicha o‘zini boshqalar tomonidan tan olinishga intilishi, sezgirlik, ma’naviy boyligi, aql-idrokli va zehnli ekanliklarini; “insonlarga yo‘nalganlik” bo‘yicha insonlar bilan muomalaga kirishishi malakasini, iliq munosabatlar o‘rnatishga moyilligi, kasblarni yengil o‘zlashtirishini; “faoliyatga yo‘nalganlik” bo‘yicha esa ishni puxta bajarishi, vaziyatlarga tez moslashuvchanligi, mehnatga e’tiqodliligini va boshqa sifatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari: Avtoref. psix.fan.nomz.dis. –T.. 2002. –137-b.

2. Asamova R.Z.Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi// Diss. psixol. fanl.nomzod. –T., 2002. –138-b.

3. Газиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов. Автореф. дис..докт. пс. наук. – М.: 1992.– С. 38.

4. Жаббаров А.М. Психологические основы формирования профессионально значимых свойств личности будущего хлопкороба в ученических производственных бригадах: Автореферат. дис…канд. психол. наук. – Киев, 1999. – С.27.

5. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов вузов. – Изд., 6-е., перераб. и доп.. –М.: Академический проект, 2001. – С. 48.

Fotima BABAJANOVA,
Guliston davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABALAR ILMIY-IJODIY FAOLIYATIDA INTELLEKTNI O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxsning ilmiy ijodiy faoliyatida intellektning ahamiyati psixologik tahlil qilingan. Talabalar kreativligini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Shuningdek, kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish yo‘li, shaxs kreativ potensialining muhim darajalari, kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari tahlil qilingan. Shaxs ilmiy-ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Ilmiy-ijodiy faoliyat, kreativlik, intellekt, umumiy intellekt, vizual intellekt, amaliy intellekt, analogiya, kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish yo‘li, shaxs kreativ potensialining muhim darajalari, kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari.

В данной статье проводится психологический анализ значимости интеллекта в научно-творческой деятельности личности. Показаны пути развития творческих способностей учащихся. Также анализируются пути успешного развития творческих качеств, значимые уровни творческого потенциала личности, этапы становления творческой личности. Сделаны выводы и рекомендации по проявлению, формированию и развитию научного творчества личности.

Ключевые слова. Научно-творческая деятельность, креативность, интеллект, общий интеллект, визуальный интеллект, практический интеллект, аналогия, пути успешного развития признаков креативности, важные уровни творческого потенциала личности, этапы становления творческой личности.

This article provides a psychological analysis of the importance of intelligence in the scientific and creative activity of the individual. The ways of developing students ' creative abilities are shown. It also analyzes the ways of successful development of creative qualities, significant levels of creative potential of the individual, the stages of the formation of a creative personality. Conclusions and recommendations on the manifestation, formation and development of scientific creativity of the individual are made.

Key words. Scientific and creative activity, creativity, intelligence, general intelligence, visual intelligence, practical intelligence, analogy, ways of successful development of creative traits, important levels of creative potential of the individual, stages of the formation of a creative personality.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo‘lgan vazifalarni qo‘yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra, jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat

va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda talabalarning ijodkorlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

MetodlarShaxsning ilmiy-ijodiy faoliyatini o‘rganishda talabalik davri inobatga olindi. Chunki ijodkorlik aynan talabalik davrida poydevor qo‘yiladi. Bu esa talabalarni intellektini tadqiq qilishga olib keldi. Talabalar intellektini o‘rganishda an’anaviy tajribadan o‘tgan metodikalar hamda intellektning konsepsiyalarida ilgari surilgan faktorli yondashuv (Terstoun modeli), ya’ni ko‘proq e’tiborga olinadigan dastlabki omillar, intellektning umumiy (G-faktori) va maxsus (S-faktor) (Ch.Spirmen modellari), G.Ayzenk, Dj.Gilford va boshqa modellariga e’tibor qaratishni lozim topdik. Ushbu modellarga tayanib, tadqiqot metodlarini tanladik.

Tadqiqotimizda talabalar intellektini yoritishga xizmat qiluvchi differensiatsiyalash, aqliy harakatlarda fikrlashning qanday usuli yetakchilik qilishidan iborat tomonlarini (konkret yoki abstrakt fikrlash) aniqlash ko‘zda tutildi. Buning uchun “Muhim belgilarni ajratish” metodikasi tanlab olindi. Metodikadan intellekt diagnostikasida foydalanishning afzal tomoni sifatida quyidagilar hisobga olindi:

– tafakkur xususiyatlarini o‘rganishga mo‘ljallanganligi;

– muhim belgilarni differensiatsiyalashtirish qobiliyatini o‘lchashi;

– yetakchi fikrlash uslubini aniqlashga ko‘maklashishi.

Metodikaning tuzilmasida yuqoridagi holatlarni aniqlash uchun tuzilgan topshiriqlar berilgan. Topshiriqlar 20 ta bo‘lib, har bir topshiriqlar qatorida beshta qavs ichida va bitta qavs oldida so‘z aks ettirilgan. Tekshiriluvchilar tushunchalarning mavhumlik ahamiyatini baholash qobiliyatlarini ko‘rsata olishlari kerak.

Keyingi tadqiqot metodikamizda talabalarning axborotlarni ko‘rgazmali idrok etishi va qayta ishlashi, ular yuzasidan mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini o‘rganishga mo‘ljallangan “Vizual intellektni o‘rganish” test topshirig‘i keltirilgan. Mazkur testning talabalar intellektini o‘rganish uchun maqbul tomonlari:

– topshiriqlar ko‘rgazmali ko‘rinishda;

– mahalliy muhitga moslashtirish imkoniyati yengilligi;

– vizual intellekt darajasini baholashdagi o‘zining psixometrik o‘lchamlariga egaligi;

– topshiriqlarni bajarishda erkin yondashuvni amalga oshirish ko‘zda tutilganligi;

– vaqt me’yorining tekshiriluvchilar uchun murakkablik tug‘dirmasligi va boshqalar. Metodikada 40 ta topshiriq bo‘lib, uni yechish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

Navbatdagi metodikamiz esa oldingilardan farqli o‘laroq talabalarning amaliy hamda psixomotorik faoliyatida intellekt rivojlanganligini o‘rganishga mo‘ljallangan. Metodikani bajarishda talabalar amaliy intellektini aniqlashga mo‘ljallangan 3 xil yo‘nalishdagi topshiriqlarni bajaradilar:

• figurani tayyorlash testi (9 topshiriq);

• figuralarni tuzish testi (9 topshiriq);

• figuralarni qayta tiklash testi (9 topshiriq).

Bu test topshiriqlarining o‘ziga xos jihati talabalarning ularni amaliy bajarishdagi chaqqonlik, kuzatuvchanlik, ko‘rish orqali elementlar orasidagi muvofiqlikni topish qobiliyatlarini namoyon etishlarida kuzatiladi.

Odatda, shaxsning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Bunda kretivlik va intellekt xususiyatlarining uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz tadqiqotimizda talabalar

ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati ularning intellektual xususiyatlari bilan bog‘lab o‘rganishni maqsad qilib oldik. Bunda talabalarning ta’lim yo‘nalishlarini ham inobatga oldik.

Talabalarning ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha natijalarini tahlil etganimizda, murakkab analogiyalar bilan bog‘liq topshiriqlarni yechishda bir xil darajani aks ettirgan bo‘lsada, xususiy qiymatlar orasida nisbiy tafovutlar borligining guvohi bo‘ldik. Murakkab analogiyaga ko‘ra, tabiiy yo‘nalish (5.36±1.20) va gumanitar yo‘nalish (6.68±1.50) talabalari ko‘rsatkichlarida tafovut kuzatildi ($p<0.05$). Bu esa, gumanitar yo‘nalish talabalari tushunchalar orasidagi mantiqiy aloqalarni ajratishda tengdoshlariga nisbatan bir oz ustunlik qilganliklarini ko‘rsatadi. Ammo natija ularning yaqqol ustunlikka egaligi va mantiqiy xulosalashda yuqori darajada qobiliyatlidir degan xulosani bildirmaydi. Talabalarni tushunchalarning muhim belgilariga ko‘ra ajratishlarida esa deyarli farq kuzatilmadi. Bu esa har ikki yo‘nalish talabalarida mavhum fikrlashdan ko‘ra yaqqol va vaziyatlarga ko‘ra mulohazalashni ustunlik qilayotganligini bildiradi. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berayotgan sharoitda o‘spirinlarning vaziyatlarga qarab, aniq fikrlash afzal, degan to‘xtamga kelganliklari ham bunga sabab bo‘lishi ehtimoldir.

Bir narsani e’tirof etishimiz kerak. Tabiiy (29.12±2.62; 15.46±1.68) va gumanitar (27.73±3.67; 18.88±2.64) yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarning vizual ($p<0.05$) va amaliy intellekt ($p<0.001$) bo‘yicha ko‘rsatkichlarining xususiy hollarida tafovutlar kuzatildi. Bunga tabiiy yo‘nalish talabalarida amaliy topshiriqlarni qo‘l motorikasi orqali bajarilish jihatlari yoki laboratoriya sharoitlarida topshiriqlarni amaliy, ma’lum modellar, maketlar va figuralar ustida olib borishlari sababli bo‘lishi mumkinligini e’tirof etamiz. Gumanitar yo‘nalishdagi talabalarning bu holatdan bir muncha yiroq bo‘lishiga ularni ta'lim olishda mavhum-mantiqiy masalalarga ko‘proq e’tibor qaratishlari sabab bo‘lar.

Biz tajribamiz natijalarining uzluksizligini ta’minlash va talabalar intellekti xususiyatlari orasidagi bog‘liqlik sabablarini, ichki aloqadorligini o‘rganishga diqqat qaratib, ko‘rsatkichlar orasidagi korrelyasion munosabatlarni aniqladik. Bu boradagi natijalar talabalarning umumiy intellekti bilan boshqa intellekt xususiyatlari orasidagi munosabatlar asosida umumiy, ta’lim yo‘nalishi va jinsiy tafovutlari bo‘yicha o‘rganildi.

Talabalarning umumiy intellekti bilan ularning analogiya, tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish, vizual tafakkuri orasida bog‘lanishlar kuzatilmadi (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning barcha intellekt ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyasion munosabatlar

	Umumiy	**Analogiya**	**Tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish**	**Vizual intellekt**	**Amaliy intellekt**
Umumiy	1	-0,114	0,103	0,098	-0,270**
Analogiya		1	-0,234*	-0,159	0,051
Tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish			1	-0,284**	-0,074
Vizual intellekt				1	-0,143
Amaliy intellekt					1

Umumiy va amaliy intellekti o‘rtasida esa teskari munosabat kuzatildi ($r=0.270$,

p<0.01). Bu talabalarning aqliy qobiliyatlarini o‘lchash topshiriqlari bilan amaliy intellekt vazifalarini bajarishdagi tafovutlar tufayli ham bo‘lishi mumkin. Ikki yo‘nalish topshiriqlari o‘rtasida o‘xshashlik tomoni ham mavjud, ya’ni topshiriqlar figuralar ustida amalga oshirilib, birinchisida figuralar orasidagi o‘xshashliklar, tafovutlar, ularni guruhlash va izchiligini ta’minlash vizual, ammo mulohazalash orqali amalga oshirilar edi. Amaliy intellektni o‘rganish topshiriqlari ham figuralar ustida bajarilib, kuzatuvchanlik, tezkorlik va ko‘rish orqali izchillikni ta’minlash amaliy jihatdan, psixomotorik tamoyillar asosida amalga oshirilgan.

Umumiy natijalarda kuzatilgan ikkinchi korrelyasion bog‘lanishda ham tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratishga qobiliyatlilik vizual intellekt bilan bog‘lanish hosil qilgan, ammo teskari aloqaga ega (r=-0.284, p<0.01). Agar shaxsning intellektual imkoniyatlarini barcha jabhalari bo‘yicha uzviy aloqadorlikni ta’minlash zarur bo‘lsa, bunga kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq xususiyatlar, operatsiyalarni maxsus mashqlantirish va rivojlantirish asnosida erishish mumkin. Buning uchun talabalarga maxsus intellektni rivojlantirish uchun psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va uslubiy ko‘rsatmalar yaratish zarur bo‘ladi.

Tahlillarimizning yana bir jihati – talabalar intellektlari orasidagi korrelyasion munosabatlar ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z ifodasini topgan (2 va 3-jadval).

2-jadval

Tabiiy yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar intellekti ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘lanish

	Umumiy	**Analogiya**	**Tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish**	**Vizual intellekt**	**Amaliy intellekt**
Umumiy	1	-0,144	0,234	0,034	-0,506**
Analogiya		1	-0,350*	0,037	-0,123
Tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish			1	-0,214	-0,300*
Vizual intellekt				1	0,417**
Amaliy intellekt					1

* p<0.05; *p<0.01

Tabiiy yo‘nalish talabalari intellekti ko‘rsatkichlari orasidagi ichki bog‘liqlik umumiy natijalarga o‘xshash bo‘lishi bilan bir qatorda, ayrim o‘rinlarda yangi bog‘lanishlarni aks ettirgan.

Tabiiy yo‘nalish talabalarining umumiy intellekti amaliy intellekt (r=-0.506, p<0.01) bilan teskari munosabatni aks ettirdi. Bu holatni yuqorida keltirilgan talqinimiz bilan bir xil xarakterga ega deyishimiz mumkin. Oldin yuritilgan mulohazamiz ushbu korrelyasion aloqadorlikning psixologik sharhi uchun asos sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, murakkab analogiya bilan tushunchalarni muhim belgilarga ko‘ra ajratish orasidagi munosabatda ham umumiy holatdagi ko‘rinish takrorlanganday (r=-0.350, p<0.05).

Yana shunisi ham borki, talabalarda tushunchalar bilan ishlashdagi ustunlik ularni amaliy intellekti bilan ijobiy ichki bog‘liqlikka zarurat tug‘dirmas ekan (r=-0.300, p<0.05). Ushbu holat hattoki, ularning o‘rtacha qiymatlarida ham kuzatiladi.

Talabalarning vizual intellekti bilan amaliy intellektlari orasida esa ijobiy korrelyasion bog‘liqlik ko‘zga tashlanadi (r=0.417, p<0.05). Intellekt turlari orasida o‘zaro aloqadorlik mavjudligini bir necha sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, har ikkala test topshiriqlari shakllar ustida bajariladigan amallarga tayaniladi. Ikkinchidan, topshiriqlarni bajarishda kognitiv jarayonlarning o‘zaro munosabatlariga tayaniladi. Uchinchidan, jarayon shakllar o‘rtasidagi har xil kombinatsiyalarga asoslangan va amaliy tarzda bajarishni taqozo etadi. Bu holatlar talabalardagi har ikkala intellektning o‘zaro munosabatlarini ta’minlashga xizmat qila olgan. Aslida talabalardagi amaliy va vizual intellektlarning yuqori bog‘liqlikka ega bo‘lishi tabiiy yo‘nalish emas, aksincha, gumanitar yo‘nalish uchun xos bo‘lishi muhim. Ularning kamol topganligi talabalarning aqliy qobiliyati bilan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini ta’minlashi shubhasiz.

Gumanitar yo‘nalish talabalari intellektlari orasidagi o‘zaro ichki munosabatlar yuqoridagi tahlillarga nisbatan ancha o‘ziga xoslikni namoyon etdi (3-jadval).

3-jadval

Gumanitar yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar intellekti ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘lanish

	Umumiy	Analogiya	Tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish	Vizual intellekt	Amaliy intellekt
Umumiy	1	-0,209	0,002	-0,041	0,183
Analogiya		1	0,328*	-0,017	-0,150
Tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish			1	-0,278	-0,032
Vizual intellekt				1	0,007
Amaliy intellekt					1

* p<0.05

Bu talabalar intellektual jihatlari orasida yaqqol ko‘zga tashlanadigan korrelyasion aloqadorliklar kuzatilmadi. Ammo talabalarning o‘rtacha qiymatlari bo‘yicha natijalarida murakkab analogiyalar va tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish bo‘yicha ma’lumot mazkur yo‘nalish vakillarida qiymatlar qisman ustunlikni namoyon etgan edi. O‘z navbatida, korrelyasion munosabatlarda ham analogiya bilan tushunchalarni muhim belgilariga ko‘ra ajratish o‘rtasida bog‘liqlik kuzatildi (r=0.328, p<0.05).

Gumanitar yo‘nalish talabalari ta’lim-tarbiya jarayonida tushunchalar, ularning o‘zaro munosabatlari va farqli tomonlari, konkret va mavhum tomonlari ustida ko‘proq ishlashlari oqibati bo‘lishi mumkin. Gumanitar yo‘nalishdagi talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatlarini shakllantirishlari uchun faqat intellektning ushbu qirralarini mujassamlashuvining o‘zi yetarli emas.

Xulosa va tavsiyalar

1. Psixodiagnostik vositalar faqat umumiy intellekt va turlarini emas, balki kreativlik xususiyatlarini ham o‘rganish imkoniyatiga ega. Ularning har biri yuzasidan IQ koeffitsienti me’yorini baholab bera oladi.
2. Talabalar intellektlarining o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish natijalarida izchillikdanko‘ra

xususiy hollardagi farqlanishlar kuzatilishi xos ekan. Umumiy intellekt vizual va amaliy intellekt bilan o‘zaro bog‘lanishni aks ettirmadi. Bu esa talaba kreativlik xususiyatlarni namoyon bo‘lishida o‘ziga xos ekanligidan dalolat beradi.

3. Ta’lim yo‘nalishi va jins bo‘yicha natijalar tahlilida talabalar intellektidagi o‘xshash va tafovutli holatlar kuzatildi.

4. Talabalar kreativligida vizual va amaliy intellekt boshqa aqliy xususiyatlarga qaraganda, ijobiy bog‘lanishga ega bo‘ldi.

5. Intellekt ko‘rsatkichlarining naqadar sust yoki yorqin namoyon bo‘lishi mumkinligi izlanishlar jarayonida tadqiq etilib, kasbiy va madaniy munosabatlar ko‘rinishida umumiy intellekt dinamikasida namoyon bo‘ldi.

Tavsiyalar

Har qanday shaxsda ijodiy-kasbiy xarakterdagi sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Ta’lim amaliyotini kuzatish, talabalar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini o‘rganish, tashxislovchi metodlarni qo‘llash natijasida ma’lum bo‘ldiki, shaxs ilmiy-ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi bosqichlarga e’tibor berish muhimdir:

– mutaxassislikka oid fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o‘zlashtirish;

– o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz ishlab chiqarish amaliyoti davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish;

– mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish;

– mavjud nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Albert R.S., Runco M.A. Theories of creativity. – London: Newbury Park, 1990.

2. Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 16-31.

3. Amabile, T. M. Within you, without you: The social psychology of creativity, and beyond. – London: NY, 1990. Pp. 61-91.

4. Bishop J. Psychological sense of community: research, applications, and implications. – London: Kluwer Academic/Plenum. 1990. – P. 339.

5. Bottino R.M., Forcheri P., Molfino M.T. Technology Transfer in School: from Research to Innovation // British Journal of Educational Technology. 1998. № 29 (2). Pp. 163-172.

6. Cropley A., Cropley, D. Using Assessment to Foster Creativity. – Singapore: World Scientific. 2007. Pp. 209-230.

7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

8. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПГУТД, 2006.

Murodulla ISMAILOV,
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SANOGEN TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV YONDASHUV MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada sanogen tafakkur muammosi, uning dolzarbligi, yurtimiz va xorij olimlari tomonidan o‘rganilganligi, refleksiv yondashuv asosida sanogen tafakkurni rivojlantirish mazmuni yoritilgan. Shuningdek, talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish muammosi doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishining dastlabki bosqich natijalari tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Sanogen tafakkur, refleksiya, kooperativ refleksiya, kommunikativ refleksiya, shaxsiy refleksiya, intellektual refleksiya.

В статье раскрывается проблема саногена мышления, ее актуальность, исследование отечественных и зарубежных ученых, содержание развития саногена мышления на основе рефлексивного подхода. Также дан анализ результатов первого этапа экспериментальной работы, проведенной в области развития саногенного мышления у студентов.

Ключевые слова. Саногенное мышление, рефлексия, совместная рефлексия, коммуникативная рефлексия, личностная рефлексия, интеллектуальная рефлексия.

The article disclosed the problem of sanogen thinking, its relevance, the study of domestic and foreign scientists, the content of the development of sanogen thinking on the basis of a reflexive approach. There is also an analysis of the results of the first stage of experimental work carried out in the field of development of sanogenic thinking in students.

Key words. Sanogenic thinking, reflection, cooperative reflection, communicative reflection, personal reflection, intellectual reflection.

Dunyo hamjamiyatida shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan ilm-fan va globallashuv jarayoni oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchi kadrlarni erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, sog‘lom fikr yuritadigan, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan va omilkor, milliy va jahon madaniyatidan xabardor, yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lib shakllanishi lozim, degan vazifalarni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini 2020-yil yakuni va 2021-yil uchun mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagicha asoslaydi: “Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz”.[1]Zero, innovatsion yondashuv asosida uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etish – barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ma’naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosi hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 30.12.2020-yil, 6-b.

sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishi sog‘lom fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Inson tafakkuri muammosi doirasida ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsada, o‘sib kelayotgan yosh avlodning aqliy, ruhiy va jismoniy salomatligi muammolari pedagog va psixolog olimlar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib qolmoqda. Ilmiy pedagogika hamda salomatlik psixologiyasida sanogen tafakkurni rivojlanishi masalasi alohida yo‘nalish sifatida ajratilgan.

Sanogen tafakkur (“sanos” (lot.) – davolamoq, sog‘lomlashtirmoq, tasalli bermoq, ruhlantirmoq, tartibga keltirmoq va “geno” (lot.) – davolaydigan) sog‘lomlashtiradigan, tasalli beradigan va ruhlantiradigan tafakkurni keltirib chiqarishdir.

Sanogen tafakkur yuritish insonga jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar va o‘zida kechayotgan fikriy jarayon obyektlariga o‘z diqqatini qaratish va konsentratsiyalash (jamlash, uyg‘unlashtirish) imkonini beradi. Bu esa, barcha hodisa va jarayonlarni bevosita kuzatishga, tahlil etishga hamda aqliy va hissiy-emotsional jihatdan uyg‘un holda amaliy vizuallashtirishga xizmat qiladi. Sanogen fikrlash ko‘nikmasining rivojlanganligi asosan quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bular:

1) shaxsning o‘zida mavjud bo‘lgan salbiy fikrlar va hissiy kechinmalarning mustaqil nazorat qilinishi;

2) o‘z-o‘zini tahlil qilish va imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, ya’ni shaxsiy refleksiyaning ustuvorligi;

3) hissiy-emotsional jihatdan barqarorligi;

4) muammolarni konstruktiv hal etish, shuningdek, fikrlashdagi stereotiplik va patogenlik (nosog‘lom) xususiyatlarini kamaytirish;

5) fikrlashdagi refleksivlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyojning yuqoriligi va boshqalar.

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy o‘rganish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishga refleksiv yondashuv zarurligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa, shaxsning refleksiv bilim va ko‘nikmalarini sanogen tafakkurni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida belgilaydi. Mazkur holat eng avvalo, refleksiya jarayonini psixologik va pedagogik jihatdan har tomonlama chuqur o‘rganishni va tahlil qilishni taqozo etadi.

Refleksiya – (lotincha “reflixio” – ortga qaytish, aks ettirish) bu inson ongi aktlari turlaridan biri, ya’ni ong harakati bo‘lib, subyektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Refleksiya – bu ko‘p jihatdan inson hayotining ontologik tomonini ifodalaydi va insonning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Refleksiya inson subyektivligining eng muhim, markaziy hodisasi bo‘lib, buning uchun quyidagi ta’rifni keltirish mumkin: ‘‘... bu insonning o‘ziga xos qobiliyati, u shaxsga o‘z fikrlarini tahlil qilish va mustaqil bildirishiga imkon beradi, shuningdek, hissiy holatlar, kechinmalar, odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini aks ettiradi, umuman olganda – alohida e’tibor (tahlil va baholash) va amaliy o‘zgarish (o‘zgarish va rivojlanish)ga imkon beradi’’.[2]

Pedagogik adabiyotlarda refleksiv jarayonlarni izohlashning ikki an’anasi ajratib ko‘rsatiladi:

[2] Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология развития человека. – М., 2000. С.75.

– kognitiv va hissiy kechinmalar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning refleksiv tahlili;

– insonning o‘z-o‘zini va shaxslararo muloqot mazmunini tushunish refleksiyasi.

Refleksiya orqali ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta’minlanadi. Bu bilan bog‘liq ravishda quyidagi refleksiv jarayonlar ajratib ko‘rsatiladi:

– o‘z-o‘zini va boshqalarni tushunish;

– o‘z-o‘ziga va boshqalarga baho berish;

– o‘z-o‘zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish jarayonida talabalar o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qilishi va obyektiv baholashi (mustaqil refleksiv faoliyat ko‘rsatishi) uchun, o‘qituvchilar esa mavjud ta’limiy vaziyatlarni o‘z vaqtida tahlil qilib borishi hamda talabalarning o‘z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida olingan natijalardan kelib chiqib, maxsus dastur ishlab chiqildi. Dastur rejasiga binoan so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlar bilan “Sanogen (patogen) tafakkur mazmuni va uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar” hamda “Sanogen tafakkurni rivojlantirishda refleksiv texnologiyalardan foydalanish” mavzularida ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlari tashkil etildi. Ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi savollar bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yoritib berildi: 1) sanogen va patogen tafakkur tushunchalarining mazmuni; 2) sanogen tafakkur muammosi doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari haqida; 3) sanogen tafakkurni rivojlantirish tamoyillari; 4) sanogen tafakkurni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar; 5) sanogen tafakkurni rivojlantirishda refleksiv ko‘nikmalarning o‘rni.

Nazariya va amaliyotning uyg‘unlik tamoyiliga asoslangan holda tashkil etilgan seminar-trening mashg‘ulotlarida esa quyidagi refleksiv texnologiyalar mazmuni tushuntirildi va amaliy bajarildi: ‘‘Hammasi mening qo‘limda!’’; “O‘zaro nazorat”; “Anketa”; “Guruh ishlarini tekshirish”; “Farazni tugallang”; “Bahs-munozarani yakunlang”[3] va boshqalar.

Masalan, “Bahs-munozarani yakunlang” refleksiv texnikasining asosiy vazifasi – bu o‘rganilayotgan mavzuni retrospektiv tahlil qilish, o‘tgan mashg‘ulotlarni individual va guruhli aks ettirish maqsadida olib boriladi. Mazkur texnologiya ikki bosqichda amalga oshiriladi va undan foydalanish oxirgi o‘quv mashg‘ulotlarida eng samarali hisoblanadi. Bunda dastlab uch ustundan iborat jadval chiziladi. Birinchi ustunda insonlarga xos bo‘lgan sifatlar nomi yoki tasdiqlangan fikrlar, ikkinchi ustunda “Muvaffaqiyat”, uchinchi ustunda esa “Xohlayman” so‘zlari keltiriladi. Mazkur jadvalni to‘ldirishda ishtirokchilar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim: 1) birinchi ustunda keltirilgan sifatlar yoki tasdiqlangan fikrlar bilan tanishish; 2) keltirilgan fikrlarni ikkinchi va uchinchi ustunlarga ajratish. Mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchi birinchi ustunda keltirilgan sifatlardan qaysi biri o‘zida mavjud bo‘lsa “Muvaffaqiyat” ustuniga, agar mavjud bo‘lmasa “Xohlayman” ustuniga maxsus belgi qo‘yishi lozim.

Mashg‘ulotning ikkinchi bosqichida ishtirokchilar qo‘yilgan belgilarni hisoblab, qaysi ustunda ko‘proq ekanligini aniqlashadi. So‘ngra ularga quyidagi savol bilan murojaat qilinadi: “Nima uchun aynan “Muvaffaqiyat” yoki “Xohlayman” ustunida belgilar soni ko‘p yoki aksincha kamroq. Sababini tushuntiring?”. Shundan so‘ng, har bir ishtirokchining

[3] Кашлев, С. С. Организация рефлексивной деятельности студентов педагогического ВУЗа / С. С. Кашлев // Высшая школа, 1998. №2. –С. 19-22.

javoblari tinglanadi. Mashg‘ulot shu tarzda davom etadi va yakunida umumiy xulosalar shakllantiriladi.

Maxsus dastur doirasida tashkil etilgan ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlaridan so‘ng ishtirokchilarga quyidagi savol bilan qayta murojaat qilindi: “Bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda refleksiv ko‘nikmalarni asosiy omillardan biri sifatida belgilaysizmi?”. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 79 foizi refleksiv ko‘nikmalarni asosiy omil sifatida e’tirof etishgan bo‘lsa, 21 foiz ishtirokchilar esa o‘z xulosalarini aniq ifodalay olmaganligini ta’kidlashgan. Demak, yakuniy natijalardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda refleksiv ko‘nikmalar muhim omil sifatida belgilanadi.

Demak, refleksiya sanogen tafakkurni rivojlantirishning muhim mexanizmi sifatida yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o‘z ichiga oladi), xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini anglash uchun yo‘naltirilgan faoliyat, insonning fikriy faoliyatlarining shakli, ya’ni o‘tmishga (orqaga) murojaat qilish hamda subyektning ma’lum bir muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko‘ra olishi, aniqlashi, o‘rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir.

Refleksiya uchun qulay muhit yaratishda ichki xotirjamlikni hosil qilish lozim. Orlovning qat’iy ta’kidlashicha, agar refleksiya relaksatsiya (xotirjamlik) vaziyati bilan uyg‘unlashsa, inson tafakkuri salbiy o‘y-xayollar, noto‘g‘ri tasavvurlar, timsollardan xalos bo‘ladi va ularning ongda qayta takrorlanishi noqulay holatni yuzaga keltirmaydi. Mazkur sharoitda inson vaziyatga moslashadi, agar salbiy emotsiyalar takrorlanganda ham, yomon taassurot yuzaga kelmaydi.

Xullas, refleksiv ko‘nikmalarning yuqori darajada o‘zlashtirilganligi nafaqat talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda, balki ularning muvaffaqiyatga erishishi, o‘z-o‘zini tahlil qilishi, o‘z imkoniyatlari darajasi va kamchiliklarini aniqlash hamda kelajakdagi faoliyat turlarini to‘g‘ri amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan muhim indikator hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 30.12.2020-yil, №276, 6-b.

2. Орлов Ю. М. Оздоравливающее (саногенное) мышление / составитель А. В. Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1. — Издание 2-е изд., исправленное. – М.: Спайдинг, 2006. – С. 96.

3. Васильева Т. Н. Формирование саногенного мышления младшего школьника: Учеб. пособие / – Калининград: Калинингр. гос. ун-т, 1997. – С. 46.

4. Ataxanova S. Innovatsion ta’lim jarayonida tafakkur. Ilmiy maqola. “Sog‘lom avlod uchun” ilmiy-ommabop jurnal materiallari. 2014-yil. 5-b.

5. Abduraxmonova Z.A. Sog‘lom tafakkur rivojlanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Zamonaviy ta’lim. 2018. №4, 48-55-betlar.

Jo‘rabek TURSUNOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

FINLANDIYA TA’LIM TIZIMINI O‘RGANISH ORQALI O‘QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya fani oldidagi dolzarb vazifalar va Finlandiya ta’lim tizimi, o‘quv jarayonidagi, psixologik, pedagogik hamda texnik-texnologik jihatlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Loyiha, ijodkorlik, ijodiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy qobiliyatlar,texnologik jihatlar.

В статье обсуждаются текущие проблемы, стоящие перед технологией в общеобразовательных школах и финской системе образования, образовательный процесс, психологические, педагогические и технико-технологические аспекты.

Ключевые слова. Проект, творчество, творческое мышление, способности, творческие способности,технологические аспекты.

This article discusses the current challenges facing the science of technology in general secondary schools and the Finnish education system, the educational process, psychological, pedagogical and technical-technological aspects.

Key words. Project, creativity, creative thinking, ability, creative ability, technological aspects.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 30-oktabrda ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, mamlakatda ilm-fan rivojini jadallashtirishga bag‘ishlangan videokonferensiya bo‘lib o‘tdi. Videokonferensiyada ta’lim sohasidagi muammolar va ta’lim sifatini oshirishvazifalari muhokama qilindi. Mamlakatimiz rahbari ‘‘Agar siz maktablarda o‘qitish metodikasini o‘zgartirmasangiz, na ta’lim sifati, na mazmuni va na atrof-muhit o‘zgarmaydi’’, deb ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari, avvalambor, o‘quv yukini va maktablardagi darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, materialni yoddan yodlashga emas, balki o‘quvchilarni fikr yuritishga va tahlil qilishga undashga qaratilgan metodologiyani yaratish zarurligiga e’tibor qaratdi. Bunga misol sifatida Finlandiya tajribasi keltirildi. Ma’lumki, mazkur mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy va matematikaga doir fanlarni rivojlanishi bo‘yicha dunyodagi eng ilg‘or natijalarga erishganligi bilan mashhurdir.

Davlat rahbari maktab o‘qituvchilarining oldiga maktab ta’limini tizimli ravishda isloh qilish bo‘yicha dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Shunga asoslanib, Finlandiya maktab tizimining yutuqlari asosida o‘qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish maktabning ‘‘Texnologiya’’ fani o‘qituvchisi faoliyatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Finlandiya maktablarida qaysi fanlar o‘qitiladi? O‘quv jarayonida qanday usul-lardanfoydalaniladi? Finlandiya o‘qituvchilarining ‘‘Texnologiya’’ fanini o‘qitishda qan-daytajribalar yaxshi natijalar bergan? Biz ushbu maqolada mazkur masalalarga javob topishga harakat qilamiz.

Qayd etish zarurki, tashqi rasmiy tenglik bilan tizim ichidagi kuchli diversifikasiya shakllanadi: har bir maktab – jamoaning ehtiyojlariga muvofiq o‘zining shaxsiy pedagogik profilini ishlab chiqish va amalga oshirishga majburdir. Markazga qo‘yilgan juda umumiy va keng maqsadlar va qoidalar doirasida har bir maktabning kolleji o‘z dastur va o‘quv rejalarini ishlab chiqadi. Tadqiqot maqsadini ishlab chiqishda biz G‘arbiy Finlandiya viloyatidagi Satakunta viloyatida joylashgan Nakkila (Fin. Nakkila) maktab o‘quv dasturidan foydalandik. Hunarmandchilikni o‘rgatishda o‘quvchilarning har xil sharoitlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. Kerak bo‘lsa, o‘quv materiallari va ta’lim usullarini tanlash bilan bir-biridan ajralib turadi. Boshqa tomondan, qo‘l san’atlari qo‘llab-quvvatlashga muhtoj o‘quvchi uchun nozik vosita mahoratini, qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtirish va o‘zini-o‘zi rejalashtirishni rivojlantiradi. O‘quvchi olgan mulohazalar butun mashg‘ulot jarayonida va oxirida ijobiy dalda beradi. Baholash butun ishlab chiqarish jarayoniga qaratilgan. O‘qish jarayonida baholash va mulohazalar markaziy o‘rin tutadi. 1-6 sinflarda “Hunarmandchilik” fani haftasiga 2 soat o‘qitiladi. O‘quvchilarni qo‘lishi bilan shug‘ullanishga qiziqish va g‘ayrat ko‘rsatishga undaydi va ixtirochilik hamda eksperimental hunarmandchilikka qiziqish uyg‘otadi. 7-sinfda “Hunarmandchilik” fanining soatlari haftasiga 3 soat ajratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari elektron pochta orqali o‘rta maktab, kasb-hunar maktablari o‘qituvchilariga o‘quvchilarning o‘tish bosqichidagi yutuqlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Kelajakdagi o‘rta maktabga tanishuv tashrifi ham o‘tkazilishi belgilab olingan.

Beshinchi sinfdan boshlab o‘quvchi o‘zi uchun to‘qimachilik va texnik ishlarni o‘z qiziqishi va moyilligiga muvofiq tanlaydi. 7-sinf hunarmandchilik fanidan maqsad – o‘quvchilarni hunarmandchilikni umumiy boshqarishga yo‘naltirishdir. Hunarmandchilik – bu o‘zini namoyon qilish, dizayn va texnologiyaga asoslangan faoliyatni amalga oshiradigan ko‘p qirrali mavzu hisoblanadi. Bunga o‘z yoki umumiy hunarmandchilik jarayonini mustaqil ravishda yoki jamoat dizayni, ishlab chiqarish va baholash kiradi. Moddiy, texnik va ishlab chiqarish usullaridan foydalanadigan tadqiqot, ixtiro va eksperimental faoliyat jarayonda o‘quvchilar turli xil texnologik dasturlarni tushunishni, baholashni va ishlab chiqishni o‘rganib, olingan bilim va ko‘nikmalardan kundalik hayotda foydalanadilar.

Ushbu hunarmandlik o‘quvchilarning ongini, teginish va chizish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa vosita mahorati, ijodkorlik va dizayn qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Trening turli xil ish uchun zarur shartlarni mustahkamlaydi. Hunarmandchilik uzoq muddatli va innovatsion ish jarayoni uchun shuningdek, subyektning ishonchini oshiradigan yoqimli hissiyotlarni yaratish uchun juda muhimdir. O‘quv jarayonida o‘quvchilarning turli xil qiziqishlari va ijtimoiy faoliyatiga alohida e’tibor beriladi. Tikuvchilikning boshlang‘ich nuqtasi tabiiy ravishda mavzu chegaralaridan tashqariga chiqadigan turli xil keng mavzularni yaxlit o‘rganishdir. Atrofdagi moddiy dunyoni bilish barqaror turmush tarzi va rivojlanish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, u o‘quvchilarning o‘zlari hayoti sohalarini, mahalliy aholi va turli guruhlarning madaniy merosini va jamoaning madaniy xilma-xilligini o‘z ichiga oladi.

Shu jihatdan, o‘quvchilar axloqli, vijdonli, faol, bilimdon va tashabbuskor bo‘lib, o‘zlarini ijodkor sifatida qadrlaydigan, o‘zini namoyon qilish qobiliyatiga va hunarmandchilik madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirishga intiladi. 7-9 sinflarda hunarmandchilikni o‘rganish o‘quvchilarning o‘z tajribalari va hunarmandchilikni yaratish, ifoda etish va loyihalash bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalaridan kelib chiqadigan yangiliklarni va muammolarni hal qilishni kuchaytiradi va chuqurlashtiradi. Hunarmandchilikni o‘rganish

kuzatish, o‘rganish va qurilgan muhitda va dunyoda bilimlarni qo‘llashga asoslangan. Ish malakalarini chuqurlashtirish orqali ishning turli texnologik tamoyillari va ular bilan bog‘liq amaliy muammolar ham aniqlanadi. Hunarmandchilik mashg‘ulotlarining maqsadi – o‘quvchilar hayotining farovonligi va boshqaruvini qo‘llab-quvvatlash, ish hayoti va kasbiga bog‘liq tanlovlarni amalga oshirishdir.

Ijodkorlik – bu ijod qilishning umumiy qobiliyati sifatida tushuniladi (lotincha creation – yaratish). Ijodkorlik – bu insonning g‘oyalarini yaratish, o‘ziga xos yechimlarni topish qobiliyatidir. Gumanistik psixologiyaning asoschilaridan biri (AQSh) K.Rojers ijodkorlikni muammolarni hal qilishning yangi usullarini kashf etish qobiliyati deb tushunadi. Uning fikriga ko‘ra, ijodkorlik insonning ajralmas ijodiy qobiliyatidir.

Hozirgi vaqtda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini loyihalash orqali rivojlantirish turli xil test sinovlari, topishmoqlar, jumboqlar, masalalarni yechish va shartli ravishda bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy va didaktik metodlarga asoslangan. “Texnologiya” fanini o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun o‘rganilayotgan fanning mazmuniga mos keladigan ijodiy vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun taklif qilish kerak; masalan, nostandart topshiriqlar, bir nechta mavzular bo‘yicha bilimlardan foydalangan holda ijodiy loyihalar (STEAMtarkibidagi integral topshiriqlar), dizayn va ishlab chiqarish uchun ijodiy amaliy topshiriqlar, gullarni yetishtirish va boshqa ko‘p narsalar. Bunday ijodiy topshiriqlarni berishda o‘quvchilarning individual psixologik va yosh xususiyatlarini, qiziqish va moyilligini individual yondashuv asosida hisobga olish zarur.

Fikrni kashf etishga, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativlik sifatlari bilan bog‘lab tushuntiriladi. Kreativlik – shaxsning muhim tavsifiy belgisi bo‘lib, u boshqalarnikiga o‘xshamagan noyob va takrorlanmas fikrlashga imkon beradi.

“Kreativ” atamasi dastlab amerikalik tadqiqotchi D.Gilford tomonidan 1950-yillarda muomalaga kiritilgan. U o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarida ijodiy qobiliyatlarni ta’lim olishdagi qobiliyatlarga o‘xshamasligini, ya’ni ijodiy qobiliyat ta’lim olishdagi qobiliyatga nisbatan insonning umumiy aqliy salohiyati bilan kengroq bog‘liqlikda bo‘lishini aniqlaydi. Shundan kelib chiqib Gilford ijodkorlikni universal qobiliyat deb hisoblaydi va uni kreativ degan nom bilan ataydi. Gilford insonning ijodiy fikrlash jarayonini ikkita tipga ajratadi:

1. Konvergent fikrlash – muammo mohiyatini mantiqiy, izchil o‘rganish orqali bitta yechimni topishga erishish.

2. Divergent fikrlash – muammoga turli holatlar, ichki tuyg‘u, o‘xshash yechimlar asosida yechim topishga erishish.

Faylasuflarning fikricha, kreativlik – bu bir vaqtning o‘zida subyektning o‘ziga va shu jumladan, tashqi olamga tegishli bo‘lgan asl mohiyatdir. Kreativlik yaratuvchanlik, yuqori ijodkorlik – subyektivlik ishtirokisiz amalga oshmaydi va faqat ijodkor shaxsning o‘ziga xos xususiyati bilan amalga oshiriladi. Pedagogika fanida kreativlik deganda, asosan, ixtirochilik, originallik, fantaziya, sezgirlik, muammoni tez hal qila olish qobiliyatlari tushuniladi. Bu qobiliyatni ko‘p qirrali ekanligi ta’kidlanadi. Kreativlik – bu insonning har tomonlama fikrlash, his qilish va harakat qilishga bo‘lgan potensial layoqat hisoblanadi.

Bizningcha, kreativlik – o‘zida o‘zaro bog‘liq qobiliyat va elementlarni to‘la jamlagan, integrativ qobiliyatdir. Masalan, kreativlik qobiliyatlari quyidagilar hisoblanadi: tasavvur, fantaziya, orzu qilish, noodatiy fikrlash va noyob qobiliyatlarni rivojlantirishlarni o‘z ichiga oladi. Kreativlik evristik bilish faoliyatini ta’minlovchi asosiy, ammo, yagona bo‘lmagan qobiliyat hisoblanadi. O‘quvchilarda ijodiy va vositali faoliyat natijasida

albatta, bilish jarayoni amalga oshadi, bunda kreativlik va kognitiv faoliyat bilan birga amalga oshadi. Kreativlik va kognitiv jarayonlar umumiy tuzilish asosiga ega bo‘lishi va o‘quvchilar umumta’lim jarayoni natijasida ifodalanishi uchun o‘quvchi qobiliyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriluvchi tashkiliy-metodologik faoliyat zarur bo‘ladi. Tashkiliy faoliyatli qobiliyatlarga o‘z oldiga maqsad qo‘ya bilish, maqsadga intilish, biror ishni rejalashtira olish, belgilangan me’yorlarga amal qilish, o‘z-o‘zini anglash va boshqalar kiradi. Shunday qilib, evristik ta’lim o‘quvchilarning rivojlanishida uch integrativ qobiliyatga tayanadi. Bular kreativlik, kognitiv va tashkiliy faoliyat turlarigi bog‘liqdir. Bunda evristik ta’lim deganda, biz o‘quvchilarning mahsulotlarni yaratishga qaratilgan faoliyat va harakatlarni amalga oshirishning kompleks (majmuaviy) imkoniyatlarini tushunishimiz mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda kreativlikning bir qancha tavsiflari mavjud. Fikrimizga ko‘ra, amerikalik olim D.Vekler tavsifini eng maqbul deb hisoblash mumkin. Unga ko‘ra, “kreativlik” (lotincha kreatio – noyob fikrlash) fikrlashning shunday turiki, u shaxsga bir muammoni yoki masala yuzasidan birdaniga bir necha yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim-tarbiya tizimida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarining yetarlicha shakllanmaganligi zarur metodika, usul va vositalarning yetarlicha mukammal ishlab chiqilmaganligi hamda amaliyotga tatbiq etilmaganligi, kreativlik qobiliyatlarining o‘zlashtirish darajasining o‘ziga xosligi muammoning ijobiy yechimiga to‘sqinlik qilayotgan omillar qatoriga kiradi.

Texnologiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va o‘tkazish ko‘plab yechimlarga ega. Biroq, sohada to‘la ilmiy asoslangan xulosalar mavjud emas. Bundan kelib chiqqan holda, dizayn loyihalar vositasida o‘quvchilar kreativ qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etishda uning mazmun va mohiyatini tashkil etuvchi takomillashgan shakl, metod hamda vositalarini tanlab, tizimlashtirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilar kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqish, mashg‘ulotlarda dizayn loyihalar vositasida o‘quvchilar kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlarini asoslash, mashg‘ulotlarga qo‘yiladigan talablarni aniqlash, texnologiyani samarali shakl va metodlari ishlab chiqish hamda ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan bo‘lib, tayyorlanadigan amaliy-metodik tavsiyalar ta'lim sifatini oshirishga yo‘naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, №ZRU-637 23.09.2020, https://lex.uz/ru/docs/5013009

2. Ta’lim va tarbiya tizimi: rivojlanishning yangi bosqichi muhokama qilindi https://president.uz/ru/lists/view/3924

3. Турабеков Ф. С. Основные подходы к созданию электронного учебника по методике трудового обучения //Вестник Университета Российской академии образования. – 2010. – №. 4.

4.To‘rabekov F. “Axborot texnologiyalari texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish vositasi sifatida”. Архив научных исследований, т. 1, вып. 44, февраль 2021 г..

Feruzaxon QODIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari doktori,
''Maxsus ta'lim'' kafedrasi professor v.v.b.

TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari, tamoyillari, qoidalari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali muayyan darslarda alohida ehtiyojli bolalarning faoliyatlarini samarali tashkil etishning imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Inklyuziya, alohida ehtiyojli bola, sharoit, tamoyil, qoida, muhofaza, individuallashtirish, differensiallashtirish, maqsad, natija, faoliyat.

Данной статье приведены правовые аспекты, принципы инклюзивного образования. Кроме того раскрыты возможности инновационных подходов при организации деятельности учащихся в индивидуальных занятиях.

Ключевые слова. Инклюзия, ребёнок с особыми нуждами, условие, принципы, правилы, зашита, дифференциация, индивидуализация, цель, результат, деятельность.

This article describes the legal framework, principles and rules of inclusive education. In addition, the use of modern technology has opened up opportunities for the effective organization of activities for children with special needs in certain classes.

Key words. Inclusion, child with special needs, conditions, principle, rule, protection, individualization, differentiation, purpose, outcome, activity.

Bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanganligi nogironligi bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish sifati bilan baholanmoqda.

Inklyuziv ta'lim – (inklyuziya – inglizcha inclusion – uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Inklyuziv ta'lim bu, shunday ta'lim-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'i nazar BARCHA bolalar umumiy tarzda, o'z uyi, oilasi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir. Demak, inklyuziv ta'limning maqsadi – alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Sharoitlar bolalarning uydan maktabga qatnovi bilan, darsda o'zini qulay xis qilishi bilan, o'quv fanlarini o'zlashtirishga imkon beruvchi vositalarga egaligi bilan, darsdan tashqari paytlarda o'z qiziqishlari doirasida faoliyat bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatlariga egaligi bilan, salomatligiga hech bir xavfning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kundagi O'zbekistonning yangi qiyofasi ta'lim sohasidagi ijobiy o'zgarishlar bilan ham hamohangdir. Har sohadagi kabi nogironligi bo'lgan bolalar ta'limida ham

jahonning ilg‘or tendensiyalari asosida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Sog‘lom bolalar bilan bir qatorda u yoki bu alohida ehtiyojlari bor bolalarning o‘qishini bolaning noyob hamda yashiringan imkoniyatlari uchun mos tashkil etish maqsadida huquqiy me’yorlar ishlab chiqildi. Mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilib, bir qator qonunlar qabul qilindi va ularda bola huquqlari kafolatlab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda “Bola huquqlari to‘g‘risida” Konvensiya (1989-yil 20-noyabr BMT tomonidan qabul qilingan)ni ratifikatsiya qildi. Ushbu Konvensiya BMTning bolalikni muhofazalash borasidagi eng universal hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida’’gi Qonunida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirish kafolatlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, oxirgi 5 yil mobaynida ta’limni isloh qilish, fuqarolarning bandligini ta’minlash orqali farovon hayot kechirish sharoitini ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 sonli farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta’lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimini joriy etish belgilab qo‘yilgan.Jumladan, Xalq ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi 1-bob, 2-bandning 3-xatboshida: o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; 3-bob, 8-bo‘lim (d) bandida imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash, ushbu bandning 8-xatboshida imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish vazifalari belgilandi.

Inklyuziv ta’limning bosh g‘oyasini quyidagi strategiya tashkil etadi: “Zamonaviy maktabda bola ta’limga emas, ta’lim bola imkoniyatlariga moslashtiriladi”.

Inklyuziv ta’lim tamoyillari quyidagilar:

1. Ta’lim sifatini baholovchi indikatorlar bola imkoniyatlariga mo‘ljal oladi.

2. O‘quvchi qanday javob berdi emas, qanday ishtirok etdi? savoli asosida refleksiv muhit yaratiladi.

3. Individual yondashuv o‘quvchining o‘zlashtirish xususiyatiga nisbatan tanlansa, differensial yondashuv o‘quv topshiriqlarining murakkablikka ko‘ra darajalanishiga nisbatan qo‘llaniladi. Adaptivlik variativlik bilan uyg‘unlashadi.

4. O‘qituvchining improvizatsion faoliyati moslashuvchan transformatsion muhit yaratishga yo‘naltiriladi.

5. Rag‘batlantirish o‘quvchilarni topshiriq bilan band qilishdan oldin yuradi.

Muhim qoida “Sening imkoniyating cheklanganligi uchun emas, sen bunga qodirsan” – shiori ostida ta’lim jarayoni tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limga nutqi va eshitib idrok etish ko‘nikmalari rivojlangan ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari o‘quvchilarining jalb etilishi ham bu amaliyotning bir shakli sifatida tanlanmoqda. Ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari o‘quvchilarining

nutqi va eshitishi ustida sifatli ish olib borilsagina ular ma'lum bosqichdan so‘nggina inklyuziv ta'limga jalb etilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar kar bolada nutq yetarli darajada shakllanmagan va eshitib idrok etishga moslashmagan bo‘lsa, mazkur o‘quvchining inklyuziv ta'limda o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi qiyin bo‘ladi. Shu bois, quyida kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi va eshitishi ustida ishlashga mo‘ljallangan yakka mashg‘ulotlarning tashkil etilishi va mazmuniga oid metodik tavsiyalar keltiriladi.

Yakka mashg‘ulotlar o‘quvchilarda egallayotgan til tarkibida mavjud tovushlarni ovoz kuchaytiruvchi apparatlar yordamida yoki ularsiz eshitish, ko‘rish, teri-tuyush sezgilari orqali sezdirgan holda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga hamda qoldiq eshitish idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yakka mashg‘ulotlarning vazifalari:

1. O‘quvchilarning tovushli hodisalar haqidagi tasavvurlarini aniqlash va kengaytirish.

2. Eshituv sezgisini o‘qitish jarayoniga va atrofdagilar bilan muloqotga yo‘naltirish.

3. O‘quvchilar so‘zlashuv nutqini rivojlantirish, talaffuzini shakllantirish bo‘yicha pedagogik jarayonga hamkorlik qilish.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internatlarida yakka mashg‘ulotlar 2 ta qismga bo‘linib tashkil etiladi.

1-qismda o‘quvchilarning talaffuzi ustida 10 daqiqa, 2-qismda o‘quvchilarning qoldiq eshitishi ustida 10 daqiqa ish olib boriladi.

O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda mashg‘ulotlar yakka va yalpi (frontal) tarzda tashkil etiladi.

Eshitishni rivojlantirish bo‘yicha frontal mashg‘ulot turlari:

1. O‘quvchilarda eshitish qolidig‘idan maksimal foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va mustahkamlash bo‘yicha mashg‘ulotlar. Ushbu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tovushlarning manbaini farqlashga, nutqiy material xarakteri (o‘g‘il bola tovushi, qiz bola tovushi, chaqiriqli nutq, maslahat shaklidagi sekin ohangli nutq, otalar nutqi, onalar nutqi, yordamga chaqirish mazmunidagi nutq...)ni aniqlashga o‘rgatiladi. Mashg‘ulot uchun o‘quv materiallari kundalik hayotda ko‘p uchraydigan nonutqiy vositalar (soat, telefon, oshxona jihozlari, mashina signali va unga xos boshqa ovozlar, qurilish ishlari ovozlari, musiqa vositalari va b. .)ni eshittirib farqlatishga mo‘ljallangan mavzulardan tashkil topadi.

2. Eshitish va eshitib farqlashga o‘rgatuvchi aralash mashg‘ulotlar. Ushbu mashg‘ulotning aralash deb nomlanishiga sabab, uning mazmunini nonutqiy tovushlarni farqlatishga undovchi topshiriqlardan tashqari o‘quv fanlariga oid so‘zlardan tashkil topgan nutqiy material ham tashkil etadi.

3. O‘quvchilarning eshitish idroki ustida olib borilgan korreksion jarayonni monitoring qilish, ularning eshitib-farqlash bo‘yicha imkoniyatlarini tahlil qilish, eshitish dinamikasini taqqoslashga mo‘ljallangan nazorat mashg‘ulotlari. Mazkur mashg‘ulotlar odatda o‘quv yilining boshi va oxiri hamda har bir katta bo‘limdan so‘ng o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlarda keng qo‘llaniladigan ish turlari quyidagilar:

– tovush manbaini aniqlash;

– tovush yo‘nalishini aniqlash;

– so‘zning tovush-bo‘g‘in va ritmik tarkibini faqrlash.

Yakka mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga o‘quv materiallari 3 usulda beriladi.

Birinchi usulda nutqiy materiallar faqat quloqqa (rejalashtirilgan masofalarda, bu masofalar yaqindan uzoqqa qarab o‘zgarishi lozim) beriladi. Bu ish usuli “Ekrandan”

deb nomlanadi va natijalarni aks ettirishda ham “E” yoki – ekran – deb yozib boriladi.

Ikkinchi usul nutqiy material eshitib-ko‘rishga beriladi. Ya’ni o‘quvchilar o‘ziga qarata aytilgan murojaatni labdan o‘qib ham eshitib farqlashga beriladi. Ushbu usul natijasida olingan natijalar “EK” deb aks ettiriladi.

Uchinchi usul ko‘rish, ya’ni so‘zlar kartochkada yoki uning ma’nosi aks etgan rasm orqali namoyish etiladi. Bu usul kar va zaif eshituvchi bolalarda chuqur muammolar bo‘lganda yoki bolaning nutqi juda kambag‘alligida foydalaniladi. Ushbu usul aksariyat hollarda turli eshitish chegarasiga ega o‘quvchi uchun ma’nosi tushunarli bo‘lmagan so‘zlarni eshittirishda ham qo‘llaniladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan yakka mashg‘ulotlar jarayonida asosiy omil bo‘lib, eshitish orqali nutqni qabul qilish imkoniyati hisoblanadi. Kar bolada eshitish muammosi chuqurligi sababli, u nutqni mustaqil egallay olmaydi. Kar bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlarda tovush tebranishlarini havo-suyak orqali his qildirib, teri-tuyush orqali sezdirib farqlash ustida ishlanadi. Shuning uchun aksariyat o‘qituvchilar kar bolalarga tovushlarni qo‘yishda teri orqali sezish, havoni his qilishga tayanadilar. Hozirgi kunda ovoz kuchaytirib beruvchi apparatlar mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda ham kar bolalarga tovushni sezdirish orqali qo‘yib, so‘z va jumlalarni labdan o‘qittirgan holda o‘quvchilarda nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish tajribasi keng qo‘llanilmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘quvchilarning eshitishi va eshitish qoldig‘idan maksimal foydalanishning ahamiyatini ochib beradi. Ya'ni korreksion mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar bolalarning eshitishi ustida ishlash jarayonini to‘g‘ri tashkil etishi lozim. Ya’ni o‘z nomi bilan “Eshitish idrokini rivojlantirish” mashg‘uloti o‘z vazifalarini bajarishi maqsadga muvofiqdir. Agar bu kabi mashg‘ulotlar tizimli olib borilsa, bu jarayonga oilalarni ham tayyorlab borilsa, kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqi tushunarli bo‘ladi. Ular o‘quv materialini anglashga o‘rganadi. O‘quv fanlarini o‘zlashtirish uchun lug‘at jihatdan tayyor bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –№6(766)-70-modda, –T.: Adolat, 2017. 38-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.

3. Qodirova F.U. Uzluksiz ta’limda innovatsion metodik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. “Xalq ta’limi” jurnali, 2020-yil, 5-son. 42-46-betlar.

4. Кадырова Ф.У., Джураева М.Ф.. Технология дополнительных занятий в обучении младших школьников учителем-дефектологом. “Узлуксиз таълим”, 2020, Сс. 86-90.

5. Qodirova F.U. Methodical cluster – an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences http://www.idpublications.org/ejrres-vol-8-no-8-2020-part-iii/

Madina JALILOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK LOGOPED O‘QITUVCHILARNING NUTQIDA NUQSONI BOR BOLALAR OTA-ONALARI BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada nutq terapiyasi ishining yo‘llari va shakllari ko‘rib chiqilgan, shuningdek, nutq terapiyasining individual, jamoaviy, ko‘rgazmali shakllari yordamida amalga oshiriladigan nutq terapevtining ota-onalar bilan izchil, uzluksiz faoliyati olib borish keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy tayyorgarlik, kasbiy ta’lim, talabalar, nutq terapevti, ota-onalar, oila, bolalar, yechimlar, nutq terapiyasi shakllari, nutq buzilishlari.

В статье рассмотрены пути и формы логопедической работы, описана последовательная, непрерывная связь логопеда с родителями, которая осуществляется при помощи индивидуальной, коллективной, наглядной формы логопедической работы.

Ключевые слова. Профессиональная подготовка, профессиональное образование, студенты, логопед, родители, семья, дети, пути решения, формы логопедической работы, речевые нарушения.

The article considers the ways and forms of speech therapy work, describes the consistent, continuous communication of the speech therapist with parents, which is carried out with the help of individual, collective, visual forms of speech therapy work.

Key words. Professional training, professional education, students, speech therapist, parents, family, children, solutions, forms of speech therapy, speech disorders.

Bo‘lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligini tashkil qilish jarayonida muammoning ota-onalar bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarini, xususan, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonida yaqin hamkorlik va nutqiy buzilish mavjud bolalar bilan ishlashda ota-onaning faol ishtirokini ta’minlash masalasi zamonaviy ilm-fanning asosiy talabi hisoblanadi. Bu jihat logopedning ilmiy salohiyati yuksalishiga va kasbiy kompetentliligining oshishiga yordam beradi.

Bo‘lajak logopedning ota-onalar bilan ishlashga kasbiy tayyorgarligi bu – kasbiy logopedik bilimlarni o‘zlashtirish, psixologik va pedagogik (analitik-diagnostik, refleksiv, konstruktiv-tashkiliy, ilmiy prognozlash, kommunikativ) qobiliyatni tarbiyalash, hissiy barqarorlik, empatiya (g‘amxo‘rlik) singari kasbiy va shaxsiy sifatlarni o‘zida mujassam etish va uning asosida o‘z kasbiy yo‘nalishini belgilashdan iborat bo‘lgan jarayon. Umumiy tayyorgarlik – bo‘lajak logopedning kasbiy faoliyatning ma’lum bir bosqichiga tayyorlik darajasini nazarda tutadi. U kommunikativ, ijodiy, kognitiv, motivatsion, refleksiv va ma'naviy-ruhiy singari shaxsning xarakteri, xulqi va ichki dunyosi bilan bog‘liq jihatlarining shakllanishi, o‘sishi va rivojlanishida aks etadi.

Bo‘lajak logopedlarning ona-onalar bilan ishlashga bo‘lgan tayyorgarligini tashkil qilish jarayoni quyidagi g‘oyaga asoslanadi: zamonaviy jamiyat ota-onlari umumiy ishlash jarayonidan individual va guruh bo‘lib ishlash jarayoniga o‘tish ehtiyojini sezmoqda; zamonaviy ota-onalar bola nutqiy rivojlanishining barcha bosqichlarida ushbu

jarayonning teng huquqli a’zolari hisoblanadi; logopedik amaliyotni oila bilan hamkorlik asosida tashkil etish zarurati.

Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning nutqiy rivojlanishi uning umumiy rivojlanish jarayonidagi eng muhim omil hisoblanadi. Rivojlanish bosqichlarida asosiy vazifa ota-ona va mutaxassisga yuklatiladi. Har yili nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar soni ortib bormoqda. Maktab yoshigacha bo‘lgan har to‘rt nafar boladan birining nutqida tutilish yoki buzilish kuzatilmoqda. Bolalardagi nutqiy buzilish ular va ota-onalari mansub bo‘lgan sotsial-madaniy muhit, madaniy qatlam bilan bog‘liq. Nutqiy rivojlanishda ortda qolishning yana bir sababi ota-onaning farzandi bilan yetarlicha muloqot qilmasligiga borib taqaladi. Ko‘plab bolalar uchun axborot olishning asosiy manbasi televizor bo‘lib qolmoqda. Oila a’zolari o‘rtasida kam muloqotli muhit va televizordan doimiy manba sifatida foydalanish bola nutqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutq insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi vazifasini bajaradi. Uning oiladagi o‘rni katta ahamiyatga ega. Ko‘plab ota-onalarning qarashlariga ko‘ra, bolada nutqiy rivojlanish u o‘zi uchun zaruriy bo‘lgan “ota”, “ona” so‘zlarini aytishi bilan boshlanadi. Ammo nutq uzluksiz rivojlanib boradigan, murakkab jarayon. Bola tug‘ilganidan boshlab tovushlar va so‘zlarni qabul qila boshlaydi, ularni eslab qoladi. Bola kattalar nutqiga taqlid qiladi va shu asnoda nutqni o‘zlashtiradi. Bola nutqi to‘g‘ri bo‘lishi uchun u kattalarning to‘g‘ri nutqini tinglashi zarur. Agar kattalar o‘z nutqlarini tuzatmasalar, bolalarga juda ko‘p so‘zlar noto‘g‘ri yetib boradi. Bolaga uzun, notanish, yangi so‘zlarni ravon talaffuz qilib berish zarur. Bugungi ota-onalarning asosiy muammolari – yetarlicha pedagogik bilimlarga ega emaslik, bolaning serqirra ichki dunyosini hafsalasizlik bilan qarshilashda aks etadi. Bu esa nafaqat bolaning ruhiyati, shaxsiy rivojlanishi, balki nutqiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutqiy nuqsonli bolalarning rivojlanishi oilaviy muhit bilan bog‘liq. Oilaviy tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilish nutqiy nuqsonni bartaraf etishga qaratilgan psixo-pedpgogik amallarni o‘ziga mujassam qilishi zarur. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolali oilalarda bola nutqiy rivojlanishi bilan bog‘liq bola – ota-ona o‘zaro munosabatlarida o‘ziga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Nutqiy rivojlanishida muammosi bor bolalarga bo‘lgan munosabatda ota-onalar quyidagi turlarga ajratiladi: ota-onasini yo‘qotgan; ota-ona bolaning nuqsonidan shikoyat qiladi yoki undan voz kechadi; ota-ona muammoning yechimini izlaydi. Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari talabalarga o‘zini kashf etishi uchun sharoit yaratib beradilar. Bu jihat mustaqil qaror qabul qilish, mustaqil fikrlash va tahlil qilish bilan izohlanadi. Ta’kidlash joizki, manbalarda bugungi mehnat bozori xususidagi ko‘plab ma'lumotlar keltirib o‘tilgan, faqat tashabbuskor, tashkilotchi va kasbiy hamda shaxsiy o‘sish uchun intiluvchi mutaxassisgina raqobat muhitida raqobatbardosh bo‘la oladi. Bo‘lajak logopedning vazifasi – nutqiy nuqsonli bolalar bilan ishlash jarayonida ota-onalarning rolini oshirish va ularni logopedik amaliyot jarayoniga tayyorlashdan iborat.

V.I.Garbuzov o‘zi ota-onalarda olib borgan tajribaga asoslanib noto‘g‘ri tarbiyaning uch turini ajratadi:

– A) turidagi tarbiya (yoqimsiz, hissiy xo‘rlangan), bolaning individual xususiyatlarini inobatga olmaslik. Qattiq nazorat beparvolik bilan qorishib namoyon bo‘lishi mumkin. Bolaning taqdiriga befarq qaraladi.

– B) turidagi tarbiya (gipersotsiallashgan) bolaning sog‘lig‘i, imkoniyatlari, ta’limdagi yutuqlari, tengdoshlari o‘rtasidagi mavqeiga haddan ortiq yuqori talablar qo‘yiladi. Bolaning muammolari uning aralashuvisiz ota-ona tomonidan hal qilinadi, uning muvafaqiyatsizliklari juda og‘ir qabul qilinadi. Bunday oilalardagi bolalar nofaol, nomustaqil, o‘ziga bo‘lgan ishonchi past, “gapirgandan ko‘ra gapirmagan yaxshi” qolipida ulg‘ayadi.

– V) turidagi tarbiya (egotsentrik) – “kichkina”, “yagona”, “oila ramzi”, “hayot timsoli”. Oilaning bor diqqati faqat bolaga yoki oilaning boshqa bir a’zosiga qaratilgan bo‘ladi. Ota-onalar bolaning psixo-fiziologik xususiyatlarini, nutqiy va yozish ko‘nikmasini inobatga olmay, undan to‘g‘ri gapirishni, xatosiz yozishni talab qiladilar. Bolaning real imkoniyatlaridan yuqori bo‘lgan talablar qo‘yiladi. Ushbu tarbiya turi bolada noto‘g‘ri fikrlash, asabiy javob reaksiyalari qaytarilishiga sabab bo‘ladi.

Nutqiy nuqsonli oilalardagi muhit masalasi pedagogik amaliyot jarayonida talabalar tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida so‘rovnoma-anketa metodidan foydalanilgan bo‘lib, u ota-onalardagi pedagogik kompetentlilik, bolaning nutqiy nuqsoniga bo‘lgan munosabat, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar haqida aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Tadqiqot 2021-yil mart oyida Respublika bolalar ijtimoiy moslavshuv markazida o‘tkazilgan. So‘rovnomada 72 nafar ota-ona qatnashgan. So‘roqnoma natijalariga ko‘ra, ko‘plab ota-onalar (84 foiz) bolaning nutqiy rivojlanishini ta’minlaydigan korreksion-logopedik jarayonlarda qatnashishga tayyor emas. Faqatgina 24 foiz ota-ona bu jarayonda bolaga yordam berishga tayyor. Keltirilgan faktlar asosida, shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi ota-onalarning asosiy muammosi yetarlicha pedagogik bilmlarga ega emaslik va bola bilan ishlashga bo‘lgan hafsalasizlikdan iborat. Bola tarbiyasiga bunday munosabat jiddiy oqibatlarga, xususan, jiddiy nutqiy buzilishlarga olib kelishi mumkin. Anglashiladiki, noto‘g‘ri tashkil qilingan oilaviy muhit va tarbiya bola nutqiy buzilishiga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Logoped-o‘qituvchining ota-onalar bilan ishlash jarayonidagi asosiy maqsadi jarayonni optimallashtirish hamda ota-ona va farzand o‘rtasida to‘g‘ri munosabatni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

1) ota-onalarga malakali yordam ko‘rsatish;

2) bola rivojlanishi uchu qulay oilaviy muhitni yaratish;

3) bolaning tarbiyasi va nutqiy rivojlanishida ota-onalarning faol ishtirokini ta’minlash;

4) kattalar va bola o‘rtasidagi o‘ziga xos muloqot muhitini tashkil qilish.

Pedagog oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan mashg‘ulotlar davomida talabalarga logoped nutqiy nuqsonli bolalar bilan ishlashda ota-onalar yordam berishi mumkinligini uqtiradi. Ota-onalar ushbu hamkorlik samaradorligiga ishontirish vaqt talab qiladi. Samarali korreksion-logopedik jarayon ota-onalarning faol ishtirokini talab qiladi. Ota-ona va logoped o‘rtasidagi muloqot individual, jamoaviy va ko‘rgazmali shaklda tashkil qilinishi mumkin. Muloqotning jamoaviy shakli seminar va o‘zaro maslahatlashish tarzida tashkil qilinadi. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar tomonidan taqdim etilgan dolzarb mavzular ota-onalarda katta qiziqish uyg‘otdi. Xususan:

– Artikulyasion gimnastika (Ko‘plab ota-onalar bunday usullardan uy sharoitida foydalanish mumkinligini bilmaydilar. O‘qituvchi – logoped sodda mashqlarni ko‘rsatish asnosida artikulyasion gimnastikaning nutqiy rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sirini tushuntirib beradi).

– Kichik qo‘l motorikasini rivojlantirish (kichik motorika va nutq rivojlanishining o‘zaro aloqadorligi ko‘pchilik uchun noma’lum jihat sanaladi. Uy sharoitida kichik motorika rivojlanishini ta’minlash zaruriyatini ota-onalarga tushuntirish zarur).

– Uy sharoitida avtomatizatsiyalash (avtomatizatsiyalash va uni tashkil qilish xususida ma’lumot berish).

– Bolaga qanday o‘qishni o‘rgatish.

– Tovushli – harfli tahlil.

Individual ishlash tarziga so‘rovnoma-anketa metodini kiritishimiz mumkin.

So‘rovnoma asosida oila tarkibi, oilada ustuvor bo‘lgan tarbiya xususida bilib olish mumkin. Pedagog uchun ota-onalarning qay darajada pedagogik bilimlardan boxabarligi muhim. Xususan, “Siz ta’lim jarayonining qaysi jabhalarida logoped tavsiyasini olishni istar edingiz?” tarzidagi savollar bu jarayonga lchuvchi savol sifatida yordam beradi.

Logoped va ota-ona o‘rtasidagi muloqotni ta'minlovchi vositalardan biri uy vazifalari qayd qilinadigan daftar hisoblanadi. U mutaxassis uchun “ishonch telefoni” vazifasini o‘taydi, kattalar unga o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollarni, o‘z fikr-mulohazalarini yozib yuborishlari mumkin. U bajarilgan vazifalarni aylana, bajarilmagan vazifalarni minus belgisi bilan belgilaydi. Daftar logoped tomonidan qabul vaqtida ikki-uch marotaba to‘ldiriladi. Bundan maqsad bolaning sog‘lig‘ini doimiy nazoratda olish va amaliyot jarayonini tizimli yoritishdan iborat. Daftardagi mashg‘ulotlar faqatgina talaffuzni to‘g‘rilashga qaratilgan mashqlardan iborat bo‘lmaydi. Unda so‘z yasash, grammatika, diqqatni jamlash va eslab qolish-xotira bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlarga ham ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, kichik motorikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, tovush va harflarni o‘zlashtirish, so‘z boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar ham o‘rin oladi.

Bu jarayonda “tez aytish yodlash” katta naf berishi mumkin. A.I.Maksakov ta’lim jarayonida tez aytishlarni o‘ziga xos rolini ajratib ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, tez aytishlar – o‘zida xalq donishmandligini mujassamlashtirgan, o‘ziga xos folklor janri. Ta’kidlash joizki, ota-ona nazoratisiz korreksion amaliyotning natijasi bo‘lmaydi. Shuningdek, ular to‘g‘ri nutq shakllanishi uchun bolaga o‘rnak, namuna bo‘lishlari lozim. Nutq madaniyati xususidagi suhbatlar, “tunggi oilaviy kitob o‘qish”ni tashkil qilish ham eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

“Butunjahon bolalarni himoya qilish va rivojlanishini ta’minlash” deklaratsiyasida shunday deyiladi: Butun dunyo bolalari begunoh, ma'sum va qarovga muhtojdirlar. Shuningdek, ular qiziquvchan, jo‘shqin va umidlarga to‘la qalb sohibidirlar. Ularning vaqtlari quvonch va tinchlik, o‘yin, o‘qish va rivojlanish bilan o‘tishi lozim. Bolalar kelajagiga poydevor hamkorlik va uyg‘unlik asosida quriladi...”. Bolalar kelajagiga poydevor bo‘ladigan hamkorlik va uyg‘unlikni ota-onalar va pedpgoglar ta’minlashi lozim. Bunga kattalarni bolalar oldidagi insoniylik, fuqarolik, mas’ullik hislari undaydi.

Logopedlik faoliyatida mutaxassislar tomonidan yuqori samaradorlikka ega deya ko‘rsatilgan uch usul ajratiladi: seminar-praktikumlar, logopedik klublar, hamkorlikdagi bolalar logopedik bayramlari. Ushbu usullar muloqotning jamoaviy turiga mansub bo‘lib, logoped va ota-ona o‘rtasida aloqalar yo‘lga qo‘yilishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Seminar-praktikumlar. Ota-onalarda bolalarga logopedik yordam ko‘rsatish usullari xususida tushuncha hosil qilishga yo‘naltirilgan tadbirlar. Unda logoped mashg‘ulot jarayonida qo‘llaydigan samarali usullar xususida so‘z boradi. Buning uchun bolaning yaqinlariga uy vazifasini bajarish texnikasini o‘rgatish lozim. Samarali usullar sifatida artikulyasion va barmoq gimnastikasi, tovush talaffuzini shakllantirish va boshqa muqobil variantlar keltiriladi.

Hamkorlikdagi logopedik bolalar bayrami. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidgi munosabatlarga yo‘naltirilgan bayram. Jarayonda tashkil qilingan o‘yin va tanlovlar asosida bolalar ota-onalariga o‘z yutuqlarini ko‘rsatishlari mumkin, ota-onalar esa, o‘z navbatida, korreksion-logopedik jarayonga baho beradilar.

Ota-onalar (logopedik) klubi. Ota-ona va logoped o‘rtasidagi aloqalarning yangi shakli. Uning maqsadi – nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar ota-onalariga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko‘rsatishdan iborat. Klub korreksion-logopedik jarayonning qo‘shimcha unsuri hisoblanadi, u bolaning yaqinlarida bolaga nisbatan to‘g‘ri munosabat va tarbiya

shakllanishiga yordam beradi. Ushbu tadbir mavzui tadriji muammodan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda logopedning maqsadi – ota-onaga korreksion-logopedik jarayondagi o‘rnini tushuntirish, bolani kasbiy yoki fan jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam berish, nutqiy nuqsonni tuzatishga qaratilgan metod va usullarning muvofiq keluvchisini tanlashdan iborat.

Logoped korreksion-logopedik amaliyotning qaysi usulini tanlamasin, uning bosh vazifasi – ota-onalarni jarayondan bezdirmaslik, ularga logopedik faoliyatning imkoniyatlarini ko‘rsata bilish, faol hamkorlikni amalga oshiridan iborat.

Ota-onalarning logopedik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rsatkichi foiz kesimida nazariy tahlil va diagnostik tadqiqot asosida yoritildi. Logopedning ota-onalar bilan ishlash usullari va metodlari ko‘rsatib berildi. Ota-ona va logoped o‘rtasidagi muloqotning uzluksizligini ta’minlash, bu jarayonda jamoaviy, individual, ko‘rgazmali usullardan foydalanish xususida mulohazalar keltirildi.

Talabalarda nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash ko‘nikmasi pedagogik amaliyot jarayonida o‘rgatiladi, shuningdek, “Individual va frontal logopedik mashg‘ulot”, “Nutqiy nuqsonni aniqlash va bartaraf etish texnologiyasi”, “Logoritmika”, “Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun musiqiy-ritmik mashg‘ulot” va h.k. o‘quv kurslarida ham mavzu yuzasidan ma’lumotlar berib boriladi.

Ishning amaliy ahamiyati olingan natijalarni ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘llash mumkin ekanligida, bo‘lajak logoped mutaxassislarning nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanishida qo‘shimcha manba vazifasini o‘tashi mumkinligi bilan izohlanadi. Manbadan oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalari qo‘shimcha manba sifatida foydalanishi nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гарбузов В. И. Воспитание ребенка в семье: советы психотерапевта. – СПб.: КАРО, 2015. – 296 а -URL: http://www.iprbookshop.ru/60992.html. – ЭБС “IPRbooks”.

2. Грибукова О. Г. К вопросу о формировании профессиональной готовности студентов педагогического вуза к работе с детьми, имеющими сложности в развитии // Современные направления психолого-педагогического сопровождения детства: материалы науч.-практ. семинара.

3. Чесноковой, Е. В. Ушаковой; Министерство образования и науки РФ, Новосибирский государственный педагогический университет. – Новосибирск, 2016. – С. 8-11.

4. Максаков А. М. Правильно ли говорит ваш ребенок? – М.: Просвещение, 1988. – С. 109-159.

5. Грибукова О. Г. Формирование профессионально-личностной готовности будущих дефектологов к работе с проблемными детьми как целостный педагогический процесс // Образование, наука, инновации: вклад молодых исследователей: материалы XI (XLIII) Междунар. науч.-практ. конф. / сост. Д. Ю. Ногтев; Кемеровский государственный университет. – Кемерово, 2016. – С. 145-147.

Gulnoza SALIXOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIGA JALB ETISHDA OTA-ONALARNING ROLI

Annotatsiya

Maqolada yosh bolalarni tarbiyalash va o‘qitish jarayonida ularning ijtimoiy, hissiy, bilim va jismoniy ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratish masalalari muhokama qilinadi. Muallif maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarining maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rol o‘ynashi, shuning uchun ularning malakasini oshirish va o‘z xizmatlarini ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlarni yaratish va saqlab qolish muhimdir.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, ijtimoiy, kognitiv, ota-onalarning o‘zaro ta’siri, innovatsiya, o‘zgaruvchan texnologiyalar, yondashuv.

В статье рассматриваются вопросы ориентации на гармонизацию своих социальных, эмоциональных, познавательных и физических потребностей в воспитании и образовании детей раннего возраста. Автор комментирует тот факт, что педагоги дошкольных образовательных организаций играют ключевую роль в реализации дошкольных образовательных целей, поэтому важно создавать и поддерживать широкий спектр возможностей для развития своих навыков и оказания своих услуг.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, социальное, когнитивное, родительское взаимодействие, инновация, вариативные технологии, подход.

The article discusses the issues of focusing on the harmonization of their social, emotional, cognitive and physical needs in the upbringing and education of young children. The author comments on the fact that teachers of preschool educational organizations play a key role in the implementation of preschool educational goals, therefore it is important to create and maintain a wide range of opportunities to develop their skills and provide their services.

Key words. Inclusive education, social, cognitive, parental interaction, innovation, variable technologies, approach.

Jahonda ta’lim barcha uchun tamoyilga asoslangan inklyuziv (sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikda ta’lim olishi) ta’limni keng joriy etish, uzluksiz ta’limning barqarorligini ta’minlovchi umumpedagogik qarashlar, ilg‘or tendensiyalar, innovatsion hamda variativ texnologiyalarni aniqlash, tanlash va amaliyotga samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari AQSh, Fransiya, Germaniya, Shveytsariya, Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston hamda boshqa davlatlarda olib borilmoqda. Nogironlikni erta aniqlash texnologiyalari, ta’lim muassasalarida korreksion-kompensatsion yondashuvlar, kommunikativ tizim tamoyillarini samarali qo‘llash orqali o‘quv fanlarini o‘qitish, o‘quvchilarni oilaga, mehnatga tayyorlash mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilgan.

Mamlakatimizda jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida nogironligi bo‘lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishning huquqiy-me’yoriy asoslari ishlab chiqildi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etiluvchi kar, zaif eshituvchi bolalar uchun oilada yakka tartibdagi, ixtisoslashtirilgan va inklyuziv ta’lim mazmuni zamon

talablari hamda xalqaro miqyosdagi yondashuvlar asosida takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’limning barcha bo‘g‘ini va turlari qatorida ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim tizimini tubdan yaxshilash, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.[1] Natijada, mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, zamon talablari asosida o‘qitish, tarbiyalash bo‘yicha ta’lim xizmatlarining optimallashuvi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish mexanizmlarining yanada modernizatsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratildi.

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga e’tibor beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim – ta’lim muassasalari uchun barcha bolalarga ta’lim berish imkoniyatidir. Ushbu ta’lim insonningasosiy huquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Inklyuziya keng ma’noda ham, tor ma’noda ham qo‘llaniladi.

Inklyuziv ta’lim g‘oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotskiy (1896-1934) inklyuziv ta’lim g‘oyasining asoschisi bo‘lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vigotskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo‘ladi deb aytib o‘tgan.

Ko‘pgina mamlakatlarda inklyuziv ta’lim amaliyoti bu nazariyaning to‘g‘riligini ko‘rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko‘ra, alohida ehtiyojli bolalar o‘z tengdoshlari bilan birga o‘qisalar, o‘rganishda, ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko‘rsatishga moyildirlar.

Barcha bolalar inklyuziv ta’lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda, alohida ehtiyoji bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo‘lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo‘lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar.

Pedagoglarga guruhida alohida ehtiyojli bolalar bo‘lishi ham manfaatlidir, bunda ular o‘quv uslublaridagi farqlarni kuzatishda malakaga ega bo‘lishlari mumkin. Ular, shuningdek, bolalarning individual kuchli tomonlarini baholashda o‘zlariga ko‘proq ishonch orttiradilar va shu bilan birga qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘lgan tomonlarini aniqlaydilar. Bu barcha bolalarni o‘qitishda tarbiyachilarga bolaning individual kuchli tomonini va alohida ehtiyojlarini aniqlashga va shu asosida ta’lim uslubini yaxshilashga imkon beradi. Inklyuziv ta’limning mavjudligi bolalar bir-biridan ko‘p jihatdan farq qilishini va bu farqlar to‘siq emas, balki qimmatli manba ekanligini tan olish demakdir. Bolalarning turli ta’lim ehtiyojlari va imkoniyatlari va ularning turli rivojlanish sur’atlarini o‘quv faoliyati va ta’lim strategiyasini individuallashtirish va differensiallashtirish yo‘li bilan qondirish mumkin.

Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.//O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: Adolat, 2017. – 25-b.

alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning umumiy ta’limi bilan muntazam guruhlarda pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi shug‘ullanadilar;

alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning qanchasini bir guruhga muvaffaqiyatli kiritish mumkinligini aniqlab olish zarur. Odatda, bu miqdor har bir bolaning xususiyatlari turiga va pedagogning o‘z maktabgacha ta’lim tashkilotidan oladigan yordamiga bog‘liq. Masalan, boshqa mutaxassislar yordami bilan pedagog faqat bitta og‘ir kasallikka chalingan bolani yoki yengil tashxis qo‘yilgan bir necha bolani o‘z guruhiga olishi mumkin. Guruhdagi bolalar umumiy sonining 5-10 foizdan ko‘p bo‘lmagan shtati bo‘yicha alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni ham o‘z ichiga olish amaliyoti mavjud. Agar guruhda 20 nafar bola bo‘lsa, alohida ehtiyojga muhtoj 1-2 nafar bolani qabul qilish;

farzandlarining ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishiga doir qaror qabul qilishda ota-onalar va boshqa oila a’zolari faol ishtirok etishi;

barcha pedagoglar (guruh tarbiyachisi, maktabgacha ta’lim psixologi va defektologi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi) jamoa bo‘lib ishlaydi va ularning sa’y-harakatlarini muvofiqlashtiradi. Qarorlar bir-biri bilan samarali hamkorlik qiladigan jamoa a’zolari tomonidan qabul qilinadi;

strategiyalar va ta’lim berish butun bolalarning rivojlanishini ta’minlaydi va har bir alohida bolaning maxsus rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oladi;

maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash individual bolaning rivojlanish xaritasi, bolalarning kuchli tomoni va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzilgan;

dasturlarning samaradorligi muntazam baholanadi; barcha manfaatdor tomonlar jalb etiladi (oila a’zolari, pedagoglar, boshqa mutaxassislar);

barcha pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitish va rivojlanish xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo‘lishlari, treninglar orqali maxsus tayyorgarlikdan o‘tib, malakasini oshirishi, maxsus adabiyotlarni o‘rganishlari kerak.

Inklyuziv ta’limni erta kiritish bola o‘z tengdoshlari xatti-harakatlari bilan tanishish imkonini beradi. Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar o‘z tengdoshlari bilan maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan va bo‘lmagan holda o‘zaro muloqot qilish uchun kundalik imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalar:

– do‘st topish;

– odamlar o‘rtasidagi farqlardan qo‘rqmaslik;

– yaxshi ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– o‘ziga yetarli adekvat baho berishni o‘zlashtirish;

– nutq va nutqsiz muloqot va xatti-harakatlarning ijobiy namunalarini bilib olish.

Bunday muhitni tashkil qilishning ko‘plab usullari mavjud: birgalikda rolli o‘yinlar, guruhli ishlar, loyihalar, bayramlar, tug‘ilgan kunlar va boshqa ko‘plab tadbirlar bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga yordam beradi. Bu usullardan biri “do‘st” usulidir.

“Do‘st” usuli – unda barcha bolalar juft-juft bo‘lib o‘zaro muloqot qilishga o‘rgatiladi, bu esa tegishli ijtimoiy hamkorlikni sezilarli darajada oshirish, o‘rganish va birgalikda o‘ynashga imkon beradi. “Do‘st” usuli bolaga diqqatni jamlash qiyinchiligini bartaraf etishga, qoidalar va jadvallarni eslab qolish qobiliyatini yaxshilashga, tengdoshlarining e’tiborini oshirishga yordam beradi. “Do‘st” usuli birgalikda o‘ynab va o‘rganish orqali turli vaziyatlarda murosa topish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim – bolalar, ota-onalar va ta’lim mutaxassislarining birgalikdagi faoliyatga faol jalb etilishi: birga rejalashtirish, umumiy tadbirlar o‘tkazish, seminarlar va

bayramlarni tashkil etish orqali haqiqiy jamiyatning modeli sifatida inklyuziv jamiyatni yaratishdir.

Alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalari bilan ishlash tamoyillari:

– bola va oilaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olingan holda qulay, xavfsiz sharoitlarni ta'minlash;

– shaxsiy insonparvarlik tamoyili – bolaga va oilaning har bir a'zosiga har tomonlama hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lish, ularga ishonch bildirish;

– umumiylik tamoyili – psixologik yordam faqat tarbiyachi, psixolog, o'qituvchi-defektolog, musiqa rahbari, ota-onalar bilan umumiy holda ko'rib chiqilishi mumkin;

– erkinlik tamoyili – mazmuni va usullari ota-onalar uchun aniq bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan uzluksiz muloqotda bo'lish uchun foydalaniladigan ishlarning tashkiliy shakllariga quyidagilar kiradi: jamoaviy ish shakllari, individual ish shakllari va ko'rgazmali plakat ma'lumotlari.

Ota-onalar ishtirokida bola bilan individual mashg'ulotlar muayyan bola bilan ishlashning alohida metodlarini namoyish etish uchun o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlar nafaqat tanishtirish, balki bolaning ota-onasiga asosiy usul va uslublarni o'rgatish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ota-onalarning bolaga bo'lgan qiziqishlarini va uning imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini oshirishga ko'maklashadi.

Mutaxassislar suhbatlari va maslahatlari. Bu alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ota-onalariga amaliy yordam berib, uning mohiyati psixologik, tarbiyaviy, pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va hokazo muammoli vaziyatlarning yechimini topishdan iboratdir.

Mutaxassis alohida ehtiyojga ega bo'lgan bola bo'lishi oqibatida oilada hissiy buzilishlarni bartaraf etishda ko'mak beradi. Mashg'ulotlar davomida psixodrama va geshtalt terapiyasi kabi usullardan foydalaniladi. Ushbu usullar psixologik va jismoniy salomatlikning shakllanishiga, jamiyatda moslashishga, o'z-o'zini qabul qilishga va samarali hayotga yordam beradi.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bola bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarning borishi haqida ota-onalarni xabardor qilish.

Hamkorlik konstruktiv va samarali bo'lishi kerak, bu jarayonda barcha tomonlar o'zlarini qulay his qilishlari, turli rollarni kelishib olishlari va tushunishlari, axborotlar muntazam ravishda ochiq va demokratik tarzda taqdim etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T., O'zbekiston. 2016.

2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 7-yanvar 2017-yil.

3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. –T., O'zbekiston, 2017.– 48-b.

4. Shomaxmudova Sh. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy-qo'llanma. –T.: 2011-y.

5. Qodirova F.U. "Muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish". / Uslubiy majmua. RTM. – T, 2017. – 5-b.

Barno SAIDOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK HARAKATI G'OYALARIDA AYOLLAR TA'LIMI MASALASINING FAOLLASHTIRILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'rta Osiyo chorizm qo'shinlari tomonidan bosib olingandan keyin o'lkada o'ziga xos tarixiy-siyosiy vaziyatning yuzaga kelishi, milliy zulm kuchayishi va bu o'lkadagi ziyoli va ma'rifatparvar insonlarning jadidchilik maktablarini hamda yangi usul maktablarini ochishi, rus-tuzem maktablari faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Diniy maktablarning yangi usul maktablariga aylantirilishi va ta'lim metodlari, vositalari, shakllari hamda sinf-dars tizimining joriy etilishi haqida ilmiy asoslangan manbalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Jadid, jadidchilik, iqtisodiy qoloqlik, chorizm, "usuli jadid", "usuli savtiya", taraqqiyparvar kuchlar, milliy ozodlik, savodxonlik asoslari, Qozon dinshunoslik akademiyasi.

В этой статье обсуждается возникновение уникальной исторической и политической ситуации в стране после оккупации Средней Азии царскими войсками, рост национального гнета и открытие школ джадидов и новых школ мысли интеллигенцией и просвещением в стране. Информация о деятельности школ русского стиля. Существуют научно обоснованные источники о преобразовании религиозных школ в новые методологические школы и о внедрении методов обучения, инструментов, форм и классной системы.

Ключевые слова. Джадид, джадидизм, экономическая отсталость, царизм, ''методика джадид'', ''методика савтия'', прогрессивные силы, национальное освобождение, основы грамотности, Казанская духовная академия.

This article discusses the emergence of a unique historical and political situation in the country after the occupation of Central Asia by the Tsarist forces, the rise of national oppression and the opening of Jadid schools and new schools of thought by the intelligentsia and enlightenment in the country. information on the activities of Russian-language schools. There are scientifically based sources on the transformation of religious schools into new methodological schools and the introduction of teaching methods, tools, forms and classroom system.

Key words. Jadid, jadidism, economic backwardness, tsarism, ''usul jadid'', ''usul savtiya'', progressive forces, national liberation, basics of literacy, Kazan Academy of Theology.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni ayollarning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish, ularni huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida qabul qilindi. Shu o'rinda tarixda, ayniqsa, rus imperiyasining Turkiston o'lkasidagi ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri haqida to'xtalib o'tsak. Turkistonda ma'rifatchilik harakati g'oyalarining jamiyatga kirib borishi jarayoni o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bu yerda avvalo, rus chorizmining geosiyosiy maqsadlari ortidagi harakatlar,

keyin, jamiyatdagi milliy uyg‘onish doirasida harakatga kelgan kuchlar umumiy maqsad, ya’ni jamiyatda ma’rifatni rivojlantirish uchun intilishlari kabi jarayonlarning bir paytda kechishi ko‘zga tashlanadi. Binobarin, ushbu mavzuni yoritish davomida albatta, Rossiya chorizmi tomonidan amalga oshirilgan faoliyat hamda mahalliy ziyolilar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar va hayotga joriy etilgan ishlari ko‘rib chiqiladi. Aytish lozimki, har ikkala tomondan ham ma’rifat nurlari uchun kurash olib borilar ekan, ta’lim masalasi va uning doirasida ayollar ta’limiga e’tibor tobora kuchayib borishi seziladi. Demak, ayollar ta’lim tarbiyasi hayotning dolzarb masalasiga aylanib, diniy va dunyoviy ta’limni zamon ruhiga moslashtirish zarurati zamondoshlarning vazifasi bo‘lgan edi.

O‘rta Osiyoning birinchi ma’rifatchilari qatoriga A.Donish, S.Ayniy, M.Behbudiy, A.Qodiriy, A.Shakuriy, F.Xo‘jayev, A.Fitrat, I.Ibrat, M.Saidjonov, Ajziy va boshqalar kiradi. Ular gumanistik va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi jamiyat qurish, shuningdek, musulmonlar xalq ta’limi islohotlarini o‘tkazish, iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarning turmush darajasini oshirish va boshqa ko‘p narsalarni qo‘llab-quvvatladilar. Asta-sekin ta’limiy g‘oyalar keng tarqalib, xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshladi. Endi ziyolilar xotin-qizlar ta’limi masalasini yanada ochiqroq aytish, faollashtirishni boshladilar.

Ayol haqida gapirish qat’iyan man etilgan bir paytda Ahmad Donish ayolning hayotidan pardani olib tashlaydi va boshqalarga ayollar huquqlarini yanada jasorat bilan himoya qilishga imkon yaratadi. Garchi uning asarlarida sharq ayollarini o‘qitish bo‘yicha hech qanday maxsus chaqiriqlar bo‘lmasa-da, ammo Rossiyaning madaniyatli va o‘qimishli ayolini maqtash va uni musulmon ayol hayoti bilan taqqoslash O‘rta Osiyo adabiy doiralarida yangi davr ayollari tarbiyasi va ta’limi to‘g‘risida gapirishga zamin yaratadi.

Donish bilan uchrashish va suhbatlashish sharafi Buxoro viloyatining Soktare qishlog‘ida tug‘ilgan taniqli yozuvchi va ma’rifatparvar Sadriddin Ayniyga nasib etgan. “Buxoro inqilobi tarixi” asarida u shunday yozadi: “Ahmad Donishning “Navodir-ul-vaqoe” (“Nodir voqealar”) kitobini o‘qib, beqiyos zavq oldim. Kitob shu qadar ajoyib ediki, men uni qayta o‘qishni xohladim. Keyin nima uchun uni “kofir” deb atashganini tushundim. Qo‘rqmasdan, u o‘z kitobida ruhoniylarning barcha salbiy tomonlarini ochib bergan, dars metodikasining barcha kamchiliklarini ko‘rsatgan va madrasada o‘tkazilgan ko‘plab darslarning foydasizligini yoritib bergan.

Bu davrda, 1883-yili jadidlarning “Tarjumon” gazetasi sahifalarida birinchi marta maktab masalasi ko‘tarildi. Xalq ta’limi to‘g‘risida qiziqarli va mazmunli hikoyalar nashr etila boshlandi. Sadriddin Ayniy maktab hayoti bilan tanishib, keyinchalik, Turkiston o‘lkasining maktab hayotiga to‘liq kirib boradi va darsliklar ham yozadi.

Yozuvchi sifatida S.Ayniy hayotining qizlar maktabida o‘qigan davrini juda qiziqarli tasvirlaydi. U musulmon ayollarining taqdiridan qattiq xavotirda edi. O‘z asarlarida ayollar qiyofasini aks ettirgan holda, ayollar ulushiga tushgan baxt va baxtizliklarning ijtimoiy va madaniy shartlariga tayangan.

1865-yilda chor Rossiyasi Orenburg orqali Chimkentni, 1867-yil iyulda Sirdaryo viloyatini, so‘ngra hozirgi O‘zbekiston va Qozog‘istonning Semirechensk viloyatini qo‘shib olib, shu tariqa Toshkent shahridagi ma’muriy markaz bilan Turkiston general-gubernatorligining poydevorini qo‘ydi. Shakllanishning oxiriga kelib “Turkiston o‘lkasi shimolda Ural, To‘rg‘ay, Akmola va Semipalatinsk viloyatlari bilan, janubda – Eron va Afg‘oniston bilan; Sharqda – Xitoy bilan, G‘arbda – Kaspiy dengizi bilan chegaradosh bo‘ldi”. O‘sha vaqtdan boshlab Eron, Afg‘oniston va Hindistondan ajralib, Turkiston

mintaqasida fors yoki tojik tilida so‘zlashadigan mahalliy aholining faqat bir qismi qoldi. Shuningdek, fors yoki tojik tili qozoqlar, qirg‘izlar, o‘zbeklar va turkmanlarning turkiy lahjalarida so‘zlashadigan ma’rifatchilik harakati vakilari orasida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.

Rossiya hukumati oldida tub xalqlarni shosholinch ruslashtirish va ularning rus xalqiga qo‘shilishi vazifasi turardi. Qisqa vaqt ichida mahalliy millat bolalarining ishtirokini inobatga olgan holda maktablarda, gimnaziyalarda va kollejlarda bolalarni o‘qitish dasturini tuzish kerak edi. Rossiyaning haqiqiy niyatlari to‘g‘risida birinchi hujjat 1870-yil mart oyida ‘‘Rossiyada yashovchi chet elliklarning ta’lim olish choralari to‘g‘risida’’nashr etilgan. Keyinchalik, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi butun siyosati ushbu tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan edi.

O‘rta Osiyo xalqlarining mavjud bo‘lgan musulmon an’analariga ko‘ra, o‘g‘il va qiz bolalarning maktabda birga o‘qishlari Qur’onda belgilangan va shariat qonunlari bilan qat’iyan taqiqlangan edi. Ammo rus ko‘chmanchilarining mafkuraviy ishlardagi jiddiy sa’y-harakatlari tufayli asta-sekin ta’lim masalalarida erkak va ayol ta’limi tushunchalarining o‘zaro yaqinlashishi tendensiyasi kuzatila boshlandi. Kaufman musulmon ta’limiga qarshi emas edi. U an’anaviy diniy maktablarning faoliyatiga aralashmagan va mahalliy maktabni majburan bekor qilishga qarshi bo‘lgan. Kaufman “mahalliy” yoshlar o‘zlari rus tipidagi ta’lim muassasalariga kelishini orzu qilar edi va “faqat xalq ta’limi mintaqani ruhan zabt etishga qodir” deb hisoblar edi.

1867-yilga kelib general-gubernator K.P.Kaufman Rossiyaning bosib olingan hududlarida xalq ta’limi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bu ishda Rossiyaning taniqli fan va madaniyat namoyandalari Nalivkin, Ostroumov, Krachkovskiy, Grameniskiy, Oshanin, Novikov, Sichev, Vasilev va boshqalar qatnashgan. Ayniqsa, rus o‘qituvchilarining optimizmi va g‘ayratini alohida ta’kidlash kerak. Masalan, Iskander deb nomlangan qishloqlardan birida rossiyalik mehmon Avgust Petrovich Kalinin maktab yaratib, bolalarga dars berishga qaror qildi, ammo mahalliy dehqonlar shunchalik kambag‘al ediki, hatto uni boqishga qiynalishgan.

Nihoyat, 1884-yilga kelib, g‘oya muallifi bo‘lgan taniqli sharqshunos-tilshunos V.V. Radlov mahalliy aholi bilan ishlash dasturi to‘liq ishlab chiqildi va unga ko‘ra, birinchi rus-mahalliy maktab ochildi. 1884-yil 19-dekabrda boy fuqaro, sart (tojik) Sayid-Azimning o‘g‘li Sayid-G‘ani uyida mahalliy bolalar uchun yangi maktab yoki cherkov maktabi ochildi. “Maktab muhitidan faqat doska, rus alifbosi va daftarlaridan tashqari ruscha hamma narsa chiqarib tashlandi. Talabalar uchun polga ko‘rpacha (paxtali ko‘rpa) tushab, ular kitoblarni musulmon maktablarida bo‘lgani kabi qo‘llarida ushlab turishgan”. Tojik va o‘zbek tillarini bilgan V.P.Nalivkin rus tili o‘qituvchisi etib tayinlandi. Maktablar uchun o‘quv dasturining takomillashtirilishi va darsliklarning tuzilishi bilan ta’lim maktablarini malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlash va to‘ldirish masalasi kun tartibidan o‘rin oldi. O‘qituvchilarining yetishmasligi hamda Rossiyadan kelgan o‘qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi belgilangan maqsad – Turkiston o‘lkasi xalqlarini ruslashtirishga erishishni qiyinlashtirar edi. Shunga qaramay, bir necha o‘n yilliklar davomida Turkiston general-gebernatorligida rus maktablari, kollejlari va gimnaziyalari allaqachon ish boshladi. Ruslarga tashrif buyurish uchun cherkov maktablari, gimnaziya va kollejlar soni ko‘paydi. Bunday maktablarga mahalliy aholini jalb qilish ham rag‘batlantirildi. Asta-sekin maktabga mahalliy millatlar qizlari ham jalb qilindi.

Shunday qilib, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘qigan Turkiston o‘lkasining barcha rus-tuzem maktablari va kollejlarida o‘quv dasturi quyidagi fanlardan iborat edi:

1. Alifbodan boshlanadigan savodxonlik asoslari.
2. Rus tili va o‘qish majburiy fan sifatida.
3. Arifmetika.
4. Dinshunoslik asoslari – xristianlar va musulmonlar uchun alohida.
5. Tabiatshunoslik.
6. Geografiya.
7. Rossiya tarixi, keyinchalik Turkiston tarixi.

Mahalliy maktablardan farqli o‘laroq rus-tuzem maktablarida darslar aniq belgilangan dasturlar bo‘yicha olib borilar edi, darslar belgilangan dars davomiyligi bilan jadval bo‘yicha o‘tkazilar edi, o‘quv yili keyingi yilning 1 avgustidan 1 iyungacha davom etardi. Asta-sekin maktablarda qat’iy intizom bilan birgalikda sinf xonalari va o‘quv qurollari o‘zgartirildi. O‘quvchilar maktabga mato yoki teridan tikilgan sumkalar, siyoh va pat bilan borishadi. Ular daftarlardan va rangli rasmli kitoblardan foydalanardilar.

1900-yili butun Turkiston o‘lkasida qizlar uchun maktablar odamlar tomonidan ehtiyotkorlik bilan, lekin asosan ma’qullab qabul qilindi. Texnologik yangiliklarni ma’qullagan taniqli madaniyat homiysi – Xiva xoni Muhammad Rahim (Feruz) yordamida 1906-yili Urganchda qizlar uchun maktab ochildi.

Ta’lim tizimini takomillashtirish va mahalliy musulmon maktablarida dunyoviy fanlarni o‘rganish bo‘yicha yangi o‘quv dasturini bosqichma-bosqich joriy yetish maqsadida mavjud musulmon maktablari alohida nazoratga olindi. Rossiya hukumati 1875-yilda “Turkistonning barcha diniy maktablarini o‘lkaning ta’lim muassasalari ma’muriyatiga bo‘ysundirish to‘g‘risida” qonun chiqargan.

Keyinchalik hamma joyda rus-tuzem maktablari ochila boshladi. Ammo Turkiston o‘lkasidagi rus-tuzem maktablariga ayollarni jalb qilish qiyin muammolarga olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun bu masalaga katta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish taqozo etilardi. Turkiston o‘lkasi uchun ilg‘or yangilik shundan iborat ediki, rus-mahalliy maktablarning ta’siri ostida va unga parallel ravishda savodli ayollar katta qizlar uchun maktablar ochdilar. Bunday maktablar rus-tuzem maktablaridan ajralib faoliyat yuritardi. Maktabni tugatgandan so‘ng, qizlar o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga kirishar edi.

Ayollar maktablarida sinf taqsimoti mavjud emas edi. Opa-singillar bir sinfda o‘qishgan, bir-birlariga qoldirilgan darslarni o‘zlashtirishda yordam berishgan. S.Ayniy o‘z xotiralarida ayollar maktablarini juda to‘liq tavsiflaydi, chunki u o‘zi Buxoro ayollar maktabida savodxonlikni o‘rgangan, bu yerda faqat yosh bolalar (odatda 7-8 yoshgacha) kattalar talabiga binoan kirishlari mumkin edi. Erkaklar maktabiga kirish uchun muvaffaqiyatsiz urinishdan so‘ng, otasi uni bibixalifa boshchiligidagi ayollar maktabiga olib boradi. O‘g‘il bolalar maktabidan farqli o‘laroq, bu yerda o‘qish uchun yanada qulay sharoitlar mavjud edi. S. Ayniyning hikoyalariga ko‘ra, bu yerda boshqa majburiy fanlardan tashqari, abjad hisobi ham o‘qitilgan. Savodxonlik bo‘yicha mashg‘ulotlar erta tongdan soat 12 gacha davom etgan, keyin qizlar o‘qishni tugatib, tushlikka o‘tirganlar. Tushlikdan keyin esa o‘qituvchiga kir yuvish va boshqa tozalash ishlarda yordam berilgan.

O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi ilg‘or texnologiyalarning kirib kelshi va savdo-sotiqning o‘sishi, demokratik va ozodlik g‘oyalarining tarqalishi, ilm-fan, madaniyat va ta’limning rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochdi. Mamlakat iqtisodiyotini yaxshilashga qaratilgan mafkuraviy ishlar uchun malakali kadrlar tayyorlash hukumatning dolzarb vazifasi bo‘lib qoldi. Qisqa vaqt ichida fabrikalar va zavodlar uchun malakali xodimlarni tayyorlash zarur edi. Xalq ta’limi tizimi oldida o‘quv dasturiga rus tilini biladigan va

mutaxassislik olgan malakali kadrlar tayyorlashni kiritish zarurati turar edi.

Kaufmanning talab va ko‘rsatmasiga binoan hunarmandchilik yo‘nlishlari bilan maktablar ochish to‘g‘risida buyruq berildi. Ushbu maktablarda ular mahalliy sharoitga ko‘ra keyinchalik ma’lum bir daromadni va’da qilishi mumkin bo‘lgan hunarmandchilik va hunarlarni o‘rgatdilar va o‘rgandilar. Shuningdek, general-gubernator qizlarni ushbu maktablarga jalb qilish zarurligini ta’kidlaydi. Kasb-hunar maktablarida qizlarni o‘qitish uchun turli xil kasblar yo‘nalishlari bo‘yicha dasturlar tuzilgan, masalan, kiyim tikish, to‘qish, kashtachilik va boshqalar. Endigina Rossiya imperiyasiga qo‘shilgan, islomning asoslari juda kuchli bo‘lgan Turkistonda qizlarni bunday ta’lim muassasalariga jalb qilish oson bo‘lmagan. Qizlar uchun maktablar juda sekin rivojlandi, ammo ularda ish ancha samarali bo‘ldi. Qizlar asta-sekin oddiy savodxonlikni emas, balki qo‘shimcha daromad olish uchun kerakli kasbni egallashdi. Darslarni tez-tez fors tilini biladigan boshqird va tatar millatiga mansub turkiyzabon musulmon ayollar olib borgan.

XIX-asrning boshlarida Rossiya imperiyasi deyarli strategik rejalariga erishdi. Rus xalqining Turkiston mintaqasidagi tub millatlar bilan yaqinlashishining asosiy siyosati yordamida mavjud mafkura ham o‘zgargan edi. Endi aholining asosiy qismi ta’limga intila boshladi. Rossiyaning yetakchi mutaxassislari va o‘qituvchilari maktablar uchun darsliklar yaratdilar, kutubxonalar ochdilar, qizlarning o‘qishlari uchun sharoit muhayyo qildilar. Birinchi hunarmandchilik darslari o‘qishni istaganlarni jalb qila boshladi. Turkiston o‘lkasining iqtisodiyotini yaxshilash uchun xalq ta’limi malakali kadrlar tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Aholisi asosan, rus tilida so‘zlashadigan va biladigan Yevropa tipidagi qishloqlar paydo bo‘ldi.

XVIII-asr oxiri va XIX-asrning boshlarida ayollar maktablaridagi vaziyat deyarli o‘rta asr maktablarining holatidan farq qilmas edi. O‘quv markazlari faqat Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘ona, Kulob kabi yirik shaharlarda joylashgan edi. Erkak va ayol maktablari katta qishloqlarda ham mavjud edi.

Qizlar avvallari maktabga kamdan-kam hollarda borgan va o‘qish va yozishni o‘rgangan. Bo‘lajak kelinlar uchun zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlar ko‘proq uyda olingan. Turkiston o‘lkasidagi ayollarning odob-axloqi va urf-odatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi: 8-9 yoshdan boshlab ona asta-sekin qizini kelajakda bajarishi kerak bo‘lgan ishlarga odatlantira boshlagan. U birinchi navbatda, paxta tikishni, paxta tozalashni, yigirishni yoki boshqa oilaviy hunarmandchilik ishlarini qilishni o‘rgangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. O‘son millat. –T.: Sharq, 1993, 94-b.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Turkiy Guliston yoxud axloq. T.: Ma’naviyat, 2006. – 54-b.
3. Anbar Otin. Tanlangan asarlar. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.

Zarifa XUDOYQULOVA,
Guliston davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasidan foydalanish texnologiyalari haqida so‘z yuritiladi. Bunda pedagogika yo‘nalishi talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasini roli bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil etilgan. Talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli yaratilgan. Talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash texnologiyalari bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba-yoshlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, xalq pedagogikasi, talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli, oliy o‘quv yurti, tarbiyaviy ishlar.

В статье рассматривается технология использования народной педагогики в духовно-нравственном воспитании учащихся. Анализируются результаты экспериментальных и тестовых работ, проведенных по вопросу о роли народной педагогики в духовно-нравственном воспитании учащихся. Создана модель нравственно-нравственного воспитания студентов и молодежи разработаны выводы и рекомендации по технологиям нравственно-нравственного воспитания студентов и молодежи.

Ключевые слова. Студенческая молодежь, духовно-нравственное воспитание, народная педагогика, модель нравственно-нравственного воспитания студенческой молодежи, высшее учебное заведение, воспитательная работа.

The article talks about the technology of using folk pedagogy in the spiritual and moral education of students. Bunda pedagogical direction the results of experimental and test works conducted on the role of folk pedagogy in the spiritual and moral education of students are analyzed. A model of moral and moral education of students and young people has been created. conclusions and recommendations on the technologies of moral and moral education of students and young people have been developed.

Key words. Student-youth, spiritual-moral education, folk pedagogy, model of moral-moral education of student-youth, higher educational Institution, educational work.

O‘zbekiston ‘‘Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari’’ tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

“... hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg‘asi Abdulla Avloniy.

Oliy o‘quv yurtida ta’lim-tarbiya ishlarini istiqbolli rejalashtirish tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi zarur shartlardan biridir.

Oliy maktabda talaba-yoshlarni yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatli mutaxassislar qilib tarbiyalash dasturlari va ta’limning barcha o‘quv davriga mo‘ljallangan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejalarini tuzish odatga aylandi. Ilmiy jihatdan asoslangan istiqbolli reja yoki dastur talabalarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash sohasidagi barcha ishlarning asosiy yo‘nalishlarini birlashtiradi, fakultet, kafedra va jamoat tashkilotlarining bo‘lajak mutaxassislarini barkamol shaxs qilib shakllantirish sohasidagi faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak mutaxassislaming ma’naviy-axloqiy sifatlari kasbiy-kasbiy fazilat bo‘lib,

oliy maktabda amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonda shakllanadi. Bu yagona-jarayonda kasbiy tayyorgarlik bilan tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari: aqliy ta’lim, mehnat, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik va boshqa tarbiyalar uzviy ravishda bog‘langan holda o‘sib rivojlanadi. Ularning birini ikkinchisidan ajratgan holda rivojlantirib bo‘lmaydi. Demak, bo‘lajak mataxassislarning kasbiy axloqiy umum insoniy va milliy-ma’naviy tarbiyaning tarkibiy qismisifatida shakllana boradi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya talaba-yoshlarni axloqiy jihatdan rivojlanishiga olib kelishi va unga stimul bo‘lishi lozim. Lekin bunga erishish uchun axloqiy tarbiya berishni tashkil etuvchilar axloqiy taraqqiyotda obyektiv va subyektiv omillarning o‘zaro ta’sir o‘tkazishini e’tiborga olishlari zarur. Bu o‘zaro ta’sir tarbiyalanuvchidagi ichki qarama-qarshilikni aks ettiradi. Ana shu ichki qarama-qarshiliklar ma’naviy-axloqiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy rivojlanishning texnologiyasini, mexanizmini uning tarkibiy qismlarini aniqlab chiqqan taqdirdagina tushunish mumkin. Axloqiy rivojlanish jarayonining asosiy qismlari quyidagilardan iborat: a) tug‘ma layoqat va qobiliyat; b) shaxsiy hayot, turmush tarzi jarayonida hosil bo‘lgan odatlar; d)ma'naviy ehtiyojlar.

Tadqiqot ishida qadriyat: milliy, ma’naviy, moddiy, diniy, umuminsoniy, mintaqaviy kabilarning mohiyati, asosiy turlari, o‘tmishdagi, hozirgi ahvoli, rivojlanish bosqichlari, sharqona ildizlari, o‘ziga xos tamoyillari kabilarni bir qator faylasuf olimlar, ya’ni J.To‘lenov, I.Jabborov, E.Yusupov, Q.Nazarov kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodlari: kuzatish, anketa, test, suhbat, ilmiy-nazariy, pedagogik, psixologik, uslubiy adabiyotlar tahlili, oliy o‘quv yurtlari, arxiv hujjatlari bilan tanishish, sinov darslarini o‘tkazish, sinov o‘quv kurslarini o‘tkazish, olingan ilmiy natija va dalillarni qayta ishlash va umumlashtirish.

Tadqiqot obyekti: Oliy o‘quv yurti pdagogik yo‘nalish talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasidan foydalanish texnologiyalari.

Tajriba qismi

Talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasi milliy qadriyatlar (xalq hunarmandchiligi sohalari) dan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va amaliy tajribada sinab ko‘rish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi: hozirgi zamon sharoitida Oliy o‘quv yurti talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasidan foydalanish mazmuni, shart-sharoitlari va turli yo‘llarini ishlab chiqish hamda ularni amalda sinab ko‘rish; OTMlarining pedagogik yo‘nalishida xalq pedagogikasi qamrovida xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganishlarida o‘tkaziladigan o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning shart-sharoitlarini aniqlash va milliy qadriyatlardan foydalanish jarayonini takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Ta’lim muassasalarida test va so‘rovnomalar talabalari, pedagogik yo‘nalish fani o‘qituvchi-murabbiylari, hamda malaka oshirish tinglovchilari tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarining o‘rganuvchi-tasdiqlovchi bosqichida tajriba-sinov maydonlaridagi talaba va o‘qituvchi-murabbiylardan test va so‘rovnoma savollariga javoblar olindi. Unda, ushbu o‘tkazish ikki marotaba o‘tkazish bilan chegaralandi. Chunki, dastlabki va yakuniy o‘tkazish orqali Oliy o‘quv yurti talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasi sohalarini milliy qadriyatlar sifatida o‘rganilishining umumiy ahvoli va amaldagi holati bilan tanishildi.

Sharq xalqlarining tarixiy, o‘lmas qadriyatlarini o‘rganishlari darajalarini aniqlash uchun test va so‘rovnomalar o‘tkazildi. Avvalo,tajriba-sinov ishlari jarayonida talabalarga milliy qadriyatlar, ularning mohiyati, xususiyati va turlari to‘g‘risida yangi bilimlar

berishga harakat qilindi.

Milliy qadriyatlar ota-bobolardan yetib kelgan va davom ettirilayotgan udumlar, urf-odatlar tushunilsa, ma'naviy qadriyatlar deganda esa, insonning xulq-atvori, ichki va tashqi go'zalligi, donoligi va odobliligi to'g'risida fikrlar, tasavvurlar, pand-nasihatlar majmuasi tushuniladi. Moddiy qadriyatlar deganda esa, insonning qo'l mehnati natijasida turli davrlarda yaratilgan turli xil buyumlar, san'at asarlari, jihozlar, qurilmalar, binolar va boshqalar nazarda tutiladi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to'plam berilgan bo'lsin. Biri, talabalarning nazorat guruhi bilimlarining o'rtacha ballari, ikkinchisi esa, talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasidan foydalnishga asoslangan tajriba guruhidagi bilimlarining o'rtacha ballari. Baholar normal (me'yorli) taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinlidir. Chunki, normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo'lib, ular bajariladi.

GulDU pedagogika yo'nalishida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari 2,51 < 6, ToshDPU pedagogika yo'nalishida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari 1,53 < 6 va SamDU pedagogika yo'nalishida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari 1,48 < 6 ekanligi kelib chiqadi. $X^2_{kuzat} < X^2_{kr}$ bo'lgani uchun nolinchi gipotezani rad etishga asos yo'q. Boshqacha so'z bilan aytganda, empirik va nazariy chastotalar farqi muhim emas. Demak, kuzatish ma'lumotlari bosh to'plamning normal taqsimlanganligi haqidagi gipoteza bilan muvofiq keladi, ya'ni OTMlarda talabalarining kasbiy tayyorlashni takomillashtirishda xalq pedagogikasi-milliy qadriyatlardan foydalanish yuzasidan olingan bilimlari dastlabki tajriba-sinov o'tkazishga qaraganda yakuniy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish o'zgarishlari samarador ekanligini ko'rsatdi.

Talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasiga oid o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llay oladilar. Xususan, ular amaliy mashg'ulotlar jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologik xaritasini tuza oladilar.

Talaba-yoshlar o'zlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq pedagogikasidan foydalanish texnologiyalari bilishi. Bunda ko'nikma va malakalarini bir-biridan farqlay olishi lozim.

Ko'nikma daraja – bunda, talaba ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishida xalq pedagogikasidan foydalanish texnologiyalarining ketma-ketligini va uni amalga oshirish usullarini o'zlashtiradi, guruhda bir-ikki marotaba o'qituvchi nazorati ostida amaliy mashg'ulotni mustaqil ravishda o'zi bajarishga kirishadi.

Har bir kishi tashqi muhitning ta'siriga turlicha javob qaytaradi. Shuning uchun ham inson o'ziga xos individual shaklda namoyon bo'ladi. Ba'zan kishining xulqi ma'lum turmush tarzi va tarbiya natijasida shakllangan odat xarakteriga ham ega bo'ladi. Masalan, qo'pollik va dag'al muomala hamma vaqt ham kishining boshqalarni mensimasligidan dalolat beravermaydi. Xuddi shuningdek, xushmuomalalik har doim kishining yaxshilik qilmoqchi va yaxshi niyatli ekanligini ko'rsatavermaydi. Shuning uchun ham jamiyatga, boshqalarga haqiqiy munosabatdan kelib chiqadigan xulq shakllarinigina shaxsni xarakterlovchi xususiyat deb hisoblash lozim.

Talabalarda mavjud bo'lgan xulq ko'rinishlari ularning ijtimoiy turmushi va tarbiyasi jarayonida hosil bo'ladi. Kishi o'z xulqida, faoliyatida, odatda, ma'lum qoidalarga rioya qiladi, axloq prinsiplariga asoslanadi. Axloqiy xatti-harakatlar – jamiyatda kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar va prinsiplar bilan belgilanadigan xulqdir. Kishida axloqiy ong, tushunchalar va axloqiy hislarning shakllanishi

inson xulqini tarbiyalashning muhim shartidir.

Talabalarning xatti-harakatlari hamma vaqt ham ulardagi e’tiqodlarga mos kelavermaydi. Ayrim talabalar umuman tartib-intizomga amal qildilar, ba’zi hollarda axloq qoidalarini buzadilar. Ba’zan yomon xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yadigan talabalar ham xulq qoidalarini yaxshi biladilar, ba’zan buning aksicha ham bo‘ladi, ya’ni ayrim talabalar kasb odobi, pedagogik odob normalarini bilmasalar ham o‘zlarini odobli tutadilar. O‘zining xatti-harakatlarini, xulqini umuminsoniy va milliy axloq talablariga va pedagogik odob qoidalariga bo‘ysundira bilgan talabalarnigina axloqiy jihatdan tarbiyalangan deb hisoblash lozim. Bo‘lajak mutaxassisning xulqiy qiyofasi uning axloq talablariga mos keladigan butun faoliyatini ifodalaydi. Ayrim talabalarda mavjud bo‘lgan fikrlar, qarashlar xulq normalariga to‘g‘ri kelmaydi.

Umuminsoniy va milliy axloq qoidalaridan xabardor bo‘lgan ayrim yigit va qizlarning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan bu holni qanday izohlash mumkin?

Bu masalani aniqlash uchun biz axloqiy bilimlari bilan xulqi bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi ma’lum bo‘lgan talabalardan bir nechtasini tanlab oldik. O‘tkazilgan tajriba, kuzatish, suhbat natijalarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

a) bilimlar bilan xatti-harakatlar o‘rtasidagi uzilishning asosiy sabablaridan biri yigit va qizlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan qarashlar va odatlarni axloqiy e’tiqodga aylantira olmaganliklarida ekan. Axloq qoidalari va kasbiy pedagogik odob normalarini bilish, uni yozib yoki gapirib berishning o‘zi kamlik qiladi. Bu qoida va talablar talabalarning qat’iy e’tiqodiga aylanmasa va ularga amal qilish hayotiy ehtiyoj bo‘lib qolmasa, so‘z bilan ish o‘rtasida uzilish bo‘lishi uchun imkoniyat saqlanaveradi.

b) bunday talabalarda odatda ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, mas’uliyat kabi axloqiy his-tuyg‘ular kam rivojlangan va ularning xarakterida odam yoqtirmaslik, o‘jarlik kabi salbiy xislatlar bo‘lar ekan.

d) ayrim talabalar jamoada noto‘g‘ri axloqiy nuqtai nazarda bo‘ladilar, ba’zan o‘rtoqlari bilan janjallashadilar, boshqalardan ajralib yashashga intiladilar. Ayrim talabalarda ba’zi oilalarning salbiy ta’siri saqlanib qolgan bo‘ladi yoki bunday ta’sir davom etayotgan bo‘lishi ham mumkin. Bunday talabalar ba’zan nopok do‘stlar, yomon ulfatlar davrasiga tushib qoladi va ularning salbiy ta'siriga beriladi.

Kuzatishlar va pedagogik-psixologik faktlarni tahlil qilish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ayrim yigit va qizlarning xatti-harakatlariga yuqoridagi sabablardan bir nechtasi ta’sir o‘tkazadi. Odatda, ulardan bittasi hukmron, asosiy bo‘ladi. Bo‘lajak mutaxassislar bilan olib borilgan ta’lim-tarbiyaviy, individual ishlar jarayonida bu sabablarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish juda muhimdir.

Xullas, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoni axloqiy motivlar, axloqiy faoliyat, axloqiy tushunchalar, bilimlar, his-tuyg‘ular, odat, shuningdek, axloqiy ehtiyoj, g‘oyaviy e’tiqod, iroda va qiziqishlarni o‘z ichiga oladi. Talaba-yoshlarda ana shu sifatlarning barchasi mujassamlashgandagina ma’naviy-axloqiy tarbiyasi takomillashadi so‘z bilan ish o‘rtasidagi, bilimlar bilan xatti-harakatlar o‘rtasidagi farqni, uzilishni bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Baxtga erishuv haqida risolalar. –T.: Fan, 1975.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom., –T.: Fan, 1968.
3. Alisher Navoiy. Maxbub ul-qulub. XV tom., –T.: Fan, 1996.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. II tom., –T.: Ma’naviyat, 1998.

Диляра ШАРИПОВА,
Ташкентский государственный педагогический университет, доктор педагогических наук, профессор,

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩИХ ЗНАНИЙ СТАРШЕКЛАССНИКОВ С ПОМОЩЬЮ QR-КОДА В ЧЕРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Annotatsiya

Maqolada QR kodlaridan foydalangan holda tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlarda o'rta maktab yuqori sinflar o'quvchilari tomonidan sog'liqni saqlash bo'yicha bilimlarni amalga oshirish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Favqulodda vaziyatlar, sog'liqni saqlash bilimlari, o'rta maktab yuqori sinflar o'quvchilari, QR-kode.

В статье рассматриваются вопросы реализации старшеклассниками здоровьесберегающих знаний в черезвычайных ситуациях, возникающих в результате стихийных бедствий, несчастных случаев с помощью QR-кодов.

Ключевые слова. Черезвычайные ситуации, здоровьесберегающие знания, старшеклассники, QR-код.

The article deals with the implementation of health-preserving knowledge by seniorpupilsin emergency situations resulting from natural disasters, natural disasters, accidents, using QR codes.

Key words. Emergencies, health-preserving knowledge, high senior pupils, QR-code.

В современном обществе весьма интенсивно осуществляется развитие информационных систем и технологий, успешно применяемых для решения социально-экономических проблем, вызванных ростом технологизации различных сфер, в том числе образования, направленного на повышение осведомленности обучающихся, как вести себя, если вы оказались на месте черезвычайной ситуации. Старшеклассники, изучающие предмет "Допризывная военная подготовка", в ходе занятий приобретают необходимые знания, умения и навыки по оказанию первой доврачебной помощи, формированию здорового образа жизни.

Однако, оказавшись в центре возникновения черезвычайной ситуации, под воздействием психологического стресса и посттравматического шока вполне возможно,что человек забыл полученную на занятиях информацию об особенностях тех или иных черезвычайных ситуаций, их возможных воздействиях на состояние физического и психического здоровья, возникновении кровотечений, открытых и закрытых травм, повреждениях мягких тканей, сотрясении мозга, потери сознания. Вместе с тем у пострадавших отмечаются испуг, черезмерное волнение, иногда впадение в ступор, потеря памяти и другие психические расстройства.

QR-код-кьюар код (англ. Quick response code-код быстрого реагирования-тип матричных штрих-кодов или двухмерных штрих-кодов) позволяет оперативному

кодированию данных и решению многих неотложных проблем, то есть осуществлять быстрый отклик.

В этих условиях возникает острая необходимость оказания срочной здоровьесберегающей помощи, а затем реализации системы мероприятий по обеспечению санитарно-эпидемиологического благополучия населения в период ликвидации последствий стихийных бедствий.

При этом возникает также необходимость использования любой срочной информации об оказании первой доврачебной помощи, которая может быть освежена в памяти с помощью современных методов, в частности QR-кода.

Данный двухмерный штрих-код (бар-код) позволяет получать информацию для принятия срочных решений и мер по оказанию доврачебной медицинской помощи, направленной на сохранение здоровья пострадавших.

Штрих-код-оперативная машина оптическая метка, содержащая информацию об объекте, к которому она привязана.

Как известно, QR-код использует 4 стандартизированных режима кодирования (числовое, буквенночисловое, двоичное и кандзи) для эффективного хранения данных, могут также использоваться расширенно.

Система QR-код стала весьма популярной благодаря возможности быстрого считывания и большой емкости по сравнению со штрихкодовыми стандартами ИРС.

QR-код состоит из чёрных квадратов, расположенных в квадратной сетке на белом фоне, которые могут считываться с помощью устройств обработки изображения.

До заполнения QR-кода определяют версию кода и кодировки, а также уровень коррекции ошибки.

Основное достоинство QR-кода-это лёгкое распознавание текста сканирующим оборудованием, что дает возможность его использования в образовании для повышения уровня осведомлённости по определенным проблемам и принятия необходимых мер.

Выше мы уже отмечали, что QR-код может нести необходимую информацию об оказании доврачебной медицинской помощи, которую могут осуществлять старшеклассники и другие лица, оказавшиеся на месте чрезвычайного происшествия (землетрясения, наводнения, урагана, несчастного случая и т.д.).

Нами осуществлена разработка QR-кода, вмещающего до 7000 цифр и букв, которая быстро считывается мобильными устройствами.

Считывающее устройство распознаёт стандартный QR-код по трем квадратным меткам, расположенным по его углам путём применения смартфона или цифровой камеры, у которых QR-сканер встроен в камеру.

При этом следует открыть на своём устройстве сканер QR-кодов, навести камеру на QR-код и расшифровать информацию, которая мгновенно появляется на экране и может быть напечатана на любом носителе.

В контексте сказанного, старшеклассники, оказавшиеся в подобных ситуациях (наводнение, землетрясение, оползни, ураганы и др.), должны проявлять максимум собранности и принимать оперативные решения по преодолению последствий влияния стихийных бедствий. Эффективное решение всех возникающих проблем, оказание первой доврачебной помощи, реализация проблем физического и психического здоровьесбережения возможно при владении технологиями QR-кода, интенсивно развивающимися в последнее десятилетие.

Лица, оказавшиеся на месте стихийных бедствий, с помощью смартфона, в котором предварительно записан в виде QR- кода алгоритм действий первой доврачебной, а также первой медицинской помощи пострадавшим, могут воспользоваться этой сжатой информацией: при кровотечении, при открытых и закрытых переломах, при сотрясении мозга, при ушибах и повреждении тканей, при потере сознания и шоковом состоянии, при остановке сердца, необходимости применения приёмов искусственного дыхания, при травматическом шоке и т. д.

Вместе с тем может быть получена экспресс-информация с QR-кода об оказании психологической,социальной, здоровьесберегающей помощи при визуализации информации через сканер смартфона. Следует отметить, что данная технология может быть успешно использована после непосредственного воздействия чрезвычайных ситуаций на этапе реабилитации, позволяющяя путём кодирования в QR-коде сообщений медиатекстов о здоровьесберегающих технологиях, медицинском и психологическом консультировании пострадавших для преодоления последствий нарушения здоровья в результате катастроф и масштабных несчастных случаях.

Использованная литература:

1. Намазов Т.Б. Социально-педагогические основы формирования ЗОЖ у учащихся старших классов общеобразовательных школ. Таджикистан Душанбе. Автореф.дисс. канд.пед. н. 2012.

2. Карабашева А.Д. Формирование здоровьесберегающих компетенций. у старшеклассников общеобразовательной школы. Автореф.дисс. канд. пед. н.Карачаевск-2009.

3. Акимович Е.В.Кризисные коммуникации органов государственной власти в условиях природной катастрофы Афтореф. дисс. док.пед. н. Санкт-Петербург-2017.

Якубжон ФАХРИДДИНОВ,
Гулистанский государственный университет, преподаватель

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИАГНОСТИКИ ПОДГОТОВКИ ПРОФЕССИОНАЛОВ

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning oliy ta'lim tizimida o'qitish va amaliyotga o'tishi, mutaxassisliklarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, sog'lig'ini har tomonlama mustahkamlash va saqlash va kasbiy tayyorgarlikni oshirish qanday qilib davr talabiga aylanganligi muhokama qilinadi. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini diagnostikasi, ushbu vazifani amalga oshirish tizimning ilmiy, nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishni talab qiladi. Mustaqil fikrlash, muvaffaqiyatga intilish, ijodiy kommunikativ, sezgirlik kabi kelajakdagi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga qo'yiladigan talablarni diagnostikasi jarayonining ilmiy-nazariy asoslari va usullari, yo'nalishlari, zaruriyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ma'lumot, mutaxassis, talaba, diagnostika, metod, metodika, vazifalar, o'qituvchining maqsadi, insoniy fazilatlar, qadr-qimmat, daraja, mezon, o'lchov, kasbiy shakllanish, shaxsiyat, barkamol avlod, pedagogik faoliyat, samaradorlik, natija.

В данной статье речь идёт о том, как обучение и стажировка студентов в системе высшего образования, успешное освоение ими специальностей, укрепление и поддерживание их здоровья по всем параметрам, повышение уровня профессиональной подготовленности стали требованием времени. Диагностика профессиональной подготовленности будущих специалистов, выполнение этой задачи требует изучение научно-теоретических и практических аспектов системы. Раскрыты научно-теоретические основы и методы, направления, необходимость процесс диагностики требований при профессиональной подготовки таких будущих специалистов, как самостоятельно мыслящих, стремящихся к успеху, творческие коммуникативные, отзывчивые.

Ключевые слова. Высшее образование, специалист, студент, диагностика, метод, методика, задачи, цель преподаватель, человеческие качества, достоинство, уровень, критерий, мера профессионолное формирование, личность, гармонично-развитое поколение, педагогическая деятельность, эффективность, результат.

In this article, how the training and practicum of students in the higher education system, the successful development of their specialties, the strengthening and maintenance of their health in all parameters, and the increase in the level of professional readiness have become a requirement of the time. Diagnostics of professional training of future specialists to perform this task requires the study of scientific, theoretical and practical aspects of the system. The need to diagnose the professional training of future specialists in the higher education system is determined by the state, society and employers who are able to think independently, strive for success and build an independent trajectory of individual development set by society in the educational sphere. and the management process. responsive, creative, communicative, describes the process, methods, directions and scientific and theoretical foundations of the diagnosis of the implementation of the requirements of graduate training.

Key words. Higher education, specialist, student, diagnosis, method, method, task, goal, teacher, student, qualities, attributes, degree, criteria, measure, professional development, personal maturity, pedagogical activity, effectiveness, result.

В системе высшего образования обязательным стал период обучения и подготовки студентов, успешного овладения ими специальностями, укрепления и поддержания их здоровья во всех отношениях, повышения уровня подготовки к профессиональной деятельности. При выполнении этой задачи диагностика подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности требует исследования научно-теоретических, практических аспектов системы.

В системе высшего образования потребность в диагностике подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности видится в том, чтобы выполнить требование подготовки творческой, коммуникативной, выпускающей личности, отвечающей требованиям государства, общества и работодателей, являющейся самостоятельно мыслящим, стремящейся к достижению успеха и способной выстраивать путь самостоятельного индивидуального развития, заложенные диагностические методы, остикностик-технологии помогают им достичь личностного и профессионального успеха.

В системе высшего образования совершенствование диагностики подготовки студентов к профессиональной деятельности создает условия для повышения качества образования.

В рамках нашего исследования представляется возможным рассмотреть проблемы организации образования в системе высшего образования на основе диагностического подхода, направленного на повышение качества перспективных инновационно-технологических и образовательных технологий, развитие и формирование у студентов личностных, профессиональных качеств, творческого и критического мышления, подготовку здравомыслящего подрастающего поколения к будущей жизни. Здесь подготовка будущих специалистов к профессиональной деятельности служит повышению качества эффективности образования за счет совершенствования диагностики.

В настоящее время реализация диагностических проектов образовательного процесса является одной из приоритетных задач, требует творческого подхода к формированию и отбору содержания образования, формированию профессиональных знаний, более широкого изучения проблем совершенствования подготовки к профессиональной деятельности, целей развития способностей студента в процессе подготовки к профессиональной деятельности. Эта задача может быть решена путем развития профессионально-формирующей деятельности студентов на основе совершенствования диагностики профессиональной готовности специалистов.

Концепция профессионального становления была описана Н.А. Муслимовым, М.Х. Усманбаевой следующим образом: “Профессиональное становление является одним из важных аспектов зрелости личности и выражает потребности и интересы личности только в отношении выбора трудовой и профессиональной деятельности. Общее развитие выражает комплекс всех потребностей, его существование, систему отношений по отношению к самому себе”.

Ряд продуктивных концепций деятельности личности и методологический подход к ее изучению были разработаны К.А. Абульхановой-Славской, Б.Г. Ананьевым, В.В. Давидом, В.И. Зинченко, В.В. Знаковым, Е.П. Ильиным, Т.В. Карсаевской, С.Л. Рубинштейном и др.

Деятельность – это специфическая форма общественно-исторической жизни людей, заключающаяся в целенаправленном преобразовании природного и социального бытия людей. Субъект берет цель, средство, процесс преобразования

и его результат, чтобы включить любую деятельность, которую осуществляет. При выполнении деятельности субъект изменяется и серьезно развивается.

Теория структуры деятельности, основанная В.В. Давыдовым, А.Н. Леонтьевым и др., была продолжена В.С. Ледневым, была разработана его уникальная структура, которую он назвал “инвариантной”. В.С. Леднев предложил оставить два крупнейших базиса человеческой деятельности, то есть в зависимости от инвариантных и морфологических организаторов. Когда инвариантные организаторы говорят – понимается “реально несуществующие компоненты той или иной формы деятельности, которая четко выражает желаемый вид деятельности”. “Что касается морфологических типов человеческой деятельности – это форма реально существующей и относительно самостоятельной деятельности в общественной жизни”.

В соответствии с системным подходом В.С. Леднев отмечал, что выделенные им инвариантные и морфологические проявления деятельности представляют собой сложные взаимосвязи и корреляции. Основной тип их взаимодействия основан на целостности человеческой деятельности в целом, то есть каждый инвариантный аспект индивидуальной деятельности, выделенный автором, не существует, кроме других, а лишь выражает проекцию человеческой деятельности, ее индивидуальный аспект.

В.Д.Щадриков трактовал сущность трудовой деятельности следующим образом: “Труд – это такой процесс, в котором, во-первых, человек непосредственно выражает в нем свою личную активность. Она уравновешивает, регулирует обмен веществ между собой и природой”. В.Д. Щадриков предложил выход трудовой деятельности в зависимости от единства следующих трех аспектов: “прогностический-результативный” (“как процесс, посредством которого происходит заранее спланированное изменение предмета труда с помощью орудий труда человека”); физиологический (как функция человеческого организма); психологические (как реализация сознательной цели, воли, внимания специалиста, проявление интеллектуальных свойств и т.д.). Поэтому трудовая деятельность – это индивидуально-личностная деятельность, эффективная организация которой неразрывно связана с уровнем профессионального становления личности, то есть важна подготовка будущих специалистов к профессиональной деятельности в вузе.

1. Профессиональная мотивация-увеличение потребностей человека, усложнение его деятельности и уменьшение возможностей и мотиваций в связи с научно-техническим прогрессом, формирование профессиональной мотивации в учебном процессе;

2. Формирование профессиональной компетентности – необходимо достижение профессионального становления во взаимной интеграции отдельных компонентов процессов, развивающих потребность, связанную с профессиональной компетентностью, ответственным и творческим подходом к ней, воспитанием мотивации труда, а также профессиональной направленностью, направленной на специализацию;

3. Формирование профессиональных творческих способностей – формирование физиологической, психологической и физической подготовленности личности на основе профессиональной подготовки студента, специальных теоретических знаний, практических умений и навыков, а также приобретение нравственных и духовных профессиональных качеств, уверенности в своих знаниях и интеллекте

самостоятельно, творческого профессионального мышления.

Профессиональное становление студента системы высшего образования как специалиста проявляется в образе процесса по своей сути. Профессиональная зрелость начинается в критические периоды онтогенеза человека от момента обретения профессионального совершенства, принятия решения о развитии идеи (14-17 лет)до процесса завершения профессиональной деятельности (55-60 лет). Становление и развитие творческой личности зависит от взаимной совместимости изменений его внутреннего и внешнего мира, социально-экономических условий, а также от онтогенеза человека, который продолжается от рождения до конца его жизни, от содержания деятельности, которое диктует преемственность.

Успешность специалистов зависит от формирования большего количества профессиональных качеств и особенностей, и “измерение” процесса развития этих качеств с помощью конкретных методов играет важную роль в педагогике. Все изменения, происходящие в студенте для систематического осуществления образовательного процесса, диагностируются педагогом, обеспечивающим гарантированное достижение запланированных результатов путем целенаправленного педагогического воздействия на процесс формирования и развития в нем нравственных и духовных качеств.

Профессиональная подготовка студента представляет собой сложную проблему, особенно для определения уровня воспитания профессионально-духовно-нравственного характера, которая еще не нашла своего полного решения в педагогической науке. Педагогическая наука уделяет больше внимания определению критериев с целью “измерения” профессионального образования студентов. В настоящее время исследования, направленные на изучение уровня образования, определение и анализ полученных результатов, не дают полной возможности получить точные результаты и извлечь точную сводку этой проблемы.

Слово диагностическое (в переводе с греческого “диа” – прозрачный и “озозис” – знание) – означает общий способ получения заранее ожидаемой информации об изучаемом предмете или процессе. Когда мы говорим диагностика, мы понимаем изучение функционирования организма, машины или любой сложной системы.

Термин “педагогическая диагностика” впервые был введен в науку в 1968 году немецким ученым Карлхайнсом Ингенкампом. Клауер (Германия), Б. Бурк, Ролле (Англия), С.Д. Смимова, И.В. Дубровина (Россия) и ряд других ученых отметили тот факт, что педагогическая диагностика родилась под термином “психологическая диагностика”, конечно, являющееся неуместным. Когда-то психологическая диагностика как шаблон для диагностических моделей биологии и медицины, а также педагогическая диагностика, при необходимости, использовали на ее месте методы психологического исследования. Анализ педагогической, психологической, социологической литературы показал, что существуют различные взгляды на диагноз. Это диагностика педагогической личности (самодиагностика), диагностика студенческого сообщества родителями, воспитателями; диагностика деятельности образовательного учреждения методистами администрации, ответственными специалистами и отделами образования и др.

Педагоги должны учитывать индивидуальные особенности каждого учащегося в процессе своей деятельности и осуществлять национальную идею с учетом основных принципов и требований в духовном воспитании личности. А для этого необходимо, чтобы образовательный процесс в высших учебных заведениях был

организован на основе специальных учебно-методических программ, в логической последовательности.

Цель педагогической диагностики в вузе-подготовить студентов к будущей профессиональной жизни, научить их быть самостоятельными, уметь правильно вести себя в социальной среде, деятельности и помочь им планировать свою деятельность на ближайшее будущее в соответствии с намеченной целью, сформулировать необходимость стремиться к совершенству, при необходимости выявить факторы.

Независимо от условий, в которых проводится подготовка, диагностика эффективности подготовительного процесса должна быть направлена на следующие цели:

– внутренняя и внешняя таксономия, когда результат обучения недооценивается;

– определить неадекватность образования;

– подтвердить успешные результаты обучения;

– планирование следующих этапов образовательного процесса;

– успех обучения и воспитания приведет к появлению мотивации через поддержки и направленности на следующий сложный шаг;

– улучшение образовательных и воспитательных условий.

В образовательном процессе каждая педагогическая деятельность будет состоять из следующего алгоритма действий с технологической точки зрения:

1. Определить цели и задачи дачи профессиональных знаний студентам.

2. Планируйте поэтапное осуществление образовательной деятельности.

3. Плановое, регулярное последовательное осуществление мероприятий.

4. Анализ и оценка результатов проделанной работы.

5. Поставленная цель достигается путем постановки новых задач и инициирования их реализации.

В заключении, после определения объекта и основных направлений диагностики подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности, необходимо будет определить критерии оценки сформированности нравственных качеств, социальных и профессиональных качеств у студента. Такие критерии, как учебно-воспитательная работа, проводимая со студентами, педагогическая деятельность, в каких условиях она осуществляется, формы и методы, выбранные для учебно-воспитательного воздействия, технологии и, что немаловажно, в результате этих воздействий, дали возможность определить позитивные изменения, происходящие в поведении, ценностях и мировоззрении студентов, а также педагогическом статусе профессоров и преподавателей. Мы продолжим наши исследования в наших следующих статьях.

Использованная литература:

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сейфуров Д.М., Тураев А.Б. Инновационные образовательные технологии –Т.: Издательство Сано стандарт, 2015. – С. 81.; Сборник кейсов для вузов по предметам гуманитарного и социально-экономического циклов/методическое пособие. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета экономики и управления, 2015. – С. 3.

2. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. –М.: МЫСЛЬ, 1991. – С. 10.

3. Ананьев Б.Г. Человек как предикат познания. СПб., 2001. – С. 351.

Ситора ХОЛБОЕВА,
Самаркандский государственный университет,
преподаватель кафедры "Педагогика"

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ В ОСОБОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЕ

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'p millatli muhitdagi ta'lim jarayonining xususiyatlari va ikki talabalikning qiz talabalar o'rtasida oilaviy qadriyatlarning shakllanishiga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Oila, hurmat, turmush o'rtoqlarning munosabatlari, o'qish va oilaning muvofiqligi.

В данной статье рассматривается вопросы особенности воспитательного процесса в многонациональной среде и воздействия билингвизма на формировании семейных ценностей студенток.

Ключевые слова. Семья, уважение, взаимоотношение супругов, совместимость учебы и семьи.

This article examines the issues of the peculiarities of the educational process in a multinational environment and the impact of bilingualism on the formation of family values among female students.

Key words. Family, respect, relationship of spouses, compatibility of study and family.

Роль женщины в каждой сфере общества неоценим и год за годом это отмечается обществом все чаще и чаще. Поздравительное слово президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева на 8-Марта 2020 года еще раз подтверждает востребованность социальной активности женщин и их незаменимость в обществе. Глава страны отмечает огромную роль женщины в развитие культурного, духовного и интеллектуального развития общества в целом и в том числе нашего: "В последние годы в нашей стране приоритетом государственной политики стало обеспечение прав и интересов женщин, гендерного равенства, охрана семьи, материнства и детства, развитие женского предпринимательства, создание для женщин рабочих мест, улучшение условий их жизни и труда".[1]

По проведенному опросу на первом курсе незначительная часть студенток-девушек имеют семью. К старшим курсам уже 70-80 процентов студенток выходят замуж. Это приводит к тому, что столь важный период жизни, добрачное поведение проходит в процессе учебы. Проблема психологии добрачного поведения девушек и юношей имеет большое значение с точки зрения крепости семьи. В этот самый короткий отрезок времени сформируется множество жизненных установок девушек. Незрелость, выступающих в брак сказывается на прочность семьи: вот здесь и корень роста разводов молодых семей, неполных семей, где успели родиться дети. По законы цепочки это уже чревато последствиям. На процессе социализации детей неполных семей оказывается негативное влияние. Особенно этот процесс сильно выражается втрадиционных обществ, где процесс

[1] Шавкат Мирзиёев "Поздравление 8-Мартом женщин Узбекистан" 2020 г.

вступления в брак обусловлен традициями, в том числе этническими. В своей работе ‘‘Этнопсихические особенности подготовки девушек к семейной жизни в Азербайджане’’ Гулиева Ш. М. поднимает вопрос этнической идентификации с психологической стороны. Установки на создание семьи, количество детей в будущей семье, налаживание взаимоотношений между супругами и с другими родственниками имеет своеобразное выражение в социально-психологических установках, мотивации, эмоционально-образном мире того, кто готовится к вступлению в брак. Современная молодежь, по словам автора, формирует свои духовно-нравственные представления в сложной атмосфере взаимодействия общепланетарных и локальных изменений в общественных отношениях. Проведенное исследование исследователя показало, что структура ценностей у девушек-студенток в исследуемом обществе изменились в сторону потребностей признания и самовыражения, что отражается на их добрачном поведении.[2]

Выше указанное нам говорит о том, что семейная педагогика имеет большой весь в подготовке девушек-студенток к семейной жизни и место вузе в данном случае велик как особая многонациональная среда. И разработка в этой научной сфере имеет практическую ценность. В данном направлении посвящали свои труды такие российские ученые как А.С Макаренко, обращался к вопросу о коллективе детей в семье, К. Д. Ушинский, Л.Н Толстой. Из современных исследователей обращались к семейной педагогике Ю.Е. Алешина, Л.Я. Гозман, Е.М. Дубовская, А.Н. Елизаров, В.Э. Войцехович больший упор делали на морально-нравственную, духовную сторону развития семьи, социализации личности.[3]

Функция семьи, которая заключена в привитии этнопсихических и духовно-нравственных ценностей, в таком положении ослабевает. К тому причина вышеупомянутое воздействие извне, влияние массовой культуры. Следует отметить, что значительно выше влияние массовой культуры, нежели чем этнопсихическая пестрота общественной картины. Источник проблем в таком положении для семьи могут быть разнохарактерными: материальные, социальные.проблемы, связанные со здоровьем, с местом проживания, с внутрисемейными конфликтами и обучением детей. Сюда также следует отнести вопросы материального обеспечения малообеспеченных семей. Есть проблемы, которые также отражаются на семейной обстановке. Это селективные аборты, которые производятся до сих пор. В семье принимается во внимание позиция мужа и его родителей в определении пола будущего ребенка. Предпочтения и ценности, которые они поддерживают, приводят к тому, что путем абортов регламентируется пол будущего ребенка. Пути решения этих проблем самые разнообразные, и от этого зависит характеристика добрачного поведения девушек в семье[4], для будущего семейного благополучия следует провести комплексную работу по:

– формированию духовно-нравственных ценностей;

– регулярная просветительская работа по семейным делам и проблемам среди студенток в вузе.

Следует отметить совместность данной работы с махаллей. Если уточним,

[2] https://cyberleninka.ru/article/n/Этнопсихологические особенности подготовки девушек к семейной жизни в Азербайджане.

[3] М.В., К. (26 сентябр 2020 г.). Вопросы семейного воспитания в истории русской и зарубежной педагогики. Молодой учёный, С. 27-29.

[4] М., Г. Ш. (26 сентябрь 2016 г.). Этнопсихологические особенности подготовки девушек к семейной жизни в Азербайджане. Cyberleninka, С. 202-205.

то женский коммитет по вопросам семьи должен просветить о семейных делах, проблемах девушек-студенток в вузе. Ознакомление с разными проблемами в семьях и поиск путей их решения является важным практическим составляющим в создании понятий о брачных вопросах у молодежи. В последние десятилетия наблюдаются негативные тенденции в брачно-семейных отношениях среди молодежи: ухудшается нравственнопсихологический климат в молодежных семьях; растет число разводов; наблюдается отрицание большинством молодых семей совместного проживания со старшим поколением; происходит преобладание профессионально-карьерных ценностей над семейными; наблюдается распространение разнообразных форм брака, в том числе гражданского. Можно сделать вывод о том, что хотя для молодежи ценность семьи осознается значимой, в то же время в жизни она не всегда является смысложизненным ориентиром. Существующее противоречие указывает на необходимость организации целенаправленной подготовки молодежи к социальной роли семьянина и родительству.[5]

Главной проблемой современности в семейных вопросах остается ценностная ориентация молодежи. Под ценностной готовностью молодежи к семейной жизни понимается система социально-психологических установок личности, определяющая эмоционально-психологическое отношение к семейному образу жизни, ценностямьсупружества. Мотивационно-ценностная готовность к семейной жизни на высшем уровне проявляется в гуманистической направленности личности. Критериальными показателями её наличия являются: осознание семьи как ценностного социального института, личностное осмысление ценностей семьи и брака, признание значимости внутрисемейного общения, принятие творческого характера поведения семьянина, личностный смысл ценности родительства.[6] В данном случае важный смысл приобретает работа с родителями с тем, чтобы запустить процесс культивирования преемственности ценностей. Этот процесс будет эффективным, если начинать целенаправленную подготовку с будущих родителей. Уверенность молодежи в своей готовности к семейной жизни – это важная характеристика их социальной зрелости. Приподготовки молодежи к семейной жизни синтезирует различные аспекты воспитания и имеет особый психолого-педагогический смысл. Юность – возрастной этап, непосредственно предшествующий супружеству. Поэтому недостаточная готовность молодежи к созданию семьи является одним из факторов, ведущих к ослаблению супружеских отношений. В современных условиях подготовка молодежи к семейной жизни не носит систематического характера и происходит в основном стихийно. Обучение в вузе является важным периодом в жизни молодежи, в котором происходит не только профессиональное становление, но и завершается личностное самоопределение.

Использованная литература:

1. М., Г. Ш. (26 сентябрь 2016 г.). Этнопсихологические особенности подготовки девушек к семейной жизни в Азербайджане. Cyberleninka, С. 202-205.

2. М.В., К. (26 сентябр 2020 г.). Вопросы семейного воспитания в истории русской и зарубежной педагогики. Молодой учёный, С. 27-29.

[5] С.М. Усманова, Т.А. Черник. (26 сентябрь 2020 г.). ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К СЕМЬЕ. https://docplayer.ru/27616113-Formirovanie-cennostnogo-otnosheniya-studentov-k-seme-v-obrazovatelnoy-srede-vuza.html.

[6] И., З. (2006). Семьеведение. –М.: ВЛАДОС.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV. Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Qarshiboyeva Hilola Murtazayevna

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2021.